

74.00

p 36



PEDAGOGIK AKSIOLOGIYA



CH0000035620

ТОШКЕНТ

74.00
P 36


O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS
TA'LIM VAZIRLIGI

NIZOMIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT
PEDAGOGIKA UNIVERSITETI

PEDAGOGIK AKSIOLOGIYA

(O'QUV QO'LLANMA)

*O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi
tomonidan oliy ta'lim muassasalarining 5110900 – pedagogika va
psixologiya bakalavriat ta'lim yo'nalishlari uchun o'quv qo'llanma
sifatida tavsiya etilgan.*



929313

TOSHKENT – 2013

UO'K: 37.015.3
KBK 63.3 (0)2ya73
M-11

M-11 Pedagogik aksiologiya. (o'quv qo'llanma) –T.: «Fan va texnologiya», 2013, 184 bet.

ISBN 978–9943–10–962–9

Mazkur o'quv qo'llanma oliy ta'lim muassasalarining pedagogika va psixologiya bakalavriat yo'nalishida tahsil oluvchi talabalari uchun mo'ljallangan bo'lib, kitobda pedagogikaning yangi sohalaridan biri – pedagogik aksiologiya fanining shakllanishi, tarixiy tadrijiy, fanni o'rganishning o'ziga xosliklari, zamonaviy aksiologik yondashuvlar, pedagogik aksiologiyaning asosiy tushunchalari, pedagogik qadriyatlar va ularning tasnifi kabi masalalar yoritilgan.

O'quv qo'llanma «M1-XT-O-11141 – O'qituvchilar malakasini oshirishning innovatsion-qadriyatli yo'nalishlari» innovatsion loyihasi doirasida yaratilgan.

UO'K: 37.015.3
KBK 63.3 (0)2ya73

Tuzuvchilar:

Sh.Mardonov, B.Xodjayev, Sh.Taylanova, D.Xojimuxamedova.

Mas'ul muharrir:

A.S.Kaldibekova – professor.

Taqrizchilar:

E.O.Turdiqulov – pedagogika fanlari doktori, professor;
N.M.Egamberdiyeva – pedagogika fanlari doktori, professor

ISBN 978–9943–10–962–9

© «Fan va texnologiya» nashriyoti, 2013.

SO‘Z BOSHI

Zamonaviy pedagogika fanining asosiy tendentsiyasi – uning shaxsni «anglash», o‘z dunyoqarashiga asoslanishga e‘tibor qaratganligidir. Bu esa, zamonaviy pedagogik amaliyotning muhim jihatiga aylandi. Pedagogika va inson amaliyotida insonparvarlik an‘analarining rivojlanishi, uning hayotiy faoliyat jarayonida o‘z oldiga qo‘ygan muhim vazifalarni o‘zida aks ettiradi.

Inson hayoti har doim bo‘lib o‘tgan voqealarni baholash, vazifalarni qo‘yish, izlash, xulosalar qabul qilish, dunyoqarash vaziyatlarida kechadi. Bunda uning atrof-muhit bilan munosabatlari ikkita farq bilan o‘zaro bog‘liq: amaliy va abstrakt-nazariy (bilish).

Bundan kelib chiqadiki, pedagogika metodologiyasi ta‘lim falsafasiga haqiqiy insonparvarlikning mohiyati, borliqning yangilanishi va pedagogik bilish haqidagi nazariy qoidalar yig‘indisi sifatida qaraydi. Bunday metodologiyaga muvofiq, fanlarning, shu jumladan, pedagogikaning insonparvarlik mohiyatidan kelib chiqadigan vazifasi o‘zida insonga bilish, muloqot, ijod subyekti sifatida yondashishni aks ettiradi.

Bizga ma‘lumki, ilmiy bilish, shuning barobarida pedagogik bilish, faqatgina ijodkorliknigina emas, ijtimoiy ehtiyojlarni to‘la qondirish maqsadini ham ro‘yobga chiqaradi. Nazariy va amaliy bilish orasidagi «ko‘prik» vazifasini aksiologik yoki qadriyat sifatidagi yondashuv bajaradi.

Aksiologiya (yun. «axio» – qadriyat va «logos» – fan, ta‘limot) – qadriyatshunoslik; qadriyatlar haqidagi fan. XIX asrning ikkinchi yarmida nemis qadriyatshunosi E.Gartman va fransuz olimi P.Lapilar tomonidan fanga kiritilgan.

Aksiologik yondashuv insonparvarlik pedagogikasining uzviy o‘ziga xosligi bo‘lib, barcha odam unda jamoaviy rivojlanishning maqsadi va jamiyatning oliy qadriyati sifatida qaraladi. Shuning uchun aksiologiyaga (tabiiy qadriyatlar haqidagi (nazariy) falsafiy

nazariyalar) yangi ta'lim falsafasi sifatida va zamonaviy pedagogika metodologiyasiga uyg'un tarzda qaraladi.

Aksiologik fikrlash markazida dunyodagi voqea-hodisalarning o'zaro ta'siri va o'zaro bog'liqligi konseptsiyasi turadi. U tasdiqlaydiki, bizning dunyo – bu butun insoniyat dunyosi, shuning uchun umumiylikni ko'ra bilish lozim, faqatgina insoniyatni birlashtirib qolmay, balki har bir alohida shaxsni tavsiflaydi. Insondan tashqaridagi ijtimoiy taraqqiyotni qarash – uning insonparvarlik poydevoridan alohida fikrlashi demakdir. Aynan, ana shunday tarzdagi fikrlash zamonaviy jamiyat taraqqiyoti global tendensiyada insonparvarlik kasb etadi, umuminsoniy qadriyatlarni ma'qullashi uning mazmunini tashkil etadi.

Pedagogik aksiologiya asosida inson hayoti, tarbiya va ta'lim, pedagogik faoliyatning inson hayotidagi ahamiyatini tushunish va qaror toptirish yotadi. Ta'limni inson turmushi uchun asosiy qadriyat, deb asoslash pedagogik bilimlar taraqqiyotini barcha bosqichlarida o'z o'rniga ega. U o'zaro aloqadorlik – jamiyat va inson o'rtasida muhim ahamiyat kasb etadi. Aynan, ular ta'limning qadriyat statusini belgilab berishadi. Ta'limni insonparvarlashuvi g'oyasi, pedagogikada aksiologik yondashuvni qo'llash esa, o'zida katta falsafiy-antropologik, ijtimoiy-siyosiy xususiyatni aks ettiradi.

I BO'LIM PEDAGOGIK AKSILOGIYANING MAZMUNI VA MOHIYATI

I bob. PEDAGOGIK AKSILOGIYA – PEDAGOGIKANING MUSTAQIL SOHASI SIFATIDA

Tayanch tushunchalar: pedagogik aksiologiya, madaniy rivojlanish, ta'lim, qadriyat, mazmun, funktsiya.

Pedagogik aksiologiya tushunchasi. Bizning davrimizda ta'limiy qadriyatlar, ularning tabiati, funksiyalari, o'zaro aloqadorligi haqidagi pedagogikaning yangi sohasi – pedagogik aksiologiya rivojlanib bormoqda. Chunki zamonaviy jamiyat ta'limni o'quvchilarning bilim, ko'nikma va malakalarni egallashining maqsadga yo'naltirilgan jarayoni va natijasi sifatida tushunishdan uzoqlashdi. Ta'lim bu insonda insoniylikni tarkib toptirishdir. Uning asl mohiyati ham ana shunda.

Ta'limning ma'naviyatni tarkib toptirishdagi ahamiyati uni qadriyatli bilimlarni uzatish va uning asosida insonda qadriyatli munosabat, qadriyatli xulq-atvorni shakllantirishda ekanligini o'z vaqtida Aflotun ham ta'kidlab o'tgan edi. U davlatning asosini qolgan barchasi unga bog'liq bo'lgan yagona birlik aks ettiradi, deb hisoblagan. Bunday asos – oliyjanoblikdir. Olim yuksak oliyjanoblik sifatida hech narsa yaxshilik va yomonlik haqida unday ma'lumot bera olmaydigan bilimni e'tirof etadi. Bilimda qanchalik oliyjanoblik o'z ifodasini topganligini esa ta'lim jarayonida o'rganish mumkin.

Pedagogik aksiologiya inson va ta'limni qadriyat deb e'tirof etgan holda, ta'limiy qadriyatlarni muhokama etuvchi hamda ta'limga aksiologik yondashuvni amalga oshiruvchi pedagogik bilimlar sohasidir.

Pedagogik aksiologiyaning predmeti, maqsad va vazifalari.

Pedagogik aksiologiyaning predmetini shaxsning aksiologik ongi, aksiologik munosabati, aksiologik xulq-atvorini shakllantirish tashkil etadi.

Aksiologik muammolarga doir nazariy manbalardagi qadriyat tushunchasining mohiyatini tahlil etish asosida pedagogik aksiologiya qadriyat tushunchasiga shaxs va jamiyat faoliyatida ideal namuna va yo‘nalishlarni aks ettiruvchi individual va ijtimoiy ongni tashkil etuvchi maxsus ta‘lim sifatida qaraydi. Alohida shaxs yoki jamiyat yaxlitlikda qadriyatlarni uzatuvchisi sifatida qaraladi, nihoyasi esa, insonning xulq-atvori va xatti-harakatini rag‘batlaydi. Xulq-atvor va xatti-harakatlarning tavsifi shaxsning atrof-muhitga, o‘z-o‘ziga munosabati haqida guvohlik beradi.

Falsafadan farqli ravishda pedagogik aksiologiya «qadriyat» va ularni aksiologik ong, munosabat, xulq-atvor deb nomlash orqali «aksiologik» tushunchalarga alohida-alohida qaraydi.

Uni tashkil etish va boshqarishga qadriyatli yondashuvning zaruriyat ekanligidan kelib chiqib, uzluksiz ta‘lim maqsadlarining o‘zgarishi pedagogik aksiologiyaning muhim vazifalari sifatida quyidagilarni aniqlashga imkon beradi:

- qadriyatlar nazariyasi nuqtai nazaridan pedagogika nazariyasi va ta‘lim amaliyotining tarixiy rivojini tahlil etish;
- uning aksiologik yo‘nalganligini aks ettiruvchi ta‘limning aksiologik asoslarini aniqlash;
- milliy ta‘lim mazmuni va rivojlanish strategiyasini aniqlashga doir aksiologik yondashuvni ishlab chiqish.

N.A.Astonovanning «Pedagogik aksiologiyaning kontseptual asoslari» maqolasida pedagogik aksiologiyaning predmeti sifatida shaxsning madaniy munosabatini rivojlantirish e‘tirof etiladi. Maqolada qayd etilishicha, ana shu jihat bilan pedagogik aksiologiyaning funktsiyalari uning o‘ziga xosliklarini belgilashga imkon beradi. Quyida ularni ko‘rib o‘tamiz:

- mazmunli muvofiqlik (ta‘limning mazmunli va protsessual jihatlarini birlashtirganligi sababli, intellektual tashabbusni rag‘batlantiradi) – fikriy jarayon, obyektни aktualashtirish, aniq dalil va

isbotlarni belgilash, axborotni tanqidiy mushohada etish, ma'no-mazmunini tushunish, shaxsiy fikrning o'sishi;

- baholovchi – pedagogik jarayon ishtirokchilarida borliq va ma'naviy hodisalarni adekvat baholashni rivojlantirishni aks ettiradi;

- yo'naltirish funksiyasi – «qadriyatlar ierarxiyasi»ning ma'lum parametrlari asosida shaxsiy, kasbiy tavsifning muhim qoidalarni aniqlash imkoniyatlari bilan bog'liq;

- me'yoriy (normativli) – pedagog va tarbiyachining aksiosferasining tarkibiy qismlari, o'zida qadriyat tarzini aks ettiruvchi ularning o'zaro munosabatlari tizimini «qonuniylashtiradi»;

- boshqaruvchilik – insonparvar mazmunga ega milliy va umuminsoniy qadriyatlar oqimidagi tizim subyektlari, ta'lim tizimi rivojlanishini yo'naltiradi, ta'lim sohasidagi o'zaro zaruriy harakatni hosil qiladi;

- nazorat qiluvchi – madaniy-tarixiylik kontekstida qadriyatning rivoji, shaxsda qadriyatga yo'nalganlikni shakllantirish imkonini beradi.

Pedagogik aksiologiyaning mazmuni. Pedagogik aksiologiyaning mazkur vazifa va funksiyalari ilmiylik, amaliylik, tajriba birligini ifoda etuvchi pedagogik aksiologiya mazmunini ochib beradi.

Ilmiy jihat (aspekt) boshqa barcha ijtimoiy jarayonlarni aniqlab beruvchi, asosiy qadriyat sifatida ta'limni ko'rib chiqish asosida ta'limiy qadriyatlarni o'rganuvchi pedagogikaning yangi ilmiy yo'nalishi – pedagogik aksiologiyaning muammolari bo'yicha ilmiy tadqiqotlar o'tkazishni talab etadi. Bu yerda asosiy vazifalardan biri sifatida aniq shart-sharoitlarni hisobga olgan holda, ta'limni qadriyatli bashoratlarni ilmiy asoslash aks etadi. Aksiologik bilimlarni tizimlashtirish maqsadida pedagogikadagi qadriyatli merosni o'rganish va pedagogik aksiologiyaning kategorial apparatini aniqlash ham kam bo'lmagan vazifa hisoblanadi.

Amaliy jihat o'quv rejalari va dasturlari tuzish, darslik va o'quv qo'llanmalarni yaratish, didaktik va metodik materiallarni ishlab chiqish, ta'lim va tarbiya kontsepsiyasini yaratishda ta'lim

sohasi xodimlarining aksiologik bilimlardan foydalana olishini tahlil etadi.

Tajribaviy(praktik) jihat o'quvchi, talaba, o'qituvchilarning aksiologik ongi, munosabati, xulq-atvorini shakllantirish, ularni aksiologik yo'nalganligini rivojlantirishga doir aniq muammolarini hal etishga qaratilgan ta'lim muassasalari faoliyatini o'z ichiga oladi. Ularning vazifasi hozirgi vaqtda pedagogik aksiologiya nimani taqozo etsa, shularning barchasidan mohirona foydalanishni o'zida aks ettira olishdir.

Amaliy jihatni amalga oshirish to'liq ravishda aksiologik yo'nalganlikning nazariy asoslarini aniqlab beradigan ilmiy jihatni rivojlanganligiga va ta'lim sohasi barcha bo'g'inlari faoliyati yo'nalganligini shakllantirilganligiga bog'liq bo'ladi.

Nazorat uchun savol va topshiriqlar

1. «Pedagogik aksiologiya» tushunchasiga ta'rif bering.
2. Pedagogik aksiologiya fanining predmetini nima tashkil etadi?
3. Pedagogik aksiologiya fanining maqsad va vazifalarini tushuntirib bering.
4. Pedagogik aksiologiya mazmuni qanday jihatlarni o'zida aks ettiradi?

Mustaqil o'qish uchun adabiyotlar

1. Общая педагогика / Под. ред. В.А.Сластенина. В. 2ч. – М.: Владос, 2003. – ч.1.
2. Сластенин В.А., Чижакова Г.И. Введение в педагогическую аксиологию – М.: Академия, 2003.
3. Чужакова Г.И. Лекции по педагогической аксиологии – Красноярск, 1999.
4. Ходжаев Б., Бекмуродова М. Педагогик ходисаларни ўрганишда аксиологик ёндашув: мазмун ва моҳияти. – «Личностно-ориентированное обучение и воспитание на

современном этапе (содержание, формы, методы)» Сборник научно-метод. статей, ч.5. – Т., 2007.

5. Астанова Н.А. Концептуальные основы педагогической аксиологии / ж. Педагогика, №8,2002 г.

6. Горювая В.И. Конструктивная педагогическая аксиология/ж. Педагогика, №4,2007 г.

Mustaqil ish topshiriqlari

1-topshiriq. Pedagogik aksiologiyaning fan sohasi sifatidagi o'ziga xosligini aniqlash maqsadida quyidagi toifalash jadvalini to'ldiring.

Tadqiqot sohasi	Obyekti	Predmeti	Funktsiyalari

2-topshiriq. «Pedagogik aksiologiya fanini o'rganishning zaruriyati shundaki...» mavzusiga asoslangan esse yozing.

Topshiriqni bajarish tartibi:

1. Mazkur mavzu yuzasidan o'z nuqtai nazaringizni bayon eting.

2. Nuqtai nazaringizni asoslash uchun dalillar kiriting.

3. Mavzu yuzasidan aniq xulosalar chiqaring.

3-topshiriq. Quyida keltirilgan fikrlarni pedagogik aksiologiyaning qaysi funktsiyasiga tegishli ekanligiga qarab turkumlanting:

1)pedagogik jarayon ishtirokchilarida borliq va ma'naviy hodisalarni adekvat baholashni rivojlantirish;

2)«qadriyatlar ierarxiyasi»ning ma'lum parametrlari asosida shaxsiy, kasbiy tavsifning muhim qoidalarini aniqlash;

3) insonparvar mazmunga ega milliy va umuminsoniy qadriyatlar oqimidagi tizim subyektlari, ta'lim tizimi rivojlanishi orientatsiyasi;

4) pedagog va tarbiyachining aksiosferasining tarkibiy qismlari, o'zida qadriyat tarzini aks ettiruvchi ularning o'zaro munosabatlari tizimini me'yoriy asoslarini aniqlashtirish.

II bob. PEDAGOGIK AKSILOGIYANING ASOSIY TUSHUNCHALARI

Tayanch tushunchalar: aksiologik ong, aksiologik dunyoqarash, aksiologik yondashuv, aksiologik baholash, aksiologik munosabat, qadriyatli xulq-atvor, qadriyatli ustanovka.

Pedagogik aksiologiyaning asosiy tushunchalari qatoriga quyidagilar kiradi: qadriyat, aksiologik ong, aksiologik dunyoqarash, aksiologik baholash, aksiologik munosabat, qadriyatli xulq-atvor, qadriyatli ustanovka, aksiologik yo'nalganlik, ta'lim, tarbiya.

Qadriyatlar qachonki, insonda aksiologik ong, aksiologik munosabat va ustanovkalar shakllantirilgan sharoitdagina, uning faoliyati va xulq-atvorini mo'ljalga olishga imkon beradi. Aksiologik yo'nalganlik yaxlitlikda shaxsning faoliyat va xulq-atvordagi aniq qadriyatlarga yo'nalganligini aks ettiradi, har bir aniq vaziyatlarda esa shaxs qadriyatli ong va qadriyatli munosabatlarga rahbarlik qiladi.

Aksiologik ong. «Ong», «munosabat», «xulq-atvor» kategoriyalarini psixologiya va falsafa o'rganadi. Ijtimoiy ong, ijtimoiy xulq-atvorni shakllantirish metodlarini esa pedagogika aniqlab beradi.

Falsafada ong odatiy usullar bilan tushuntirish va tadqiq etish mumkin bo'lmagan muhim obyekt sifatida qaraladi. Ong biologik substansiyani aks ettirmaydi; u insonga hayotiy faoliyatni jismu joni doirasida amalga oshirishga imkon beradi; bevosita aloqasiz xilma-xil faoliyat turlariga kirishish, odamlar, madaniy qadriyatlar bilan o'zaro harakatida yuzaga chiqadi. Ya'ni, ong tufayli inson nafaqat aniq, balki mavhum muhitda ham yashay oladi.

Keng ma'noda «ong» inson hayotining muammosi va ijtimoiy jarayonlarning muammoliligini aks ettirish usullari sifatida izohlanadi.

Aniqroq qilib aytganda esa, ong deganda faqat insonga xos obyektiv borliqni aks ettirishning oliy shakli; uning dunyoga va o'z-o'ziga munosabat usuli; insonning obyektiv dunyo va shaxsiy hayoti mazmunini anglashida faol ishtirok etuvchi psixik jarayonlar birligi tushuniladi.

Inson falsafada ong tashuvchisi sifatida qaraladi. Inson hayotining maqsadi shaxsiy ongni yaratish, ya'ni o'z dunyosini anglashni aks ettiradi. Ong o'zida yuksak qadriyatni aks ettiradi. «Ong» tushunchasi (lotinchadan tarjima qilinganda conscire – bilish, xabardor bo'lish degani) ongsiz va ong osti holatdan farqli ravishda, o'zida ruhning o'rnini anglash uchun qo'llaniladi.

Falsafada ijtimoiy ong va individ ongi farqlanadi. Ijtimoiy ong deganda, uning iqtisodiy, siyosiy, ijtimoiy hayotini aks ettiruvchi jamiyat rivojining ma'naviy natijasi tushuniladi. Individ ongi esa, o'zida uning ichki ma'naviy dunyosini aks ettiradi. Bundan tashqari, u individning o'zidagi ijtimoiy aloqalarni ham qayd etadi (soznanie) – hamkorlikdagi bilish).

Aksiologik ong – axloqiy-ma'naviy tarzda o'z hayotiy faoliyati sohasi subyektlarini aniqlashga imkon beruvchi obyektiv borliqni aks ettirish shakli; ma'naviy qadriyatlar dunyosi sifatida borliqni aks ettirish asosida insonda dunyoni va o'zining shaxsiy dunyosini anglashida faol ishtirok etuvchi psixik jarayonlar birligi.

Aksiologik ong ijtimoiy ongning maxsus shakli bo'lib, pedagogik voqelik va hayotni qadrlash tuyg'usi asosida o'ziga xos tarzda aks etadi. Unga asoslangan munosabat, yondashuv, amaliyot va faoliyat ham boshqalardan farq qiladi.

Aksiologik ong o'z navbatida aksiologik hissiyot, idrok, qadrlash tuyg'usi, aksiologik kechinmalar, qadriyat mazmunini ifodalaydigan tushuncha, xulq-atvor va tafakkur bilan uzviy bog'liq. Kimdadir aksiologik idrok va qadrlash tuyg'usi boshqalardan ko'ra kuchli bo'lsa, uning qalbida qadrlash tuyg'usi bilan bog'liq hissiyot ko'proq namoyon bo'lishi mumkin. Bunday kishida muayyan qadriyatni qadrlash bilan bog'liq mas'uliyat va unga asoslangan faoliyat ham boshqalarga qaraganda yaqqolroq ko'zga tashlanib turishi tabiiy.

Aksiologik bilishda qadrlash tuyg'usi va aksiologik idrok muhim ahamiyat kasb etadi. «Qadrlash tuyg'usi» aksiologik ongning eng asosiy komponentlaridan biri bo'lib, tabiiy va ijtimoiy hodisalarning qadrini anglash, zavq olish, lazzatlanish, mas'uliyat hissini sezish kabilarda namoyon bo'ladigan tushunchadir. Olam va odam o'z ahamiyati bilan qadrlidir. Olamdagi voqea, hodisa va jarayonlar odamlar uchun qadrlash tuyg'usini uyg'otuvchi asosdir.

Shu ma'noda, obyektiv voqelikka, uning namoyon bo'lish shakllari, ko'rinishlariga bevosita va bilvosita bog'liq bo'lmagan qadrlash tuyg'usi hamda uning mutlaq subyektiv xususiyat ekanini e'tirof etish qiyin. Zero, qadrlash uchun qadrlanadigan «nimadir», ya'ni moddiylik yoki ma'naviylik bo'lmog'i, qadrlash tuyg'usini uyg'otish uchun esa ana shu tuyg'uning vujudga kelishi uchun sabab bo'ladigan «obyekt» bo'lmog'i lozim. Shu ma'noda, olam, odam va hayot deb atalmish serqirra ma'volar qadrlash tuyg'usini shakllantiradigan asosiy mezonlardir.

Aksiologik dunyoqarash – ijtimoiy dunyoqarashning o'ziga xos tarkibiy qismlaridan biri sifatida, kishilarning voqelikka qadriyatli munosabati va faoliyatining yo'nalishini belgilaydigan aksiologik qarashlar, tamoyil va maslaklar majmuasi. Dunyoqarashning aksiologik shakli qadriyatli yondashuv, aksiologik munosabat, aksiologik baholash kabilarni qamrab oladi.

Aksiologik yondashuv. Pedagogik voqelikni o'rganishda ilmiy bilishning boshqa usullari bilan birga aksiologik yondashuv ham katta ahamiyat kasb etadi. Ilmiy bilishda olam, undagi narsa, voqea, hodisa va boshqalar qadriyatning inson ongida aks etishi, qadriyatni anglashning reallikka mos kelish qonunlari, daraja va imkoniyatlari, uning me'yor va mezonlarini aniqlash nihoyatda muhim.

Bunga umumiy bilish nazariyasi (gnoseologiya) bilan bir qatorda ijtimoiy va tabiiy fanlarning ma'lumotlariga, ayniqsa, valeologik va aqliy faoliyatning dalillariga, mantiq, tilshunoslik kabi fanlarning yutuqlariga tayaniladi. Qadriyatlarni anglash, o'rganishda hissiy va aqliy bilishning uyg'unligi, hukm, xulosalarning tushuncha, atama va belgilarni umumlashtirishi, tabiiy va ijtimoiy

voqelikdagi aksiologik jarayonlarni tahlil qilish, ularga tayanib amaliy faoliyat yuritish bir-biri bilan bog'liq uzviy jarayonni anglatadi.

Pedagogik hodisalarga ijtimoiy-sotsiologik yondashilganda voqea va jarayonlar orasidagi o'zaro bog'liqlik, tarixiy aloqadorlik, sabab va oqibat bog'lanishining ifodasi bo'lgan uzluksizlikning ahamiyati ortadi. Bunday yondashuv qadriyatlarga, ular bilan bog'liq jarayonlarga nisbatan qo'llanilganda ijobiy ilmiy va amaliy natija beradi.

Bunda pedagogik qadriyatlar tartibsiz namoyon bo'ladigan va bir-biri bilan bog'lanmagan ijtimoiy hodisa sifatida emas, balki u yoki bu davr, ijtimoiy subyekt va boshqalar bilan bog'langan aksiologik tizimlar hamda ularning elementlari sifatida namoyon bo'ladi. Qadriyatlarga bunday yondashishda ijtimoiy fanlarning yutuqlari, tarix, etnografiya, demografiya va sotsiologik tadqiqotlarning natijalariga tayanish yaxshi natija beradi.

Ammo qadriyatlarni o'rganishda faqat ana shular bilan chegaralanib qolish yaramaydi. Balki reallik, uning namoyon bo'lish shakllari, voqea-hodisa va jarayonlarning qadri, ijtimoiy ahamiyatini anglash ham nihoyatda muhim. Bunda ularning ijtimoiy funksiyalari, o'ziga xos tashqi ta'sirni anglash katta ahamiyat kasb etadi. Faqat aksiologik yondashuv asosida qadriyatlarning ilmiy kategoriya sifatidagi mohiyati, boshqa tushunchalardan farqi, obyektiv asoslari va subyektiv anglab olinishi, namoyon bo'lish shakllari haqida to'g'ri ma'lumotlar olish mumkin.

Bunda narsa, voqea-hodisalar, kishilar va ularning faoliyatiga qadr hamda qadrlanish darajasi nuqtai nazaridan qaraladi. Mazkur qarashda foydalilik, qiymat va ularni ifodalaydigan iqtisodiy baho emas, balki qadrlarning ahamiyati asosiy o'rin tutadi. Bunda qadr va baho bir-biriga mos kelmaydigan, narsa yoki obyektning qadri uning iqtisodiy qiymatidan bir necha marta salmoqliroq bo'lishi ham mumkin bo'lgan hollar ko'p uchraydi. Masalaning bu jihatini o'rganish axloqshunoslik, estetika, huquqshunoslik, madaniyatshunoslik, siyosatshunoslikning dalillari va ma'naviyatning ijtimoiy qirralariga tayanadi. Bunda, ayniqsa, iqtisodiy, siyosiy, ma'naviy

faoliyat va jarayonlarning jamiyat hamda ijtimoiy subyektlar uchun ahamiyati, hayotning turli qirralarini aks ettiradigan muammolar hamda ularning yechimlarini ifodalaydigan qarashlar, g'oyalar, ta'limotlar, talab va ehtiyojlarning real jarayonlar uchun qadriyatini aniqlash katta ahamiyat kasb etadi.

Demak, olamni o'rganish va voqelikning qonuniyatlarini tavsiflashda gnoseologik, sotsiologik va aksiologik yondashuvlarning uyg'unligi, zarur bo'lganda ulardan foydalanishda kompleks munosabat lozim. Koinotdagi hodisalarning sayyoramiz hayotiga, Yer yuzida ro'y berayotgan jarayonlarning odamlar umri va turmush tarziga ta'siri, ekologik halokat va urush xavfi natijasida insoniyatni saqlab qolish ehtiyojlari, odam zoti va tiriklikning eng qadriyatli ma'volar sifatidagi ahamiyatini to'g'ri anglash uchun aksiologik yondashuvga tayangan ma'qul.

Aksiologik munosabat. Falsafada munosabat deganda, undagi yashirin xususiyatlarni aniqlash va amalga oshirish sharti sifatida hayotiy narsa-hodisalarga aloqadorlik usuli tushuniladi. Munosabat narsada aks etmaydi va narsalarning xususiyatlarini ham aks ettirmaydi, u nimanidir qilishda ishtirok etish shakli sifatida, nimanidir ahamiyatini ochib beradi. Munosabat ikkinchisi uchun birinchisining ahamiyatini tavsiflovchi narsa-hodisalar va subyekt orasidagi aloqalarni ko'rsatib beradi. Falsafada «qadriyat» tushunchasi «ahamiyat» tushunchasi bilan yaqin. Qachonki, subyekt obyekt bilan harakatga kirishganda, inson faoliyatining moddiy va ma'naviy dunyosini qamrab olganda obyektning yoki uning xususiyatlarining aniq ahamiyati namoyon bo'ladi. Faqat faoliyatdagina qadriyat o'zining muhim mavjudlik maqomini oladi.

Aksiologik munosabat – shaxsiy va ijtimoiy ahamiyatlilikning o'zaro aloqadorligini aks ettiruvchi shaxsning ichki pozitsiyasi.

Olamda aksiologik munosabat shakllanishi har bir kishining yetuk inson sifatida voyaga yetishi jarayonining tarkibiy qismidir. Kishi kamolot sari borar ekan, o'zi, o'zgalar, tashqi muhit, olam, umr, vaqt, davr va boshqalarning haqiqiy qadrini anglayveradi. Bu foniy dunyoning o'tkinchiligi, umr mazmuni, yashashning maqsadi,

olaning abadiyligi qarshisidagi lahzalar qadriga yetishni o'rgana boradi. Bu esa mazkur kishida aksiologik munosabat shakllanishining shaxsiy jarayonini anglatadi.

Aksiologik munosabat faqat yakka, alohida shaxsgagina tegishli hodisa emas. Balki u ijtimoiy guruh, qatlam, millat, davlat, jamiyatga ham tegishli bo'lishi mumkin. Shu ma'noda, aksiologik yondashuv va qadriyatli munosabatning individual hamda ijtimoiy namoyon bo'lish darajalarining alohida, xususiy va umumiy shakllarini ajratib ko'rsatish mumkin.

Aksiologik baholash. Voqelikka, undagi narsa va hodisalarga nisbatan qadriyatli munosabat hamda ularni qadrlash tuyg'usi asosida shakllangan hukm va xulosalar aksiologik bahoda aks etadi. Aksiologik baho iqtisodiy qiymatdan farq qiladi, unda qadrlash tuyg'usi asosiy ahamiyat kasb etadi. Shu nuqtai nazardan olganda, aksiologik baholash narsa, hodisa yoki jarayonning iqtisodiy qiymatini, foydaliligini belgilash orqali emas, balki uning subyekt ma'naviy olami uchun qanday ahamiyat kasb etishini aniqlash orqali amalga oshadi.

Ikkinchi tomondan esa, aksiologik baholashni narsa va voqealarning iqtisodiy qiymati bilan mutlaqo aloqasi yo'q, deb bo'lmaydi. Aslida, voqelikni namoyon bo'lish shakllarining iqtisodiy qiymatini aniqlash, ularning ijtimoiy zarurligini, keraklilik darajasini belgilash, ularga axloqiy-estetik yondashish va aksiologik baholash bir-biri bilan uzviy bog'langan hodisalardir.

Pedagogik voqelikni aksiologik baholash istalgan ijtimoiy voqelikni baholashdan o'ziga xos jihati bilan farq qiladi. Bunda ta'limning maqsadi, mazmuni, pedagogika nazariyasi va amaliyotining so'nggi yutuqlari kabilar e'tiborga olinadi, voqelikni baholash va unga nisbatan munosabatni tahlil qilganda ta'lim oluvchi shaxsiga qadriyat nuqtai nazaridan yondashuv ustuvor bo'ladi.

Muayyan pedagogik hodisaga aksiologik yondashuv asosida baho berilganida uning muayyan bir davrda ta'lim-tarbiya jarayonini tashkil etishdagi ahamiyati, qadr-qimmatini nuqtai nazaridan ajralib turishi, o'ziga xosligiga e'tibor beriladi. Bunda

mazkur davrning yutuqlari, pedagogik fikrlar taraqqiyotidagi hissasi, ularning keyingi davrlar uchun qay darajada qadrlil bo'lgani hisobga olinadi. Bu ayniqsa, pedagogik fikrlar, nazariya va yondashuvlarga aksiologik baho berganda yaqqol ko'rinadi.

Pedagogik jarayonni aksiologik baholashda nafaqat o'quvchining iqtidori, qobiliyati, iste'dodi, uning bilish imkoniyatlari, balki «noyob hodisa (fenomen)» sifatida qarash ustuvor bo'ladi. Bunda quyidagilar e'tirof etiladi:

- shaxs pedagogik jarayonning obyekti emas, subyekti sifatida aks etadi;

- shaxs – qandaydir tashqi maqsadlarga erishish vositasi emas, ta'lim tizimi maqsadi;

- har bir ta'lim oluvchi qobiliyatli, ko'plab ta'lim oluvchilar iqtidorli;

- shaxsning muhim sifatleri sifatida yuksak axloqiy qadriyatlar (yaxshilik, sevgi, mehnatsevarlik, vijdon, qadr-qimmat, fuqarolik va boshqalar) aks etadi;

- pedagogik muhabbat, ta'lim oluvchilar taqdiriga qiziqish bilan qarash;

- ta'lim oluvchiga yuksak ishonch bilan qarash;


- hamkorlik, muloqot mahorati;

- to'g'ridan-to'g'ri majburlashdan voz kechish;

- ijobiy rag'batlantirishning muhimligi;

- ta'lim oluvchi shaxsiga ta'lim subyekti, faollik va erkin tanlash sohibi sifatidagi munosabat.

Qadriyatli ustanovka. Shaxsning o'zining ichki pozitsiyasini anglashi va aniq qadriyatlar bilan bog'liqlikda faoliyatga tayyorgarlikning mavjudligi qadriyatli ustanovka sifatida aniqlanadi. Attitude (ustanovka, munosabat) atamasi aynan inson faoliyatining yo'nalganligi ma'nosida birinchi marotaba U.Tomas va F.Znanetskiy tomonidan qo'llanilgan. Ustanovka shaxsning aniq faoliyatga tayyorlik holatini aks ettiruvchi yo'naltirilganlik tavsifini egallaydi. Unda kognitiv (bilim, axborot) va affektiv (emotsiya, hissiyot) tarkibiy qismlar namoyon bo'ladi.



Qadriyatli ustanovka – shaxsning o‘z ichki pozitsiyasini anglashi va aniq qadriyatlar bilan bog‘liqlikda faoliyatga tayyorlik darajasi.

Qadriyatli yo‘nalganlik. Qadriyatli yo‘nalganlik u yoki bu qadriyatlarga yo‘nalganlik sifatida tavsiflanadi. Yo‘naltirish jarayonining quyidagi bir-biriga tutash fazalari aniqlangan: shaxsiy qadriyatlarni o‘zlashtirish; o‘zlashtirilgan qadriyatlar asosida shaxsni o‘zgartirish; shaxsning o‘z-o‘zini loyihalay va o‘z-o‘zini bashorat qila olishi.

Qadriyatga yo‘nalganlik shaxs yo‘nalganligining mazmunli tomonini, uning borliqqa munosabatini aks ettiradi. Shu bilan birga, qadriyatli yo‘nalganlik subyekt uchun shaxsiy ahamiyatga ega ijtimoiy qadriyatlar bilan bog‘liqlikda atrof-borliqqa subyektning bahosi sifatida qaraladi.

Qadriyatga yo‘nalganlik maqsadni ochib beradi, qiziqish, ehtiyoj, shaxsning e‘tiqodini tavsiflovchi ideallarni aks ettiradi.

Qadriyatli yondashuv qiyosiy jihatdan avtonom(alohida)dir, sababi qadriyatlar haqidagi tasavvur dunyoqarashlarga tayanadi. Biroq, shakllangandan so‘ng, ular o‘z ta‘sirini ko‘rsatadi: qiziqish, ehtiyoj, faoliyat maqsadi, shaxs hayotiy faoliyati va ijtimoiy tuzilmalarning har tomonlama rivojlanishi. Ushbu mexanizm jamiyat hayoti va ta‘limning ijtimoiy fenomen sifatida insonparvarlashishini shart qilib qo‘yadi. Qadriyatli yondashuvda faqatgina shaxsning tajribasigagina emas, balki birinchi navbatda, odamzot tomonidan to‘plangan tarixiy tajribalarga tayaniladi. Bu esa, ma‘lum bir me‘yor va mezonlar tizimi bo‘lib, har bir shaxs foydalanishi mumkin bo‘lgan madaniy faoliyat chegaralarini belgilab beradi.

Qadriyatli yondashuvlar ahloqiy ideallarda o‘z aksini topadi, bular esa shaxs faoliyatida maqsadli ravishda oliy ko‘rinish hosil qiladi. Ideallar o‘zida belgilangan maqsadlarni namoyish etib, bu dunyoqarashlar tizimining oliy qadriyatidir. Ular ko‘p pog‘onali haqiqatni ideallashtirish jarayonini nihoyasiga yetkazadi.

Qadriyatli yondashuvlarni ahloqiy ideallar sifatida tushunish ijtimoiylik va shaxsiylik o‘rtasidagi ziddiyatni kuchaytiradi. Yuzaga

kelgan ziddiyatda o'z navbatida, biri boshqasining o'rniga qurbon bo'ladi. Biroq insonparvar kishi ahloqiy ideal talablari asosida ishni amalga oshiradi. Ahloqiy ideallar, o'z navbatida, shaxs rivojlanish darajasini yutuqlarini shartlaydiki, bu esa aynan insonparvar kishining o'zligiga to'g'ri keladi. Ular insonparvarlik qadriyatlarining birligini o'zida aks ettiradi, aynan jamiyat rivojlanishi ehtiyojining rivojlanayotgan shaxs ehtiyojlariga to'g'ri kelishidadir. Ularda shaxsning va jamiyatning ilg'or qiziqishlari birligi uyg'un ravishda namoyon bo'ladi, sababi ular birgalikda insonparvarlik dunyoqarashining ijtimoiy funktsiyasini namoyon etishadi.

Ahloqiy ideallar butun umrga aniq bir etalon sifatida berib qo'yilmagan. Ular rivojlanadi, namuna sifatida takomillashadi, shaxs rivojlanishi istiqbollari aniqlaydi. Rivojlanish insonparvar ahloqiy ideallar sifatida xarakterlanib namoyon bo'ladi, shuning uchun ham ular shaxs takomillashishi motivi sifatida namoyon bo'lishadi. Ideallarni tarixiy davr va avlod bog'lab turadi, eng yaxshi insonparvarlik an'analarini vorisiylik bilan egallab olinadi va birinchi navbatda bu ta'lim orqali amalga oshadi.

Ahloqiy ideallar shaxs motivatsion-qadriyatli munosabatining oliy mezon sifatida namoyon bo'ladi. U shaxsni jamiyat oldidagi burchi, mas'uliyatini anglab yetishi bilan tavsiflanadi. Shaxs munosabati insonning atrof-muhitdagi narsa-hodisa va boshqa insonlar obyektiv aloqasiga yo'naltiradi va shaxsning subyektiv pozitsiyasini u yoki bu subyektga nisbatan nisbiy, shu bilan birga uning ahamiyatligini baholaydi. Shu ma'noda «munosabat» bir vaqtning o'zida ikki holatda namoyon bo'ladi: professual tavsif sifatida (baholash aktini qo'shadi) va barqaror shaxs ta'limi, bu esa shaxsni insonparvarlik qadriyatlarini (qadriyatli yondashuv) tashuvchisi sifatida namoyon qiladi. Shaxs bu holda borliq haqiqati bilan aloqador faol faoliyat ko'rsatuvchi sifatida namoyon bo'ladi, u tanlash imkoniyatiga ega bo'lgan va uning asosida o'zining rivojlanadigan faoliyati tabiatini yo'naltiruvchisidir. Munosabatlar muhit va shaxsning o'zaro aloqasi orqali amalga oshiriladi va mazmun jihatdan shaxs yo'nalganligini aniqlaydi, subyektivlikning asosiy fenomeni(qarashlar, motiv, ehtiyoj, baholash, hissiyot,

ko'nikish, qadriyatli munosabat)ni o'zaro bog'laydi va muvofiq-
lashtiradi.

Biroq shaxs munosabatlarida uning faqatgina subyektivligi emas, balki obyektiv berilgan mazmun ham aks etadi, sababi unda obyektiv maqsadlar taqdim etiladi. Shaxs munosabatlarining obyektiv lahzalari sifatida uning ijtimoiy mavqei yuzaga chiqadi, u esa o'zida aloqalarning majmuaviyligini namoyon etadi, bular esa shaxslararo munosabatlarning referent tizimida va ijtimoiy ahamiyatli faoliyatda yuzaga keladi. Shaxs munosabati mazmuni motivlarning obykti va predmeti (qadriyatlari) bo'la oladi, ular esa uning ongida o'ziga xos ijtimoiy mavqeda namoyon bo'ladi.

Jamiyat me'yor, talab, ideal, madaniy qadriyatlar shaxs tomonidan yakka va tanlangan holda qabul qilinadi va o'zlashtiriladi. Shaxs qadriyatli munosabati shuning uchun ham har doim ham jamiyat tomonidan qabul qilingan va e'tirof etiladigan qadriyatlarga mos kelmaydi. Jamiyat qadriyatlari qachon stimuly va faoliyat ko'rsatishga uyg'otuvchi kuch bo'ladi, qachonki, inson tomonidan ongli ravishda qabul qilinsa va o'zlashtirilsa hamda uning shaxsiy qadriyati, da'vati, ideali, maqsadiga mos kelsagina, maqsadga muvofiq bo'ladi.

Insonning shaxs sifatida shakllanishi insonparvarlik qadriyatlarini tizimini o'zlashtirishni nazarda tutadi, u esa o'zida insonparvarlik madaniyati asoslarini aks ettiradi. Ushbu qadriyatlarni ta'lim jarayoniga joriy etish masalasi o'zida katta ijtimoiy ahamiyatni ifoda etadi. Uning muvaffaqiyatli yechimi ko'p hollarda ta'limning insonparvarlashishiga bog'liqdir. Uning mazmuni shundan iboratki, shaxs tomonidan ongli ravishda madaniy qadriyatlar tanlovini ta'minlash va uning negizida mustahkam, inkor etmaydigan, insonparvar qadriyatli munosabatlar individual tizimini shakllantirishdir.

Qadriyatli mazmunga ega ta'limda shaxsning xulq-atvori mo'ljalgaga olinadi, ular esa uning insonparvarlikka yo'nalganligini aniqlaydi va qadriyatli baholash asosi sifatida namoyon bo'ladi. Dunyoqarash shaxs qadriyatli munosabatining kontseptual interpretatsiyasi konteksti sifatida maydonga chiqadi, imperativ

xulq-atvor – me’yor sifatida, qadriyatli munosabat – u yoki bu tizimga invariant sifatida namoyon bo’ladi. Aynan mana shunday ko’rinishda dunyoni bilish aksi va qadriyatli munosabat ma’naviy boshqarilishi ham yo’naltiriladi hamda mazmunan shaxs faoliyati va xulq-atvorini tashkillashtiradi.

Shuning uchun tarbiya ijtimoiy-tashkillashtirilgan umuminsoniy qadriyatlar interiorizatsiyasi jarayoni sifatida ko’rilishi mumkin. Hayotda esa qadriyat shaxsni faol faoliyatga, o’z-o’zini tarbiyalash va o’z-o’zini rivojlantirishga yonaltirishi uchun, insonning ongli ravishda tushunib yetishi hali kamdir. Qadriyat faoliyat motivini uyg’otuvchi kuch sifatida qachonki, shaxs tomonidan interiorizatsiyalansa, ichki mavjudlikni zarur lahzalarini taqdim etsa, inson o’z faoliyati maqsadini aniq shakllantira olsa, uning insonparvarlik ma’nosini ko’ra olsa, maqsadlarni amalga oshirishning samarali vositalarini topsa, to’g’ri va o’z vaqtidagi nazorat, o’z xatti-harakatini tuzata olsa va baholay olgandagina, aniq namoyon bo’ladi.

U yoki bu qadriyat qachonki tashkillashtirish, obyekt tanlash va sharoit yaratish, maqsadli faoliyat amalga oshirilsa va u esa shaxs tomonidan baholash va o’zlashtirish zaruriyatini uyg’otsagina, shaxs ehtiyoj obyektiga aylanadi. Demak, ma’naviy qadriyatlar qachonki, tarbiya ularning interiorizatsiyasi jarayoni sifatida tashkillashtirilsa, inson ehtiyoji obyektiga aylanadi.

Interiorizatsiya umuminsoniy qadriyatlarining shaxs oliy psixik funksiyasiga aylanishiga olib keladi. Shaxs rivojlanishi madaniyatining istalgan funksiyasi ham interpsixik va interapsixik ko’rinishda namoyon bo’ladi. Shu bilan birga interiorizatsiya eksteriorizatsiya bilan birga amalga oshiriladi – muhitni yangi obyektlarni yaratish yo’li bilan ijodiy o’zgartirishdir. Oxirgisi yordamida ehtiyojlarni yaratish amalga oshiriladi, u esa shaxs aksiologik munosabati motivatsiyasi asosini tashkil qiladi.

Interiorizatsiyaning psixologik mexanizmi shaxs ma’naviy ehtiyojlari dinamikasini tushunishga imkon beradi. Ma’lum bir sharoitda shaxs tomonidan amalga oshiriladigan faoliyat, yangi obyektlarni yaratadi, ular esa yangi ehtiyojlarni keltirib chiqaradi.

Bu chizmada quyidagicha ko‘rinishga egadir, 1,2,3,4 va h.k. raqamlarda ma’lum bir omillar (shart-sharoit, tamoyil, mazmun, metodlar)ni tashkiliy faoliyati taqdim etilgan. Masalan, uni tashkil etishning individual-ijodiy yondashuv tamoyili. Obyekt sifatida (O1) g‘oyalar bo‘lishi, san’at asarlari, faoliyatni amalga oshirish usul va metodlari. Subyekt va obyekt o‘rtasidagi aloqa esa, ikki tomonlama tavsifga ega: interiorizatsiya va eksteriorizatsiya. U subyektda ehtiyojni (E 1) tug‘diradi, u esa o‘z navbatida subyektning yangi obyektga (O 2) yo‘naltiradi, yangi ehtiyoj kelib chiqadi (E 2). Bu esa cheksiz ravishda davom etadi (2-rasm).

Agar «o‘qituvchi-o‘quvchi» pedagogik tizimiga tarbiyachining faoliyatini boshqarish uchun ma’lum bir omillarni olib kirsak, u ma’naviy ehtiyojlarni shakllanishining kengaygan sharoitlarida mavjud bo‘ladi. Talaba kelajakdagi faoliyatini o‘zining ichki xatti-harakatini joy-joyiga qo‘yib, uni ijtimoiy talablarga mos ravishda bashorat qiladi va ichki holatiga transformatsiyalaydi. Tanlab olingan obyekt (O) ehtiyojlar (E)ga aylanadi, ya’ni interiorizatsiya mexanizmi ishga tushadi.


Umuminsoniy qadriyatlarning shaxs tomonidan interiorizatsiyalanishi, aynan o‘quvchilar tomonidan baholash faoliyatini amalga oshirish jarayonida unga jamiyat etalonlari va belgilangan vazifaga muvofiq yangi faoliyatni loyihalashga yordam beradi. Faoliyatning yangi objekti (O1) yangi ehtiyojga (E 2)ga aylanadi – eksteriorizatsiya amalga oshadi, ya’ni ro‘y beradi. Ushbu jarayonning o‘ziga xos xususiyati va tavsifi, bu yerdagi o‘ziga xos faoliyat shaklida inkorni inkor qonuni ko‘zga tashlanadi: ya’ni bir ehtiyoj ikkinchisini inkor etadi.

U yoki bu ko‘rinishdagi faoliyatni baholash va egallashda aynan ehtiyojlarni qondirish bilan bog‘liq xatti-harakat, yangi obyektlarni yaratadi, u esa yangi, sifat jihatidan ancha murakkab ehtiyojlarni keltirib chiqaradi va alohida motivatsion-qadriyatli munosabat darajasini tavsiflaydi.

Shaxs tomonidan interiorizatsiya va qabul qilish, u tomonidan umuminsoniy qadriyatlarni hamda shaxsiy o‘zining qadriyatli munosabatini «ichki reja» sifatida ishlab chiqish faqatgina anglash

(kognitiv) bosqichida amalga oshirilmaydi. Ushbu jarayonda hissiyotlar muhim rol o'ynaydi. Interiorizatsiya jarayonining hissiyotga boy tabiati ko'pgina tadqiqotlarda o'z isbotini topgan. Ularda ko'rsatilishicha, ijtimoiy qadriyatlar faqatgina ong bilan, oqilona fikrlash bilan emas, balki birinchi navbatda hissiyot bilan qabul qilinadi. Xattoki, ijtimoiy ahamiyatli ekanligini tushunish faqatgina «kuzatilmaydi», balki hissiyot bilan «bezaladi».

Hissiyotlarning qatnashishi ushbu tushunchani shaxs tomonidan nafaqat real ravishda qabul qilinishini, balki oddiygina tushunishini belgilamaydi. Shuning uchun, qadriyatlar interiorizatsiyasi kognitiv va hissiy, ratsional va amaliy (faoliyatga tayyorligi), ijtimoiy va shaxsdagi individuallikning dialektik birligini hisobga olinishini talab etadi.



1-rasm. Qadriyatlar interiorizatsiyasining tashkiliy tuzilishi

Nazorat uchun savol va topshiriqlar


1. Pedagogik aksiologiyaning asosiy tushunchalariga nimalar kiradi?
2. Ong va qadriyatli ong tushunchalarini izohlang.
3. Qadriyatli munosabat nima va u qanday ko‘rinishda namoyon bo‘ladi?
4. Qadriyatli ustanovka qanday o‘ziga xoslikka ega?
5. Qadriyatga yo‘nalganlikning namoyon bo‘lish tavsifini bayon eting.

Mustaqil o‘qish uchun adabiyotlar

1. Общая педагогика / Под. ред. В.А.Сластенина. В. 2ч. – М.: Владос, 2003. – ч.1.
2. Сластенин В.А., Чижакова Г.И. Введение в педагогическую аксиологию. – М.: Академия, 2003.
3. Чужакова Г.И. Лекции по педагогической аксиологии. – Красноярск, 1999.
4. Астанова Н.А. Концептуальные основы педагогической аксиологии / ж. Педагогика, №8.2002 г.
5. Ходжаев Б., Бекмуродова М. Қадриятли ёндашув асосида педагогика коллежи ўқувчиларида касбий сифатларни шакллантириш // Педагогика коллежлари таълим жараёнини такомиллаштириш муаммолари. Вазирлик миқёсидаги илмий-амалий анжуман материаллари. 29 апрель, 2009 йил. – Т.: Fan va texnologiyalar, 2009.
6. Тайланова Ш.З. Талабаларда қадриятли тасаввурлар тизимини шакллантириш йўналишлари. Услубий қўлланма. – Тошкент: Fan va texnologiya, 2011.

Mustaqil ish topshiriqlari

1-topshiriq. «Aksiologik ong va dunyoqarash»ning umumiy va farqli jihatlarini aniqlashtirishga doir Venn diagrammasini to‘ldiring.



2-topshiriq. Aksiologik yondashuv va baholashga asoslangan holda quyida keltirilgan T-chizma grafik organayzerini to'ldiring.

Bilimga yo'naltirilgan ta'lim jarayonining afzalliklari	Shaxsga yo'naltirilgan ta'lim jarayonining afzalliklari

3-topshiriq. «Inteorizatsiya va eksteriorizatsiya haqida nimalarni bilaman?» mavzusida besh daqiqa mobaynida o'z fikrlaringizni daftarga yozing. O'ylagan fikrlaringizni hech qanday to'xtovsiz bayon eting.

Erkin yozish ustida ishlashga doir ko'rsatma:

1. Talabalardan besh daqiqa mobaynida berilgan mavzu bo'yicha o'z fikrlarini yozish so'raladi.

2. Besh daqiqa tugagach, vaqt tuganganligi ma'lum qilinadi. Biroq bir minut sukut saqlab turiladi. Chunki odatda eng yaxshi fikrlar inson tang holatda qolgan vaziyatda tug'iladi.

3. Talabalardan ayrimlarining fikrlari tinglanadi. Uch-to'rt talaba o'z yozganlarini o'qib bergach, o'qituvchi qolgan talabalardan aytilganlariga o'xshamaydigan fikr kimda bo'lsa bildirishlarini so'raydi.

III bob. QADRIYAT G‘OYASI VA UNING UMUMIY AKSILOGIYADAGI RIVOJI

Tayanch tushunchalar: aksiologiya, qadriyat, ma’naviy qadriyatlar, moddiy qadriyatlar, siyosiy-huquqiy qadriyatlar, diniy qadriyatlar, umuminsoniy qadriyatlar, milliy qadriyatlar, badiiy qadriyatlar, aksiologik kontseptsiyalar, qadriyat manbalari.

Aksiologiya va qadriyat tushunchasi. Aksiologiya falsafaning mustaqil sohalaridan biridir. Mazkur tushuncha adabiyotlarda turlicha talqin etiladi. Aksiologiya yunoncha so‘z bo‘lib, axio – qadriyat, logos – ta’limot, so‘z, ya’ni qadriyatlar haqidagi ta’limot ma’nosini bildiradi.

I.T.Frolova tahriri ostidagi falsafiy lug‘at(1986)da aksiologiyaga qadriyatlar tabiatini falsafiy jihatdan tadqiq etish, deb ta’rif beriladi. Aksiologiya G‘arb falsafasida XIX asr oxiri – XX asrning boshlarida umumiy «qadriyatlar muammosi»ning ba’zi murakkab masalalarini hal etishga urinish sifatida yuzaga keldi.

Qiyomiddin Nazarov umumiy tahriri ostidagi «Falsafa: qomusiy lug‘at»(2004)da «aksiologiya»ga aksiologik ong, qadrlash tuyg‘usi, aksiologik bilish, qadriyatli yondashuv va boshqalar asosida to‘plangan qadriyatlar to‘g‘risidagi bilimlar sistemasi sifatida ta’rif berilgan.

V.E.Kemerov umumiy tahriri ostidagi zamonaviy falsafiy lug‘at(1998)da «aksiologiya» tushunchasi insonda kelajakka bo‘lgan o‘zining hayotiy intilishlari, mavjud hayot uchun mo‘ljalni ola bilish, o‘tmish, «boshqa», umumahamiatlilikni oqlash yoki ayblashni qadriyatli loyihalash shakl va usullari haqidagi ta’limot sifatida ta’rif beriladi.

Aksiologiya tushunchasi qadriyat va qadriyatlar haqidagi ta’limotga qaraganda, keyinroq paydo bo‘lgan. Mazkur tushuncha XIX asrning 2-yarmida nemis qadriyatshunosi Eduard Gartman va

frantsuz olimi P.Lapilar tomonidan fanga kiritilganligini ta'kidlagan edik.

Qadriyat tushunchasi maxsus falsafiy lug'atda XIX asrning 60-yillarida paydo bo'lganligi ta'kidlab o'tilgan. Falsafiy lug'atning 5-jildida qadriyatga quyidagicha ta'rif berilgan: «Qadriyat falsafiy va sotsiologik tushuncha. U birinchidan, bir obyektning ijobiy va salbiy qimmatini, ikkinchidan, ijtimoiy ongning normativ belgilovchi-baholovchi jihati (subyektiv qadriyatlar yoki ong qadriyatlari)ni ifoda etadi».

Qadriyatlar va ijtimoiy taraqqiyot» nomli ilmiy ishlar to'plamida «Qadriyat deyilganda, inson va insoniyat uchun ahamiyatli bo'lgan millat, elat va ijtimoiy guruhlarning manfaatlari va maqsadlariga xizmat qiladigan va shu tufayli ular tomonidan baholanib, qadrlanadigan tabiat va jamiyat ne'matlari hodisalari majmuini tushunmog'imiz lozim», deb ta'kidlab o'tilgan.

«Mustaqillik izohli ilmiy-ommabop lug'at»da, «Qadriyatlar – jamiyatda kishilar o'rtasida obro'ga, e'tiborga, hurmatga, nufuzga, ahamiyatga ega kishilar, munosabatlar, holatlar, moddiy narsalar va ma'naviy boyliklar majmuasi» degan ta'rif berilgan.

Qiyomiddin Nazarov umumiy tahriri ostidagi «Falsafa: qomusiy lug'at» (2004)da yana «Qadriyat – voqelikdagi muayyan hodisalarning, umuminsoniy, ijtimoiy-axloqiy, madaniy-ma'naviy ahamiyatini ko'rsatish uchun qo'llaniladigan falsafiy-sotsiologik va aksiologik tushuncha», deb ta'rif berilgan.

O.Tohirov, B.Ochilovalarning ta'kidlashicha, «Qadriyat – bu tabiiy va ijtimoiy hayotda namoyon bo'ladigan, kishilar qadrlaydigan va ular uchun manfaatli, foydali, ijobiy ahamiyatli tabiiy, individual va ijtimoiy ehtiyojni qondirishga xizmat qiladigan, moddiy-iqtisodiy, madaniy-ma'naviy, mafkuraviy va siyosiy omillar yig'indisidir».

«Qadriyatlar, – deb yozadi O.Musurmonova, – inson tomonidan qadrlanadigan narsalardan iborat bo'lib, kishilarning talabi, xohishi, qiziqishi va maqsadi asosida o'zaro munosabat, o'zaro ta'sir (atrof-muhit bilan, insonlar bilan) natijasida dunyoga keladigan holatdir».

Siyosatshunos olim N.Jo'raevning ta'kidlashicha, «Qadriyat deyilganda, inson va insoniyat uchun ahamiyatli bo'lgan millat, elat va ijtimoiy guruhlarining manfaatlari va maqsadlariga xizmat qiladigan tabiat va jamiyat hodisalari majmui tushunilishi lozim».

Qadriyat tushunchasining kelib chiqishi shuni ko'rastadiki, unda uch asosiy belgi birlashadi: narsa va hodisalarni baholashga doir insonning amaliy va emotsional munosabatini ta'riflash; insonning psixologik tavsifini aniqlovchi axloqiy kategoriyalarni tavsif etish; odamlar orasidagi munosabatlarni xarakterlovchi ijtimoiy hodisalarni ta'riflash.

«Qadriyat» tushunchasining rivoji shartli ravishda qadriyatlarining turli ko'rinish(iqtisodiy, psixologik, axloqiy, estetik, bilishga oid, ijtimoiy)larini ajratib ko'rsatish, inson tabiati, uning bilishga intilish mexanizmlarini anglab yetish, bilish faoliyatining harakatlantiruvchi kuchlarini aniqlashga imkon beradi.

Ilmiy-pedagogik va falsafiy adabiyotlarda qadriyatlarni umumlashtirgan tarzda quyidagi o'n bir guruhga tasnif etilgan:

1. Ma'naviy qadriyatlar shaxsni axloqiy shakllantirishning asosiy omili bo'lib, ular ilmiy-texnikaviy va intellektual, maorif, ta'lim-tarbiya, tibbiy xizmat, milliy meros, turli shakllarda namoyon bo'ladigan madaniyat durdonalari, til, adabiyot, san'at, xalq hunarmandchiligi mahsulotlari, noyob tarixiy va madaniy arxitektura va hokazolar hisoblanadi. Shuningdek, o'zbek xalqining milliy an'analari, bayramlari, udum va odatlari, O'zbekistonda o'tgan mutafakkirlarning ma'naviy merosi, yozma asarlar, rivoyat va afsonalar, muqaddas joylar, tarixiy yodgorliklar, musiqa va qo'shiqlari, cholg'u asboblari, o'yinlari, dehqonchilik va hunarmandchilik kabilar ma'naviy qadriyatlarining asosini tashkil etadi. Ular kishilarning bir-birlariga, vatanga, oilasiga bo'lgan munosabatidagi axloq xulq-atvorida, odob va xatti-harakatida namoyon bo'ladi.

2. Milliy qadriyatlar – millat shaxsining tili, tarixi, urf-odatlari, an'analari namoyon bo'ladi. Milliy qadriyatlar negizida «millat», «o'zbek» degan so'zlar o'z ifodasini topgan. «Millat» so'zi arab tilida quyidagi uch ma'noni anglatadi. Birinchidan-

mazhab; ikkinchisi -ummat; uchinchisi -xalq, qavm. Millat so'zi Qur'oni karimda ham qo'llanilgan. Qur'onda har bir millat vakili o'z milliy qadriyatlarini rivojlantirishi sababli o'z millatidan, qavmidan kechib boshqa millatga o'tib olish gunoh deb ta'riflangan. Yevropa adabiyotida qo'llaniladigan «Naatsiya» so'zi qabila, xalq degan ma'noni bildiradi, binobarin, bu ikki tushunchada ham muayyan etnik birlikning o'ziga xosligini bildiruvchi ma'no yotadi.

Milliy qadriyatlar – millatga mansub bo'lgan umumjahon taraqqiyoti qonuniyatlaridan biri hisoblanadi. Milliy qadriyatlar – o'z millatidan, o'z yurtidan faxrlanish, o'zbek davlati fuqarosi ekanligidan g'ururlanish kabilardir.

3. Siyosiy qadriyatlar demokratiya yoki siyosiy jarayon bo'libgina qolmay, shu bilan birga xalqning turmush tarzi va uning bugungi ruhiyati, an'analari, madaniyati, psixologiyasining xususiyatlarini ifoda etadi. Siyosiy qadriyatlar dunyodagi barcha millat va dinga mansub shaxslar uchun keng imkoniyatlar yaratishi bilan birga xalqaro demokratik talablarga javob beradi. Unda inson huquqi, sha'ni, or-nomusi va himoyasiga qaratilgan barcha tamoyillar kafolatlanadi. Mamlakatimiz xavfsizligi, barqarorlik va millatlararo hamjihatlikni saqlash, kelajak avlodlarga obod va ozod Vatanni meros qoldirish mas'uliyatini oshiradi. Ichki va tashqi siyosiy muvozanatini saqlaydi. Siyosiy qadriyatlar insoniyat tomonidan yaratilgan barcha moddiy va ma'naviy boyliklarni asrashda va mustahkamlashda hamda ulardan foydalanishda imkoniyatlar yaratadi.

4. Huquqiy qadriyatlar – bu jamiyat va madaniyat, davlat va huquq yo'nalishlarini o'zida mujassam etib, har bir kishida huquqiy bilim, tafakkur va dunyoqarashni shakllantiradi. Huquqiy qadriyatlar – umuminsoniy qadriyatlar va jahon andozalari, huquqiy madaniyat bo'yicha sharq falsafasi, o'zbek milliy mafkurasi, tarixiy-huquqiy meros va tajriba asosida kamol topadi. Huquqiy qadriyatlar eng avvalo umuminsoniy qadriyatlarga, umumjahon tsivilizatsiyasiga, bu sohada boshqa xalqlar erishgan tajribalarga, xalqaro huquqning me'yorlariga asoslanadi. Tenglik, erkinlik, birodarlik, xalqlar va millatlararo do'stlik, insonning o'z xohish-

irodasini erkin bildirishi hamda uni amalga oshirishi, barcha fuqarolarning teng huquqliligi, davlat va jamiyat boshqaruvida qonun ustunligi – huquqiy qadriyatlar hisoblanadi. Huquqiy qadriyatlar O‘zbekistonda Konstitutsiya va qonunlar bilangina emas, balki xalqning o‘z ongi, uning ma‘naviy-axloqiy dunyoqarashi va huquqiy tajribasi, mehr-shafqati bilan mustahkamlanadi.

5. Mehnat qadriyatlari – tabiat bilan uyg‘unlikda yashash, undan ibrat olish, uning go‘zalliklaridan zavqlanish va tabiat qo‘ynida mehnat qilish kabilarni tashkil etadi. Mehnat qadriyatlari – mehnat madaniyatining barcha elementlarini qamrab oladi. Har bir yosh avlod hayotga qadam qo‘yar ekan, o‘z ajdodlaridan faqat mehnat vositalarigina emas, balki mehnat madaniyatini ham meros qilib oladi. Shuning uchun ham mehnat qadriyatlari o‘quvchilarning qobiliyatlari, imkoniyatlari va haqiqiy kuchlarini namoyon etish va takomillashtirish imkoniyatini beradi. Mehnat qadriyatlarida hunarmandchilik, kasb-hunar egallash muhim o‘rin tutadi. Bunda zardo‘zlik, yo‘rmado‘zlik, bo‘zchilik, yog‘och o‘ymakorligi, zargarlik, gilamchilik, kashtado‘zlik, muqovasozlik, naqqoshlik, pichoqchilik, o‘ymakorlik kabi hunarlarni o‘rganish – mehnat qadriyatlarining negizini tashkil etadi.

6. Turmush qadriyatlari – tarixan muayyan ijtimoiy munosabatlar uchun xos bo‘lgan hayot va faoliyat shakllari tizimi bo‘lib, ular bevosita hayot sharoitlarining o‘ziga xos xususiyatlarini ifodalaydi. Odamlarning xulq-atvori, yurish-turishi, muomalasi va tafakkur tarzi orqali namoyon bo‘ladi. Turmush madaniyatining ma‘naviy-ahloqiy va huquqiy rivojlanishini qamrab oladi. Turmush, xulq-atvor madaniyati, fuqarolarning huquq va erkinliklari jamiyat a‘zolarining ijtimoiy-huquqiy faolligi kabilarni turmush qadriyatlarini asosida namoyon bo‘ladi.

7. Diniy qadriyatlar – yolg‘iz diniy qoidalar, ko‘rsatmalar, tamoyillaridan iborat bo‘libgina qolmay, u kishilar o‘rtasidagi ma‘naviy-ahloqiy, siyosiy, iqtisodiy, huquqiy va boshqa munosabatlarning ham ifodasidir. Islom dini jamiyatdagi ma‘naviy barqarorlikni ta‘minlash bilan birga, kishilarni iymon-e‘tiqodli

bo'lib yashashga da'vat etadi. Chunki, iymonli odam xiyonat qilmaydi, qarindosh-urug'lari, elu-xalqning or-nomusini himoya qiladi. Halol va pok yashashni o'zining burchi deb biladi. Diniy qadriyatlarga suyanish, musulmonchilikning asl tamoyillarini rivojlantirish, ularni o'quvchi yoshlar ongiga singdirish – shaxs kamolotida, uning dunyoqarashi, axloqi, faoliyati mazmunini belgilashda asosiy mezonlardan hisoblanadi. Diniy qadriyatlar xalqimiz turmush tarzi va hayotining negizini tashkil etadi. Diniy qadriyatlar barcha millat kishilari uchun muqaddas boylik bo'lib, ularni ezgulikka, poklikka da'vat etadi. Diniy qadriyatlar nafaqat oxiratda, balki bu dunyoda ham baxt-saodatga erishish mumkinligini e'tirof etadi.

8. Umummadaniy qadriyatlar tufayli xiyobonlar, sayilgohlar, o'yingohlar, tomoshagohlar, san'at saroylari, ziyoratgohlar, maktablar, madrasalar, kutubxonalar, madaniyat markazlari kabi muassasalarda xalqaro ahamiyatga ega bo'lgan nufuzli tadbirlar, turli millat xalqlarini birlashtirgan anjumanlar o'tkaziladi. Umummadaniy qadriyatlarga ega bo'lgan har bir millat do'st, mehmon, turist sifatida madaniy-ma'naviy yodgorliklarga o'z hurmatini izhor qiladi. Xalqaro munosabatlarda qat'iyatlilik, donolik, uzoqni ko'ra bilish, xorijda ishlayotgan, ta'lim olayotgan O'zbekiston vakillarining yurtimiz, halqimiz sha'niga-shan, shuhratiga-shuhrat qo'shishi umummadaniylikning amaliy namoyon bo'lishidir.

9. Umuminsoniy qadriyatlar bu millatni, elatni tashkil qiluvchi kishilarning milliy madaniyatini, merosini, qadriyatlarini, urf-odatlarini, an'analarini o'zlashtirishdagi faoliyatini rivojlantirish bo'lib, u milliy ong va milliy o'zlikni anglashning subyektidir. Umuminsoniy qadriyatlar asosida shaxsni axloqiy shakllantirishda millatparvarlik, xalqparvarlik, vatanparvarlik, mehnatsevarlik, yuksak insoniylik, mehr-oqibat, iymon-e'tiqod, or-nomus, insofdiyonat kabi fazilatlardan foydalanish, shuningdek «ota-ona, qarindosh-urug'larning hurmatini joyiga qo'yish, oilaning muqaddasligi tuyg'ularining barkamol bo'lishiga erishish, o'zaro

munosabatlarda yonma-yon yashayotganlar manfaatlarini hisobga olish» muhim ahamiyatga ega.

Umuminsoniy qadriyatlar shaxsning umumiy, axloqiy, intellektual, irodaviy, emotsional xislatlarini o'zida aks ettiradi.

Shaxsning umumiy xislatlari:yoqimlilik, ko'rkamlik, jozibadorlik, ozodalik, fusunkorlik, basavlatlik, salobatlilik, rivojlanganlik, hurmatga sazovorlik, shoironalik, ruhlanganlik, ulug'sifatlik, o'ziga xoslik, yetuklik, jiddiylik, madaniyatlilik, tarbiyalanganlik...

Shaxsning axloqiy fazilatleri: insonparvarlik, do'stlik, g'amxo'rlik, jonkuyarlik, samimiylik, kuyunchaklik, odamiylik, bolajonlik, iymondorlik, fidokorlik, xushmuomalalik, baodoblik, iltifotlilik, ochiq yuzlik, kechirimlik, mehmondo'st, xushaxloqlik, hamjihatlik...

Intellektual fazilatleri:zehnlilik, bama'nilik, xotirjamlik, sog'lom fikrlilik, donishmandlik, sezgirlik, zakovatlilik, topqirlik, lo'ndalik, notiqlik, tanqidiylik, dadillik, omilkorlik, savodxonlik, qiziquvchanlik, ishqibozlik...

Irodaviy xislatleri:faollik, qat'iyatlilik, tezkorlik, kuydipishdilik, jo'shqinlik, zardalilik, sabotlilik, bir so'zlilik, barqarorlik, botirlik, dovyuraklik, intizomlilik, erksevarlik, jiddiylik, nafsini tiyishlik, o'zini yo'qotmaslik, bosliqlik, o'ziga talabchanlik, kamsuqumlik, odamoxunlik, o'zini idora eta bilishlik...

Emotsional xislatleri:xushchaqchaqlik, ko'tarinkilik, tantanavorlik, kulib turishlik, hazinlik, ishonuvchanlik, xayolchanlik, kelajakka ishonch bilan qarashlik, ezgulik, kek saqlamaslik, mushfiqlik, olijanoblik, o'tashinlik, nozik tabiatlik, xayolilik, xijolatlilik, iffatlilik, xushfe'llilik va boshqalar.

10. Badiiy qadriyatlar – san'at durdonalari bo'lib, insonda estetik hissiyotni uyg'otadi, uni estetik jihatdan tarbiyalaydi. Badiiy qadriyat – mana shu qadriyat mezonlari talablariga javob beruvchi san'at asari, uning asosida go'zallik o'zining ko'plab ko'rinishlarida asosiy mezonlar belgisi hisoblanib, unda estetik va badiiy qadriyatlar ma'lum nisbatlarda bo'ladi. Badiiy qadriyatlarining mazmunida u yoki bu san'at tili yordamida estetik mazmun va

badiiy obrazda berilgan «goʻzallik qonunlari boʻyicha» aks ettirilgan va qayta yaratilgan borliq aks etadi.

Ijtimoiy-tarixiy rivojlanish, davrning dolzarb vazifalari, ishlab chiqilgan maʼnaviy va badiiy qadriyatlar sababli Oʻrta Osiyo koʻrgazmali badiiy sanʼati – miniatyura sanʼati oʻrta asrlarda yuksak rivojlanish darajasiga erishdi. Kitob rangtasvirida oʻrta asrlar jamiyatining odob-ahloq qoidalari va dunyoqarashi, estetik gʻoyalari, qahramonlik-vatanparvarlik dostonlari va xalq ogʻzaki ijodi hamdalarining mahalliy badiiy anʼanalar bilan bogʻliqligi, ularda davrning ijtimoiy buyurtmasi va goʻzallik toʻgʻrisidagi asrlar davomida shakllanib kelgan barqaror xalq tasavvurlari aks ettiriladi.

Firdavsiy, Nizomiy, Saʼdiy, Jomiy, Navoiy, Dehlaviyning asarlari rassom-miniatyurachilar orasida eng mashhur boʻlgan. Miniatyura rangtasvir syujetlari hukmdorning davlatni boshqarishi va uni ulugʻlash, uning mardligi, janglari, ov, donishmandlarning falsafiy suhbatlari va munozaralari, saroydagi katta bazmlar va tadbirlari koʻrinishlaridan iborat. Miniatyura rangtasviri yoʻnalishlari oʻsha zamon xususiyatlari, maʼnaviy qiziqishlari oʻquvchilarning tasavvurini shakllantirishga xizmat qiladi.

Dostonlar va qissalarda hayot tasvirlangani sababli miniatyuralarda nafaqat hukmdorlar, balki hayot mazmunini ifoda etuvchi hunarmand va boshqa kasb-kor egalari ham uchraydi. Hayot oʻzining barcha boʻyoqlari, baxtli va tashvishli kunlari bilan aks ettiriladi. Miniatyuralarda jamiyat, xalq gʻoyalari, goʻzallik toʻgʻrisidagi tasavvurlar oʻz ifodasini topadi, dunyoning goʻzalligi ochib beriladi.

Oʻrta Osiyo miniatyurasiga xos boʻlgan xususiyatlar hayotga ishonch va quvonch bilan qarash; badiiy umumlashtirish; koʻtarinki ruhda talqin qilish, koʻp qirrali hikoya qilish; kinoyalilik; hayotni diqqat bilan kuzatish; koʻrinish, shakl goʻzalligi, yorqin manzaralarga intilish, dono mushohada, axloqiy mushohada, axloqiy xushmuomalalilik holatlarini koʻrsatish kabilardan iborat.

XV-XVI asrlar – miniatyura sanʼati rivolanishining choʻqqisi boʻlgan davrdir. Bunda mashhur musavvir-miniatyurachilar: Sulton

Ali, Abdulla Mahmud Muzaxhib, Muhammad Qosim va boshqalar faoliyat yuritganlar.

XV asrda iste'dodli musavvir, badiiy miniatyurachi Kamoliddin Behzod o'zini namoyon qildi. Behzod tengi yo'q mahoratga ega edi. U mukammallik cho'qqisiga erishdi. Musavvir o'z badiiy tamoyillarini gavdalantirdi.

Behzod ijodida Amir Temur fenomeni – «Zafarnoma» asariga miniatyura-illyustratsiyalar katta o'rin egallaydi. Musavvir jahonni zabt etgan sarkarda Temurning janglari va yurishlari syujetlarini tasvirlaydi. Uning ayniqsa egilgan shoxlari va olov kabi qip-qizil rangli barglari bilan qolgan daraxtlar, g'aroyib tuzilishdagi xarsanglar bilan tog' bag'irlaridagi janglar sahnalari qiziqtiradi.

Behzodning Nizomiy qalamiga mansub «Iskandarnoma» dostoniga ishlagan miniatyuralari ajoyib, estetik to'laqonli va badiiy ahamiyatli hisoblanadi. Misol uchun, «Iskandar va darvesh» miniatyurasi markazida siyrak o'simliklar bilan ba'zi yerlarida daraxtlar qad ko'tarib turgan baland qoya, pastki qismida(o'ng tarafida) qorong'u g'or, unga kiraverishda Iskandar bilan soqollari o'sgan, sochlari oqargan nuroniy yuzli, juda ozib ketgan, beligacha yalang'och xudojo'y ko'rinishli donishmand suhbatlashib o'tiribdi.

Darvesh oldiga kelgan yosh, gavdali, kelishgan, baquvvat, xushbichim kiyingan, och yashil to'n kiygan, boshiga oq salla o'ragan; hurmat bilan tiz cho'kib o'tirgan hukmdor diqqat bilan donishmandning so'zlarini tinglamoqda. Qo'llarining harakatlari, bir-biri tomon egilib o'tirishlari, ularning yuz ifodalaridan jiddiy suhbat borayotganini tushunib olamiz. Ular shoshilmay, puxta o'ylab, juda muhim muammoni hal qilmoqdalar. Bu shunchaki oddiy suhbat emas, balki o'zaro manfaatli muloqot, bu muloqot davomida birinchi qarashda donishmand bosh qahramonga o'xshaydi, chunki Behzod uning ma'naviy ustunligini shunday tasvirlab beradi.

Miniatyurada Behzodning katta mahorati namoyon bo'ladi, undagi barcha tasvirlar mazmun yaratadi va ko'p ma'noga ega, har bir detal syujetning chuqur ichki mazmunini ochib beradi.

O'tmish ta'limotiga ko'ra, butun dunyo buyuk Kof tog' tizmasi bilan o'rab olingan. Kof tog'i – dunyoning markazi. U yovuzlik va tartibsizlik tomonini ezgulik, tartib va madaniyat tarafidan ajratib turadi. Tog'ning narigi tomonida katta afsonaviy, insoniyat farovonligi yo'lida mo'jizalar yaratish kuchiga ega Semurg' qushi yashaydi.

Shunday qilib, tog'lar – muqaddas, olijanob, ruhlantiruvchi, qora yulduzlarsiz osmon esa – yovuzlik, halokat alomati – musavvir tomonidan barchasi puxta o'ylangan. Xuddi mana shu holat kartinaga alohida dramatism ruhini beradi. Iskandarning boshi uzra qora kulfat yog'ilmoqda. Bu uning davlati, xalqi hayotiga halokat olib kelayapti.

Qoyalar, tog'lar qatlamlarining aylanasimon tuzilishlari, chinor tanasining aylanasimon egilishi, g'orga kirish qismining egik(oval) tuzilishi, hodisalar bo'layotgan joyning aylanasimonligi, hatto Iskandar soqchilarining to'planib turishlari doira atrofida birlashganliklarini eslatadi – bularning barchasi miniatyurada qandaydir tekis ichki harakatni yuzaga keltiradi. Chiziqlarning mana shu aylanasimon dinamikasi «dunyoning aylanishi» to'g'risida, unda barcha hodisalar aylana bo'yicha sodir bo'lishi, hayot – «tegirmon toshi aylanishi» ekaniga ishoradir. Musavvirning iste'dodli ramziylik va metaforalardan foydalanish, kartinani detallashtirishlarda namoyon bo'ladi.

Miniatyurada Behzodning iste'dodli – ilhomlanishi va ijodiy hayoli, Nizomiyning «Iskandarnoma» dostonini chuqur bilishi, zamonaviy hayotiy va tarixiy hodisalar, asrning muhim muammolarini bilishini ko'rsatadi.

Behzod takomillashib borayotgan dunyoning chuqur o'zaro aloqadorligini, umuman yovuzlikning barbod etuvch kuch ekanini ko'rsatib berishga, unga ma'naviy-axloqiy xususiyatlarni qaramaqarshi qo'yishga erishgan. Musavvir butun vujudi bilan inson bo'lgani sababli hayotning barcha ko'rinishlarda tasvirlash va chuqur anglab yetishga tinimsiz intilish faoliyatining asosiy mazmuni bo'lgan.

Oʻrta Osiyo Uygʻonish davri badiiy qadriyatlari quyidagilarda oʻz aksini topadi:

- jihozlar, buyumlar, asosan turar joylar va maqbaralarni bezatish uchun mahalliy manzaralar bilan devoriy rangtasvir (tabiiy va hatto kosmik motivlar; hukmdorlar portretlari, saroy va davlat hodisalari);

- poetik asarlar va tarixshunoslik kitoblariga, shu jumladan, Temurning gʻalabalari, «Zafarnoma» kitobiga miniatyura badiiy-illyustrativ rangtasviri;

- Oʻrta Osiyo miniatyurasi oʻziga va oʻz xususiyatlariga ega (milliy koloritli va tarixiy);

- XVI asr mashur musavvir-miniatyurachilari: Sulton Ali, Abdulla Mahmud Muzaxxib, Muhammad Qosim va boshqalar Navoiy, Nizomiy, Jomiy, Saʼdiy, Dehlaviy, Firdavsiy va Sharqning boshqa shoirlari asarlariga illyustratsiyalar yaratganlar;

- ajoyib musavvir ajdodimiz Kamoliddin Behzodning ijodi, ayniqsa uning «Zafarnoma» tarixiy kitobi va Nizomiyning «Iskandarnoma» asariga chizgan illyustratsiyalari Oʻrta Osiyo miniatyura rangtasvirining gullab-yashnashiga asos boʻldi. Ushbu asarlarda nafaqat tarixiy hodisalar, balki chuqur tarixiy mazmun ham ochib berilgan.

Oʻrta Osiyoda yuksak Uygʻonish davri badiiy qadriyatlari(devorlarga surat chizish, badiiy-illyustrativ miniatyuralar) – soʻzsiz Oʻrta Osiyo Oʻrta asrlar badiiy madaniyatida Renessansning yuksalish omili, rangtasvirning rivojlanishi, Oʻrta Osiyo va boshqa mamlakatlarda keyingi yillarda tasviriy sanʼatda yuksak badiiy qadriyatlar paydo boʻla boshlashining tarixiy-badiiy asosidir.

11. Tibbiy-maʼnaviy qadriyatlar. Tibbiy-maʼnaviy qadriyatlar, ilmiy qarashlar hamda amaliy-tajribaviy salohiyatni oʻzida mujassam etadigan tibbiy madaniyat salomatlikni muhofaza qilish institutsional tuzilmasining shakllanishi, faoliyat yuritishi va jamiyat taraqqiyotiga mutanosib rivojlanishini taʼminlovchi, uni harakatga keltiruvchi oʻziga xos ijtimoiy mexanizmdir. Bu ikki tizim tabiiy va

ijtimoiy borliqdagi o'zaro aloqador barcha murakkab tizimlar kabi izomorf mutanosiblik qonuniyati asosida rivojlanadi.

Ma'lumki, kishilik jamiyatidagi o'zgarishlar bevosita inson ma'naviyatiga bog'liq. Ma'naviy salohiyat davr ruhini anglash, unga monand faoliyat yuritish, ish natijalarini sarhisob qilish mezonidir. Demokratik jamiyatga xos ma'naviy yuksalish jarayonida insonning qadr-qimmat, huquq va erkinliklariga e'tibor kuchayishi salomatlikning yuksak ijtimoiy-madaniy qadriyatga, tibbiy madaniyatning esa zarur ijtimoiy muhofaza vositasiga aylanishiga ta'sir ko'rsatadi.

Inson vujudida sihatni ta'minlovchi noyob muhofaza tizimi mujassam. Ammo bu tizim ma'naviy salohiyat negizida shakllangan tibbiy madaniyat bilan mushtaraklik kasb etsagina bexato ishlaydi. Butun yer yuzida ekologik muvozanat buzilgan hozirgi davrda sog'liqni muhofaza qilish masalasiga yondashuvni ham tubdan o'zgartirish taqozo etilmoqda. An'anaga ko'ra, salomatlik muhofazasi xastalikka chalingan bemorga tibbiy yordam ko'rsatishni, tibbiy madaniyat esa ana shu faoliyatni yuksak saviyada tashkil etishni anglatadi. Profilaktik tibbiyot ustuvorlikka erishgan hozirgi davrda esa bu tushuncha insonga bevosita tibbiy yordam ko'rsatish bilan birga sog'lom hayot garovi bo'lgan tibbiy va ijtimoiy muhitni asrash, kishi salomatligini ta'minlovchi barcha sharoitni yaratishni ham nazarda tutadi. Hozirgi davr voqeligi sog'liqni saqlashni keng ko'lamli ijtimoiy-muhofazaviy faoliyatga aylantirmoqda. Albatta, bunday muhofazaviy tizim jamiyatning butun moddiy va ma'naviy salohiyati bilan ta'minlamog'i lozim. Tibbiy-madaniy tizim salomatlik muhofazasi yuksak saviyada bo'lishiga zamin hozirlaydi va tibbiy amaliyot jarayonida o'zi ham takomillashib boradi. Bugungi kunda tizimning tibbiy-aksiologik, intellektual-kognitiv va funksional tarkibiy qismlarida katta o'zgarishlar kuzatilmoqda. Bu jarayonlarda tibbiy-aksiologik qadriyatlar alohida o'rin egallaydi. Bioetikaga taalluqli g'oyalarga e'tibor kuchayishi bilan sog'liqni saqlash institutsional tizimida yangi tuzilmalarning paydo bo'lishi ham buni tasdiqlaydi.

O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi qoshidagi etika komiteti ana shunday yangi tuzilmalardandir.

Mamlakatimizda huquqiy davlat va fuqarolik jamiyati shakllanishi tibbiy madaniyatning ham yangi taraqqiyot bosqichiga ko'tarilishiga zamin yaratdi. Jumladan, tibbiy faoliyat doirasida ahloq me'yorlari bilan tartibga solinadigan munosabatlar huquqiy norma sifatida qonunlarda aks ettirilishi, tibbiy-iqtisodiy munosabatlarni tartibga soluvchi qonun me'yorlarining yaratilishi tibbiy-madaniyatning ahamiyatini yanada oshirmoqda. Aholining kam ta'minlangan qismiga tibbiy yordam ko'rsatishga oid huquqiy me'yorlar qonunlarda aks ettirilgan tibbiy-ma'naviy qadriyatlarining yanada mustahkamlanishiga xizmat qilmoqda.

Aksiologik kontseptsiyalar. Hozirgi vaqtda qadriyatning tabiatini xilma-xil talqin etuvchi turli aksiologik yo'nalishlar ko'payib bormoqda. Shartli ravishda **aksiologik kontseptsiyalarning** quyidagi turlarini ajratib ko'rsatish mumkin: **obyektiv-idealistik, subyektiv-idealistik, qadriyatning naturalistik nazariyasi, transtsendental, ijtimoiy, dialektik-materialistik.**

Obyektiv-idealistik nazariya (neokantchilik, neotomizm, intuitivizm) qadriyatni zamon va vaqtdan tashqaridagi narigi dunyodagi mavjudlik sifatida talqin etadi. Obyektiv aksiologiya tarafdorlari fikricha:

a) qadriyatlar obyektivdir, ular narsalar, voqelik shakllari yoki ularning mohiyati, mazmuni, ahamiyati bilan uzviy bog'liq;

b) qadriyatlar dunyosining o'ziga xos yashash qonunlari bor, ularning amal qilishi inson irodasiga bo'ysunmaydi;

c) qadriyatlar voqelikning ahamiyati va mezoni sifatida mavjud bo'lganlari uchun amaliy faoliyatni belgilaydi, inson o'z hayotini unga moslashtirishi shart.

Subyektiv-idealistik nazariya (mantiqiy pozitivizm, fenomenologiya, emotovizim, etikadagi lingvistik tahlil, U.Erban, D.Proll, L.Lyuis va boshqalarning asab-iroda qadriyat nazariyasi) qadriyatni ong hodisasi sifatida talqin etadi, unda baholanayotgan obyektga insonning subyektiv munosabati, psixologik kayfiyatining namoyon bo'lishini ko'radi.

Qadriyatning naturalistik nazariyasi (qiziqishlar nazariyasi, tadrijiy etika, kosmik teologik etika) qadriyat ostida inson tabiiy ehtiyojlari yoki yaxlitlikda tabiat qonunlarining aks etishini ko'radi. Masalan, qiziqishlar nazariyasi tarafdorlari narsa-hodisalarning qimmatini insonning unga qiziqishidan kelib chiqib belgilaydi (R. Peri, D. Parker (AQSh), F. Tennant (Angliya)).

Aksiologik trantsdentalizm dunyosida qadriyat – inson ishtirok etishi mumkin bo'lgan (yoki mumkin bo'lmagan) mavjudlikning mustaqil sohasiga ega ideal.

Ijtimoiy kontseptsiya uchun ijtimoiy umumiylik bilan bog'liqlikdagi qadriyatning nisbiyligi xarakterlidir.

Dialektik materialistik yo'nalish tarafdorli qadriyatlar tizimiga jamiyatning tarixiy, iqtisodiy, ijtimoiy rivoji nuqtai nazaridan qaraydi.

Qadriyatning manbai nuqtai nazaridan haqli ravishda qadriyatlar haqidagi ta'limotning quyidagi asosiy turlarini ajratib ko'rsatish mumkin:

-aksiologik psixologizm (V.Vundt, F.Brentano, A.Maynong) qadriyatning manbai sifatida insonning subyektiv dunyosi – uning maqsadi, hissiyoti, irodasi, ehtiyoj va ustanovkasini ko'rib chiqadi. Inson uchun ahamiyatli hamma narsa qadriyatni aks ettiradi;

-aksiologik normativizm (M.Veber, V.Diltey, O.Shpengler) qadriyatning manbai sifatida ko'pchilik odamlarning ijtimoiy madaniy faoliyatini ko'radi. Bu yerda ijtimoiy-madaniy muhitning o'zgarishini ta'minlaydigan me'yor, qoida, baho qadriyat sifatida aks etadi;

-aksiologik transtsendentalizm (G.Lottse, V.Vindelband, G.Rikker) odamlarni oliy maqsadga erishishga yo'naltiruvchi qandaydir o'zaro aloqador ideal mohiyatni qadriyat manbai hisoblaydi.

-aksiologik ontologizm (N.Gartman, M.SHeler, M.Xaydegger) uning yordamida hayot qadriyat sifatida anglanadigan yuqori ratsional intuitsiyani qadriyat manbai sifatida tushunadi.

Nazorat uchun savol va topshiriqlar

1. «Aksiologiya» va «qadriyat» tushunchalariga ta'rif bering.
2. Aksiologiya falsafaning mustaqil sohasi sifatida qachon vujudga keldi?
3. Aksiologik kontseptsiyalar haqida ma'lumot bering.
4. «Toifalash jadvali» asosida aksiologik kontseptsiyalarni qiyosiy o'rganing va tahlil eting.

Mustaqil o'qish uchun adabiyotlar

1. Мустақиллик изохли илмий-оммабоп луғат. / А.Жалолов ва Қ.Хоназаров умумий таҳририда. – Т.: Шарқ, 1998.
2. Фалсафа қомусий луғат. – Т.: Шарқ, 2004.
3. Қадриятлар ва ижтимоий тараққиёт (илмий ишлар тўплами). – Т.: Ўзбекистон, 1997.
4. Слостенин В.А., Чижакова Г.И. Введение в педагогическую аксиологию. – М.: Академия, 2003.
5. Туленов Ж. Қадриятлар фалсафаси. – Т.: Ўзбекистон, 1998.
6. Философия образования XX века. – М.: Педагогика, 1992.

Mustaqil ish topshiriqlari

1-topshiriq. «Pedagog uchun qadriyatlarni o'zlashtirishning ahamiyati shundaki...» mavzusida asoslangan esse yozing.

Topshiriqni bajarish tartibi:

1. Mazkur mavzu yuzasidan o'z nuqtai nazaringizni bayon eting.
2. Nuqtai nazaringizni asoslash uchun dalillar kiriting.
3. Mavzu yuzasidan aniq xulosalar chiqaring.

2-topshiriq. Moddiy, ma'naviy va umuminsoniy qadriyatlarga doir muqobilini tanlab olish testini bajaring.

1. Barcha millat kishilari uchun muqaddas bo'lib, ularni ezgulikka, poklikka da'vat etadi.	A) shaxsiy-individual
2. Xalqning turmush tarzi va uning bugungi ruhiyati, an'analari, madaniyati, psixologiyasi xususiyatlarini ifoda etib, dunyodagi barcha millat va dinga mansub shaxslar uchun keng imkoniyatlar yaratish bilan birga xalqaro demokratik Talablariga javob beradi.	V) milliy qadriyatlar
3. Millatga mansub bo'lgan umumjahon taraqqiyoti qonuniyatlaridan biri bo'lib, o'z millatidan, o'z yurtidan faxrlanish, o'zbek davlati fuqarosi ekanligidan g'ururlanish kabilarni o'zida aks ettiradi.	S) ijtimoiy-siyosiy qadriyatlar
4. Shaxsning ma'naviy-axloqiy olami, nafosati va go'zalligi, huzurhalovati, individual kamoloti, qobiliyati va iste'dodi, his-hayajonlari bilan bog'liq qadriyatlar.	D) diniy qadriyatlar

3-topshiriq. «Aksiologik kontseptsiyalar» mavzusidagi toifalash jadvalini to'ldiring.

Obyektiv-idealistik nazariya	Subyektiv-idealistik nazariya	Qadriyatning naturalistik nazariyasi	Transtsendental nazariya	Ijtimoiy nazariya	Dialektik-materialistik nazariya

II BO'LIM

PEDAGOGIK AKSILOGIYANING NAZARIY- METODOLOGIK ASOSLARI

IV bob. ASOSIY AKSILOGIK MUAMMOLAR VA ULARNING CHET EL PEDAGOGIK FIKRLARI TARAQQIYOTIDAGI RIVOJI

Tayanch tushunchalar: Sharq falsafasi, G'arb falsafasi, O'rta asrlar, Uyg'onish davri falsafasi, sxolastika, kontseptualizm, mistitsizm.

Qadimgi Sharq falsafasida dunyoga qadriyatli munosabatning aks etishi. Aksiologiya qadriyatlarning tabiatini falsafiy tadqiq etish XIX asrning ikkinchi yarmida yuzaga kelgan bo'lsa ham, qadimgi dunyo falsafasidayoq dunyoga qadriyatli munosabat o'ziga xos tavsiflanadi. O'sha davr faylasuflari tabiiy va ijtimoiy hodisalarni baholashda «yaxshilik», «ezgulik», «haqiqat», «foydali», «go'zal» kabi tushunchalardan foydalanishgan.

Qadimgi Sharq falsafasi insonning ichki dunyosini tadqiq etishga katta e'tibor qaratgan. Qadimgi bobilliklarning yaxshilik bilan yomonlikning, ezgulik bilan yovuzlik, boylik bilan qashshoqlikning, zo'rlik bilan xo'rlikning bir-biriga tubdan zid ekanligi, o'zaro qarama-qarshi va murosasizligi haqidagi falsafiy g'oyalarni o'zida ma'lum darajada bayon qiluvchi «Jafokash avliyo haqida doston» va «Xo'jayinning qul bilan suhbat» degan asarlari ham mavjudligini aytib o'tish zarur. Ularning birinchisida – baxt va baxtsizlik, adolat va adolatsizlik ularning sabablari, bartaraf etish yo'llari xususidagi dastlabki falsafiy tasavvur va g'oyalar bayon etilgan. Keyingisida, xo'jayin bilan qul o'rtasidagi ziddiyat ular orasidagi ta'sirli suhbatda ifoda qilingan. Asarda aytilishicha, har gal xo'jayinning istaklarini o'rinli va asosli qilib rad etishga vaj

topadigan quldan ko'ngli sovgan hujayin nihoyat: «Xo'sh, endi nima yaxshi?» deb xitob qiladi. Qul dadillik va istehzo bilan bunday javob beradi: «Mening kallamni ham, sening kallangni ham uzib, daryoga tashlash kerak. Eng yaxshisi ana shu. Osmonga yetish darajasida yuksak, butun yerni qoplab olish darajasida katta odam bormi, axir!». Jaxli chiqib ketgan xo'jayin dahshat bilan qulga qarab: «Ey qul, men seni o'ldirishni va seni mendan oldin ketishga majbur qilishni istayman», - deydi. Bunga javoban qul xo'jayinni ogohlantirib: «Dahshatini olganda, xo'jayinim mendan keyin faqat uch kun umr ko'radilar», - deydi.

Hind falsafasida yuksak reallikni o'zida aks ettiruvchi ruh – braxman orqali «qalb» tushunchasi ochib berilgan. Qalb «sof anglash»ni aks ettiradi va «sof ilohiylik holati»da joylashadi. Hind faylasuflarining mazkur ta'limoti inson tabiatini takomillashtirishning amaliy yo'llarini ko'rsatib beruvchi «Upanishadlar» deb nom olgan.

Dastlab Hindistonda (mil. av. VI asr) paydo bo'lgan, keyinchalik Markaziy, Janubiy, Shimoliy va Sharqiy Osiyoda keng tarqalgan Dzen-buddizm ta'limoti ham insonning ichki holatiga e'tibor qaratgan. Dzen-buddizm ta'limotining ahamiyati ichki o'z-o'zini baxshida etishda namoyon bo'ladi: haqiqatni anglash uchun atrof-muhitni o'rganish kerak emas, o'zini, o'zining «Men»ini Budda bilan qurollantirish zarur. Dzen-buddizm ta'limotining oliy haqiqatga erishish texnologiyasi turli psixologik mashqlarni o'z ichiga oladi. Psixologik mashqlar o'zida insonning o'z-o'zini takomillashtirishi, uning o'z-o'zini axloqiy anglashi, xulq-atvor usulubini shakllantirish dasturi sifatida qarash mumkin bo'lgan turli qadriyatli jihatlarni aks ettiradi.

Qadimgi G'arb faylasuflarning qadriyatga doir sharhlari va ularning mazmuni. Qadimgi G'arb faylasuflari ham qadriyatni turlicha talqin etganlar. Qadriyatga tegishli go'zal va xunuk, yaxshi va yomon, baxt va baxtsizlik tushunchalarini turli davrlarda turlicha va turli odamlar tasavvurida tushunganlar. Ular asosiy aksiologik masalalarni shakllantirishga harakat qilganlar: oliy baxt mavjudmi? Inson hayoti mazmuni nimada? Haqiqat nima? Sevgi nima va

ayriliq nima? Go‘zallik nima? Qadriyatlar tabiatidagi qarama-qarshiliklarni aniqlashgan: go‘zal narsalar insonni jinoyatga boshlashi mumkin; go‘zal so‘z salbiy ko‘rinishdagi mazmuni ifoda etishi mumkin; tashqi go‘zallik – ma’naviy qashshoqlik.

Qadimgi Yunon faylasufi Geraklitning fikricha, bilish asosida idrok turadi, biroq donolikka faqat fikrlash orqali erishiladi.

Demokrit barcha narsalarning o‘lchovi, oliy qadriyat sifatida har qanday insonni emas, faqat dono kishini tushunadi. U Geraklitning fikrini inkor etmagan holda, bilishning asosiy manbasi sifatida hissiy idrok aks etishini ta’kidlaydi. Biroq uning fikricha, hissiy idrok narsa-hodisalar haqida «qorong‘u» bilimlar beradi. Dunyoning mohiyatini tushunish tafakkur yordamida haqqoniy bilimlarni egallashga imkon beradi. Bu esa, hissiy idrokning rolini pasaytirmaydi. Aksincha, Demokrit tarbiyada bola tabiatiga uyg‘unlik, uning qiziqishlarini hisobga olish zarurligi, jazolashning befoydaligini asoslab beradi.

Demokritning atom to‘g‘risidagi nazariyasi ham o‘zida qator tarbiyaviy qadriyatlarni jamlaydi. Masalan, mehnatga doimiy odatlanishni shakllantirish, ishontirish asosida o‘qishga ijobiy motivatsiyani shakllantirish, haqiqatni izlab topish, qalbni qo‘rquvdan xalos etish, ishtiyoqini shakllantirish haqidagi fikrlari shular jumlasidandir.

Haqiqatga erishishga yo‘naltirilgan inson harakatiga Suqrot ham qadriyat sifatida qaraydi.

Aflotun birinchilardan bo‘lib, ta’lim tizimini falsafiy nuqtai nazardan asoslaydi, buning uchun davlat ta’limining zarurligini ta’kidlaydi. U o‘zining davlat, shu jumladan, ta’lim haqidagi ta’limotida g‘oyalarning aqlga asoslangan dunyosi; davlat (jamiyat, polis); individ, fikrlovchi, davlat qonunlariga rioya qiluvchi kabilarni ajratib ko‘rsatadi.

Aflotun yuksak ezgulikning mohiyatini aks ettiruvchi birinchi qadriyatli tasnifni ishlab chiqdi. Ezgulik o‘zida o‘lchov, mo‘tadillik, vaqt bilan bog‘liqlikni aks ettiradi. Bu qadriyatlar taraqqiyot zinapoyasining eng yuqori qismida joylashadi. Ikkinchi o‘ringa Aflotun go‘zallik va komillikni; ulardan so‘ng aql va tafakkurni;

so'ngra – idrok etish va bilimlarni chaqiruvchi qalbning lazzatlanishini qo'yadi. Oxirgi bo'g'inga «yuksak go'zallik» joylashadi.

O'rta asrlarda qadriyatli ongning taraqqiy etishi. O'rta asrlar ta'limotida qadriyat Xudoning marhamati, uning ko'rsatmalari asosi sifatida tushunildi. Xudoda oliy ezgulik mujassamlashadi, u o'zida Haqiqat, Yaxshilik, Go'zallik birligini namoyon etadi va axloqiy qadriyatlarning manbai hisoblanadi.

O'rta asrlardagi aksiologik ong obyektiv va subyektiv qadriyatlarning o'zaro munosabati, ularning birligi va xilma-xilligini aks ettiradi. Uning uchun yaxlitlikda uch ilohiy fozillikni aniqlab beruvchi Ishonch, Umid, Muhabbat kabi ma'naviy qadriyatlarni e'tirof etish xarakterlidir. O'rta asr g'oyalarida Xudo uchun yashash o'z aksini topgan. Insonning qadr-qimmati to'liq uning Alloh bilan ittifoqiga bog'liq bo'lgan. Bu g'oya sof, ilohiy bo'lib, kishi ichki «Men»ining hosil bo'lishi unga bog'liq. Demak, O'rta asrlar ham qadriyatni izohlashda turli-tumanlik tavsiflanadi.

XII asrda sxolastikaning yo'nalishlaridan biri sifatida qadriyatni insonning tafakkur kuchi sifatida tavsiflovchi nominalizm (kontseptualizm) rivojlandi.

Kontseptualizm vakillari – Per Abelyar, Ioann Soleberiyский va boshqalar – o'rta asrlardagi realizm ta'limotini rad etishdi, biroq nominalistlardan farqli ravishda bilish faoliyatining asosiy shakli sifatida ongda umumiy tushunchalarning mavjud bo'lishini e'tirof etishdi. Kontseptualistlar inson qadr-qimmatini ilohiy hodisa emas, uning tafakkur kuchi sifatida ta'riflashdi. Axloqiy ideal ham tafakkur qadriyati sifatida ta'riflanadi (Abelyar).

Mo'tadil mistitsizm vakili Gugo Sen-Viktorskiyning ta'kidlashicha, samo (Yaratgan)ni anglash uchun o'zini anglash zarur. Bilimni qadriyat sifatida ta'riflab, u bilimlarni o'zlashtirishning shart-sharoitlarini shakllantirdi: tabiiy qobiliyatlar, to'g'ri ko'rsatma va topshiriq, aqlning kuchliligi va mustahkam xotira. Bilimlarni o'zlashtirishga uch asosiy metod yordamida erishiladi: o'qish; haqiqatni ochib beruvchi diniy kitobni mushohada etish; o'rganishga tirishqoqlik. Faylasufning asosiy pedagogik

qoidalari pedagogik jarayonning maqsad, mazmun, metodlari aniqlab berilgan va u «Didaskalion» asarida aks etgan. Bilimlarni o'zlashtirishning asosiy metodlari sifatida Sen-Viktorskiy o'qish, o'quvchining xotirasini rivojlantiradigan mashq, tirishqoqlik, fikrlashga o'rganish deb hisobladi.

Uyg'onish davrida sxolastika rasmiy falsafa sifatida qolaverdi, faqat Shaxsni, uning Taqdiri va huquqlarini, inson baxt-saodati, uning har tomonlama rivojlanishi, kishilarning ijtimoiy hayotlari uchun qulay shart-sharoitlarni yaratishni qadriyat deb biluvchi insonparvar madaniyat paydo bo'ldi. Uyg'onish davri gumanistlari individning har tomonlama va barkamol rivojlanishi uchun harakat qilishdi, shuning uchun ular qadriyat tushunchasini inson bilan o'zaro aloqadorlikda qarashgan. Qadriyatlar inson shaxsining o'zini qadriyat sifatida anglash orqali tahlil etilgan, shuning uchun qadriyat inson ular haqida qanday fikrga egaligiga qarab, moddiy bog'liq bo'lgan (Monten).

Mishel Monten «Tajribalar» asarida mohiyatiga ko'ra, inson tabiati tahlilini beradi va har qanday odam o'zida butun insoniyat tabiatini mujassam etadi. «Haqiqatan ham, o'zida o'zining tabiiy mohiyatini namoyon eta olishga loyqlik barkamollik belgisi va ilohiy sifatdir. Biz o'z mohiyatimizda yashamasdan, kimdir bo'lishga harakat qilamiz va nimaga qobiliyatli ekanligimizni bilmagan holda, o'zimizning tabiiy chegaramizdan chiqamiz. Yog'och oyoqda turishning bizga keragi yo'q, chunki yog'och oyoqda tik turish uchun o'zimizning oyog'imizga suyanishimiz kerak bo'ladi. Va hatto eng baland martabalarga ham biz o'zimizning orqamiz bilan o'tiramiz.

Mening fikrimcha, umuminsoniy mezonlarga ko'ra tafakkur ruhiga tenglashadigan odamlargina eng ajoyib hayotda yashashadi».

Umuman olganda, Uyg'onish davrining yangiligi inson shaxsini qadriyat sifatida anglashda namoyon bo'ladi. Mazkur davrda qadriyat tushunchasi «umuminsoniy mezon» nuqtai nazaridan ko'rib chiqiladi (L.N.Stolovich).

XVII asr falsafasida inson shaxsi ko'rib chiqishda uning aqliga emas, fikrlash qobiliyatiga urg'u beriladi. Birinchi navbatda

qadriyat sifatida quyidagilar qaraladi: Iroda, Erkinlik, individning ichki faolligi (B.Spinoza), insonning fikrlash faoliyati (B.Paskal), «manfaat» tushunchasining ikki jihati izohlanadi: shaxsiy va ijtimoiy (F.Bekon). Obyektiv va subyektiv qadriyatlar farqlanadi: yaxshilik va yomonlik, haqiqiy va xayoliy(T.Gobbs). «Qadriyat» tushunchasini «foydalilik» tushunchasi bilan bog‘liqlikda ba’zi faylasuf olimlar iqtisodiy mazmun bilan to‘ldiradilar (D.Lokk). Mazkur davrda individ abstrakt inson emas, mustaqil, faol harakatlanuvchi subyekt, unda tabiatan in’om etilgan imkoniyatlarni amalga oshirishga qobiliyatli sifatida qaraladi.

Keyinchalik nafaqat falsafiy, balki pedagogik fikrlarning rivojlanishiga ta’sir ko‘rsatgan insonning psixologik jarayonlari, uning shaxsiy sifatlari, ijodiy fikrlash Uyg‘onish davri falsafasini o‘rganish predmeti bo‘ldi.

Nazorat uchun savol va topshiriqlar

1. Qadimgi Sharq falsafasida qanday qadriyatlarga alohida e’tibor qaratilgan?
2. Qadimgi bobilliklarning afsonalarida qanday qadriyatlar ulug‘langan?
3. Qadimgi Hind falsafasida «qalb» tushunchasi qanday ifoda etilgan?
4. Dzen-buddizm ta’limotining asosini nima tashkil etadi?
5. Qadimgi yunon faylasufi Geraklit bilishga doir qadriyatlarga qanday munosabat bildirgan?
6. Demokrit moddiy va ma’naviy qadriyatlar uyg‘unligini qanday asoslaydi?
7. Aflotun tomonidan ishlab chiqilgan qadriyatlar tasnifi qanday tuzilishga ega?
8. O‘rta asrlarda aksiologik ong qanday shakllarda namoyon bo‘lgan?
9. Uyg‘onish davri falsafasida qaysi qadriyatlarga alohida urg‘u berilgan?

10. Chet el olimlaridan kimlar qadriyatlar tabiatini tadqiq etganlar?

Mustaqil o'qish uchun adabiyotlar

1. Фалсафа қомусий луғат. – Т.: Шарқ, 2004.
2. Hoshimov K., Nishonova S. Pedagogika tarixi. – T.: «Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston milliy kutubxonasi» nashriyoti, 2005.
3. Каримов И., Рустамова М. Фалсафа фани тарихи ва назарияси. – Т.: ТДПУ, 2007.
4. Туленов Ж. Қадриятлар фалсафаси. – Т.: Ўзбекистон, 1998.
5. Слостенин В.А., Чижакова Г.И. Введение в педагогическую аксиологию. – М.: Академия, 2003.

Mustaqil ish topshiriqlari

1-topshiriq. «Chet el olimlarining pedagogik aksiologiyaga doir qarashlari» mavzusidagi toifalash jadvalini to'ldiring.

Toifalar		
Qadimgi Sharq falsafasida dunyoga qadriyatli munosabatning aks etishi	Qadimgi G'arb faylasuflarning qadriyatga doir sharhlari	O'rta asrlarda qadriyatli ongning taraqqiy etishi.

2-topshiriq. Aflotun tasnifi bo'yicha quyida keltirilgan qadriyatlarni turkumlashtiring.

- 1) o'lchov, mo'tadillik, vaqt bilan bog'liqlik;
- 2) go'zallik va komillik;
- 3) aql va tafakkur;
- 4) idrok etish va bilimlarni chaqiruvchi qalbning lazzatlanishi;
- 5) yuksak go'zallik.

V bob. QADRIYAT G‘OYASI VA UNING MILLIY FALSAFADAGI RIVOJI

Tayanch tushunchalar: «Avesto», islom, tasavvuf ta’limoti, komil inson, insonparvarlik, fozil odamlar shahri, ma’rifatparvarlik, muruvvat, saxovat.

«Avesto» - qadriyatlar manbai. «Avesto» – zardushtiylik dinining muqaddas kitobi hisoblanib, dastlabki Sharq falsafiy qarashlarini o‘zida aks ettiruvchi manbadir. Unda insonni kamolotga erishuvda mehnat, ezgulik, insoniylik, soflik, bag‘rikenglik kabi sifatlarning ahamiyati chuqur ifodalangan.

Zero, zardushtiylikda axloqiylikning asosi, sahovatlilik belgisi – mehnat deb ko‘rsatilsa, ishyoqmaslik barcha nuqsonlarni keltirib chiqaruvchi sabab ekanligiga urg‘u beriladi. Ayniqsa, dehqonchilik sohasida qilinayotgan mehnat yaxshilikni yuzaga chiqaruvchi asosiy omil, deya ta’kidlanadi. Dehqonchilik bilan shug‘ullanish, mo‘l-ko‘l hosil etishtirishga qaratilgan harakat Axura Mazda qonuniga bo‘ysunish sanalgan. Don ekan kishi taqvodorlik urug‘ini ekishi, Mazdaga ixlosmandlik e’tiqodini ilgari surishi, imonni oziqlantirib turishi o‘n ming marta ibodat qilish bilan barobar, yuzlab qurbonlik qilishga teng deyiladi. G‘alla yerdan unib chiqqanda, devlar larzaga keladi, g‘alla o‘rib olinayotganda devlar nola-faryod chekadi, g‘alla yanchib, un qilinayotganda ular qocha boshlaydi, xamir qilinganda esa devlar mahv bo‘ladi. G‘allaning mo‘l-ko‘l bo‘lishi devlarning labiga qizitilgan temir bosilgandek ularni tum-taraqay qiladi.

Ushbu misollarda «Avesto»da inson mehnati tufayli barcha yomon xislat, yomonlik hamda yovuzliklardan qutilishi mumkin, degan g‘oya ilgari suriladi.

«Avesto»da inson fikri, so‘zlari va ishlariga ikki qarama-qarshi kuch: Voxu Mana (Ezgu fikr) va Ako Mana (Yovuz fikr) ta’sir ko‘rsatadi, deyiladi. Barcha fikr, so‘z va ishlar asosida aslida

ezgulik va yovuzlik yotadi («Yasna», 30-bob). Asta-sekin axloqiy tushunchalar shaxsiy mazmun kasb eta boshlaydi. Masalan, «yaxshi soʻzlar» deganda ahdida turish va berilgan vaʼdani bajarish kabilar nazarda tutilsa, «yaxshi amallar» deganda esa, savdo-sotiq ishlarida halol boʻlish, qarzni vaqtida toʻlash, oʻgʻrilik va talonchilik qilmaslik, oʻzgalarning moliga koʻz olaytirmaslik, buzuqliklardan oʻzini tiyish, atrofdagilarga ziyon yetkazadigan har qanday harakatni sodir etmaslik va hokazolar tushunilgan.

Ezgu kuchlarga yovuz kuchlar qarshi boʻlgan. Yovuz ruhlarga Drudjo (yolgʻonchilik ruhi) boshchilik qilgan. Unga Yovuz fikr (Ako Mana), Talonchilik ruhi (Eshma) yordam bergan. Yovuz, yomon fikr - Ako Mana, yomon soʻz – Drudjo hamda yovuz amal, yomon ish – Eshma obrazlari timsoli yordamida ifoda etilgan.

Zardusht yovuzlik kuchlariga koʻmaklashgan kishilarga nisbatan ayovsiz munosabatda, shuningdek, chorvachilik rivojiga xalal beruvchi yolgʻonchilik ixlosmandlariga qarshi kurashda esa shafqatsiz boʻladi. «Kimki menga sodiq boʻlsa, eng yaxshi narsaga musharraf boʻladi, kimki sodiq boʻlmasa, unga eng yomon narsa nasib etadi... Kimki meni – Zardushtni quvvatlasa, buning evaziga istagan barcha narsalari bilan birgalikda bir juft sogʻin sigir ham oladi» («Yasna», 46-bob), deyiladi asarda.

«Yaxshi fikr» iborasining mazmuni oʻzida ilohiy qonun ruhidagi gʻoyalarga ega boʻlish, yaqin kishisiga nisbatan mehribonlik koʻrsatish, muhtojlarga koʻmaklashish, yovuzlikka qarshi kurashga doimo tayyor turish, kishilarning baxt-saodati yoʻlida harakat qilish, ahillik, qabiladoshlar bilan birga doʻstlik va totuvlikda yashashga intilish ruhidagi niyat va fikrlar musaffoligini aks ettiradi. Inson fikran ham boshqalarga hasad qilmasligi lozim. Yaxshi niyatli kishi dargʻazab boʻlmaydi, jaholatlarga berilmaydi.

«Avesto» taʼlimotida jismoniy va maʼnaviy dunyo uch hayotiy davrga boʻlinadi.

Birinchi davr eng qadimgi davr sanalib, u ilk hayotni bildiradi. Bunda ham jismoniy, ham maʼnaviy dunyoda yaxshilik tantana qiladi. Dunyoda yorugʻlik va insoniy saodat hukmron

bo'lgan. Yagona jinoyatchi – hokim Yima Vivaxvant bo'lib, u kishilarni batamom rozi qilmoq uchun ularga mol go'shti ediradi.

Ikkinchi davr hozirgi davr bo'lib, bu davrda yaxshilik ruhlari bilan yomonlik ruhlari o'rtasida kurash davom etadi.

Uchinchi davr – bo'lg'usi hayot. Bu davrda aql-idrok va adolat tantanasi o'rnatiladi. Bo'lg'usi yaxshi hayotni Artu o'rnatib, dehqonlar badavlat, hokimiyat esa mustahkam bo'ladi, deyiladi. «Yaxshilik ta'limni va sadoqatni amalga oshirib yaxshi hokimlar hukm yuritaversinlar. Odamlarga va ularning avlodlariga baxt-saodat keltiradigan ta'limni amalga oshirsinlar».

Xulosa qilib aytganda, «Avesto» asarida insonning barkamol bo'lib yetishishida uning so'zi, fikri hamda ishi bir bo'lishiga katta e'tibor beriladi. Ushbu axloqiy uchlik g'oyasi eng qadimgi davrlardan boshlab kishilik jamiyati taraqqiyotining barcha bosqichlarida yaratilgan komil inson muammolariga bag'ishlangan Sharq falsafiy fikrlari mazmunining shakllanishiga asos bo'lgan desak, xato qilmagan bo'lamiz. Zero, unda odamning inson sifatida ma'naviy va moddiy kamol topishi uchun zarur bo'lgan muayyan talablar o'z ifodasini topib, hayot kodeksi sifatida nafaqat Sharq, balki G'arb xalqlarining ham muqaddas ma'naviy merosiga aylangan.

Tasavvuf ta'limotida aksiologik fikrlarning aks etishi.

Komil inson haqida gap ketganda, axloq-odob tamoyillariga urg'u berilishi bejiz emas. Nainki, odamning insonligi, uning ongli mavjudot sifatida hayot kechirishi va turmush tarzi, tabiat, jamiyat va odamlarga bo'lgan turli-tuman munosabatlarida namoyon bo'ladi. Uning axloq-odobi ana shu insoniy axloq chegarasida turib muomala qilishi, tarixan o'z axloqiy tushuncha va tasavvurlarini boyitib, kengaytirib va rivojlantirib kelganidan dalolat beradi. Lekin odamzot va uning ma'naviy dunyosi shunchalik keng va murakkabki, u ayrim insoniy fazilatlar, ko'nikish va salohiyatlari bilan chegaralanib yoki belgilanib qolmaydi. U murakkab jismoniy, aqliy va ruhiy mushtaraklikni taqozo etadi. Ana shunday murakkablikning tizimlashtirilgan ko'rinishi tasavvuf ta'limotida o'z aksini topgan.

Tasavvuf ta'limoti VIII asr oxiri va IX asr boshlarida paydo bo'lib, butun musulmon mamlakatlarida, jumladan, Movaroun-nahrda ham keng tarqalgan. Tasavvuf butun Sharq ma'naviy hayotida inson kamoloti haqidagi g'oyalarning shakllanishida muhim rol o'ynagan.

So'fiylik ta'limotida komil inson – bu dono, oqil, pok niyatli odamdir. Ular ilohiy poklik, nafosat, e'tiqod va tafakkur insoniyatni balo-qazolardan asraydi, ularni avaylab asraydi, deb bilganlar. So'fiylar ana shu yo'l, – mana shu haqiqat uchun intilganlar. Aslida esa, komil inson – bu ularning ideali, orzusi bo'lgan. Ular ana shu komil inson, ma'rifatli inson ideali orqali johiliyat va nodonlikka, hirs va ta'maga qarshi bel bog'laganlar.

Taniqli olim N.Komilov ta'rifi bilan aytganda: «Komil inson — bir ideal, barcha dunyoviy va ilohiy bilimlarni egallagan, ruhi mutlaq ruhga tutash, fayzu karomatdan serob, siyrat-u, suvrati saranjom, qalbi ezgu tuyg'ularga limmo-lim pokiza zot».

Sharq falsafiy tafakkuri tarixida komil insonga bag'ishlangan qator kitoblar yaratilgan. N.Komilov Sayyid Abdulqodir Geloniy (Jeloniy) va Aziziddin Nasafiy (XII asr), Shayxi Kabir Muhyiddin ibn al Arabiy (1165-1240 yy.), Abdulkarim Jili (1417 yilda vafot etgan) kabi allomalar tomonidan bu tushuncha muomalaga kiritilgani, Shayx Aziziddin Nasafiy esa komil inson nazariyotchisi sifatida tarixda qolgani haqida muhim ma'lumotlar beradi.

Aziziddin Nasafiy ta'rifida komil inson shariat, tariqat va haqiqatda yetuk bo'lgan odam, unda quyidagi to'rt narsa kamolga yetgan bo'ladi: yaxshi so'z, yaxshi fe'l, yaxshi axloq va maorif.

Aziziddin Nasafiy bu ta'rifda zardushtiylik ta'limotidagi axloqiy uchlikka asoslanadi hamda u komil insonga mavhum inson emas, hayotdagi real odam sifatida qaraydi. Ya'ni Aziziddin Nasafiy komil insonni odamzot uchun foyda keltiruvchi shaxs sifatida ta'riflab, haqiqiy komillik ma'naviy-axloqiy poklanish evaziga yuzaga kelishini, u haq yo'lidan borib, xalqqa foyda keltirishini ta'kidlaydi.

Demak, Aziziddin Nasafiy bu fikri bilan komillikning mezoni sifatida ikki narsani: birinchisi, hamida axloq, ya'ni mo'min-

musulmon, solih inson bo'lish, ikkinchisi, o'z-o'zini anglash deb qaraydi. Bu ta'limoti bilan Aziziddin Nasafiy ham axloqli, mo'min-musulmon, ham o'zligini tanigan insonlar haqiqiy komil inson degan g'oyani ilgari surgan. Lekin bu ta'riflar nisbiy bo'lib, barcha allomalar ham ruhiy-ma'naviy qudrat, aql-u zakovat, yaxshi xislatlar jamuljami ifodalangan insonni, shunga intilib yashagan ulug' bir zotni Komil inson deb tushunishgan.

So'fiylar inson ma'naviy-ruhiy komillikka erishish yo'llarida to'rt bosqichni o'tishi kerak, deydi.

Birinchi bosqich – shariat. Diniy marosimlar va shariat aqidalarini, taqvolarini aynan, izchil bajarish, chunki shariat qonun bo'lib, bu qonun vujudni va qalbni tarbiyalaydi.

Ikkinchi bosqich – tariqat: nafsni tiyish, xushnudlik, xudoni o'ylash, xilvat, ma'naviy muhabbatni chuqurlashtirib, xudo to'g'risida o'ylash, ya'ni tariqat – fano, o'zdan kechish, ko'ngilni poklab, ruhni nurlantiruvchi yo'l, faoliyat shakli.

Uchinchi bosqich – ma'rifat: hamma narsaning, butun borliqning asosi – xudo ekanini, o'zining mohiyati xudo mohiyati bilan birgaligini bilish va anglash. Bunda odam uchun barcha kibr-u havo, manmanlik, shon-shuhrat bema'ni bo'lib ko'rinadi, shunda u orif, ya'ni bilimli, xudoni tanigan bo'ladi.

To'rtinchi bosqich – haqiqat. Bunda so'fiy xudoning dargohiga erishadi, vasliga vosil bo'ladi, u bilan birlashadi, shu orqali inson foniy, ya'ni «analhaq» bo'la oladi.

Mazkur oqim tarafdorlaridan birinchi so'fiy eronlik Abu Yazid Tayfur al-Bistomiydir (875-yilda vafot etgan). So'fiy Husayn ibn Mansur Xalloy esa o'zining xudo bilan «qo'shilgani»ni isbotlash uchun «Anal haq» («Men haqiqatman») deb o'z ta'limotini e'lon qildi. U payg'ambar va «Qur'on»ning muqaddasligini yo'qqa chiqarishga uringanlikda ayblanib, xurofotchilarning ig'volari tufayli qatl etildi. Chunki bu ta'limot saroy va johiliyat bilan yaqinlashgan ba'zi ilm-u kamol va ilohiyot ulamolariga yoqmaydi, qalbni Oliy haqiqatga erishishi uchun poklash yo'lida qilingan ezgu ta'limot bid'at deb e'lon qilinadi.

Tasavvufning ikkinchi oqimiga mansub bo'lgan so'fiylar birinchi oqim namoyandalari qarashlarini qabul qilgan, ammo ularni islom dini qonun-qoidalarga moslashtirganlar. Bu oqimning eng mashhur nazariyotchisi – Zayniddin binni Muhammad imom G'azzoliy (1058-1111 yy.), Ahmad Yassaviylardir.

Imom G'azzoliy «Hujjatul Islom» nomini olgan so'fiylik asoschilaridan sanaladi. Uning haqida hatto «Qur'on» yo'qolib qolsa, uni G'azzoliyning asarlari bo'yicha tiklash mumkin», deb aytganlar. Chunki Imom G'azzoliyning «Tahofut al-falosifa» («Faylasuflarni rad etish»), «Kimyoi saodat» («Saodat kimyosi»), «Ixya al-ulum addin» («Diniy ilmlarni tiriltirish») kabi islom ilohiyoti tizimini ishlab chiqqan asarlari shunday deyishga asos bo'lar edi.

G'azzoliy insonning kamolga yetishi, ya'ni xudo vasliga yetishi uchun ma'lum shartlarni bajarib, muayyan yo'lni bosib o'tishi kerak, deydi. Bu yo'llarni u har bir so'fiy Islom talablari – qonun-qoidalari, aqidalarini, Qur'oni karimni haqiqat deb bilib, unga tobe bo'lishi va ularni so'zsiz bajarishida, deb biladi. G'azzoliy tasavvuf nazariyasi haqida gapirib, ular haqiqatni mantiqiy mulohazalar asosida emas, balki ichki kechinmalar orqali bevosita induktiv tarzda anglaydi, deb ko'rsatadi. Shuning uchun tasavvufning ichki holatini nazariy bilim, suhbat, o'qish orqali emas, balki shu holatga, ularning turmush tarziga kirish orqaligina anglash mumkin, deydi. Demak, amaliyot orqaligina tasavvufning asl mohiyatini anglash mumkin, degan xulosa chiqarildi.

U ana shu yo'l ko'ngilni his bilan yaratilgan ma'lumotlardan ozod etadi, ana shunda ma'rifat manba'i paydo bo'lib, dunyo ravshanlashadi, o'rganish yo'li bilan emas, balki o'zidan chekinish, ma'naviy vujudning qaytadan tug'ilishi orqaligina xudo vasliga yetish, foniy bo'lish mumkin, deb ta'lim beradi. Demak, G'azzoliy qalb pokligiga ma'naviy vujudning qaytadan tug'ilishi orqasidagina oxirgi chegaraga erishish mumkinligini ta'kidlaydi va shu yo'lni targ'ib etadi.

Tasavvufning uchinchi oqimi – bu naqshbandiya ta’limoti bilan bog’liq. Bu oqim XIII asrning oxirlarida shakllana borib, XIV-XV asrlarda Movarounnahrda rivojlangan.

Naqshbandiya ta’limoti o’zining hayotiyiligi bilan boshqa tariqatlardan ajralib turadi. Mazkur tariqatning ildizi uzoqlarga, Uyg’onish davriga borib taqaladi. S.Olimov ingliz olimi J.S.Trimingemning tadqiqotlariga asoslanib, O’rta Osiyoda ikki buyuk olim – Abdulhasan Ali al-Xoroqoniy (1034 yilda 80 yoshida vafot etgan) hamda Abu Ali al-Farmadiy (1084 yilda vafot etgan)larning tasavvuf rivojida hissasi katta ekanligini ta’kidlaydi. Tasavvuf olamida mashhur faylasuf Ahmad al-G’azzoliy va Yusuf Hamadoniylar (1049-1140 yy.) ana shu yuqorida zikr etilgan Farmadiyning shogirdlari bo’lgan.

Yusuf Hamadoni to’rt mashur xalifa (Xoja Hasan Andoqiy, Xoja Abdulloh Barraqiy (Barqiy), Xoja Ahmad Yassaviy, Xoja Abdulxoliq G’ijduvoni Xojagon)dan tasavvufdan chuqur ta’lim olgach, Naqshbandiya tariqati vujudga keldi.

Tariqat ilmi sohibi ma’lum tahsilni olib, tariqat peshvosi darajasiga yetgach, Xojagon (keyinchalik Naqshbandiya) tariqatini belgilaydigan va aqidalari hisoblangan asosiy talablarni yaratadilar. Bu aqidalarning to’rttasiga dastlab Yusuf Hamadoni tomonidan tartib berilgan bo’lib, ular:

1.Xush dar dam – tiriklik nafasda – ichkaridan chiqayotgan har bir nafas ogohlik va huzur yuzasidan bo’lishi, g’aflat unga yo’l qo’ymasligi kerak. Hazrati Xoja Bahouddin bu rashha haqida: «Bu yo’lda ishning asosini nafas ustiga qurmoq kerakki, zamonning vazifasiga mashg’ul bo’lishda xayolni o’tmishdan va fikrni kelajakdan ozod etsin va har bir nafasni zoye ketmaslikka urinsin», – deb ta’lim bergan.

2.Nazar bar qadam – nazar qadamda, solik yo’l yurganda uning nazari doimo oyoq panjalarida bo’lsin, nazari sochilmasin va keraksiz joyga tushmasin, degan ma’noni bildiradi. Bu – har bir ishga mas’uliyat bilan qarash, behuda narsalarga hayotni sarf etmaslikka undaydi.

3. Safar dar vatan – solik odamiylikning tabiatida safar qilsin, ya’ni yomonlikdan yaxshilik tomon yursin, degan ma’noni bildiradi.

Abdurahmon Jomiyning bir bayti sharhida «Yurakning ma’naviy oynasi olamning zabt etuvchi zahmatlaridan xalos bo’lsa, soflik va nuroniy bilan bezansa, tabiiy xohishlar zulmati undan ko’tarilsa, yaratuvchi tajalliyoti va ilohiy sifatlarni qabul etish uchun safar va sulukka hojat qolmaydi, chunki safar va sulukdan maqsad, yurakka sayqal berish va uni tozalashdir», deb ta’kidlanar ekan, suluk safar qilish-qilmasligi ularning xojagonlar malakasini hosil qilishlariga bog’liq. Agar o’z yurtlarida bunday ta’limni amalga oshiruvchi azizni topsalar, tarki safar aylab «chidam xislati»ni hosil qilmog’i «xojagonlarning nisbat malakasini qo’lga kiritish»i mumkin, – deyiladi.

4. Xilvat dar anjuman – solik tashqi tomondan xalq bilan, qalban haq bilan birga degani.

Yuqoridagi to’rt aqidaga Abdulxoliq G’ijduvoniylar yana to’rt aqida – talabni qo’shadi: **yodkard, bozgasht, nigohdosht, yoddosht.**

Xoja Bahouddin Naqshband esa o’zining uch talabini qo’shadi: **vuqufi zamoniylar, vuqufi adadiylar, vuqufi qalbiylar.**

Naqshbandiya tariqati odob-axloq tariqati, chunki bu tariqat aynan insonning ma’naviy-axloqiy kamolga yetishi uchun qay darajada xulq-odob talablariga javob berishi, uni egallab olishiga bog’liqdir. Buni biz Hazrat Bahouddinning ma’naviy qiyofasidan ham bilsak bo’ladi. «Maqomat»da shunday deyiladi: «Ularning yaxshi xulq va tavozelarining chegarasi yo’q edi. Ularning axloqlaridan biri shuki, agar ular biror do’st yoki darveshning uyiga borib qolsalar, ularning barcha farzandlari va yaqinlarining hamda xizmatkorlarining ahvolini so’rar va har birining ko’nglini bir yo’l bilan topar edilar... Do’st-hamsoyalari va darvesh-oshnolardan hamisha rozi va xushnud bo’lardilar. Ularning bu lutfi har bir kishiga to’g’ri yo’l uchun dalolat qiluvchi edi».

Naqshbandiya tariqati asosida har bir insonning halol, pok bo’lishi, o’z mehnati bilan hayot kechirishi kerakligi, sabr-qanoatli bo’lishi, kamtar, samimiylar bo’lishi, iymon va e’tiqodini mustahkam

tutish, dilda xudoni yod etib, amalda xalq bilan birga bo'lish kabi oliyanob xislatlarni tarkib toptirish yotadi. Bu xislatlarni egallab borish jarayonida inson poklana boradi va ruhan Alloh vasliga yetishga o'zini tayyorlaydi.

Naqshbandiya tariqati kishilarda mehr-oqibat, samimiylik, halollik, mehnatsevarlik, rostgo'ylik, sabr-qanoatning tarkib topishiga yo'llar ekan, ularda yomon illatlar: harom ishlardan saqlanish, ya'ni o'g'rilik, nopoklik, xasislik, yolg'onchilik, firibgarlik, ta'magirlik, boylikka hirs qo'yish kabilarni qoralaydi. Buni biz Hazrati Xojaning o'z aytganlaridan ham bilsak bo'ladi: «Shamga o'xshagin, toki hammaga ravshanlik bag'ishla, o'zing esa qorong'uda bo'l»; «Hoyu havas va nafs ahllari tutgan ishlar asosining barchasi zalolat (adashuv)dan iboratdir. Ishlarda niyatni to'g'ri qilish eng muhim narsadir», «Kishi o'zining nafsiga tuhmat qilishi kerak. Kimki haq subhonahu inoyati bilan o'z nafsining yomonligini tanigan, uning hiyla-nayrangini anglagan bo'lsa, bunday qilish unga oson bo'ladi. Bu yo'ldan yuruvchilarda o'zgalarning gunohini ham o'zlaridan deb bilish hollari ko'p bo'ladi».

Ibrohim Haqqul aytganidek, tasaffuf ahli inson xulqidagi barcha noqislik, jamiki yomonliklar bilan kurashuvchilardir. Demak, tasavvuf – bu hayotdir. Hayot esa, yaxshilik bilan ham, razilliklar bilan ham to'la. Tasavvuf ahli hayotni ana shu razilliklardan tozalashda har bir insonning o'zini ma'naviy jihatdan poklash uchun kurashuvchilardir.

Arab musulmon olami Uyg'onish davri mutafakkirlarning aksiologik qarashlari. Ko'plab ijtimoiy qarama-qarshiliklarga qaramay, O'rta Osiyolik qomusiy mutafakkirlar faqatgina tabiatshunos olimlarga bo'lib qolmadilar. Shuningdek, ular insonparvarlik g'oyalarini targ'ib etuvchi va izohlab beruvchi faylasuf-mutafakkirlar sifatida ham nom qoldirishdi.

Ilg'or mutafakkirlar – Abu Nasr Forobiy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sinolar ijtimoiy tuzum, davlatning gullab-yashnashi uchun zarur bo'lgan insonparvarlik g'oyalarini ilgari surishdi hamda insonparvarlashuv bosqichlari tamoyillarini ishlab chiqishdi.

O'rta asrlar Sharq fani va madaniyati yetakchilari orasida shubhasiz, o'z davrida zamondoshlari tomonidan «Muallim ussoniy» («Ikkinchi muallim») deb nom berilgan Abu Nasr Forobiy (870-950) birinchi o'rindan joy oladi.

Forobiyning ijtimoiy g'oyalari nihoyat darajada taraqqiyparvar va insonparvardir. U insonni ijtimoiy hodisa sifatida qaraydi va odamlar orasidagi insonparvar munosabatlar ularning qiziqishlari, xohish-istaklari va o'zaro yordam berishlarining birlashuvi asosida yuzaga chiqadi, deb hisoblaydi. «Fozil odamlar shahri» asarida olim hukmdor timsolida o'zida aql, iroda, ilm-fanga qiziqish, adolatparvarlik, mulohazakorlik, uddaburonlik kabi sifatlarni jamlovchi komil insonga xos jihatlarni mujassamlashtiradi.

Inson muammosi va uning rivojlanishi Forobiy falsafiy tizimining eng muhim va murakkab tarkibiy qismini o'zida aks ettiradi. Buning sababi, uning ijtimoiy, ijtimoiy-siyosiy ta'limoti markazida har tomonlama barkamol inson va insoniyat, ularning umumiy baxti, yuksak fozillikka erishuvi yo'llari va usullari muammosi turadi. Bularning barchasi olim dunyoqarashi yuksak insonparvarlikka asoslanganidan guvohlik beradi.

Olim ayniqsa, axloq, inson xulq-atvori, va uning ta'lim-tarbiyasiga katta ahamiyat beradi. Uning fikricha, inson ma'naviyatining yuqori darajasi qalbi, aqli va fikrlashida aks etadi.

O'zining asarlarida mutafakkir yuksak axloqiy sifatlar – mardlik, saxiylik, do'stlik, qanoatlilik, odamlar bilan birgalikdagi faoliyatda insoniy xulq-atvor me'yorlariga amal qilish zaruriyati haqida alohida to'xtalib o'tadi.

«Fozil odamlar shahri», «Baxt saodatga erishuv haqida kitob» kabi asarlarida olim odamlar va davlatning taqdirida diniy ta'limotlarda oldindan belgilab qo'yilganiga qarshi o'laroq, taraqqiyot va rivojlanish manbai sifatida ijodiy faoliyatning muhimligini ta'kidlaydi. Ayniqsa, insonning bilimlarni egallashi, o'zida hissiy va ma'naviy ehtiyojlar orasidan keraklilarini tanlab olish ko'nikmasini hosil qilishda yordam beradigan irodaning roli katta ekanligini alohida ajratib ko'rsatadi.

Forobiy komil insonning muhim sifatlaridan biri bilishga, ilm-fanni o'rganishga ishtiyoqdir, deb hisoblaydi.

Forobiy har tomonlama mukammal inson timsolini quyidagi sifatlarga ega bo'lgan hukmdor qiyofasida gavdalantiradi:

- jismoniy yetuk;
- aqliy yetuk, u unga gapirilayotganlari orasidan to'g'risini ajrata olish qobiliyatiga ega bo'lishi;
- yaxshi xotiraga ega bo'lishi; nimani ko'rgan, eshitgan, nima haqida fikr bildirilgan bo'lsa, barchasini eslab qolishi;
- notiq bo'lishi, yoqimli so'zlashi va o'z fikrini tushunarli bayon eta olishi;
- bilimlarga hurmat bilan qarashi va ulardan foydalanishi; bilimlarni egallashdagi azob-uqubatlardan qo'rqmasligi va ularni azob va qiyinchilik deb hisoblamasligi;
- sababsiz iste'mol qilishdan saqlanishi, yaxshi narsalarni yeyishga qiziqmasligi, mast qiluvchi ichimliklar va haddan ziyod to'kin-sochinlikka nafrat bilan qarashi;
- bilimli kishilarga hurmat bilan, nodon, yolg'onchi, yomon niyatli, tarbiyasiz kishilarga esa, nafrat bilan qarashi;
- qabihlik, haqoratgo'ylik va manmanlikdan o'zini tiyishi;
- boylik – oltin, kumush va boshqalar uning uchun qadrli bo'lmasligi;
- adolatlilikni sevishi va unga amal qiluvchilarni hurmat qilishi, jabr-zulmga, zolimlarga nafrat bilan qarashi; o'zi muloyim bo'lishi, odamlarni vijdonlilikka va xushmuomalalikka chaqirishi; kamsitish va xo'rlashdan xoli bo'lishi; xayrli va oliyjanob ishlarni amalga oshirishi;
- adolatlil ishlarda va ularga undashda sodiq, sabotli va qat'iyatli bo'lishi; zulmni, zolimlarni, axloqsiz harakatlarni jazolashda o'rnak va dovyurak bo'lishi, boylik ortidan quvmasligi, o'zining boyligini esa muhtojlarga bo'lib berishi;
- hammasidan qat'iyatli, adolatlil bo'lishdan, haqiqatdan qo'rqmasligi va to'g'ri, amalga oshirish kerak, deb hisoblaganlarini yuzaga chiqarish uchun kurashishi lozim.

Sharq Uygʻonish davrining buyuk qomusiy olimi Abu Ali ibn Sino oʻz vaqtida barcha bilim sohalarini egallagan edi, shu sababli oʻziga xos pedagogik tizimni yarata oldi. Haqiqat yoʻlida va odamlarga qilgan buyuk xizmatlari Ibn Sino uchun dahshatli qiyinchiliklar keltirganligi tarixdan bizga yaxshi maʼlum.

Ibn Sino qatʼiylik bilan xotirjamlik hamda aʼzolarining oʻzaro munosabatlarida uygʻunlik va oʻzaro bir-birini tushunish mavjud boʻlgan jamiyat zarurligi haqida gapirgan edi. Insonparvar olim bunday jamiyatni oʻzi juda qiziqarli asoslab bergan edi: odamlar bir-biri bilan muloqot qilmasdan, hamkorliksiz, oʻzaro yordamsiz, bir-biriga xizmat qilmasdan, bir-biriga nisbatan yaxshilik qilmasdan, mavjud ham boʻlolmaydi, yashay ham olmaydi. Shuning uchun olim oʻzining «Kitob ash-ishorat va tanbihot» asarida mana bunday yozadi: «Inson xuddi odamzod urugʻining boshqa vakillari bilan muloqotdagi kabi ehtiyojlarini qanchalik qondirmasin, biroq oʻzining shaxsiy ehtiyojlari mustaqilligi mazmunida alohidalilikni ifoda etmaydi. Odamlar orasida tashkil etilgan oʻzaro aloqadorlikdagi ayriboshlash jarayonida har biri boshqasini qandaydir gʻam-tashvishdan qutqarib qoladi. Agar har biri alohida bajarganda edi, qoʻlidan keladigan ish boʻlganida ham, uning yelkasiga ogʻir mashaqqat tushgan boʻlar edi. Shu sababli odamlar orasida oʻzaro kelishuv, adolat va qonunlarning aniqlangan meʼyorlari zarur...»

Olim pedagogikasining asosiy tamoyili – bola xarakterida ijobiy jihatlarni tarbiyalash, uni toʻgʻri xulq-atvorga oʻrgatish va foydali odatlarga odatlantirishga katta eʼtibor qaratganligidadir. Mutafakkir bolalar va yoshlarni har tomonlama taʼlim va tarbiya olishi, savodini chiqarish, ilm-fan, hunarmandchilik, savdo-sotiq, sanʼat asoslarini oʻrgatish orqali hayotga tayyorlashning lozimligi uchun jonbozlik koʻrsatdi.

X-XI asrning buyuk mutafakkirlari – Forobiy, Zakariya ar-Roziy, Beruniy, ibn Sino va boshqalarning qarashlarini meros boʻlib oʻtishi keyinchalik boshqa Sharq mutafakkirlari, shu jumladan, Maʼmun akademiyasi olimlarining axloqiy-maʼrifiy, oʻz-oʻzini axloqiy tarbiyalash, oʻz-oʻzini takomillashtirish, «bilim – jamiyat

ravnaqi uchun» kabi fikr va qarashlarida aks etdi. Quyidagi misollarda bunday aloqadorlikni yaqqol ko‘rish mumkin: «Bilimdan tashqari yaxshi shaxsiy sifatlarga ega bo‘lgan kishigina aqllidir»(Forobiy); Aqlli kishi o‘zida zamondoshlarining eng yaxshi sifatlarini mujassam etadi», «Qanchalik aqlli bo‘lmasin, agar u jamiyat uchun foyda keltirmasa, u komil inson emas»(al-Masixiy); «Kim o‘zining his-tuyg‘usini boshqara olsa, o‘z qalbini tarbiyalay olsa, o‘sha oqildir» (Beruniy).

Insonparvarlik an‘nalarining rivojlanishida Beruniy (973-1048) muhim hissa qo‘shdi. Insonni o‘z tabiatiga ko‘ra ijtimoiy mavjudot deb hisoblagan olim axloqiylik va mehnatsevarlikni shaxs insoniy qadr-qimmatining asosiy mezonlari sifatida belgilab berdi.

Beruniy merosi o‘zida ta‘lim va tarbiya mazmuni, ilm-fanga oid qimmatli g‘oyalarni o‘z ichiga olgan mislsiz ilmiy nazariyalar to‘plamini qamrab olgan. Ular orasida olingan bilimlarning amaliy qo‘llanilishi muhimligi, motivatsiya va bilishga ehtiyoj, insonning o‘z dunyoqarashini o‘stirishga intilishiga asosiy urg‘u berilgan.

Beruniy pedagogik qarashlarining insonparvarlikka yo‘naltirilganligi uning insoniy o‘zaro munosabatlar asoslari sifatidagi axloqiylik va jamoaviylik, bilimlarning inson husniga ta‘siri haqidagi qarashlarida o‘z aksini topgan.

Beruniyning qarashlari ilm-fan, ta‘lim va ma‘rifatparvarlik masalalari bilangina chegaralanmaydi. Balki yoshlarda tarbiyalash lozim bo‘lgan yaxshilik, ziyraklik, ko‘ngilchanlik, haqiqatparvarlik, adolatli bo‘lishga intilishni – eng muhim sifatlarni, deb hisoblaganligi bilan ham qadrlidir.

Beruniy oliyjanoblik va insonning yuksak ma‘naviy o‘y-fikrlari – bu tug‘ma insoniy xususiyat ham, temperamentning psixologik o‘ziga xosligi ham emasligini, aksincha oliyjanoblik axloqiy ish va hatti-harakatlar natijasida tarbiyalanishi va egallanishi haqidagi fikrni ilgari surdi.

Olimning kelgusi avlod tarbiyasi haqida bildirgan fikrlari o‘sha davr uchun juda katta jasorat edi. Komil shaxsning asosiy sifatlari sifatida mehnatsevarlik, axloqiylik, o‘z-o‘ziga tanqidiy qarash,

bilim, madaniyat va ma'naviy qadriyatlarga yuqori darajada hurmat bilan qarashni sanab o'tadi.

XV asrda O'rta Osiyo sharoitida Forobiyning ijtimoiy-siyosiy va insonparvarlik g'oyalarini davom ettiruvchi va targ'ib etuvchilaridan biri buyuk mutafakkir, o'zbek tilining asoschisi – shoir va davlat arbobi Alisher Navoiy bo'ldi.

Navoiy ijodining asosini inson va uning ma'naviy dunyosi haqidagi chuqur o'y-xayollar, olam va «muhabbat» va «go'zallik» tushunchalari ta'sirida qaraladigan hayot mazmuni haqidagi fikrlar tashkil etadi. Muhabbat – bu insonni yomonliklardan va histuyg'uga berilishdan forig' etuvchi ulug'vor axloqiy kuch. U o'zida oliyjanoblik va mardonavor ruhni, vafodorlikni, insonning barcha imkoniyatlari va ma'naviy kuchini faol namoyon bo'lish yo'lini aks ettiradi. Inson ruhining go'zallikka intilishi va bu go'zallik uchun axloqiy jasorat ko'rsatishga tayyorlik Navoiyda shoirning ijodiy tasavvurida yaratilgan yuksak ulug'vorlik ko'rinishida tasvirlanadi.

Go'zallikka erishish insondan axloqiy jasorat hamda Navoiyning ishqiy-sarguzasht dostonlarida ichki, yashirin motivlar sifatida tavsiflangan doimiy axloqiy takomillikni talab etadi.

Navoiyning insonparvarlik qarashlarida asosan, shaxsiy qadriyatlar sifatida qaralgan qadriyatli tushunchalar tizimi namoyon bo'ladi. O'tmishdoshlari singari shoir ham insonning qadr-qimmatini uning axloqiy sifatleri – qalban poklik, oliyhimmatlilik va do'stlik, insonning bilish imkoniyatlarini cheklanmaganligi va dunyoni yaxshi tomonga o'zgartirishda ko'radi. Inson qadr-qimmatini yuqori nasl-nasab yoki tabaqa, boylik, ijtimoiy kelib chiqishiga qarab emas, odamlar va jamiyat ravnaqi uchun sarf etilgan axloqiy sifatlar va amaliy faoliyat bilan o'lchanadi. «Sab'ai sayyor» asarida Navoiy yozadi: «Yuqori martaba va unvon kishilarga obro' keltirmaydi, xushaxloqlilik va or-nomus ularning oliyjanobligi va obro'sini belgilab beradi. Qachonki, yomg'ir (axloqiylik)ning manbai or-nomusdan shakllangan bo'lsa, mazkur yomg'ir tomchisi suvsiz adir uchun obi-hayot beradi. Axloqsiz kishilar hurmatga sazovor bo'la olishmaydi, ular razil va osmon gumbazining ostidadirlar».

Insonning axloqiy tarbiyasida Navoiy aqlga asosiy e'tibor beradi. Dostonda ijod sohibi sifatida insonning yuqori darajada yetukligi va qadr-qimmatini asoslashga imkon berishni so'raydi. Alisher Navoiyning inson haqidagi kontseptsiyasi uning olam haqidagi ta'limoti bilan bevosita bog'liq. Ma'lumki, bizni o'rab turgan hayot ilohiylikni o'zida namoyon etadi, inson esa unda ilohiy borliqni sohibi sifatida gavdalanadi. Inson va Alloh haqidagi bunday tasavvurlarda mutafakkir-shoir o'zining insonparvarlik tamoyillarini asoslaydi: insonni ulug'laydi, ilohiy ibtido sohibi sifatida uning shaxsini hurmat qilishni talab etadi, axloqiylik va ma'naviy yetuklik ruhida diniy ko'rsatmalarni sharhlaydi, shaxsiy e'tiqod g'oyasini ilgari suradi.

Zamonaviy aksiologik yondashuvlar. Mustaqillik sharofati bilan tiklanib, qaddini rostlayotgan, to'xtovsiz rivojlanib borayotgan milliy madaniyatimizning jamiyatimiz taraqqiyotini tezlashtirish, insonni ma'naviy-axloqiy jihatdan tarbiyalash va kamol toptirishda o'rni benihoya kattadir. Jamiyatimizda ro'y berayotgan ma'naviy yuksalish, insonning axloqiy, g'oyaviy, siyosiy kamoloti mamlakatimizda amalga oshirilayotgan milliy uyg'onish jarayonlari bilan uzviy aloqadorlikdadir.

Insonning ma'naviy-axloqiy kamoloti nihoyatda keng, ko'p qirrali, mazmun-mohiyati jihatdan chuqur bo'lib, o'z ichiga juda ko'plab sohalarni qamrab oladi. Shularning ichida markaziy o'rinni dunyoqarash masalasi egallaydi.

Buyuk ajdodlarimiz tomonidan yaratilgan yuksak madaniyat va ilmiy kashfiyotlar jamiyatimizning oliy qadriyati bo'lgan – insonning dunyoqarashini shakllantirish va rivojlantirishda katta ahamiyat kasb etadi. Ma'lumki, dunyoqarash – bu kishilarning olam va uning o'zgarishi, rivojlanishi haqidagi ilmiy, falsafiy, siyosiy, huquqiy, axloqiy, estetik, diniy va hokazo qarashlari va tasavvurlari majmuasidan iborat. Demak, dunyoqarash olamdagi yaxlit, umumlashtirilgan bilimlar to'plamidir. Kishilar tevarak-atrofdagi narsa va hodisalar to'g'risida qancha ko'p ma'lumotga, bilimga ega bo'lsalar, ularning dunyoqarashi ham shu darajada mukammal va puxta bo'ladi.

Dunyoqarashning yana bir muhim tomoni shundan iboratki, u insonni qurshab turgan voqelikni anglash, tushunish bilan bir qatorda uni baholash hamdir. Ilmiy bilimlar dunyoqarash tarkibiga qo'shilib baholangach, insonning tevarak-atrofdagi ijtimoiy va tabiiy reallikda bevosita, amaliy yo'l tutish maqsadiga xizmat qiladi. Bundan ko'rinib turibdiki, dunyoqarash insonning voqelikdagi o'z o'rnini va rolini belgilab beradigan ongli ravishda to'plangan, izohlangan va baholangan bilimlar majmuasidir.

Dunyoqarash tarkibiga kishilarning olamni bilish va baholashga oid bo'lgan ishonch va e'tiqodlari, niyat va maqsadlari, orzu umidlari, ular faoliyatiga ma'lum yo'nalish beruvchi barcha qadriyatlar ham kiradi.

Mifologik diniy, falsafiy dunyoqarash – ijtimoiy borliqning in'ikosi bo'lib, u muayyan tarixiy davrda insoniyat yaratgan bilimlar darajasiga hamda ijtimoiy tuzumga bog'liq bo'ladi.

Inson faoliyatida ilmiy-falsafiy dunyoqarash asosiy rol o'ynaydi. Uning o'ziga xos xususiyati shundan iboratki, u kishilarga tabiat, jamiyat, inson tafakkuri rivojlanishining umumiy qonuniyatlari haqida yaxlit ma'lumot beradi. Shu bilan birga u insonni qurshab turgan moddiy olamni bilish mumkinligini, materiyaning doimo harakatda va rivojlanishdiligini ta'kidlaydi. Falsafiy dunyoqarash asosida kishilar obyektiv olamdagi hamma narsa va hodisalar, jarayonlar o'zidan boshqa narsalar bilan ichki, zaruriy muhim aloqadorlikda, ta'sir va aks ta'sirida ekanligini chuqur anglab oladilar.

Kishilar dunyoqarashini shakllantirishda, ularda tabiat, jamiyat, insonning kelib chiqishi, rivojlanishi haqida tasavvurlar hosil qilishda Markaziy Osiyo mutafakkirlari tomonidan yaratilgan ilmiy-falsafiy meros bitmas-tuganmas boylik xazinasi hisoblanadi. Undan unumli va samarali foydalanish hozirgi vaqtda mustaqil jamiyatimizning oldida turgan dolzarb vazifadir.

Falsafiy dunyoqarash narsa va hodisalarni inson ongida yaxlit aks ettirish bilan bir qatorda, u kishilarning tafakkurlash madaniyatini, ichki ma'naviy dunyosini shakllantiradi, ularni ma'naviy kamol toptirishga yordam beradi.

Falsafiy dunyoqarash kishilarga xos bo'lgan rostgo'ylik, poklik, insonparvarlik, vatanparvarlik kabi olijanob fazilatlarini, axloqiy normalar va qadriyatlarni mujassamlashtiradi.

Falsafiy dunyoqarash asosida kishilar jamiyatning tabiat bilan uzviy birligi, inson va insoniyat taqdirining mushtarakligi, turli-tuman halqlar madaniyatining xilma-xilligi va birligi haqida ishonch hosil qiladi.

Milliy merosimiz, qadriyatlarimizning qayta tiklanishi, milliy o'zlikni anglashning o'sib borishi tufayli odamlar ongida, tafakkurida muhim ijobiy o'zgarishlar ro'y bermoqda. Ma'naviy-ma'rifiy jarayonlardagi o'zgarishlar odamlarimiz qalbi va ongiga singib, ularda kelajakka, o'z kuchiga, o'z imkoniyatiga ishonch, Vatanga muhabbat, erkinlik xissini tarbiyalamoqda. «Eng muhimi, aholining ongu tafakkurida tub o'zgarishlar ro'y berdi, ularning uzoq yillar mobaynida kommunistik va sovet mafkurasi tamoyillari asosida shakllantirilgan fikrlash tarzi va dunyoqarashi, bir so'z bilan aytganda odamlarning o'zi o'zgardi». Faqat istiqloq xalqimizga o'z Vatanda o'zini erkin xis etish, erkin fikrlash, mustaqil tafakkur yuritish imkonini berdi. Va u keng ko'lamdagi siyosiy-ijtimoiy, ma'naviy-ma'rifiy sohalaridagi islohotlarni amalga oshirishda asosiy kuch-qudrat bo'lib xizmat qilmoqda.

Binobarin, xalqimiz bosib o'tilgan islohotlar jarayonida iqtisodiy, siyosiy, mafkuraviy, ijtimoiy yo'naltirilgan bozor iqtisodiyoti va boshqa sohalar bo'yicha tegishli ma'naviy saboqlar oldi. Darhaqiqat, faqat ma'naviy erkin va ozod xalq, teran va komil tafakkur tufayli har sohada katta yutuqlarga erishishi mumkin. Islohotlar jarayonida erishilgan muayyan muvaffaqiyatlar tafakkur va ma'naviyat ozodligi, erkinlikning tantanasi tufaylidir. Ma'lumki, yuksak ma'naviyatning birinchi sharti bu – erkinlikdir, jamiyat a'zolarining o'zini ozod va erkin his etishidir. Zotan, «fuqaro» tushunchasi bilan «erkinlik» tushunchasi o'zaro hamohang va ma'nodoshdir. Ozod mamlakatning erkin shaxsida esa keng imkoniyatlar darajasida o'z millati mentalitetiga xos ma'naviy yangilanish sodir bo'lishi, mustaqil tafakkur shakllanishi mumkin.

O‘zbekiston Respublikasi prezidenti I.A.Karimov erkin fuqaro, ozod shaxs, barkamol inson haqida gapirganda uning quyidagi to‘rt asosiy jihatiga e‘tiborni qaratadi. Ya‘ni O‘zbekistonning har bir fuqarosi:

- o‘z haq-huquqini taniydigan bo‘lsin, buning uchun kurashsin;
- o‘z kuchi va imkoniyatlariga tayanadigan bo‘lsin, imkoniyatlarini ishga solib, samarasini ko‘rsin;
- atrofida bo‘layotgan voqea-hodisalarga mustaqil munosabat bildira olsin;
- shaxsiy manfaatini mamlakat va xalq manfaati bilan uyg‘un holda ko‘rib, faoliyat yuritsin.

Ozod shaxs va erkin fuqaroni tarbiyalashda eng avvalo, yoshlarning siyosiy bilimlarni egallashi, o‘zida egallangan siyosiy bilimlarni baholash ko‘nikmasini tarkib toptirish hamda mazkur siyosiy bilim va ko‘nikmalarni amalda siyosiy fe‘l-atvori orqali qo‘llay olishlariga erishish dolzarb vazifa sanaladi. Mazkur jihatlar yaxlitlikda siyosiy madaniyat atamasida o‘z ifodasini topadi.

Yoshlarning siyosiy madaniyati demokratiya, plyuralizm, fuqarolik jamiyati, inson huquq va erkinliklari singari qadriyatlar bilan birga namoyon bo‘ladi. Sababi yoshlar siyosiy faoliyati davomida ilmiy-nazariy bilimlari asosida amaliy natijaga erishadi. Yoshlarning faolligi jamiyatning o‘zgarishi, taraqqiyotini ta‘minlaydi. Yoshlarning siyosiy faolligi bois jamiyatning transformatsiyalashuvida o‘zgarish, yutuq va muammolarni ko‘rishga imkon yaratiladi.

Siyosiy madaniyat – siyosiy voqelikning kishilar tomonidan o‘rganilishi, o‘zlashtirilishi va o‘zgartirishga bo‘lgan ishtiroki, faoliyatidir. Tarixga nazar tashlasak, insoniyat jamiyati doimiy o‘shida, o‘zgarishda ekanligini kuzatamiz. Jamiyatning siyosiy sohasi ham bundan mustasno emas, unda ham doimiy o‘zgarish, takomillashuv jarayoni kechmoqda. Bu esa albatta kishilarning siyosiy voqelikni o‘rganishi, o‘zlashtirishi, tahlil qilishi va o‘zgartirishga bo‘lgan faoliyati natijasidir.

Yoshlarning siyosiy madaniyatini shakllantirish yaxlit tizim ko'rinishiga ega bo'lib, mazkur tizim o'z ichiga quyidagi tarkibiy qismlarni qamrab oladi:

1. Siyosiy tajriba.
2. Siyosiy ong.
3. Siyosiy xulq-atvor.
4. Siyosiy qadriyatlar.
5. Tarixiy tajriba.
6. Siyosiy murosa va mas'uliyatni anglash.

Mazkur tuzilishga asoslangan holda, siyosiy madaniyatning siyosiy tajriba, siyosiy ong va siyosiy xulq-atvordan iborat majmuaviy ko'rinishini hosil qilish mumkin:

Siyosiy tajriba:

- a) xalqning o'ziga xos milliy-ma'naviy qadriyatlari;
- b) mentalitet;
- v) tarixiy xotirasi va an'analari;
- g) milliy davlatchilikni amalga oshirish tajribasi hamda milliy qadriyatlridan kelib chiquvchi siyosiy maqsadlaridir.

Siyosiy ong:

- a) mafkuraviy, g'oyaviy komponent;
- b) emotsional-psixologik komponentlardan iboratdir.

Siyosiy xulq-atvor:

- a) siyosiy vaziyat, siyosiy jarayondagi xatti-harakat, faoliyat yo'nalishi;
- b) ijtimoiy-siyosiy faoliyat uslubining namunalari, turlarining xususiyatlaridir.

Huquqiy davlat, fuqarolik jamiyati qurishning zaruriy sharti – bu qonunlarni so'zsiz bajarilishidir. Qonun va qonun osti aktlarini amalda tatbiq qilish, aholining huquqiy madaniyati darajasi bilan, davlat organlari va jamoat tashkilotlari, mansabdor shaxslar va fuqarolarning huquqi bilan bog'liqdir. Kishilarning tafakkuri qanchalik yuqori bo'lsa, qonun buzilishi hollari shunchalik kamroq bo'ladi va qonunchilik mustahkamlana boradi. Qonunchilikning mustahkamlanishi esa aholi huquqiy tafakkurini oshiradi. Huquqiy tafakkur yuritish saviyasini yetarli darajada ko'tarmasdan turib

qonunchilikni takomillashtirishga, qonun ustuvorligiga erishish mumkin emas.

Huquqiy tafakkur – shaxs huquqiy madaniyatining yuksak ko‘rinishi bo‘lib, huquqiy voqelikni anglash, huquqiy munosabatlarga erkin kirisha olish, huquq doirasida xatti-harakatlarni amalga oshira bilish hamda huquqiy faollikka qobiliyatlilikdir.

Huquqiy tafakkur murakkab tuzilishga ega bo‘lib, u quyidagi o‘zaro bir-biri bilan bog‘liq va aloqador tarkibiy qismlar yig‘indisi sifatida namoyon bo‘ladi: **huquqiy ong, huquqiy munosabat, huquqiy faoliyat, huquqiy madaniyat.**

Huquqiy ong shaxs ongida, jamiyat g‘oyalarida namoyon bo‘lgan huquqdir. Huquqiy ong huquq va qonuniylikka munosabatdagi e‘tiqodlar, tasavvurlar, baholar, his-tuyg‘ular va ma‘naviyatning boshqa tarkibiy qismlari tizimidir. Boshqacha aytganda, huquqiy ong muayyan jamiyatning moddiy hayot tarzi bilan belgilanadigan tasavvur, idrok, tafakkur va e‘tiqodlar tizimi bo‘lib, ijtimoiy-psixologik hodisa sifatida murakkab tuzilishga ega.

Ma‘lumki, huquqiy ong ikki tarkibiy qismdan, ya‘ni **huquqiy mafkura va huquqiy ruhiyatdan** iborat. Huquqiy mafkura huquqning mohiyati, ahamiyati va talablari to‘g‘risidagi g‘oyalar, qadriyatlarni o‘z ichiga olsa, huquqiy ruhiyat hissiyotlar, kayfiyatlar, kechinmalar, ya‘ni huquqning emotsional qabul qilinishi bilan bog‘liq.

Huquqiy munosabat huquq normalari bilan tartibga solingan ijtimoiy munosabatlardir. Binobarin, huquqiy munosabat, birinchi navbatda, yuridik normalarni amalga oshirishning, huquq amal qilishining natijasidir. Aynan huquqiy munosabatlar orqali huquq «yashaydi», amal qiladi. Huquq subyektlarining huquqiy imkoniyatlari va yuridik majburiyatlarini amalga oshirishning haqiqiy manzarasini aynan huquqiy munosabatlarning yuzaga kelishi ko‘rsatadi. Huquqiy munosabatlar subyektlarining huquqiy pozitsiyasi va mo‘ljallari, yuridik sohadagi tashabbuslari va faolliklari, xatti-harakatlari yuridik shakllarini afzal bilish darajasi birgalikda ularning huquqiy madaniyatini belgilab beradi.

Huquqiy faoliyat – huquqiy me’yorlar, qonunlar talablariga nisbatan ongli yondashish, ularga qat’iy va og’ishmay amal qilish, qonunlarni hurmat qilish, ularni shaxs erkini himoya qilish kafolati sifatida e’tirof etish, huquqiy munosabatlar jarayonidagi faol ishtirokni tashkil etishga yo’naltirilgan amaliy xatti-harakatlar majmui.

Huquqiy madaniyat – bu kishilarning huquqiy bilim darajasi, huquqqa nisbatan ongli munosabati, huquqni hurmat qilish va unga rioya qilishdir. Huquqiy madaniyat murakkab, serqirra hodisa bo’lib, u eng avvalo, huquqiy ongning muayyan darajasi, ya’ni huquqiy voqelikni ongli ravishda tushunib, o’zlashtirishni; umumiy madaniy asoslar, yuksak madaniylik darajasi, milliy negizlari va manbalar, tarixiy xotira, urf-odatlar va an’analarini; aholi tomonidan qonunlarni bilishning tegishli darajasi, huquq normalariga hurmatning yuqori darajasini, ular nufuzini; huquqiy faoliyat, huquqiy ijodkorlik, huquqni muhofaza etish, boshqaruv va boshqa organlar ishining samarali usullarini hamda fuqarolar va mansabdor shaxslarning qonunga itoatkorligini talab etadi.

Jamiyatimiz ijtimoiy hayotida muruvvat va saxovatpeshalik muhim o’rin tutadi. Mazkur ijtimoiy qadriyatlar zamirida insoniylikni saqlash, o’z shaxsiy manfaatlariga berilmaslik, o’zgalar manfaatini hisobga olish, el-yurt, davlat va jamiyat muammolarini hal etishda faollik ko’rsatish, jamiyatda sog’lom ma’naviy muhit yaratish kabi yuksak tushunchalar o’z aksini topgan. Yurtboshimiz ta’kidlaganlaridek, «Jamiyatimizda insonparvarlik, mehr-oqibat va saxovat muhitini yanada mustahkamlashda mazkur tushunchalarning ahamiyati kattadir».

Muruvvat va saxovat Sharq xalqlari hayotida milliy qadriyat darajasiga ko’tarilgan. «Muruvvat» so’zi mardlik, odamgarchilik ma’nolarini ifoda etsa, «saxovat» esa saxiylik, qo’li ochiqlik ma’nolarini bildiradi. Saxovat tushunchasi o’zida quyidagi ma’nolarni ifoda etadi: 1) oliyhimmatlilik, saxiylik; himmat qilish; yordam qo’lini uzatish; himmat bilan ehsonu in’omlar ulashish; 2) ko’chma ma’noda tabiiy boylik; mo’l hosil; to’kinlik, mo’l-ko’llik. Saxovatlilik insonga xos bo’lgan xususiyatlarning eng oliyjanobidir.

Saxovatlilik sidqidildan qilingan yaxshilik bo'lib, u beminnatlilikning nishonasidir. Muruvvat – insonparvarlik, biror kishiga qilingan xolisona insoniy yordam, yaxshilik, saxovat, lutf. Muruvvat saxovatli, mehr-muhabbatli, oqibatli insonlarning nafaqat o'z tashvishi bilan, balki o'zgalar tashvishi bilan yashashida, ularning kimgadir moddiy va ma'naviy ko'maklashishi, xayru ehson qilish, ko'nglini ko'tarish singari insoniy xatti-harakatlarida namoyon bo'ladi. Bunday insonlar kam ta'minlangan, boquvchisini yo'qotgan muhtojlarga, nogironlarga, yetimlarga moddiy yordam berish bilan birga, bu kabi ezgu amallarni bajarishni o'z insoniy burchi deb biladi. Muruvvat insondagi eng yaxshi fazilatlar ifodasi, jo'mardlik belgisi bo'lib, u turli shakllarda namoyon bo'ladi: 1) g'arib va ojiz kishilarning ko'nglini ko'tarish; yetim-yesirlar, kekxa va nogironlarning boshini silash, topgan boyligidan bir qismini nogironlarga ulashish va boshqalar. Demak, muruvvat moddiy yordamdangina iborat emas, aslida mardlik va oliyjanoblikning har qanday ko'rinishi muruvvatdir. Bilmasdan noto'g'ri ish qilgan kishini kechirish, yoshlarning xato va kamchiligini bilib-bilmaslikka olish, ammo mavridi kelganda, buni nozik ishoralar bilan tushuntirib qo'yish kabilar ham muruvvatning bir ko'rinishidir.

Bugungi kunda axloqning umuminsoniy tushunchalari sifatida e'tirof etilgan ezgulik va yovuzlik, vijdon, muhabbat, burch va qadr-qimmat, hayot mazmuni va baxt tushunchalari eng avvalo, Sharq falsafiy-axloqiy ta'limotida talqin qilib berilgan. Mashhur faylasuf-axloqshunos olim G.A.Golubevaning fikricha: «Mutaxassislar axloq masalalari bo'yicha talqinlar miloddan avvalgi birinchi ming yillik o'rtalarida bir vaqtda va bir-biridan mustaqil bo'lgan uch hududda – Qadimgi Xitoy (Konfutsiy), Qadimgi Hindiston (Budda) va Qadimgi Yunoniston (yetti donishmand) paydo bo'ldi». Mazkur fikrga qo'shilgan holda, unga qisman to'ldirish va o'zgartirish kiritish lozim: «Axloq masalalari bo'yicha talqinlar miloddan avvalgi birinchi ming yillikning o'rtalarida bir vaqtda va bir-biridan mustaqil bo'lgan to'rt hududda – O'rta Osiyo (Zardo'sht), Qadimgi Xitoy (Konfutsiy), Qadimgi Hindiston (Budda) va Qadimgi Yunoniston (yetti donishmand) paydo bo'ldi». Bunday fikr

yuritishga o'ziga xos asoslar mavjud. Jumladan, nemis faylasufi Artur Shopengaurning «Ko'pgina dinlarga Zardo'shtiylik asos bo'lgan, masalan, bu dindan Yahudiylik kelib chiqqan: Ormuzd – Yaxvega, Axriman – Iblisga aylantirilgan» degan fikrini va Fridrix Nitsshening «Mening Zardo'shtim» kitoblarini yodga olishning o'zi kifoya.

Miloddan avvalgi VII-VI asrlarda jahon dinlari orasida eng qadimgi din, O'rta Osiyo hududida zardushtiylik dini hukmronlik qildi. Bu din insoniyatga katta ta'sir etdi, ya'ni insonni birinchi o'ringa olib chiqdi. Zardushtiylik muqaddas kitobi «Avesto»ni o'z erasining o'ziga xos ijtimoiy-qomusiy asari deb hisoblash mumkin. Zardushtiylik dinida axloqiy-me'yorlar asosi (axloqiy mezonlar) uchlikka tayangan edi. «Avesto»da «Inson yaxshi fikrlarga ega bo'lishi, faqat yaxshi so'zlar so'zlashi va savobli ishlar qilishi lozim», deb yozilgan.

«Avesto»ning katta qismi bo'lgan «Yasna»larda inson kamolini ko'rsatuvchi axloq-odob mezonlari ana shu uchlikda humata (gumata) – yaxshi fikr, hukta (gukta) – yaxshi so'z va hvarta (gvarshta) – yaxshi ishlarda ifodalanadi «Men yaxshi fikr, yaxshi so'z, yaxshi ishga shon-shavkat baxsh etaman. Men yaxshilikdan iborat Mazda qonuniga shon-shavkat baxsh etaman» («Yasna», 14), deyiladi.

«Avesto» tadqiqotchisi A.O.Makovelskiy inson fikri, so'zlari va ishlariga ikki qarama-qarshi kuch: Voxu Manna («Ezgu fikr») va Apo Mana («Yovuz fikr») ta'sir ko'rsatadi, deydi. Barcha fikrlar, so'zlar va ishlar ichida aslida ezgulik va yovuzlik yotadi. «Yaxshi fikr» deganda ilohiy qonun ruhidagi yaqin kishisiga mehribon bo'lish, muhtojlarga ko'maklashish, yovuzlikka qarshi kurashishga doimo tayyor turish, kishilarning baxt-saodati uchun harakat qilish, ahillik va do'stlik, totuvlikda yashashga intilish ruhidagi niyatlar va fikrlar musaffoligi tushunilgan. Inson o'z fikr-hayolida boshqalarga hasad qilmasligi lozim. Yaxshi niyatli kishi darg'azab bo'lmaydi va boshqa jaholatlarga berilmaydi. Chunki bunday holatda inson yaxshi niyatini yo'qotadi, burch va adolatni unutadi va nojo'ya harakatlar qiladi.

Zardushtiylikda axloqiylikning asosi, sahovatlilik belgisi – mehnat deb ko‘rsatilsa, ishyoqmaslik barcha nuqsonlarni keltirib chiqaruvchi sabab ekanligiga urg‘u beriladi. Ayniqsa, dehqonchilik sohasida qilinayotgan mehnat yaxshilikni yuzaga chiqaruvchi asosiy omil deya ta‘kidlanadi. Dehqonchilik bilan shug‘ullanish, mo‘l-ko‘l hosil yetishtirishga qaratilgan harakat Axura Mazda qonuniga bo‘ysunish sanalgan. Don ekan kishi taqvodorlik urug‘ini ekishi, Mazdaga ixlosmandlik e‘tiqodini ilgari surishi, imonni oziqlantirib turishi o‘n ming marta ibodat qilish bilan barobar, yuzlab qurbonlik qilishga teng deyiladi. «G‘alla yerdan unib chiqqanda, devlar larzaga keladi, g‘alla o‘rib olinayotganda devlar nola-faryod chekadi, g‘alla yanchib, un qilinayotganda ular qocha boshlaydi, xamir qilinganda esa devlar mahv bo‘ladi. G‘allaning mo‘l-ko‘l bo‘lishi devlarning labiga qizitilgan temir bosilgandek ularni tum-taraqay qiladi».

«Avesto» ta‘limotida jismoniy va ma‘naviy dunyo uch hayotiy davrga bo‘linadi: Birinchi davr eng qadimgi davr sanalib, u ilk hayotning boshlanishini bildiradi. Bunda ham jismoniy, ham ma‘naviy dunyoda yaxshilik tantana qiladi. Dunyoda yorug‘lik va insoniy saodat hukmron bo‘lgan. Yagona jinoyatchi – hokim Yima Vivaxvant bo‘lib, u kishilarni batamom rozi qilmoq uchun ularga mol go‘shiti ediradi. Ikkinchi davr hozirgi davr bo‘lib, bu davrda yaxshilik ruhlari bilan yomonlik ruhlari o‘rtasida kurash davom etadi. Uchinchi davr – bo‘lg‘usi hayot. Bu davrda aql-idrok va adolat tantanasi o‘rnatiladi. Bo‘lg‘usi yaxshi hayotni Artu o‘rnatib, dehqonlar badavlat, hokimiyat esa mustahkam bo‘ladi, deyiladi. «Yaxshilik ta‘limni va sadoqatni amalga oshirib yaxshi hokimlar hukm yuritaversinlar. Odamlarga va ularning avlodlariga baxt-saodat keltiradigan ta‘limni amalga oshirsinlar».

«Avesto» ta‘limotiga ko‘ra insonning balog‘at yoshi o‘n besh va mana shu yoshda inson ehtiyoj darajasida axloqiy jihatdan shakllanib ulgurgan bo‘lishi kerak. Bunga esa E‘tiqod va Aql orqali erishish mumkin. Ana shu tarzda inson o‘n besh yoshgacha E‘tiqod va Aql vositasida o‘zining va hayotning mohiyatini anglab yetadi. E‘tiqod asosini ezgu niyat, ezgu so‘z, ezgu amal va Aql asosini esa,

haqiqat, bilim va adolat tashkil etadi. Bu bilan kishi eran, ya'ni mard va jasur insonga aylanadi. E'tiqod va Aqlga asosan yashaydigan eran kishi mana bu fikrni hech qachon unutmaydi: «Men bu dunyoga ma'naviy olamdan keldim, moddiy olamdan emas. Men yaratilganman, abadiy emasman. Mening ruhim Oxuramazdaga tegishli, Axrimanga emas, ya'ni ruhim Ezgulikka mansub, Yovuzlikka emas. Men insonman, dev (Shayton) emas». E'tiqod va Aql vositasida bunday fikrga kelish farr deb ataladi. Unga ko'ra «Farr» – bu inson ongida ezgulik g'oyasining yovuzlik g'oyalaridan g'olib kelishidir.

Bir yuz ellik yil umr ko'rib, shundan to'qson yil ustozlik qilgan Zardo'shtning o'g'li Adurbada shunday deydi: «Men umrim davomida boylik, nochorlik va amaldorlikni bosib o'tdim. Boyligimda saxovatli va muruvvatli, nochorligimda harakatchan va aqlli, amaldorligimda bosiq va mulohazali bo'ldim». Adurbadan fikrlaridan kelib chiqqan holda quyidagicha mulohaza yuritish mumkin:

- boy kishilar saxovatli va muruvvatli bo'lishi shart, aks holda ular Ezgulik va Yovuzlikni farqlay olmaydi;

- nochor kishilar harakatchan va aqlli bo'lishi lozim, aks holda Ular Yovuzlik jabridan qutula olmaydi;

- mansabdor kishilar bosiq va mulohazali bo'lmog'i farz, aks holda ular Yovuzlikdan tiyila olmaydi;

- umuman olganda, inson saxovatli, muruvvatli, harakatchan, aqlli, bosiq va mulohazali bo'lmasa Ezgulik qila olmaydi.

«Avesto»da bayon qilingan axloq falsafasiga ko'ra, odamzot, tabiat va tirik jonzoqlar yettita Abadiy Muqaddaslik himoyasida bo'ladi. Bu yetti Abadiy Muqaddaslik quyidagilardir:

1. Ezgu niyat (Vohu-Mana).
2. Ezgu haqiqat (Asha-Vaxishta).
3. Cheksiz muruvvat (Spenta-Armayta).
4. Xohish mo'tadilligi (Xshatra-Variya).
5. Ezgu maqsad (Xarvatot).
6. Abadiylik (Amaretat).

Bu tushunchalarga amal qilish odamlarning ongida «yaxshilik qilish – eng muhim maqsad» degan qadriyatning tarkib topishiga olib kelgan. Natijada o'zgalarga yaxshilikni kasb qilib olgan «ijtimoiy guruhlar» paydo bo'lgan. Masalan, «Avesto»da ana shunday guruhlardan biri sifatida Turon harbiylari ko'rsatiladi. Unga ko'ra Turon harbiylari ezgulikdan kuch olib, odamlar, tabiat va jonzotlarga yaxshilik qilishni kasb qilganlar; yomonlikka qarshi kurashganlar. Harbiy kishilarning bunday aqidaga ega bo'lishi Sharq xalqlari, jumladan, O'zbekiston xalqi hayotida muhtojlarga yaxshilik qilish va ularni qo'llab-quvvatlash qadimdan axloqiy madaniyat unsuri sifatida qabul qilinganidan dalolat beradi.

Bunday qarash va amallar odamlarning ongi va qalbiga singib ketdi. Masalan, bu holni keyinchalik turkiy xalqlar hayotida yana uchratamiz. Turk hoqonligi hayotida bunga misollar ko'p. Bir o'rinda shahzoda To'nyuquq shunday deydi: «Kunduzi o'tirmay yuzimning qonini yo'qotib, terimni gupillatib mehnat qildim, elni tuzatdim va tomog'ini but qilib, tarbiya qildim. Davlat ham, davlat bo'ldi, xalq ham xalq bo'ldi». Demak, endi yaxshilik qilish g'oyasi davlat xizmatchilari guruhining bosh maslagiga aylanganiga duch kelamiz. Buning natijasida davlat va xalq farovonlikka erishgan. Hatto shahzoda Qul Tegin deydi: «Butun xalqni mamnun qildim, endi yovuz emas». Demak, yaxshilik qilish qadriyati xalqni moddiy jihatdan farovon, ma'naviy jihatdan ezgu bo'lishga olib keladi. Shahzoda Qultegin yana deydi: «Qashshoq xalqni yaxshilab oyoqqa turg'izib qo'ydim, uni boy qildim va oz xalqimni ko'paytirdim. Bu so'zimning yolg'oni yo'q. Ey beklar, ey xalq, buni eshiting: turkiy xalqni to'plab, davlat tuting».

Konfutsiy ta'limotiga ko'ra insonda jismoniy va axloqiy qonuniyat mujassam. Axloqiy sifatlarga ega bo'lish olamda tartib va intizomning bo'lishiga olib keladi.

Konfutsiy ta'limotiga ko'ra, Oqillik (tszyun tszi) muhim axloqiy tamoyildir. Aql vositasida axloqiy kamolotga erishgan inson o'zining va o'zgalarning ideal darajadagi yetakchisiga aylanadi. Inson axloqiy kamolot yo'lida (dao) besh axloqiy sifatni egallashi kerak. Mazkur sifatlarga quyidagilar kiradi:

1) insonparvarlik (jen) – bu kishining inson va jamiyatga nisbatan to‘g‘ri munosabatidir. U mehr-muruvvat va ezgulikdan boshlanib; bosiqlik, sabr-to‘qatlik, adolatlik va odamlarni yaxshi ko‘rish kabi fazilatlarini qamrab oladi;

2) burch (tszi). Konfutsiyning fikricha, burch – axloqiy majburiyatdir. U insonning qalbida ildiz otishi kerak. Burch ota va o‘g‘il, katta va kichik, er va xotin, keksa va yosh, davlat va fuqaro o‘rtasidagi majburiyatni bajarish natijasida ado etiladi;

3) hurmat (eyao). Unga ko‘ra, har bir kishi o‘zaro hurmat-ehtirom tuyg‘usiga ega bo‘lishi shart. Bu o‘rinda hurmat sifatining tarkib topishida oila muhim o‘rin tutadi. Shu ma‘noda bir jamiyatda, bir davlatda yashaydigan odamlar o‘zlarini bir oila a‘zosi sifatida bilishi lozim;

4) an‘anaviylik. Inson qat‘iy tartib va qoidaga rioya qilishi lozim. Qat‘iy intizom axloqda an‘anaviylikni ta‘minlaydi. Intizom bo‘lmagan joyda yaxshi odatlarning an‘anaviyligi davom etmaydi;

5) aqllilik (chji). Inson aql vositasida donolikka erishishi va bu bilan baxtli hayot kechirishi kerak. Oqil odam hayotda qoqilmaydi va mashaqqatlarni chetlab o‘tadi.

Konfutsiyning fikricha, muruvvat va saxovat har qanday ta‘ma, g‘araz va manfaatdan xoli bo‘lib, hech qachon muruvvat va saxovat qilingani ma‘lum qilinmaydi. Shu ma‘noda Konfutsiy deydi: «O‘zingga ravo ko‘rmagan narsani boshqaga qilmagin». Hech kim o‘ziga yomonlikni ravo ko‘rmaydi va barcha o‘ziga yaxshilikni ravo ko‘radi. Shu ma‘noda muruvvat va saxovatda manfaatning bo‘lishi yomon hisoblanadi, aksincha, bunda manfaatning bo‘lmasligi yaxshilik sanaladi. Ushbu fikrlardan ma‘lum bo‘ladiki, muruvvatli va saxovatli bo‘lish avvalo, insonning o‘ziga yaxshilik keltiradi. Buni hisobga olgan Konfutsiy shunday deydi: «Saxovatpesha yoig‘izlanib qolmaydi, unga albatta, yo‘ldoshlar topiladi». Bu fikr ishonchli bo‘lib, unga ko‘ra muruvvat va saxovat kishilarning uyushishiga, birlashishiga olib keladi.

Muruvvatlilik va saxovatlilik fazilatlarini haqida fikr yuritilganda, uning ma‘naviy mazmuniga alohida e‘tibor qaratish lozim. Muruvvatli va saxovatli bo‘lish ko‘p hollarda real namoyon

bo'lsada, lekin bu tuyg'u eng avvalo, kishi ongida, qalbida tarkib topishi kerak. Bu borada Budda shunday ta'lim beradi: «Mulk tuyg'usi narsalar bilan emas, fikr bilan o'lchanadi; narsalarga ega bo'la turib, mulkdor bo'lmaslik mumkin». Buning ma'nosi shuki, muruvvatli va saxovatli bo'lish uchun mulk egasi bo'lish shart emas. Inson yaxshi so'zi, fikri va xushmuomalasi bilan ham muruvvat va saxovat ko'rsatishi mumkin. Sharq falsafiy-axloqiy ta'limotida masalaning aynan mana shu jihatiga diqqat qaratiladi. Natijada Sharqda har bir kishi ijtimoiy mavqeidan qat'iy nazar o'zini olijanob his qiladi. Ana shu sababli Budda mazkur masalaga alohida e'tibor bergan: «Olijanob odamni topish mushkul ish, u hamma yerda ham tug'ilavermaydi; biroq qaerda shunday odamlar bo'lsa, o'sha yerda baxtiyor avlod yashaydi». Muruvvat va saxovat ana shunday katta kuchga ega.

Ayniqsa, muruvvatlilik va saxovatlilik fazilatlariga ega bo'lish islom dini tufayli inson va jamiyat hayotining tarkibiy qismiga aylandi. Payg'ambarimiz Muhammad (s.a.v.) eng ko'p targ'ib qilgan g'oya muruvvat va saxovatdir. U kishi buyuradi: «Kishining saxovati uning iymonida, odobi - aqlida, qadri esa xulqidadir». Bu nihoyatda muhim fikr. Chunki unda saxovat iymonning tarkibiy qismlaridan biri sifatida uqtirilmoqda va saxovat muruvvatdan boshlanishi ma'lum. U holda anglash mumkinki, iymonli odamda muruvvat va saxovat tuyg'usi bo'ladi. Chunki bunday inson Alloh o'zining yaratganlariga muruvvat va saxovat ko'rsatishini angelaydi va iymonli odam bu sifatni o'zlashtiradi. Shu ma'noda Rasululloh buyuradiki: «Alloh taolo ikki xulqni yaxshi ko'rib, ikki xulqdan nafratlanadi. U yaxshi ko'radigan ikki xulqi saxiylik va kechirimlilik bo'lib, nafratlanadigan ikki xulq esa, xasislik va badfe'llikdir. Agar Alloh taolo biror bandasiga yaxshilikni istasa, uni odamlarni hojatini chiqarishga safarbar etur». Mazkur fikrdan yana anglash mumkinki, muruvvat va saxovat kishining o'ziga yaxshilikni keltiruvchi omildir. Rasulullohning ushbu fikri odamlarda muruvvatlilik va saxovatlilikning jo'sh urushiga olib keladi. Hatto X asrga kelib bu tamoyilni maslak sifatida qabul

qilgan futuvvat harakati tarkib topdi va bu harakat musulmon olamida qadriyat darajasiga ko'tarilgani ma'lum.

Professor N.Komilovning qayd etishicha, «Futuvvat – mardlik tariqati, muruvvat va mehribonlik ko'rsatish, fidoyilik va fidokorlik ilmidir. Javonmard odamning (futuvvat ahlining) so'zi ham, ishi ham, niyati va fikrlari ham pok bo'lgan. Ular xalqimiz axloqini tarbiyalashga katta xizmat qildilar».

Futuvvatchilar muhtojlarga moddiy va ma'naviy yordam ko'rsatishni bosh maqsad sifatida qabul qilib, muruvvat va saxovat madaniyatini qadriyat darajasiga ko'targanlar. Bu borada Yusuf Xos Xojib quyidagicha fikr yuritadi:

Aqillik ul ermas ulasa kumush

Aqi janin xalqqa qilur ulush

Aqitsa aki er budunka tavar

Aka yig'lu turur anglar xalq evar

(Axiylik, ya'ni futuvvat – bu boylik ulashish emas,

Futuvvat – bu xalqqa jonni berishdir.

Xalqqa boylik oqizar saxiy odam,

Shu sababli odamlar unga intiladi).

Demak, futuvvat ahli xalqqa nafaqat boylik ulashadi, balki kerak bo'lsa jonini ham beradi. Mutafakkir bu bilan futuvvat-chilarning muruvvatu saxovatli tengsiz kishilar bo'lganligidan xabar beradi. Chunki o'zgalar uchun jonni fido qilish muruvvat va saxovat ko'rsatishning oliy ko'rinishidir.

Donishmand Unsurulmaoliy Kaykovus futuvvatchilarning dunyoqarashi, axloqi va faoliyatini yanada kengroq sharhlab beradi. U deydi: «Futuvvatning asli uch narsadadir: biri ulkim, aytg'on so'zingni o'zing qilsang; ikkinchi ulkim rostlikka xilof qilmasang; uchinchisi ulkim yaxshilik ishini ilgari tutsang». Futuvvatchilar axloqini, demak uch narsa tashkil qiladi: vafodorlik, rostgo'ylik va yaxshilik. Bu uch tamoyilga amal qilish mushkul ishdur. Chunki «aytgan so'zni uddasidan chiqish, hamisha rostgo'ylikka amal qilish va o'zgaga yaxshilik qilish»ni maqsad deb bilish – kishidan mehnat talab etadi.

Kaykovusning xabar berishicha, futuvvat ahli uch guruhdan iborat:

1) oddiy hunarmandlar;

2) harbiylar;

3) so'fiylar. Lekin bu guruhdagilarning barchasi futuvvat-chilikning quyidagi odoblariga qat'iy rioya qilishgan: odamlar bilan nifoqqa bormaslik, xaloyiqqa kechirimli bo'lish, odamlar orasida kishiga o'git bermaslik, odam qonining to'kilishiga yo'l qo'ymaslik, qatli vojibga fatvo bermaslik. Bu odob qoidalariga rioya qilish futuvvat ahlining xalqning vijdoniga aylanishiga olib kelgan.

Shunisi qiziqki, futuvvat ahli birovga qilgan muruvvat va saxovatini beg'araz minnatsiz va biron narsa umid qilmasdan amalga oshirishgan. Bu borada uning asoschilaridan biri Salmon Forsiy shunday degan: «Futuvvat – hammaga insonning muruvvat ko'rsatishi va evaziga hech narsa talab qilmaslikdir». Bu qoida futuvvat harakati a'zolari tomonidan asosiy tamoyil sifatida qabul qilingan.

Mutafakkir Husayn Voiz Koshifiy futuvvat harakatining Axloq Kodeksini bayon qilib o'tgan. Shu o'rinda mazkur kodeksning muayyan jihatlarini bayon etib o'tish zarur.

1. Futuvvatning asosi. Oltita tashqi va oltita ichki odobdan iborat. Tashqi odoblar: yolg'on, bo'hton va behuda so'zlamaslik; bunday so'zlarni eshitmaslik; tikilib qaramaslik; haromdan hazar qilish; nojoiz joyga bormaslik va pok narsalarni tanovul qilish. Ichki odoblar: do'stu dushmanga saxovatli bo'lish; kamtar bo'lish, qanoatli bo'lish, kechirimli bo'lish, or-nomusli bo'lish va haqsevar bo'lish.

2. Futuvvatning sharti. Bu shartlar yetmish beshtani tashkil etadi. Jumladan, iymonlik, aqllik, bilimlik, muruvvatlik, shijoatlik, himmatlik, saxovatlik, sabrlik, sirdoshlik, vafodorlik va boshqalar.

3. Futuvvatning amaliyoti. Bu borada hamisha qilinadigan ishlar o'nta: ibodat, adolat, nafsni yengish, kattaga hurmat, kichikka izzat, do'stlikka sadoqat, doimiy kamtarlik, olimlarni e'zozlash, dushmanga ham saxovatli bo'lish va johillar oldida sukut saqlash.

Zero, futuvvatchilikni daraxtga qiyoslash mumkin. Uning «ildizi – muhabbat, tanasi – axloq, shoxlari – sabru toqat, yaproqlari – parhez, po‘sti – hayo, gullari – xushfe‘llik va mevasi – yaxshilikdir». Ana shu asosdan kelib chiqib, Husuyn Voiz Koshifiy futuvvatchilik harakatining bosh tamoiyillari sifatida muruvvat va saxovatni ko‘rsatib o‘tadi.

Yuqoridagi fikrlardan ma‘lum bo‘ladiki, xalqimiz hayotida futuvvat harakati o‘ziga xos ijtimoiy va axloqiy harakat bo‘lgan. Ana shu sababli oddiy odamlardan tortib davlat xizmatchilarigacha VIII asrdan to XX asrning 20-yillarigacha bu harakatga e‘tiqod qilib kelganlar. Professor N.Komilov ta‘kidlab o‘tganidek, «Ularning axloqi bizning milliy axloqimizga aylanishi kerak, chunki futuvvatning ko‘p jihatlari odamlarimiz orasida to hanz yashab kelmoqda. Kishilarimizning mehmondo‘stligi, odamoxunligi, mardligi o‘sha ajdodlar udumining vorisii davomidir. Yaxshilik qilish, birovning hojatiini chiqarishdan yayrab-yashnab ketadigan, borini boshqalar bilan baham ko‘radigan odamlar hozir yo‘q deysizmi?!... Siz birovga yaxshilik qilsangiz, u boshqa birovga yaxshilik qiladi. Shu tariqa xayru baraka, ezgu odatlar tantana qilib boradi. Ajdodlarimiz shu ezgu maqsadga bel bog‘lab yashaganlar va dunyoga nom taratgan edilar. Koshki biz ham shunga munosib bo‘lsak...».

Muruvvatlilik va saxovatlilik fazilatlarining mazmun-mohiyati ayniqsa, Alisher Navoiy asarlarida keng ifodasini topgan. Jumladan, buyuk mutafakkirning «Mahbub ul-qulub» asarida mazkur fazilatlarining quyidagi o‘ziga xos va takrorlanmas talqini ifoda etilgan: «Saxovat insoniyat bog‘ining borvar shajaridur (boqiy ildizidir), balki ul shajarning mufid samaridur (hosilasidur) Odamiylik kishvarining bahri mavjvari (odamiylik dengizining mavjlari), balki ul mavj bahrining samin gavhari...».

Ma‘dumlikda (insoniy fazilat sifatida) muruvvat karamning urug‘ qayoshidur (qarindoshidir), balki tav‘amon (umuman) qarindoshidur... Sohobi muruvvat (muruvvatli kishi) sharif xalqidin ayrilmaydurkim, u qayda bo‘lsa Tengri panohida bo‘lsin – izzat va sharaf oromgohida».

Alisher Navoiy bir she'rida muruvvat haqida quyidagicha yozadi: «Muruvvat – barcha bermakdur, emak yo'q, // Futuvvat – barcha qilmoqdur, demak yo'q». Shoir nazdida muruvvat odamgarchilik yuzasidan qilingan yaxshilik, saxovat, himmatdir, o'zida bor narsalarni muhtojlarga berish, yemay yedirish, kiymay kiydirishdir. Futuvvat esa barchaga yaxshilik ko'rsatish, ammo evaziga hech narsa talab va ta'ma qilmaslikdir.

Alisher Navoiy saxovat haqida fikr yuritganda, saxiy kishilarni bulutga, baxil kishilarni yog'insiz bulutga, saxiy kishilarni mevali daraxtga, baxil kishilarni esa mevasiz daraxtga qiyoslaydi. Bulut tabiatga yomg'ir bilan jon ato etganidek, saxovatli kishi yaxshilik qilish bilan odamlarga bahra beradi. Mutafakkir saxovatsiz kishi Payg'ambar avlodi bo'lsa ham do'zaxiy, saxovatli kishi qul bo'lsa ham jannatliy odam deydi: «Saxovatsiz kishi – yog'insiz abri bahor va royahasiz mushki totor. Mevasiz yig'och hamonu o'tun hamon va yog'insiz bulut hamonu tutun hamon. Saxosiz kishi birla gavharsiz sadafning bir hukmi bor. Dursiz sadaf bila o'lub qurug'on kashaf ne e'tibor. Baxil behishtqa kirmas agar sayyidi Qurashiy bo'lsun va saxiy tamug'ta bormas, agar bandai habashiy bo'lsun. Saxiy bulutdir – ishi xirmon, balki mahzan bermak. Baxil mo'rdrur – da'bi xo'sha balki dona termak. Himmat ahlig'adur saxovat ixtisosi va bu ikki sharif sifat shohi valoyat xosi. Saxovat odamig'a badandur va himmat anga ruh va himmat ahlidin olamda yuz ming futuh. Himmatsiz kishi er sonida emas, ruhsiz badanni kishi tirik demas. Oliy himmat shahbozedur baland parvoz va behimmat sichqon sayyode yurutachi boz. Shunqor maskani shohning bilagi, yurutachi maqomi uluksaning sassig' badani va so'ngagi».

Mutafakkir o'z fikrini davom ettirib, insonlarni saxovatni isrofgarchilikdan farqlashga, manfaat uchun saxovat ko'rsatishning behayolik ekanligini anglashga chaqiradi: «Arslon ishi sayd urub sibo'ni to'yg'ormoq va sichqon varzishi diram o'g'urlab, tugunni axtarmoq. Sohib himmat muflisliq bila past bo'lmas, himmatsiz ganj topsa, boyliklarga hamdast bo'lmas. Chinor ilgi xolilig'idin biyiklarga hamdast bo'lmas. Chinor ilgi xolilig'idin biyikligiga ne nuqson va tufroqqa nihon ganjlari bila ne ulvi shon. Himmat ahlig'a

agarchi biyik kavkabadur, ammo saxovatga necha martabadur, Isrof saho emas va itlofni ma'no ahli saxo demas. Haq molin kuydurganni devona derlar va yorug' kunda sham'i kofuriy yoqqonni aqldin begona derlar. Mubohot uchun bermak xudnamoliq va aning bila o'zin saxiy demoq behayoliq. Ulki el ko'rmaguncha bermas – laimdur, saxiy emas. Tilab berganni ham saxodin yiroq bil; ibram bila bergandin bermaganni yaxshiroq bil. Birta o'tmakni ikki bo'lub, yarmin bir ochg'a berganni saxiy de; o'zi emay barin muhtojga berganni axiy de».

Muruvvatlilik va saxovatlilik fazilatlarining muhim ko'rinishi sifatida juvonmardlik masalasi Kaykovusning «Qobusnoma» asarida yorqin ifoda etilgan. Mutafakkir o'g'liga nasihat qilar ekan uch narsa (aql, rostlik, juvonmardlik) insonni baxtli qilishini alohida ta'kidlab o'tadi: «Bilg'ilki, odam uch sifatga egadur. Barcha shaxs, u xoh dono, xoh nodon bo'lsin, shu uch narsa bila xushnuddur. Bu uch narsaning biri aql, biri rostlik va biri juvonmardlikdur».

Shuningdek, «Qobusnoma»da muruvvat va saxovatning uch oltin qoidasi juvonmardlik misolida aniq ko'rsatib berilgan: so'z va ish birligi, rostgo'ylik va yaxshilik. «Juvonmardlik asli uch narsadur: biri ulkim, aytg'on so'zingni o'zing qilsang, ikkinchisi ulkim, rostlikka xilof qilmasang, uchinchisi ulki, xayr ishini ilgari tutsang. Odamdag'i qolg'on barcha sifatlar bu uch narsaning ostidadur. Bilg'il, juvonmardlik va iyorlik shunday kishiga sazovordurki, bir qancha hunari bo'lsin. Bu hunarlardan biri: jasur, mard, sabr-matonat, vadaga vafo qilmoq, pok dil va pok zabon bo'lmoq bo'lsa, yana biri ulkim, o'z manfaatin ko'zlab asirlarga ozor bermasa, bechoralarga madad yetkursa, yomonlarning yomonlig'ini yaxshilardan yiroq tutsa, rost so'z aytsa, o'z tanidin dod bersa, odamlarga ziyon-zarar yetkurmasa, yaxshi qarag'ilki, bunday ishlarning ham oxiri ul uch sifatga vobastadur.

Juvonmardlikning asosiy fazilati manmanlikni boshidin chiqarmoq va o'zgaga qasd qilmaslikdur. Agar juvonmardlik yo'lida yurmoq tilasang, hamisha uch narsani ko'zda tutgil: ko'zni yomon narsadin, qo'lni yomon ishdin va tilni yomon so'zdin saqlashni. Uch

narsani do‘st va dushmanga ochiq tutgil: uy eshigini, sufra boshini, hamyoningning bog‘ichini».

Yuqorida bayon etilgan fikrlardan kelib chiqqan holda, muruvvatlilik va saxovatlilik fazilatlarini shakllantirishning tarixiy asoslariga doir quyidagi xulosalarga kelish mumkin:

1) hozirgi globallashuv sharoitida shaxs va jamiyat manfaatlarini ro‘yobga chiqarishda sintez yo‘l – ijtimoiy-axloqiy qadriyatlarga asoslanish katta ahamiyatga ega. Chunki ijtimoiy-axloqiy qadriyatlar milliy va umuminsoniy axloq asoslarini o‘zida mujassam etadi;

2) muruvvatlilik va saxovatlilik muhim ijtimoiy-axloqiy fazilatlaridir. U shaxs va jamiyat axloqiy ongida o‘zgalarga yaxshilik qilish, mardlik, olijanoblik va olihimmatlik kabi sifat va xususiyatlarni tarkib toptiradi;

3) muruvvat va saxovat moddiy va ma‘naviy shaklga ega ijtimoiy-axloqiy qadriyat bo‘lib, uning negizini o‘zgalarga imkoniyat doirasida yordam berish tashkil etadi;

4) O‘zbekiston xalqi qadimdan muhtojlarga beg‘araz yordam berish g‘oyasini axloqiy madaniyatning asosi sifatida qabul qilgan;

5) muruvvatlilik va saxovatlilik fazilatleri futuvvatchilik (birodarlik) umumxalq harakatida to‘liq namoyon bo‘ldi. Bu harakat a‘zolari asrlar davomida o‘zgaga yaxshilik qilish, yordam berish va insonni qadrlashda jamiyatga ibrat bo‘lib keldi;

6) muruvvatlilik va saxovatlilik fazilatleri xalqimiz tabiatida mavjud, u tarix va zamonlar sinovlaridan o‘tib sayqallanib kelmoqda. Bunda ijtimoiy va axloqiy tajribaning uyg‘unlashganiga amin bo‘lamiz.

Muruvvat va saxovat tushunchalari o‘zaro bir-biri bilan bog‘liq bo‘lsada, biroq ular mohiyatiga ko‘ra turli sifat va fazilatleri ifodalashi bilan muayyan farqliklarga ega.

Muruvvat – bu insonning pok axloqiy tuyg‘ular, sifat va xususiyatlarga ega ekanligini bildirsa, saxovat esa ana shu fazilatleriarning amalda ro‘yobga chiqishidir. Shu ma‘noda «muruvvat» deganda yaxshilikka, ezgulikka, mardlikka bo‘lgan xohish-istakni, «saxovat» deganda esa ijobiy xatti-harakatlar

majmuini tushunamiz. Mazkur ikki tushunchada yaxlitlikda insonparvarlik, olijanoblik, mardlik, qo'li ochiqlik, odamlarni yaxshi ko'rish, rahmdillik, boshqalarga hamdardlik, boshqalarni qo'llab-quvvatlash, beg'arazlik, mehr-oqibatlilik kabi sifatlar o'z aksini topadi.

Insonparvarlik tushunchasi boshqa odamlarga va Yer yuzidagi barcha tirik mavjudotga ezgu, rahmdil, g'amxo'r munosabatni namoyon etadigan shaxs sifati, insoniylik tarzida baholanadi. «Falsafa qomusiy lug'at»da insonparvarlik - «Odamlarga mehr-muhabbat bilan qarash, ularni hurmat qilish, insonning moddiy farovonligini yuksaltirish va kishilarda yuksak ma'naviy fazilatlarini rivojlantirishga g'amxo'rlik qilish g'oyalari bilan sug'orilgan dunyoqarash» sifatida qaraladi. «Pedagogik entsiklopedik lug'at»da esa, insonparvarlik shaxs sifatida inson, uning erkin rivojlanishi va o'z qobiliyatlarini namoyon eta olishini qadriyat sifatida qabul qilish ekanligi uqtiriladi.

Keng ma'noda insonparvarlik – insonni shaxs sifatida qadriyat deb belgilaydigan, uning erkinlik, baxtga bo'lgan huquqi, o'zining qobiliyatlarini namoyon etishi va rivojlantirishi, ijtimoiy institutlarning baholash mezonlarida inson ravnaqini hisobga oladigan qarashlarning tarixiy o'zgaruvchan tizimi, insoniylik – odamlar orasida kutiladigan me'yoriy munosabat.

Mardlik insonning ma'naviy xislati bo'lib, or-nomus, vijdon va sadoqat, shaxsning olijanobligini o'zida ifoda etadi. Mardlik so'zi xalqimiz orasida keng iste'mol etiladigan va millatimiz uchun xos bo'lgan fazilatni ifoda etadigan so'z hisoblanadi. Mardlik so'zi jasorat, qo'rqmaslik, botirlik kabi so'zlar bilan ma'nodoshdir. O'z navbatida mardlik so'zi insof tushunchasi bilan ham uyg'unlashib ketadi. Insof – bu adolat va vijdon amri bilan ish tutish tuyg'usi, kishilarga munosabatda halollik, to'g'rilik, tenglik, sofdillik va haqiqatgo'ylikdir. Mardlik nima ekanligini anglagan inson o'zlarini himoya qiladi, kambag'allarga yordam beradi, zabunlarning ko'nglini ko'taradi.

Ochiqqo'llik – inson ma'naviy qiyofasini belgilovchi muhim xususiyat bo'lib, saxiylik, qo'li ochiqlik, hotamtoylik ma'nolarini


anglatadi. Ochiqqo‘llik xalqimiz ma’naviyatidan chuqur o‘rin olgan, milliy mentalitetimizga xos xususiyat sifatida qadrlanadi. Ochiqqo‘llik xususiyatiga ega kishilar kam ta’minlangan, ko‘p bolali, iqtisodiy jihatdan qiynalib qolgan oilalarga savob uchun doimiy yordam ko‘rsatib keladi. O‘z navbatida ochiqqo‘llik saxiylik xislati bilan uyg‘unlashadi. Saxiylik hech kimdan narsasini, yaxshiligini ayamaslik, hotamlikni ifoda etadi. Saxiylik qo‘lidan kelganча insonlarga yaxshilik, muruvvat ko‘rsatish xususiyatini o‘zida mujassam etadigan fazilatdir. Saxiylik qilib nochorlarga yordam qo‘lini uzatgan odam, yaxshilik yo‘lida qadr topadi. Saxiylik kishining ko‘rki, uning zaynatidir.

Rahmdillik o‘zgalarga nisbatan mehr-shafqat, mehribonlik, insonparvarlik tuyg‘usini ifodalovchi tushuncha bo‘lib, uning tub mohiyati insonni hurmat qilish, qadr-qimmatini bilish hamda ularga mehribonlik ko‘rsatishdan iboratdir. Rahmdillik o‘zgalarga mehr-shafqat ko‘rsatish, amaliy ko‘mak berish kabi insoniy fazilatlarda namoyon bo‘ladi. Insondagi rahmdillik va mehribonlik uning ma’naviy go‘zalligidan, nozik tabiat egasi ekanligidan dalolat beradi. Rahmdil inson yaxshilikdan kuch olib, el manfaatini ko‘zlaydi, o‘zgalarga manfaatini o‘z manfaatidan ustun qo‘yadi.

Yuqoridagi fikrlarga asoslangan holda, muruvvatlilik va saxovatlilik fazilatlariga xos xususiyatlarni quyidagi tarzda jadval ko‘rinishida umumlashtirish mumkin:

1-jadval

Muruvvatlilik va va saxovatlilik fazilatlarini ifoda etuvchi sifatlar



Muruvvatlilik va saxovatlilik fazilatlarini shakllantirish muayyan mezonlarga asoslanishni talab etadi. Mazkur mezonlarga quyidagilarni kiritish mumkin:

- 1) beg'arazlik;
- 2) ixtiyoriylik;
- 3) aniqlik;
- 4) yo'naltirilganlik;
- 5) vaqt bilan boglikliqlik;
- 6) me'yor bilan bog'liqlik.

Shuningdek, muruvvatlilik va saxovatlilik fazilatlarini quyidagi tamoyillar birligini ham talab etadi:

1. Oshkoralik. Ushbu tamoyil muruvvat va saxovat ochiq, to'g'ridan to'g'ri, hech qanday yashirin maqsad bilan amalga oshirilmasligi lozimligini ifoda etadi.

2. Halollik. Halollik jamiyatning axloqiy me'yorlariga ongli ravishda va ixtiyoriy amal qilishga undovchi hodisa bo'lib, inson xarakterining mohiyatidan kelib chiqib, insoniylik burchining vijdonan va ongli bajarilishini talab etadi.

3. Qonuniylik. Qonuniylik muruvvat va saxovat ko'rsatish maqsadga muvofiqlik, qonun va qonun osti hujjatlari hamda davlat-jamiyat manfaatlariga mos kelishini taqozo etadi.

4. Xolislik. Muruvvat va saxovat insonning o'z xohish-irodasi timsoli bo'lib qolishi kerak emas, u umuminsoniy me'yor va talablar ifodasi sifatida namoyon bo'lishi zarur.

Muruvvatlilik va saxovatlilik fazilatlarini ma'lum manbalardan doimiy oziqlanib turadi. Ularga tarixiylik, vorislik va zamonaviylik kabilarni kiritish mumkin. Chunki o'tmishda kishilarga mehr-muruvvat ko'rsatish, yaxshilik qilishga doir an'analar kishini ajdodlariga mos fikr yuritishi, o'z xatti-harakatlarini zamonaviylik bilan uyg'unlashtirishiga imkon beradi.

Nazorat uchun savol va topshiriqlar

1.»Avesto»da ifoda etilgan qadriyatlarni qanday guruhlarga tasnif etish mumkin?

2. Tasavvuf ta'limotida aks etgan qadriyatli tasavvurlar haqida ma'lumot bering.

3. Abu Nasr Forobiyning pedagogik aksiologiyaga doir qarashlari haqida ma'lumot bering.

4. Abu Ali ibn Sinoning axloqiy va badiiy qadriyatlarga doir fikrlarini izohlang.

5. Alisher Navoiyning insonparvarlik ta'limotini pedagogik aksiologiya rivojidagi ahamiyatini tushuntirib bering.

Mustaqil o'qish uchun adabiyotlar

1. Туленов Ж. Қадриятлар фалсафаси – Т.: Ўзбекистон, 1998.

2. Каримов И., Рустамова М. Фалсафа фани назарияси ва тарихи. – Т.: ТДПУ, 2007.

3. Нишонова С. Комил инсон тарбияси. – Т.: «Истиклол» нашриёти, 2003. – 224 б.

4. Комилов Н. Тасаввуф ёки комил инсон ахлоқи. – 1-қисм. – Т.: «Ёзувчи» нашриёти, 1996. – 272 б.

5. Қодиров Б. Комил инсон тарбияси. – Т.: «Меҳнат» нашриёти, 2001.

6. Авесто. – Т.: Шарқ, 2001.

7. Эгамбердиева Н.М. Маданий-инсонпарварлик ёндашув асосида талабаларни шахсий ва касбий ижтимоийлаштириш. – Т.: Фан, 2009.

Mustaqil ish topshiriqlari

1-topshiriq. «Qadriyat g'oyasi va uning milliy falsafadagi rivoji» mavzusidagi kontseptual jadvalni to'ldiring.

<i>Manbalar</i>	<i>Qadriyatli tasavvurlar</i>	<i>Qadriyatli ongning namoyon bo'lishi</i>	<i>Qadriyatli ustanovkalar</i>	<i>Qadriyatli orientatsiyalar</i>
Avesto				

Tasavvuf ta'limoti				
Arab musulmon olami Uyg'onish davri mutafakkirlari				

2-topshiriq. «Fozil odamlar shahri»ga xayoliy ekskursiya uyushtiring, Ekskursiya davomida quyidagi jihatlarni o'rganishga e'tibor qaring:

1. Shahar atrofi va ko'rinishi.
2. Shaharning tozaligi va ozodaligi.
3. Shahar odamlarining kiyinishi va o'zini tutishi.
4. Shahar odamlarining bir-birlariga munosabati.
5. Shahar odamlarida mavjud fazilatlar majmui.

3-topshiriq. Ekskursiya nihoyasiga yetgach, guruhlariga bo'ling. «Fozil odamlar shahri» mavzusida loyiha tayyorlang Loyihani taqdimot ko'inishida taqdim eting.

4-topshiriq. Quyida ikki qismli kundalik taqdim etilgan bo'lib, uning birinchi qismida Ahmad Yassaviyning hikmatlaridan misollar berilgan, ikkinchi qismida esa, har bir hikmatning mazmuniga doir o'z munosabatingizni yozing.

Nafsdan kechib qanoatni pasha qilg'on, Har ne topsa, rozi bo'lib, bo'yin sung'on, Yaxshilarga xizmat qilib, duo olg'on, Andoq oshiq mashxar kuni armoni yo'q	
---	--

Nafs yo'liga kirgan kishi rasvo bo'lur, Yo'ldan ozib, toyib, to'zib, gumro bo'lur	
Xayru sano qilg'onlar, yetim ko'nglin olg'onlar, Chahor yorlar hamrohi, kavsar labinda ko'rdim Andog' olim joyini dorussalomda ko'rdim. Mufti bo'lg'on olimlar, nohaq fatvo berg'onlar, Andog' mufti joyini sirot ko'frugda ko'rdim.	
Oqil ersang, eranlarga xizmat qilg'il, Amru maruf qilg'onlarni izzat qilg'il	

5-topshiriq. Quyida berilgan ma'naviy-axloqiy mavzudagi hikmatlarga doir:

F – fikringizni bayon eting.

S – fikringizning bayoniga sabab ko'rsating.

M – ko'rsatgan sababingizni isbotlab misol keltiring.

U – fikringizni umumlashtiring.

1. Bir kalima shirin so'z qilichni qinga tiqar (Amir Temur).
2. Qanoat chashmadurkim, suvi olmoq bilan qurimas (Alisher Navoiy).

3. Bori elga yaxshilik qilg'ilki, mundin yaxshi yo'q, Kim degaylar dahr aro qoldi falondin yaxshilig' (Zahiriddin Muhammad Bobur).

4. Bilim yorug'likdir, nodonlik qorong'ulikdir (Ismatulla Raxmatullaev).

5. Ilmsiz aql – yengsiz kiyim (Saidrasul Aziziy).

VI bob. MILLIY PEDAGOGIKAMIZDA AKSIOLOGIK FIKRLARNING RIVOJLANISHI

Tayanch tushunchalar: xalq pedagogikasi, xalq og‘zaki ijodi, ilk yozma manbalar, tosh bitiglar, ta’lim islohotlari

Xalq pedagogikasi – bebaho qadriyat. Agar insoniyat tarixiga nazar tashlaydigan bo‘lsak u bir necha million yillik davrni o‘zida aks ettiradi. Insoniyat rivojining dastlabki davrlarida – ibtidoiy jamoa tuzumi davridayoq tarbiya jamiyat rivojining asosi sifatida qabul qilingan. Ma’lumki, ibtidoiy kishilar mehnat faoliyati jarayonida o‘z ehtiyojlarini qondirgan va bu jarayon yosh avlodda ham mehnat qilish, amaliy faoliyatni yo‘lga qo‘yish borasidagi nazariy bilim, ko‘nikma va malakalarni hosil qilishga zamin hozirlagan. Mehnat faoliyatini tashkil etish jarayoni dastlabki davrlarda butun ijtimoiy hayotni yo‘lga qo‘yish negizida amalga oshirilgan bo‘lsa, keyinchalik tarbiya inson faoliyatining asosiy jihati, ijtimoiy ongni shakllantirishning muhim omiliga aylandi. Dastlabki urug‘chilik jamiyatidan oldin ham inson yashash uchun kurashgan, mazkur davrda urug‘ning barcha a‘zolari jamoa bo‘lib harakat qilganlar. Keyinroq kishilar mehnat faoliyatini jamoa a‘zolarining yosh jihatlariga ko‘ra qo‘yidagicha tashkil etganlar:

- a) bolalar va o‘smirlar;
- b) ijtimoiy hayot va mehnatda to‘la ishtirok etuvchilar;
- v) keksalar.

Yuqoridagilarda ma’lum bo‘ladiki, eng qadimgi davrlardayoq otalar o‘z o‘g‘illariga ov qilish, mehnat quroli yasash siriarini o‘rgatgan bo‘lsalar, ayollar o‘z qizlariga olovni saqlash, ovlab kelingan hayvonni boqish sirlarini tushuntirib borishgan. Bunday tushuntirishlar avloddan-avlodga o‘tib borib, o‘ziga xos hikmatli so‘zlarga aylana borgan. Demak, xalq pedagogikasining asoschisi – bu ijodkor xalqdir.

«Bizning ajdodlarimiz, xalqimiz qadim-qadimdan o'troq yashagan, millatimizning iligi o'troq madaniyat sharoitida qotgan. Xalqimizning «iligi to'q, baquvvat» demoqchiman. Yana tilimizda «tagli-tugli», «palagi toza» degan iboralar ham bor. Bu bir joyda muqim yashagan, o'z turmush tarziga, axloq-odob mezonlariga, aqidalari va tafakkur tarziga ega bo'lgan xonadonlarga nisbatan aytiladi. Butun ommani, bir necha yuz minglab, millionlab aholini birlashtirgan aqidalarga, mezon va qoidalarga ega bo'lgan xalqni qanday izohlash va ta'riflash mumkin?! Ana shu hayotiy va ijtimoiy mantiqdan kelib chiqsak, ta'rif va izoh bitta bo'ladi – milliy borlig'imiz, madaniyatimiz ildizi, tomiri o'troq bo'lgan», deydi I.A.Karimov.

Prezident o'z fikrini davom ettirib, «Biz xalqni nomi bilan emas, balki madaniyati, ma'naviyati orqali bilamiz, tarixining tag-tomirigacha nazar tashlaymiz», – deb yozadi. Demak, ana shu moddiy boylik va madaniyat yaratuvchi xalq qanchalik qadimiy bo'lsa, uning pedagogik tajribasi ham shunchalik qadimiydir, shuning uchun ham o'sha xalq yaratgan topishmoq, maqol, matal, qo'shiq, ertak va dostonlarda aks ettirib kelindi. Xalqimiz ma'naviyatining noyob durdonalari bo'lgan xalq pedagogikasining eng taraqqiyparvar va noyob fikr-mulohazalari o'z qimmatini hech qachon yo'qotmagan. Ana shu xalq pedagogikasi tufayli kamolotga erishgan ajdodlarimiz uzoq asrlar davomida butun jahon madaniyatiga o'z hissalarini qo'shib kelgan.

Ikkinchidan, xalqimizning ko'p qirrali tarixiy va boy madaniyatining ajralmas qismi bo'lgan xalq pedagogikasini o'rganish orqali milliy tarbiyamizning o'ziga xosliklarini o'rganish imkoniyati paydo bo'ladi. Chunki har bir xalqda umuminsoniy fazilatlar bilan birga, hech kimnikiga o'xshamagan alohida qadriyatlar mavjud bo'ladi. Bunday qadriyatlar o'z-o'zidan paydo bo'lib qolmaydi. Ular tarixan shakllanib, rivojlanib boradi. Aynan o'zbek xalqining yosh avlodni tarbiyalashdagi o'ziga xosliklari (bolani «siz»lab gapirish, kattalar gapirganda «xo'p» deyish va sh.k.) u tomonidan yaratilgan pedagogik g'oyalarda o'z ifodasini topgan.

Uchinchidan, xalq og‘zaki ijodi manbalari asosida o‘zbek xalqi pedagogikasini o‘rganish – pedagogika fani tarixiy taraqqiyotining obyektiv qonuniyatlarini aniqlash, belgilash uchun g‘oyat muhim ahamiyatga egadir.

Shunday qilib, xalqning o‘z zamonasiga mos, kutilgan maqsaddagi kishilarni tarbiyalab yetishtirishdagi g‘oyalari, ta‘lim-tarbiyaning maqsad va vazifalariga bo‘lgan qarashlari, yoshlarni o‘qitish ham ma‘lumotli qilishning mazmuni hamda yoshlarga tarbiyaviy ta‘sir ko‘rsatishda qo‘llaniladigan usul va vositalar qadim zamonlardan beri davom etib kelmoqda.

O‘rta Osiyo xalqlari, shu jumladan, o‘zbek xalqi ham juda qadimiy va boy madaniyatga egadir. Xalqimiz qanchadan-qancha buyuk daholarni tarbiyalab voyaga yetkazganki, ularning ilm-fan, san‘at va adabiyot sohasidagi durdonalari jahon madaniyati xazinasidan munosib o‘rin olgan.

Xalqimizning uzoq tarixiy davrlar davomida shakllangan va ko‘p qirrali madaniy poydevori bo‘lmaganda, Muso al-Xorazmiy, Ahmad al-Farg‘oniy, Abu Ali ibn Sino, Abu Rayhon Beruniy, Abu Nasr Forobiy, Imom al-Buxoriy kabi ilm-fanning ulug‘vor siymolarining yetishib chiqishi mumkin bo‘lmagan bo‘lar edi. Demak, o‘zbek xalqi mehnat jarayonida orttirgan turmush tajribalari asosida yosh avlodni jismoniy va axloqiy, aqliy jihatdan yetuk hamda estetik did va zavqi baland kishilar qilib yetishtirishda o‘ziga hos, ajoyib milliy tarbiya tizimiga ega bo‘lib kelganlar. Bu tizim ilmiy pedagogika yaratilishidan ko‘p asrlar ilgari yaratildi va u xalq bilan birga xalq ommasining bola tarbiyasidagi eng demokratik va chuqur insoniy orzu-umidlarini amalga oshirishdagi yagona tarbiya tizimi bo‘lib qoladi.

Xalq ommasining turmush faoliyati jarayonida to‘plagan tarbiya borasidagi tajriba va bilimlari xalq pedagogikasining mazmunini ifodalaydi. Ya‘ni xalq pedagogikasi – xalq donishmandligining zamona yoshlarini kutilgan maqsadga muvofiq kishilar qilib yetishtirishdagi tarbiyaning maqsad va vazifalariga bo‘lgan qarashlari hamda xalq ommasi tomonidan ta‘lim-tarbiya ishlarini amalga oshirib borishda qo‘llanib kelingan usul, vosita, ko‘nikma va

malakalar birligini ifodalovchi, tajribalar asosida to'plangan bilim va ma'lumotlar yig'indisidir. Boshqacha qilib aytganda, xalq pedagogikasi xalq ommasining og'zaki tarzda yaratgan va avloddan avlodga o'tib kelayotgan tarbiya haqidagi ma'lumotlar – pedagogik ijodlari yig'indisidir.

Xalq pedagogikasi tarbiya yuzasidan to'plangan empirik tarzda hammasi bilim, ko'nikma va malakalarni o'zida mujassamlashtiradi. Shuningdek, xalq pedagogikasi jamiyat a'zolarining ma'naviy taraqqiyotidagi muayyan bir davr pedagogik bilimlarini aks ettirishi bilan pedagogika fanining yaratilishi, ham rivojining asosi bo'lib xizmat qilgan. Xalq pedagogikasi ma'lum bir shaxs tomonidan ishlangan, muayyan bir tizimga tushirilgan hamda tugallangan, yaxlit pedagogik yodgorlik emas.

U xalq ommasining tabiat va jamiyat haqidagi boshqa bilimlari qatorida, o'sha bilimlar jumlasidan o'rin olgan alohida-alohida maydalangan (yaxlit bo'lmagan) empirik bilimlar yig'indisidir. Lekin bundan xalq orasidan chiqqan xalq pedagoglari bo'lmagan degan fikr kelib chiqmaydi, albatta. O'zbek xalqi tarixida ajoyib donishmand pedagoglar bo'lgan. Buni juda ko'p ertak va dostonlarda uchraydigan enaga, murabbiy, otaliq, ustoz, o'qituvchi (mulla, domla, muallim)lar orqali ham tasavvur qilish mumkin. Biroq ular ham o'z pedagogik faoliyatlarini va qarashlarida xalq ommasining hayotiga singib ketgan tarbiya borasidagi g'oyalari, orzu-umidlariga amal qilgan holda ish ko'rganlar. Ularning pedagogik g'oyalari ham tarbiyaviy faoliyatda qo'llaniladigan usul va vositalari o'zlari tomonidan yozib qoldirilmaganidek, o'zgalari tomonidan ham yozib olinmagan. Shu tariqa qanchadan-qancha ajdodlarimiz hayoti davomida yashab o'tgan minglarcha o'zbek xalqining iste'dodli pedagoglari merosi ham xalqimizning umumiy pedagogik dahosidan o'rin ola borgan. Xalq pedagogikasi tom ma'noda umuminsoniy, xalqchil pedagogikadir. Xalq pedagogikasida insoniylik, demokratlik yetakchi o'rin egallaydi.

Xalq pedagogikasi keng insonparvarlik tarbiyasi sohasini qamrab olgan bo'lib, uning milliy an'analarimiz, qadriyatlarimiz, faoliyat yo'nalishini qamrab olganligini ta'kidlab o'tish zarur.

Yuqoridagilarni umumlashtirib, shunday xulosalarga kelish mumkin:

1) muayyan bir xalq va unga mansub xalq pedagogikasi, uning mazmuni va xarakterida o'sha xalq yashab turgan sharoit, doimo o'zgarib turadigan iqtisodiy ahvol va ijtimoiy-siyosiy vaziyatning xususiyatlari belgilanadi. Shu boisdan xalq pedagogikasi davr hamda uning barcha murakkabliklari va ziddiyatlari to'la aks etadi. Har qanday tarixiy davr va uning ta'lim-tarbiya tizimiga, jumladan, yoshlarni insonparvarlik ruhida tarbiyalash jarayoniga o'z ta'sirini o'tkazib, o'z «izi»ni qoldirar ekan, bu narsa ota-onalar orqali ularning bolalarni tarbiyasida ham yaqqol ko'rinadi;

2) o'zbek xalq pedagogikasida yoshlarni insonparvarlik ruhida tarbiyalashda ko'p asrlar davomida xalqimiz tomonidan amaliyotda qo'llangan hikmatli so'zlarida, urf-odatlarida, an'analarda taraqqiyparvar g'oyalar mujassam;

3) xalq pedagogikasida insonparvarlik pedagogikasining tarkibiy qismi bo'lgan millatning o'tmishi, buguni va kelajagi, ona-Vatan tarixi, taqdiri, o'lka go'zalligi, yurt farovonligi o'zining ifodasini topadi. Shu bilan birga o'zbek xalqining mehnatsevarligi, mehmondo'stligi, jasorat va matonati, oddiyligi va soddaligi kuylanadi.

Insoniyat qadim-qadimdan hayotdagi sinalgan pedagogik qarashlarni avloddan-avlodga o'tkazib kelgan. Ular turmush, ijtimoiy va mehnat faoliyati hamda hokazolar bilan bog'liq bo'lib, asta-sekin an'anaviy tus olgan, keyingi avlodlar uchun hayot sabog'i vazifasini o'tay boshlagan. Chunki xalq og'zaki ijodiyoti turkumiga kiruvchi barcha janrlar, miflar, afsonalar, rivoyatlar, ertaklar, latifalar, loflar, xalq qo'shiqlari, termalar, dostonlar, maqollar, topishmoqlar va boshqalar donishmandlik manbai hisoblanadi. Zero, xalqning tarixiy tajribasi, turmush saboqlari natijasida ta'lim-tarbiya haqidagi fikrlar, qarashlar tarkib topadi. Ularda xalqning zukko va donoligi namoyon bo'lgan.

Avlodlar vorisligi sifatida otadan bolaga o'tib kelgan va muayyan tarzda tartibga tushirilgan. Shu bilan birga tarixiy taraqqiyotni davom etishi bilan boyib, sayqallanib borgan va

chinakamiga xalq pedagogikasiga aylanib ketgan. Albatta, O'rta Osiyodagi insonparvarlik tarbiyasi haqidagi qarashlarning zahirida xalq og'zaki ijodiyoti, shuningdek, amaliy tajribalar, udumlar, marosimlar, an'analar yotadi. Taniqli olim Y. Jumaboev shunday yozadi: «Mifologik va afsonaviy qahramonlarning obrazlari, xalq xotirasida asrlarcha yashab va qayta o'zgartirib keldiki, ularning aks sadolari hozirgi kunga qadar O'rta Osiyo xalqlarining badiiy ijodida saqlanib kelgan «Kitobi Jamshid», «Er Xo'bba afsonasi» kabi o'zbek ertaklari, folklor asarlari, afsonalar, rivoyatlar bunga misol bo'la oladi. Bu rivoyatlarda Vatanga va ozodlikka bo'lgan qizg'in muhabbat tarannum etiladi; ularda or-nomus, do'stlarga va safdoshlarga sadoqat kabi eng ezgu, insoniy tuyg'ular o'z ifodasini topadi», degan fikri yuqoridagilarning isboti bo'la oladi.

Xalq pedagogikasida insonparvar g'oyalar ijtimoiy va shaxsiy hayotning turli sohalarida va boshqa insonlar bilan aloqalarida shaxsning xarakteri va xulq-atvoriga nisbatan xalq ommasi orasida tarkib topgan insonparvarlik munosabatlarining ifodalanishidir. Xalq pedagogikasi manbalarida insonning Vatanga, mehnatga, moddiy ne'matlarga, oilaga, boshqa kishilarga hamda o'ziga munosabati ifodalanadi.

Xalq pedagogikasi asosan, xalq og'zaki ijodiyotida, uning barcha janrlarida o'z ifodasini topgan. Demak, xalq og'zaki ijodi qadim zamonlardan buyon jahon xalqlarining, shu jumladan, o'zbek xalq pedagogikasining ham muhim tarbiya vositasi bo'lib kelgan. Yoshlarni insonparvarlik ruhida tarbiyalashda maqollar, afsona va rivoyatlar, ertak va dostonlar, masallar katta ahamiyatga ega.

Xalq pedagogikasi shaxsni shakllantirishning muhim vositalaridan biridir. O'zbek xalqining urf-odatlarini bu millatga mansub kishilarning ma'naviyatini tarkib topdirishda hal qiluvchi ahamiyatga ega. Xalqimiz ruhiyatida mavjud bo'lgan yoshlar tomonidan kattalarga oldin salom berilishi, ularning yo'lini kesib o'tilmasligi, kattalardan oldin ovqatga qo'l uzatilmasligi, yoshi ulug'lar oldida cho'zilib yotilmasligi, kattalarning gapini bo'lish odobsizlik ekanligi, keksalarga yordam berish, ularning aytganlarini qilish shartligi singari jihatlar millatning xulqiy tarziarini qaror

toptirishda muhim o‘rin tutadi. O‘qituvchi mana shu jihatlarga e‘tibor qaratishi lozim. Chindan ham hayotda ulug‘ yoshli odamlarning ko‘rgan-bilganlarini kichik yoshlilar bilmaydi va bu hol ularning fikrlarini xolisligiga, qaroru xulosalarining to‘g‘riligiga ham ta‘sir etadi. Shuning boisikim xalqimizda «bitta ko‘ylakni ortiq yirtgan» odamga ham hurmat ko‘rsatish, uning fikrlarini inobatga olish talab etiladi.

Xalqqa xos turli-tuman marosimlar ham o‘ziga xos tarbiyaviy vositalardir. Ularni bilish, tizimga solish va to‘g‘ri foydalanish didaktik tadbirlarning, tarbiyaviy ishlarning samaradorligini oshirishda qo‘l keladi. Inson yaratilgan dastlabki davrlarda, tarbiya bilan shug‘ullanish alohida tuzilmalarning emas, ota-ona va oilaning ichki ishi bo‘lgan qadimgi zamonlarda turli marosim hamda an‘analar el-ulusning hayotini muayyan me‘yorlariga solib turishning vositasi bo‘lgan. To‘ylar, o‘limga doir marosimlar, o‘yinlar, gap-gashtaklar, jo‘ravozliklar xalqimizda jamoachilik, hamdardlik, o‘zgalarning tashvishi bilan yashash, ko‘pchilikning qarashlari bilan hisoblashish singari sifatlarni qaror toptirishda o‘ziga xos o‘rin tutgan.

Ilk yozma manbalarda aksiologik munosabatning namoyon bo‘lishi. Dastlabki davrlardanoq ulug‘langan pedagogik qadriyatlar xalq og‘zaki ijodini va xalqning ezgu maqsadlarini o‘zida mujassam etgan yozma yodgorliklarda o‘z aksini topgan.

XI asrda yashagan ulug‘ olim Mahmud Qoshg‘ariy tomonidan yaratilgan «Devonu lug‘otit turk» asari ilk yozma manbalardan biridir. Jumladan, xalq og‘zaki ijodining muhim janrlaridan biri hisoblangan maqollar dastlab yozma holatda Mahmud Qoshg‘ariyning «Devoni lug‘otit turk»dagi maqollarda qo‘shiqlardagi kabi do‘stlik, o‘zaro hamkorlik, mehnatga muhabbat, ilm olish va kasb-hunar egallashga nisbatan ehtiyoj va ishtiyoq, vatanparvarlik va qon-qardoshlik tuyg‘usiga ega bo‘lish, tejankorlikning ahamiyati va isrofgarchilikning oldini olish, adolat va adolatsizlik, yaxshilik va yomonlikning oqibatlarini, axloq-odob qoidalari, sihat-salomatlikni saqlashga oid o‘g‘itlar o‘z ifodasini topgan.

Buni «Devon»da keltirilgan bir qancha maqollar mazmunida ko‘ramiz: «Odamning olasi ichida –yilqiniki tashqi(sirti)da» maqolida esa ayrim kishilarning yomon niyatlari, o‘y-fikrlari, dilida boshqalarga nisbatan yuzaga kelgan xiyonatni yashirib, kishilarga zo‘rma-zo‘raki ravishda kulib qarashi, ularning xatti-harakatlarini maqtashi, o‘zini go‘yoki, ularning yutuqlaridan quvonadiganday ko‘rsatishiga aytiladi. «Ho‘kizning oyog‘i bo‘lguncha, buzoqning boshi bo‘lgan yaxshiroq» maqolida mustaqillikni mutelik va tobelikdan, o‘zgaralar irodasiga bo‘ysunishdan afzalligi, ayrim harakatlarni amalga oshirishda tashabbuskor, faol, ilg‘or, tashkilotchi bo‘lish maqsadga muvofiq ekanligiga urg‘u beriladi. «Odobning boshi – til» maqolida esa xushxulqqa ega bo‘lganlarga nisbatan qo‘yiladigan talablardan biri – shirin so‘zli, xushmuomalali bo‘lish ekanligi ta‘kidlanadi. Shirinso‘z, xushmuomala kishi el orasida tezda izzat-ikrom topadi, yuqori martabalarga erishadi. Shu bois yoshlarni yoshlikdanoq shirin so‘zli, xushmuomalali, bir so‘z bilan aytganda insonparvar bo‘lishga o‘rgatish maqsadga muvofiqdir, deya ta‘kidlanadi. Xalq orasida g‘iybatchi kishilarga nisbatan «Ilon o‘zining egriligini bilmay, tuyaning bo‘ynini egri deydi» qabilidagi maqol qo‘llanilgan.

Maqollarda yomonlik qilgan kishining o‘ziga yomonlik qaytishi mumkinligi «Ko‘kka suzsa yuzga tushar» – osmonga tupurgan kishining tupugi o‘zining yuziga tushadi, tarzida ifodalangan.

Demak, maqollarda bilimlilik, kasb-hunarga ega bo‘lish, axloqiylik, sadoqat, xushxulqlik, ezgulik, kamtarlik, jasorat, shirinsuxanlik, poklik, vafodorlik, do‘stlik, mardlik, mehnatsevarlik kabi insonparvar xususiyatlar ulug‘lanadi. Aksincha, bilimsizlik, nodonlik, manmanlik, nomardlik, vafosizlik, ikkiyuzlamachilik kabi xislatlar qoralanadi.

Qo‘shiqalar qadimdan xalq orasida keng tarqalgan. Ular asosan kuyga solinib ijro etilgan. Qo‘shiq aslida keng ma‘noli tushuncha bo‘lib, o‘z ichiga bir qancha turlarni oladi. Ular orasida mehnat va marosim qo‘shiqlari, hunarmandchilik, chorvachilik, dehqonchilik

bilan bog'liq qo'shiqlar, mavsum qo'shiqlari, lirik qo'shiqlar va boshqalar bor.

Qo'shiqlarda alohida kishilarning shodlik va g'ami, hishayajoni, tuyg'ulari, fikr-mulohazalari ifodalansa-da, ularda asosan, keng xalq ommasining orzu-umidlari, o'y-xayollari, ijtimoiy munosabatlari, urf-odatlarini, dunyoqarashi mujassamlashgan.

Qo'shiq atamasi ham ilk marta Mahmud Qoshg'ariy tomonidan qayd etilgan bo'lib, muallif unga she'r, qasida deb izoh bergan.

Mahmud Qoshg'ariyning «Devoni lug'otit-turk» asaridan olingan quyidagi parchada qo'ni-qo'shnilariga yaxshilik qilish, ularning hurmatini joyiga qo'yish targ'ib etiladi:

Qo'ni-qo'shni qarindosh

Ko'rsin sendan yaxshilik

Ne-ne sovg'a qilishsa

Yaxshirog'in qil tortiq.

Yana bir qo'shiqda inson faqat o'zini o'ylamasligi, o'zgalar manfaati uchun ham harakat qilishi lozimligi ta'kidlanadi:

Ko'rklik to'ning o'zingga,

Tortiq oshing o'zgaga.

Qo'noqqa ko'rgaz izzat,

Yozsin sha'ning uzoqqa.

VII-VIII asrlarda qabr toshlariga turk-runiy yozuvida o'yib bitilgan «Urxun-Enasoy» bitiklarida ham bolalarni vatanparvar, xalqparvar, tadbirkor, uddaburon, oqil qilib tarbiyalash masalalariga alohida e'tibor qaratilgan. Jumladan, Qultegin bitigida turk xalqini uzoqni ko'ra olmaganligi natijasida Tabg'ach eliga qaram bo'lib qolganligi, kelgusi avlodlar bunday xatoliklarni takrorlamasliklari zarurligi quyidagicha uqtiriladi: «So'zimni tugal eshitgil, keyindagi inim, urug'im, xalqim..... bu so'zlarni yaxshilab eshit, diqqat bilan tingla.... Tabg'ach xalqining so'zi shirin, ipak kiyimi nafis...ekan. Shirin so'zi, ipak kiyimi bilan aldab, yiroq xalqni shu holda birlashtirar ekan... Yaxshi dono kishini, yaxshi alp kishini yo'latmas ekan. Biror kishi adashsa, urug'i, xalqi, uyi, yopinchi'igacha qo'ymas ekan. Shirin so'ziga, nafis ipagiga aldanib, ey turk xalqi, o'lding».

Pedagog olimi A.S.Kaldibekovning fikricha, bu bitigtoshlarda bolalarni baynalmilallik ruhida tarbiyalash masalasiga ham e'tibor qaratilgan. Bitigtoshlarda turk xalqining Tabg'ach xonligiga qarshi olib borgan urushlari ham ifoda etilgan. Biroq turk xonlari (To'nyuquq, Qultegin, Bilga hoqon, Eltarish hoqon) Tabg'ach xonlarining botirligi, siyosatdonligi, ishbilarmonligi, vatanparvar hamda elsevarligini inkor etmaydi. Ayni shu jihatlarni turk xalqida mujassam bo'lishini chin dildan istaydi. Shu bilan birga Tabg'ach xonlarining boshqa xalqlar ozodligi, iqtisodiyoti, madaniy hayotiga xavf solayotgani oshkora ko'rsatib berilgan. Agar ular bu qusurlarni bartaraf etishsa, ular bilan har tomonlama aloqalarni yo'lga qo'yish foydali ekanligi ta'kidlanadi.

O'rta asrlar pedagogikasidagi aksiologik yondashuvlar. O'rta asrda, Yaqin va O'rta Sharqda diniy o'quv muassasalari – madrasalar ta'lim va fan markazlari bo'lgan. O'zbekistonlik, rossiyalik va chet el sharqshunos tadqiqotchilari tomonidan madrasa turidagi o'quv muassasalari aynan Markaziy Osiyoda yuzaga kelgani va shu yerdan boshqa mamlakatlarga tarqalgani isbotlangan.

Somoniylar davrida (X asr) faqat Samarqandning o'zida 20 ga yaqin madrasalar mavjud bo'lgan. Abu Ali ibn Sino (980-1037) o'zining «Donishnoma» («Bilimlar kitobi») nomli asarida mazkur madrasalarda faqat musulmonchilikka oid bilimlar berilibgina qolmay, balki dunyoviy ilmlar ham o'rganilganligi, ilmiy tadqiqotlar olib borilganligi, ularning negizida ilmiy maktablarning yuzaga kelganligi qayd etiladi.

O'z davrida madrasalarda o'qitilishi yo'lga qo'yilgan fanlarni Abu Ali Ibn Sino quyidagi tizimlar bo'yicha ajratadi: odob (xulq etikasi), astronomiya, tibbiyotshunoslik, til va uning grammatikasi, fikh (musulmon qonunchiligi).

Alloma tomonidan taklif etilgan tarbiya turlari esa quyidagilardan iborat:

- 1) aqliy tarbiya;
- 2) jismoniy sog'lomlashtirish;
- 3) estetik tarbiya;
- 4) ma'naviy tarbiya;

5) hunarga o'rgatish.

Abu Ali Ibn Sino tomonidan taklif etilgan tarbiya turlari Markaziy Osiyoda, Uyg'onish davrida (IX-X asr) ta'limning insonparvarlik va shaxsning barkamol rivojlanishi borasidagi g'oyalarga asoslangan edi deyishga imkon beradi.

Sharq Uyg'onish davri mutafakkirlari – Muhammad Muso al-Xorazmiy, Abu Nasr Forobiy, Abu Ali ibn Sino, Abu Rayhon Beruniylar o'zlarining ta'limiy qarashlarida birinchi o'ringa inson shaxsini qo'yadilar hamda bolalarni har tomonlama, jismoniy va estetik kamolotga erishishlari, shuningdek, tillarni bilishlarini zarur, deb hisoblaydilar. Aqliy ta'limni tashkil etuvchi fanlar sirasiga matematika, astronomiya, mexanika va tabiatshunoslik kabi tabiiy-ilmiiy fanlarni kiritadilar.

Allomalar bolaga hurmat bilan munosabatda bo'lish g'oyasini ilgari suradilar, sxolastik o'qitish va qattiq intizomga qarshi chiqadilar. Ularning fikricha, o'qish bolada bilimlarga qiziqishni uyg'otishi kerak.

Muhammad Tarag'ay Ulug'bekning (1394-1449 yillar) Samarqanddagi faoliyati XIV-XV asrlarda madrasalarning fanlar rivojini ta'minlovchi markazlari vazifasini bajarganligini ko'rsatadi. Muhammad Tarag'ay Ulug'bek Samarqandning hukmdori bo'lishi bilan birga, astronom, matematik va tarixchi sifatida mashhur bo'lgan. Shuningdek, allomaning mohir pedagog ham bo'lganligini tarixiy dalillar qayd etadi. Chunonchi, alloma ko'plab iste'dodli yoshlarni tarbiyalagan. U odamlar, ayniqsa, yoshlarning ilmiy bilimlarni o'rganishlariga katta ahamiyat bergan.

Alloma o'z davlatida ta'lim sohasida jiddiy islohotlarni tashkil etdi. U madrasalarni davlat ta'minotiga o'tkazdi, mudarris (o'qituvchi)larga oylik ish haqi belgilagan, shogird (talaba)larga stipendiya ajratgan.

Muhammad Tarag'ay Ulug'bek madrasa o'quv rejasiga quyidagi fanlar: arab tili, adabiyot, Qur'on, Hadis, ritorika, mantiq, falsafa, fikh (qonunchilik), metafizika, matematika, astronomiya, tibbiyot, geografiya, tarix kabi fanlarni kiritadi.

Mutafakkir tomonidan barpo etilgan hamda o'zi bevosita ta'lim bergan madrasalarda o'qish quyidagi bosqichlardan iborat bo'lgan:

1. «Anda» (kichik) – o'qish muddati 2 yil.
2. «Aust» (o'rta) – o'qish muddati 3 yil.
3. «A'lo» (oliy) – o'qish muddati 3 yil.

Bunday yondashuvda, bugungi kun nuqtai nazaridan aytganda, bakalavriat va magistratura ko'zga tashlanadi. Ayni vaqtda ular o'rta asr evropa universitetlari uchun ham xos bo'lgan.

Buyuk iste'dod egasi sifatida alloma o'z davridan bir necha asrlarga o'zib ketgan. Deyarli 600 yil avval Muhammad Tarag'ay Ulug'bek quyidagi aksiomani ilgari surgan: «Bilim olishga intilish davlat ravnaqiga yo'l demakdir». Iqtisodiy rivojlangan mamlakatlarning hozirgi tajribasi mazkur fikrni to'la tasdiqlaydi.

Nazorat uchun savol va topshiriqlar

1. Xalq pedagogikasining muhim qadriyatlar manbai sifatidagi ahamiyati nimalarda namoyon bo'ladi?
2. Xalq pedagogikasida qanday milliy va umuminsoniy qadriyatlar aks etgan?
3. O'rxun-Enasoy yozma yodgorliklari mazmunida ifoda etilgan qadriyatga doir yondashuvlarning mohiyatini yoritib bering.
4. Mahmud Qoshg'ariyning «Devonu lug'otit-turk» asarida yoritilgan aksiologik g'oyalar haqida ma'lumot bering.
5. Muhammad Tarag'ay Ulug'bekning ta'lim islohotlarida aks etgan aksiologik jihatlarni izohlang.

Mustaqil o'qish uchun adabiyotlar

1. Тохтаходжаева М., Нишонова С., Мадиярова С., Калдыбекова А. ва бошқалар. Педагогика. – Т.: Иқтисод-молия нашриёти, 2008.
2. Нишонова С. Эзгулик йўли. – Т.: Маънавият, 2001.

3. Калдыбекова А. Урхун-Енисей ёзма ёдгорликларини ўқитиш жараёнида талабаларни байналмилаллик руҳида тарбиялаш. // «Педагогик таълим» журнали, 2006 йил, 4-сон.


4. Ҳошимов К., Нишонова С ва бошқалар. Педагогика тарихи – Т.: Ўқитувчи, 1996.

5. Ўзбек педагогикаси антологияси – Т.: Ўқитувчи, 1995.

Mustaqil ish topshiriqlari

1-topshiriq. Quyida keltirilgan «Nima uchun?» chizmasini to'ldiring.

Nima uchun milliy pedagogikamizga qadriyatli tasavvurlar asosi sifatida qarash mumkin?



2-topshiriq. Quyida mutafakkir olimlarning pedagogik kasbiga doir fikrlari tugallanmagan holda berilgan. Mazkur fikrlarni tugallang. So'ngra o'z yozganlaringizni kitobda berilganlari bilan taqqoslang.

1.1. Uning ishi odam qo'lidan kelmas, odam emas, balki dev ham qila bilmas...

1.2. Haq yo'lida kim senga bir harf o'qitmish ranj ila...

1.3. Kimki shogirdligidan chin dildan shod...

1.4. Ustoz shogirdlariga haddan ziyod qattiq zulm ham, haddan tashqari ko'ngilchanlik ham qilmasligi lozim...

3-topshiriq. «O'zbek pedagogikasi antologiyasi» o'quv qo'llanmasidan quyidagi Sharh mutafakkirlarining pedagogik kasbiga doir

fikrlari bilan tanishing va ularni o‘zaro bir-biriga o‘xshashligi nuqtai nazaridan guruhlarga tasniflang:

1. Muhammad al-Xorazmiy.
2. Abu Nasr Forobiy.
3. Abu Rayhon Beruniy.
4. Abu Ali ibn Sino.
5. Alisher Navoiy.

VII bob. PEDAGOGIK AKSILOGIYANI TADQIQ ETISHGA DOIR METODOLOGIK YONDASHUVLAR

Tayanch tushunchalar: ta'lim falsafasi, ta'lim falsafasi tarixi, pedagogik qadriyatlar, ta'limiy qadriyatlar, tarbiyaviy qadriyatlar, tarbiyaviy qadriyatlar manbalari.

Ta'lim falsafasi va uning mohiyati. XVIII-XX asrlardagi pedagog-olimlarining ilmiy izlanishlari shundan dalolat beradiki, amaliyoti dastlabki davrlardanoq falsafa maqsadidan kelib chiqqan zamonaviy maktab va ta'lim o'zining rivojida, Ya.A.Komenskiy, U.G.Pestalotstsi, F.Frebelem, I.F.Gerbert, A.Disterverg, J.Dyui, Abdulla Avloniy, Hamza Hakimzoda Niyoziy va boshqa klassik pedagoglar tomonidan ilgari surilgan falsafiy-pedagogik g'oyalar bilan boyib borgan. Ularning g'oyalari ta'limning klassik modeli asosida yuzaga kelgan bo'lib, o'zining mazmunida avvalgi asoslarni saqlab qolgan: ta'limning maqsadi va mazmuni, ta'limning shakl va metodlari, ta'lim muassasasi va ta'lim jarayonining tashkil etish usullari.

XX asrga kelib esa, bu g'oyalar orasida ta'lim olganlik g'oyasi alohida ahamiyat kasb eta boshladi. Ta'lim olganlik – bilimlarni egallaganlik va uni amalda qo'llay olish demakdir.

Bu davrdagi pedagogik g'oyalar insonning imkoniyatlarini – oliy nerv faoliyati fiziologiyasidan pedagogik psixologiyagacha bo'lgan kontseptsiyalarni ilgari surgani bilan xarakterlidir: «yaqin zonadan» rivojlanish (L.S.Vigotskiy), shaxs rivojlanishida nazariy bilimlarning hal qiluvchilik roli (L.V.Zankov), ta'lim shart-sharoitlari (S.L.Rubinshteyn), rivojlanishning ijtimoiy vaziyati (L.I.Bojovich), aqliy faoliyatning bosqichma-bosqich rivojlanishi (P.YA.Galperin), ta'limda onglilikni shakllantirish (V.V. Davidov).

XX asrning 60-yillarida pedagogikada madaniy dialog, hamkorlik, birgalikdagi harakat, boshqa qarashlarni tushuna olish

zarur, shaxsga hurmat, uning huquqlari kabi g'oyalar amaliy ta'limni inkor etmagan holda yuzaga keldi. Ular o'rtasidagi bog'liqlik shunda ko'rinadiki, ta'limning klassik modeli jamiyat va zamonaviy ishlab chiqarish talablariga javob berishdan kelib chiqqan bo'lsa, falsafiy-pedagogik g'oyalarda imkoniyat yuzaga chiqadi. Ya'ni pedagogikaning yangi metodologiyasi an'anaviy ta'lim jarayonlarini intellektual qayta ishlangani, deyish mumkin.

Ta'lim falsafasining rivoji pedagogik amaliyotda muloqot an'anaviy tushunishning nazariy anglash shart-sharoitlari sifatida yuzaga chiqadi. Pedagogika fanidagi murakkab tizimlar va tushunchalar klassik ta'limning falsafiy g'oyalari asoslangan. Ularni nazariy idrok etish ta'limda boshqa falsafiy-dunyoqarashli tushunchalarni keltirib chiqaradi.

Zamonaviy pedagogika fanining asosiy tendentsiyasi – uning shaxsni «anglash», o'z dunyoqarashiga asoslanishga e'tibor qaratganligidir. Bu esa, zamonaviy pedagogik amaliyotning muhim jihatiga aylandi. Pedagogika va inson amaliyotida insonparvarlik an'analarining rivojlanishi, uning o'z hayotida qo'ygan muhim vazifalarini o'zida aks ettiradi.

Inson hayoti har doim bo'lib o'tgan voqealarni baholash, vazifalarni qo'yish, izlash, xulosalar qabul qilish, dunyoqarash vaziyatlarida kechadi. Bunda uning atrof-muhit bilan munosabatlari ikkita farq bilan o'zaro bog'liq: amaliy va abstrakt-nazariy (bilish).

Bundan kelib chiqadiki, pedagogika metodologiyasi ta'lim falsafasiga haqiqiy insonparvarlikning mohiyati, borliqning yangilanishi va pedagogik bilish haqidagi nazariy qoidalar yig'indisi sifatida qaraydi. Bunday metodologiyaga muvofiq, fanlarning, shu jumladan, pedagogikaning insonparvarlik mohiyatidan kelib chiqadigan vazifasi o'zida insonga bilish, muloqot, ijod subyektini sifatida yondashishni aks ettiradi.

Bizga ma'lumki, ilmiy bilish, shuning barobarida pedagogik bilish faqatgina ijodkorliknigina emas, ijtimoiy ehtiyojlarni to'la qondirish maqsadini ham ro'yobga chiqaradi. Nazariy va amaliy bilish orasidagi «ko'prik» vazifasini aksiologik yoki qadriyat sifatidagi yondashuv bajaradi.

Umumiy aksiologiya uchun uning o'rganish obyekti sifatida aks etadigan xilma-xil qadriyatli ta'riflar xarakterlidir.

Chet el aksiologiyasida subyektivli yo'nalganlik (emotivizm, ekzistentsializm, affektiv-iroda nazariyasi); subyektivistik yo'nalganlik (neokantchilik, neotomizm); empirik maktab (ijtimoiy-psixologik nazariya, lingvistik tahlil, neonaturalizm) kabi maktablarning ajralib chiqishi mazkur masalani yanada murakkablashtiradi.

Chet el falsafasida qadriyatlar tabiatini tahlil qilishga yondashuvlarni umumlashtirish asosida M.A.Kisel qadriyatning manbaiga asoslanib, ularni ehtiyojli, ideal turmush, oliy qadriyatli voqelik, intuitsiya qadriyatlari tarzida tasnif etadi.

Qadriyatli tasnifda qadriyatlarning rivojlanib borishi turli nuqtai nazardan ko'rib chiqiladi. Faqatgina umumiy aksiologiyadagi barcha murakkab qadriyatli tizimlar real ta'limiy muammolarni hal etish bilan bevosita o'zaro aloqador, deb ta'kidlash to'g'ri bo'lmaydi. Bir paytning o'zida o'zaro aloqadorlik ham ma'lum bo'ladi va u ko'p jihatdan ta'lim falsafasiga asoslanadi.

«Ta'lim falsafasi» atamasi ham turlicha talqin etiladi. Britaniyada nashr etilgan entsiklopediyada ta'lim falsafasiga ta'lim mohiyati, uning rivojlanish qonuniyatlarini ochib berishga doir muammolar bilan shug'ullanuvchi bilim sohasi; ta'limning falsafiy nazariyasi sifatida ta'limning rivojlanish masalalarini ko'rib chiquvchi turli yo'nalishlar yig'indisi sifatida ta'rif beriladi. Ta'lim falsafasining alohida tadqiqot yo'nalishi sifatida ajralib chiqishi XX asrning 40-yillarida Kolumbiya universitetida falsafa va pedagogika nazariyasi sohasi mutaxassislarining ilmiy jamiyatining yaratilishi bilan bog'liqdir. Uning faoliyat maqsadi sifatida ta'limning falsafiy muammolarini tadqiq etish, ta'limiy dasturlarni falsafiy ekspertiza qilish, o'quv kurslarini ishlab chiqish va o'rta maxsus va universitetlar uchun kadrlar tayyorlash aks etadi.

Ta'lim falsafasi tarixi tushunchasi XX asrning 60-yillarida R.Piters tomonidan ta'lim asosi sifatidagi asosiy manbalar: Madaniyat, Jamiyat, Individdga asoslanib qabul qilindi.

Hozirgi vaqtda ta'lim falsafasi deganda, ta'limning qadriyatli-mohiyatli qismi, uning rivojlanish qonuniyatlari va vazifalarini

ochib beradigan falsafiy bilimlar sohasi tushuniladi. U G'arbiy Yevropa mamlakatlarida muhim o'rin egallaydi va ta'limiy qadriyatlarni umumiy qadriyatlar bilan taqqoslash asosida ta'limni asoslashga turlicha yondashuvni amalga oshiradigan qator yo'nalishlar(empirik-analitik, gumanitar, dialogli, ekzistentsial-germenevtik)ni o'z ichiga qamrab oladi. Masalan, idealizm, ratsionalizm, konservatizm, diniy falsafa umumiy qadriyatlar sifatida axloqiy va diniy qoidalar, ijtimoiylik, shaxsiy oliyjanoblikni e'tirof etsa, ta'limda katta e'tibor o'quvchilarning fikrlashini rivojlantirishga qaratilishi kerakligini ta'kidlashadi. Madaniyat, germenevtika, analitik falsafada madaniyat obyektlari umumiy qadriyat sifatida sanaladi. Ta'limiy qadriyatlar sifatida aql-zakovat, bilimdonlik ajratib ko'rsatiladi. Realizm, pozitivizm, empirizm qadriyatlar ijtimoiy va kasbiy mutanosiblik, fuqarolik ta'limiy qadriyatlari bilan bog'lanadi.

Pedagogik qadriyatlarni tasnif etishga turlicha yondashuvlar. «Pedagogik qadriyatlar – bu pedagogik faoliyatning shunday o'ziga xosligiki, ular nafaqat pedagogik ehtiyojlarni qondirishga imkon beradi, balki uning ijtimoiy va kasbiy faolligini mo'ljalga olishga xizmat qiladi. Pedagogik qadriyatlar hayotda o'z-o'zidan tasdig'ini topmaydi. Ular jamiyatdagi ijtimoiy, siyosiy, iqtisodiy aloqalarga bog'liq».

V.A.Slastyoninning fikriga ko'ra, «Pedagogik faoliyatga doir qadriyatlarning interiorizatsiyasi bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy madaniyatiga tamal toshini qo'yadi».

O'qituvchining ongida mustahkamlangan pedagogik qadriyatlar uning shaxslararo muloqotida, ijodiy faoliyatida, bola shaxsining rivojlanishida, kasbiy hamkorlikda, ma'naviy qadriyatlar almashinuvidagi kasbiy yo'nalishlari tizimini hosil qiladi.

Olimlar tomonidan pedagogik qadriyatlarining ikki jihati alohida tadqiq etilgan: .

- o'qituvchiga uning moddiy va ma'naviy ehtiyojlarini qondirishiga imkon beruvchi va ijtimoiy ahamiyatli insonparvar maqsadlarga erishishga qaratilgan uning ijtimoiy va kasbiy

faolligida yo'l ko'rsatuvchi belgi bo'lib xizmat qiladigan o'ziga xos jihatlar;

- pedagogik faoliyatni tartibga soluvchi me'yorlar va ta'lim hamda pedagogik faoliyat sohasidagi vujudga keladigan ijtimoiy dunyoqarash orasida vosita va bog'lovchi bo'g'in bo'lib keluvchi bilish-faoliyat tizimi.

Pedagogik aksiologiyaga oid adabiyotlarda pedagogik qadriyatlarning xilma-xil tasniflari mavjuddir. Jumladan, Z.I.Ravkin pedagogik qadriyatlarni quyidagicha tasnif etadi:

1) ijtimoiy-siyosiy qadriyatlar: ta'limning hamma uchun ochiqligi va bepulligi, millatidan qat'iy nazar, barcha fuqarolarning bilim olishdagi teng huquqliligi, o'quvchilarni va ota-onalarning ta'lim muassasasini tanlash erkinligi;

2) intellektual qadriyatlar: bilishga ehtiyoj, bilishga qiziqish va faollik, o'quvchilarning ijodiy faoliyati, fikrning go'zalligi va so'z bilish faoliyati vositasi sifatida;

3) axloqiy qadriyatlar: o'quvchining burch va shaxsiy majburiyatlari, uning pedagogik jarayonning subyekt bo'lish huquqi, bilimlarni egallashdagi axloqiy rag'batlar va motivlar, vatanparvarlik va fuqarolik, mehnat va boshqa kishilarning mehnatini hurmat qilish;

4) kasbiy-pedagogik faoliyatga doir qadriyatlar: o'qituvchi-tarbiyachini mehnat qilishga chorlash, tanlagan kasbiga mas'uliyat bilan yondashuv, pedagogning mahorati, uning izlanishli-tadqiqotchilik, innovatsion faoliyati, kommunikativ qobiliyati, o'quvchilar bilan muloqotdagi ijobiylik, pedagogik mahorat.

V.A.Slasyonin esa, kasbiy yo'nalganlik tizimiga asoslangan holda, pedagogik qadriyatlarni quyidagicha tasnif etadi:

1) maqsadli qadriyatlar: shaxsiy «Men» va kasbiy «Men» yig'indisidagi bo'lg'usi o'qituvchining shaxsiy kontseptsiyasi. Pedagog pedagogik faoliyat maqsadlarini amalga oshirish yo'llarini qidirar ekan, o'zini va o'zgalarni rivojlantirish yo'lidagi o'z kasbiy strategiyasini tanlab oladi. Binobarin, maqsadli qadriyatlar davlatning ta'lim siyosatini va pedagogika ilmining rivojlanish darajasini aks ettiradi. Bu qadriyatlar subyektlashgan holda

pedagogik faoliyatning ahamiyatli omillariga aylanadi va vositali qadriyatlarga ta'sir ko'rsatadi. Ular nazariya, metodologiya, pedagogik texnologiyalarni egallash natijasida shakllanib, pedagogning kasbiy ta'limi asosini tashkil etadi. Shaxs uchun zaruriy qadriyatlar quyidagi maqsadli qadriyatlarni o'zida aks ettiradi: o'qituvchi mehnatining ijodiy va serqirralilik tavsifi, uning nufuzi va ahamiyatliliigi, jamiyat olididagi yuksak mas'uliyat, o'zini namoyon qilish, bolalarga mehr va boshqalar. Bunday qadriyatlar ta'lim oluvchi va ta'lim beruvchi shaxsining, talabalar jamoasi va pedagogik jamoaning rivojlanishi bilan bog'liq pedagogik faoliyatda o'z ifodasini topadi;

2) vositali qadriyatlar: pedagogik muloqot, texnika va texnologiya, monitoring, innovatika, intuitsiya tizimi. Vositali qadriyatlar maqsadli qadriyatlarga erishishda vosita bo'lib xizmat qiladi (mehnat natijalarining jamiyatda tan olinishi, shaxsning qiziqishlari va qobiliyatlarini pedagogik faoliyat tavsifiga muvofiqligi, kasbiy o'sish va b.);

3) munosabatli qadriyatlar: pedagogik jarayon ishtirokchilarining munosabati, kasbiy-pedagogik faoliyatga munosabat;

4) sifat qadriyatlari: shaxsning xulq-atvor, faoliyatga doir xilma-xil sifatleri.

5) bilishga oid qadriyatlar. O'qituvchilik kasbining bilishga doir qadriyatlari nazariy darajada o'quvchilarning o'qituvchilik kasbiga doir qadriyatlarni e'tirof etishi va qabul qilishi bilan bog'liq.

N.M.Egamberdieva esa, talabalarni shaxsiy va kasbiy ijtimoiylashtirish nuqtai nazaridan pedagogik qadriyatlarni ikkita katta guruhga tasnif etishni taklif etadi: ijtimoiy-pedagogik va shaxsiy-pedagogik qadriyatlar.

Ijtimoiy-pedagogik qadriyatlar turli ijtimoiy tizimlarda ish olib boruvchi va ijtimoiy ongda namoyon bo'luvchi qadriyatlarning tavsifi va mazmunini aks ettiradi. Bu ta'lim sohasidagi jamiyat faoliyatini tartibga soluvchi g'oyalar, tushunchalar, me'yorlar, qoidalar, an'analar majmuidir.

Shaxsiy-pedagogik qadriyatlar ijtimoiy-psixologik ta'lim sifatida yuzaga chiqib, ularda o'qituvchi shaxsining maqsadlari,

motivlari, ideallari va boshqa dunyoqarashga oid xususiyatlari aks etadi. Bu xususiyatlar majmui uning qadriyatlar yoʻnalishi tizimini tashkil etadi. Qadriyatlar yoʻnalishi sifatidagi aksiologik «Men» nafaqat kognitiv(bilishga doir) tarkibiy qismlarni, balki insonning ichki yoʻnalganligida muhim oʻrin tutuvchi hissiy-irodaviy tarkibiy qismlarni ham oʻz ichiga oladi. Unda ham ijtimoiy-pedagogik, ham pedagogik qadriyatlarning individual-shaxsiy tizimiga asos boʻlib xizmat qiluvchi kasbiy-jamoaviy qadriyatlar oʻrin olgan.

Shuningdek, oʻz navbatida pedagogik qadriyatlarni bunday xilma-xilligi ularni umumiy tarzda taʼlimiy va tarbiyaviy qadriyatlarga ajratishga imkon beradi.

Taʼlimiy qadriyatlar – shaxs tomonidan individual qimmatining toʻgʻri baholanishi, tan olinishi, shaxs sifatida namoyon boʻlishi, shuningdek, oʻziga xoslikning saqlanib qolishini taʼminlovchi sharoitlarni yaratadi. Umuman aytganda, tabiiy imkoniyatlarini ochib berish, hayotiy vazifalarini amalga oshirish uchun sharoitlar yaratish lozim boʻladi.

Shunday qilib, shaxsning erkin rivojlanishini taʼminlash taʼlimni insonparvarlashtirish va demokratlashtirish asosida roʻy beradi.

Taʼlim ijtimoiy pedagogik tizim sifatida, talabalarning shaxsiy qiziqishlari, hayotiy maqsadlarini rivojlantiruvchi, erkin, individual taʼlimni tashkil etish uchun sharoit yaratadi. Bu holat zarur darajada talabalarga bilimlar berishni yoʻlga qoʻyish bilan taʼminlanadi. Ushbu jarayonda shaxsning individualligi va takrorlanmasligini eʼtibordan chetda qoldirish mumkin emas.

Demak shaxsni, uning rivojlanishini hamma bosqichlarida kuzatib borish zarur. Shaxsning rivojlanishi - taʼlimning asosiy vazifalaridan biri boʻlib u individual xususiyatlar negizida qaror topadi. Har bir talabaning oʻz rivojlanishi, shaxsiy yoʻlini tanlash huquqini tan olish (oʻqishning moslashtirilgan va variativ shakli, metod va vositalari bilan) lozim.

Oʻqitishni individuallashtirishda talabalarning qobiliyatlari, isteʼdodlari, qiziqishlari, qadriyatlari yoʻnalishi va shaxsiy

tajribasiga e'tibor qaratiladi. Talabaning o'zlashtirishda va ta'lim olish faoliyatida namoyon eta olish imkoniyatlari hisobga olinadi.

Ta'lim mazmuni, uning metodlari, vositalari shunday qurilishi zarurki, talaba o'quv materiallarini, uning turi va shaklini tanlab olish imkoniyatiga ega bo'lsin (ta'lim berish individual dasturlari ishlab chiqilmoqda).

Ta'lim olish jarayonida talabalar shaxsning an'anaviy - axloqiy va intellektual sifatlarini yuzaga keltiruvchi ma'lum bilim, mahorat va qobiliyatlarni egallaydilar. Ta'lim jarayonining asosiy maqsadi va natijalari ham ana shulardir.

Shunday qilib, ta'lim tizimini isloh qilish jarayonida yangi qadriyatlar shakllandi. Turli faoliyat yo'nalishlarida o'zini idrok etish, o'zini namoyon etish uchun zarur sharoitlarni yaratish maqsadga muvofiq. Bu yo'lda amalga oshiriluvchi to'g'ri yo'l - bu pedagogikada hamkorlik, o'zaro aloqalar, o'z hissasini qo'shish va o'zaro yordamdan iboratdir. Xususan, zarur pedagogik vaziyatlar yaratishda hamkorlikda faoliyat yuritish tamoyili - demokratiya, ishonch, bir-birini tushunishga amal qilib va individual qiziqishlarini qabul qiladi. Ta'limiy qadriyatlar uni insonpar-varlashtirish, o'quvchilarning qobiliyati va iste'dodlarini ochib berishga qaratilgan.

Ta'limni insonparvarlashtirish o'quvchining bilimga intilishini kuchaytiradi, uning ijodiy izlanishi va imkoniyatlarini oshiradi.

Ta'limni insonparvarlashtirish - o'quvchi uchun uning intellektual, ma'naviy-axloqiy imkoniyatlari, shaxsiy imkoniyatlarni ro'yobga chiqarish yo'llarini topish usuli, mexanizmidir. Ta'limni insonparvarlashtirish o'quvchini erkin, mustaqil, tanqidiy fikrlovchi shaxsga aylantiradi.

Insonparvarlik g'oyalari munosabatlarni uyg'unlashuvi uchun sharoit yaratibgina qolmay, balki o'qituvchi (pedagog)ga tarbiyalanuvchi bilan shaxsiy aloqalar mazmunini tushunishga yordam beradi. Ta'limning yangi qadriyati - uni insonparvarlashtirishdir.

O'quvchilarda keng dunyoqarash, yuksak ma'naviyat, erkin fikrlash qobiliyatini shakllantirish lozim. Bu o'zini anglab yetish,

faoliyat jarayonida o'zini o'rganishga yo'naltiradi hamda faoliyat usullarini izlash, ularning mohiyatini anglash va samarali bo'lishini ta'minlaydi. Insonning o'z «Men»i (g'ururi) mazmuni qaror topadi. Shaxs, uning yagonaligi haqida tasavvur paydo bo'ladi. Gumanizm va insonparvarlashtirishga asoslangan ma'lum ta'lim berish jarayoni, mutaxassis shaxsi, uning dunyoqarashi yaxlitligini ta'minlab, ijtimoiy-gumanitar fanlar va ixtisoslashtirilgan darslarni o'qitish odatiy vazifalarini ancha kuchaytiradi.

Ta'limiy qadriyat – ta'limning milliy yo'nalganligi, uning milliy tarix bilan uyg'unligi, O'zbekiston xalqlari madaniyatini asrash va boyitish, ta'limning milliy rivojlanishning muhim vositasi ekanligi, boshqa xalqlar tarixi va madaniyatini hurmat qilishdan iboratdir.

Pedagogik ta'limni munosabatlar madaniyati bilan boyitish zarur. Ta'limning tashkil etilishi va mazmunida o'quvchi va o'qituvchi o'zaro munosabatlari tamoyili asos qilib olinishi kerak. O'qituvchi tarbiyalanuvchini ma'naviy himoya qilishi, turli salbiy hodisalardan asrashi borasidagi zarur ma'lumotlarga ega bo'lish maqsadga muvofiq (maxsus usul va tarbiyaviy texnologiyalar talab etuvchi pedagogik himoyalash). Jamiyatning ma'naviy yangilanishi kasb-hunar va hayotiy yo'lini tanlash kabi ta'lim qadriyatini vujudga keltiradi. Bu yerda ta'lim haqiqiy sharoitlarida qadriyatlarni taxmin qilish, asoslash va bularning hammasini ijtimoiy kontekstda to'g'ri hal etish muhimdir.

Ta'limiy qadriyatlardan yana biri – shaxsni ijtimoiylashtirish va uning ijtimoiy-madaniy qadriyatlarini qayta tiklab, ijodiy faoliyatini tashkil etish, shuningdek, o'quv yurti, jamiyat hayotida faol ishtirok etishini ta'minlashdan iborat. Bu qadriyatlar zamonaviy shaxsni shakllantirish maqsadiga qaratilgan jarayon orqali rivojlanib, yangi ijtimoiy qadriyatlarning shakllanishida asos bo'lib xizmat qiladi.

Yangi ijtimoiy qadriyatlar ta'limiy dasturlarni yaratish yoki amaldagilarini takomillashtirish, xalqning boy intellektual, ma'naviy-axloqiy merosi, umuminsoniy qadriyatlari, fan va texnika,

texnologiya va madaniyatning ilg'or yutuqlari asosida pedagogik va axborot texnologiyalarini yaratish zaruriyatini yuzaga keltiradi.

Ikki bosqichli oliy ta'lim (bakalavriat, magistratura) o'qitish, mustaqil ta'lim olish, masofadan o'qitish tizimini individuallashtirish, ta'limning insonparvarlikka yo'nalganligini ta'minlashni ko'zda tutadi.

Ta'limni rivojlantirish tizimining yangi yo'li - bu xalqning boy, o'ziga xos madaniy-tarixiy an'alariga, umuminsoniy qadriyatlarga, milliy va jahon pedagogika fani yutuqlariga, ma'naviy va madaniy qadriyatlariga murojaat etishdir.

Zamonaviy ta'lim – bu shaxsning ijtimoiy, shuningdek, ta'limiy qadriyatlarga ongli munosabatda bo'lishi, kasbiy, ijodiy, ma'naviy-axloqiy va shaxsning jismoniy imkoniyatlarini shakllantirishga qaratilgan «innovatsion» ta'limdir.

Ta'limning yangi qadriyati – «innovatsion» ta'lim quyidagi masalalarni hal etadi:

- analitik qobiliyatini yuzaga keltirish; hodisalarni oldindan ko'ra bilish qobiliyatini tarbiyalash; shaxsning o'z-o'zini anglab yetishi, o'z ijtimoiy-kasbiy faoliyat mohiyatini anglash; xulqi, ishonchi;

- shaxsiy ehtiyojlardan boshlab umumbashariy muammolar darajasida ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lgan, kasbiy ahamiyatga ega bo'lgan muhim qarorlarini qabul qilish.

Shunday qilib, ta'limiy qadriyatlarning maqsadi nafaqat erkin, balki mas'uliyatli shaxsni shakllantirishdan ham iboratdir.

«Kadrlar tayyorlash milliy dasturi»da ta'limiy qadriyat sifatida fuqarolarning huquqiy madaniyatini shakllantirish, jamiyatda qonunlarning ustuvorligi g'oyalari ilgari surilgan. Yuqorida qayd etib o'tilgan fikrlarga tayangan holda ta'limiy qadriyatlarni quyidagi turlarga ajratish mumkin:

- global kontseptual-ta'lim qadriyatlari;
- aniq-ta'lim qadriyatlari;
- ta'limning individual-shaxsiy xarakterdagi qadriyatlari;
- innovatsion pedagogik texnologiyalar – umumbashariy (global)-kontseptual ta'limiy qadriyatlar;

- shaxsni shakllantirish;
- ta'limning demokratik va gumanitar yo'nalganligi;
- insonparvarlik, shaxs dunyoqarashini shakllantirish (2-rasm).

Ta'limiy qadriyatlar o'z mohiyatiga ko'ra ma'naviy-axloqiy, kasbiy hamda ijtimoiy qadriyatlar sifatida guruhlanadi hamda umummadaniy, ma'naviy-axloqiy, estetik, intellektual va ijodiy yo'nalishga ega bo'ladi.

Ta'limiy qadriyatlardan pedagogika oliy o'quv yurtlari hamda pedagoglarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish institut (fakultet, kurs)larida ulardan foydalanish shaxs (o'qituvchi)ga jamiyatdagi o'z o'rni va mavqeini aniqlash layoqati, ijtimoiy faollik, ijtimoiy tajriba, ijtimoiy mas'uliyat, jamiyatda o'zini tutishi, shuningdek, huquqiy madaniyat kabi sifatlarning shakllanishiga imkon beradi.

Ta'limiy qadriyatlar mazmunida shaxsiy-individual xususiyatlar namoyon bo'ladi. Ana shu xususiyatlarga tayangan holda oliy o'quv yurtlari hamda pedagoglarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tizimida ulardan o'rinli hamda maqsadga muvofiq foydalanish taqozo etiladi.

Ta'limiy qadriyatlar ahamiyatlilik xususiyatiga ko'ra quyidagi guruhlarga bo'linadi:

- kontseptual-yo'naltirilgan;
- bazali, o'quv-rejali;
- shaxsiy qadriyatli va kasbiy-shaxsiylik;
- nazariy-pedagogik;
- nazariy-amaliy va protsessual-pedagogik, innovatsion-pedagogik texnologiyalar;
- ilg'or axborot texnologiyalari;
- ta'lim jarayonida talabalarda ma'naviy-axloqiy sifatlarning tarbiyalanishiga alohida e'tibor berish;
- o'z-o'zini takomillashtirish.

Ta'limning shaxsiy-ahamiyatli qadriyatlari sifatida quyidagilar e'tirof etiladi:

- ijtimoiy-g'oyaviy, insonparvarlik, estetik dunyoqarashning shakllanishi;

- yuksak ma'naviyatga ega bo'lish;
- ijtimoiy-kommunikativ faollik, har tomonlama rivojlanish, umummadaniy, kasbiy, intellektual, ijodiy, ma'naviy-axloqiy, estetik, ekologik va boshqalar;
- o'z-o'zini tarbiyalash, rivojlantirish, shaxsiy, kasb-hunar yo'nalishida takomillashtirish, «Men» kontseptsiyasining shakllanishi.

Ta'limning kontseptual-yo'naltirilgan qadriyatlari:

- shaxs, uning shakllanishi va har tomonlama, to'la rivojlanishi;
- boy dunyoqarashga ega bo'lish;
- ta'limni insonparvarlashtirish, demokratlashtirish, uning milliy yo'nalganligi (o'ziga xos madaniy-tarixiy va ma'naviy-axloqiy an'analar, milliy va umuminsoniy g'oyalari; fan, texnika, texnologiya va madaniyat, shuningdek, milliy va jahon pedagogikasining ilg'or yutuqlari).

Ta'limning bazali qadriyatlari:

- ta'limning hozirgi zamon metodologiyasi;
- milliy va umuminsoniy madaniyat;
- Sharq mutafakkirlarining pedagogik qarashlari;
- xalq pedagogikasi g'oyalari;
- milliy va jahon pedagogikasi;
- shaxsga yo'naltirilgan pedagogika fani, pedagogik jarayon psixologiyasi.

Ta'limning kasbiy-shaxsiy qadriyatlari:

- ijtimoiy-shaxsiy daraja sababli-qadriyatli omil;
- pedagogik faoliyatga nisbatan emotsional munosabat (bo'lajak, hozirgi);
- kasb-hunar ta'limining shaxsiy mazmuni va ijtimoiy ahamiyatga ega ko'rsatmalar: unga qiziqish, unga talab;
- pedagogik tashabbus, qat'iylik, javobgarlik, intizom;
- pedagog shaxsining o'zini qadrlash ustunliklari, uning tan olinishi. «O'quv va ijtimoiy faoliyatida individual yondashish» sharti bilan;

- individuallik, ijodkorlik layoqatiga egalik, shaxsiy qiziqishlari, qobiliyati hamda hayotiy ehtiyojlari;


- biror-bir faoliyatda o'zini o'rganish, o'zini anglash, o'zini ifoda etish, kasbiy va shaxsiy faoliyatni faollashtirish, erkin fikrlash imkoniyatiga egalik;

- o'ziga baho berishda «Men» kontsepsiyasidan foydalanish.

Nazariy-pedagogik qadriyatlar:

- pedagogik ta'limning yangi yo'nalishlari;

- ta'limning modifikatsiyalashtirilgan, yangilangan maqsad va vazifalari;



2- rasm. Ta'limiy qadriyatlar tizimi

- zamonaviy pedagog kadrlarga qo'yiluvchi talablar;
- pedagog kadrlarni tayyorlash mazmunining yanada takomillashtirilishi;

- kasbiy bilim, ko'nikma va malakalariga qo'yiluvchi yangi talablar;

- zamonaviy ta'limning nazariy-pedagogik qonuniyatlari;
- nazariy ta'limning amaliy yo'nalganligi;
- idrok etish, mustaqil ta'lim olish faoliyati, uni faollashtirish;
- intellektual-ijodiy va ilmiy tadqiqotchilik ishlari, o'qitish va rivojlanishdagi nisbatlar, zamonaviy o'quvchi shaxsini shakllantirish va tarbiyalash;

- innovatsion ta'lim masalalari, ijodiy analitik va muqobil fikrlash, tahmin qilish, kutish (ijtimoiy-kasbiy), shaxsiy fikrlarni himoya qilish, muhim qarorlarga kelish.

Ta'lim sohasida nazariy-amaliy qadriyatlarining umumiy mohiyati quyidagilardan iborat:

1. Pedagog kadrlarni nazariy-amaliy tayyorlash va takomillashtirishning asosiy jihatlari, pedagogik texnologiyalarning tarkibiy tuzilmasi.

2. O'quv jarayoni, uning qonuniyatlari, tamoyillari, uni tashkil etishga qo'yiluvchi talablar:

- nazariya bilan amaliyotning uzviy bog'liqligi;
- pedagogikadagi yangiliklar, interfaol metod va yangi vositalar;

- o'quvchilarning kasbiy-pedagogik sifatlari, xislatlari va qobiliyatlarini shakllantirishga yordam beruvchi omillar, sharoitlar;

- o'quvchilarni faollik va erkin fikrlashga yo'naltiruvchi ma'ruza, bahs-munozaralar, ishchanlik va didaktik o'yinlar, intellektual, ijodiy va ilmiy tadqiqotchilik ishlari.

3. Protsessual-pedagogik, innovatsion-pedagogik texnologiyalar:

- o'qituvchilar va o'quvchilar faoliyati tizimida namoyon bo'layotgan yangiliklar;

- zamonaviy mashg'ulot texnologiyasi;

- o'quvchining idrok etish faoliyatining faolligini muvofiqlashtiruvchi yangi texnologiyalar ustunligi (keys-stadi, o'quv loyihasi, rolli o'yinlar);

- mustaqil idrok etish faoliyatini shakllantirish, shu jumladan, ilmiy tadqiqotchilik texnologiyasi.

Ilg'or axborot texnologiyalari:

- axborot texnologiyalari haqida tushunchalar: kompyuter xizmatidan foydalanishni bilish, uning vazifalari; matn va grafika bilan ishlash; fayllarni kompyuter xotirasiga kiritish; tayyor dasturli va pedagogik vositalar, ma'lumotlarni jo'natish va ularni qabul qilib olish; pedagogik dasturli tizimidan foydalanish, undan o'qitish jarayonida foydalanish;

- kompyuterlashtirilgan mashg'ulot metodikasi haqida tasavvurga ega bo'lish.

Ta'lim jarayonida tarbiyalash:

- inson omiliga e'tiborli bo'lish, shaxs, uning individualligini hisobga olish;

- yaxlit, maqsadga yo'naltirilgan tizimda tarbiyalash;

- tarbiyaning insonparvarlik yo'nalishini kuchaytirish;

- ruhiy, ma'naviy, badiiy-estetik, milliy va umuminsoniy

qadriyatlardan foydalanish;

- ma'naviy-axloqiy tarbiyaning muhimligi;

- ijodiy, ijtimoiy faol shaxsni tarbiyalash;

- Sharq mutafakkirlari va xalq pedagogikasi g'oyalaridan unumli foydalanish;

- ijtimoiy yo'naltirilgan, tarbiyaning yangi pedagogik va axborot texnologiyalari;

- ta'limning obyeksi va subyeksi, o'z-o'zini takomillashtirish.

O'z-o'zini takomillashtirish:

- o'z-o'zini takomillashtirishga yangicha yondashuv, mustaqil ta'lim olish;

- mustaqil bilim olish, shaxsiy qobiliyatlarni namoyon eta olish, ijtimoiy-kasbiy mustaqillik;

- mustaqil bilim olish strategiyasi, rejalashtirish va o'zini boshqarish, o'zini tarbiyalash;

- o‘z-o‘zini kasbiy-shaxsiy jihatdan takomillashtirish;
- mustaqil bilim olish manbalari, shakli, metod, usul va vositalari, ularning turli-tumanligi, ulardan samarali foydalanish;
- ma‘lum tizimda pedagog kadrlar tayyorlash va malakasini oshirishda foydalaniladigan ta‘limiy qadriyatlarini aniqlash.

Ta‘limiy qadriyatlar asosini quyidagilar tashkil etadi:

- ta‘limning zamonaviy metodologiyasi;
- milliy va umuminsoniy qadriyatlar, milliy va umumbashariy madaniyat;

- xalq an‘analari, urf-odatlar;
- xalq pedagogikasi g‘oyalari;
- pedagogik gumanizm;
- shaxsga yo‘naltirilgan pedagogika;
- pedagogik madaniyat;
- talabalarning individual qiziqishlari asosida shakllantirilgan hamkorlik, o‘zaro aloqalar va bir-birini tushunish, ishonch, o‘zaro yordam, munosabatlarni uyg‘unlashtirish pedagogikasi;

• innovatsion pedagogik texnologiyalar – ta‘limiy qadriyatlar sifatida;

• innovatsion ta‘lim, ijodiy fikrlash; analitik qobiliyatlar; oldindan ko‘ra bilish va tahlil qilish; muqobil fikrlash; o‘z faoliyatiga nisbatan ishonch, dunyoqarashning kengligi, ijtimoiy ahamiyatli qarorlarni qabul qilish, mas‘uliyatni his etish.

Ta‘limiy qadriyatlar Davlat ta‘lim standartlari, ta‘lim, o‘quv dasturlari va rejalari, darslik, o‘quv metodik adabiyotlar mazmuni, shuningdek, yangi pedagogik texnologiyalar mohiyatida o‘z ifodasini topa olishi zarur. Ta‘lim jarayonida shaxsni, eng avvalo, milliy va umuminsoniy qadriyatlar bilan tanishtirish, uning rivojlanishi uchun sharoit yaratib berish talab etiladi. Shu bois mustaqil ta‘lim olish, o‘z-o‘zini tarbiyalash, o‘z-o‘zini rivojlantirish va ijtimoiylashtirishni birga olib borish taqozo etiladi.

Rivojlanishning zamonaviy bosqichida jamiyat tomonidan uzluksiz ta‘lim tizimi oldiga pedagogik faoliyat mazmuni, uning asoslari, ta‘lim-tarbiya natijalariga nisbatan jiddiy talablarni qo‘ymoqda.

Tarbiyaviy qadriyatlar deganda esa, ijobiy tarzdagi obyektiv-ijtimoiy shart-sharoitlar, munosabatlar orqali tarbiyalanuvchi shaxsiga samarali ta'sir ko'rsatuvchi moddiy va ma'naviy voqelik tushuniladi. Tarbiyaviy qadriyatlar o'zida ota-onalar va pedagoglar tarbiyalanuvchi shaxsida tarkib toptirishni xohlaydigan, fuqarolik jamiyati uchun foydali, mazkur ijtimoiy sharoitda muhim va zaruriy ahamiyat kasb etuvchi fazilat, sifat, xohish-istak, intilish kabilarni aks ettiradi.

Tarbiyaviy qadriyatlar to'rt asosiy o'zaro uyg'un manbaga ega:

- 1) genetik, psixosomatik, individual-shaxsiy;
- 2) tabiiy;
- 3) sotsiumga doir;
- 4) ijtimoiy-kosmik.

Quyida mazkur tarbiyaviy qadriyat manbalariga alohida-alohida to'xtalib o'tamiz:

1. Genetik, psixosomatik, individual-shaxsiy tarbiyaviy qadriyat manbalari. Genetik tarbiyaviy qadriyat manbalariga instinkt, psixik jarayonlar, individning energetik resurslari kabi tabiiy-genetik fenomenlar kiradi. Aynan instinkt asosida shaxs xulqida iroda, sog'lom turmush tarzi, ehtiyotkorlik kabi tarbiyaviy qadriyatlar shakllanadi.

Muhim ahamiyatga ega organizmning sog'lomligi, uning barcha intellektual va jismoniy mohiyatga ega kuchlarni rivojlantirishga potentsial imkoniyati tarbiyaviy qadriyati psixosomatik jarayonlar natijasida paydo bo'ladi. Psixosomatik jarayonlar o'z navbatida individning jismoniy sog'lomligi, erki, irodasi, maqsadga yo'nalganligi, mehnatga ishtiyoqi, o'ziga ishonch kabi individual-shaxsiy sifatlari haqida gapirishga imkon beradi. Barcha mazkur energetik-psixosomatik hodisalar mustiqillik, o'z-o'zini boshqarish, o'z-o'zini anglash, o'z-o'zini takomillashtirish, o'z-o'zini namoyon etish, ijtimoiy faollik kabi yuksak amaliy faoliyat bilan bog'liq qadriyatlarni yuzaga keltiradi.

2. Tarbiyaviy qadriyatlarning yana bir asosiy manbai – bu tabiat dunyosidir. Inson tabiatning ajralmas qismi va uning tabiat

bilan o'zaro munosabati ko'p jihatdan har bir individning insoniyligi, yaxlitligini belgilab beradi. Tabiat bilan me'yoriy o'zaro harakat insonda qator tarbiyaviy qadriyatli munosabatni yuzaga keltiradi. Eng avvalo, tabiat inson uchun tarbiyaviy, jismoniy-sog'lomlashtiruvchi va ma'naviy qadriyat sifatida aks etadi. Tabiatdagi har bir narsa-hodisa individni tarbiyalaydi.

Tarbiyaviy qadriyatlarning tabiiy manbasi shaxsda tabiat, inson va jamiyatga nisbatan muhim qadriyatli munosabatni shakllantiradi. Tabiat insonda moddiy borliq, uning paydo bo'lishi, moddiy borliq shakl va qonunlari birligi haqidagi falsafiy dunyoqarashni hosil qiladi. Insonda tabiatga tarbiyaviy-qadriyatli, ilmiy-bilishga doir munosabatni rivojlantirish, unda ilmiy, bilim, ko'nikma va malakalarni egallash; real moddiy hayot harakat qonunlarini bilish; moddiy hayot mohiyatini falsafiy jihatdan tushunib yetish; tabiat qonunlari bilan bog'liqlikda tabiiy boyliklarni o'zlashtirishdagi amaliy harakatga intilishni rag'batlaydi.

Bundan tashqari tabiat tarbiyaviy qadriyat sifatida obyektiv go'zallik hodisasidir. Tabiat shaxsda estetiklikni, badiiy-estetik ongini; dunyo go'zalligini idrok etish va yaratish qobiliyatini shakllantiradi.

3. Tarbiyaviy qadriyatlar manbai sifatida sotsium ham alohida ahamiyat kasb etadi. Shuni alohida ta'kidlab o'tish zarurki, inson nafaqat tarbiyaviy qadriyatlarni yaratadi, balki uning o'zi ham mohiyatiga ko'ra tabiiy va muhim tarbiyaviy qadriyatdir. Katta avlod vakillari, ayniqsa, ota-onalar va pedagoglar, davlat va jamoat arboblari, fan va san'at namoyondalari o'zlarida tarbiyalanuvchilarga yorqin va kuchli ta'sir etuvchi shaxs fazilatlarini va xususiyatlarini, uning faoliyati va xulq-atvori namunasini aks ettiradi. Har qanday ma'naviy yetuk, keng tafakkurli, ijodkor, yaratuvchan, mas'uliyatli inson o'zida ma'naviy ustoz maqomini ifoda etadi.

4. Nihoyat, yana bir muhim tarbiyaviy qadriyat sifatida Kosmos: insonning u haqidagi o'y-fikrlari, tasavvurlari, farazlari, afsonalari aks etadi. Chunki Kosmos insonga kosmik fazoga xayolarni intilishni, uni o'zlashtirish ishtiyoqini, inson va

insoniyatning abadiy mavjudligi haqidagi ta'limotni, astrofizik va astronomik apparatlarni loyihalashni taqdim etdi. Eng asosiysi, Kosmos insonga hayot mazmunini anglab yetishga katta ta'sir o'tkazdi.

Yuqorida bayon etilgan manbalar tahlilidan ko'rinadiki, tarbiyaviy qadriyatlar ijtimoiy hayot va inson ongida xilma-xil muddatlarda mavjud bo'lishi; mazkur qadriyatlarining barcha jamiyatlar uchun bir xil ahamiyatga ega bo'lmashligi; tarbiyaviy tizimlarda mavjud bo'la olishi va pedagogik samaradorlikni belgilashga xizmat qiladi. Ana shu bilan bog'liqlikda tarbiyaviy qadriyatlar absolyut – shu jumladan, genetik manbadan yuzaga keluvchi umuminsoniy qadriyatlar; vaqt bilan bog'liq (vaqtinchalik) – aniq-tarixiy; barqaror – mental, etnik; individual-shaxsiy kabi turlarga bo'linadi.

Absolyut umuminsoniy qadriyatlarga quyidagilar kiradi:

- diniy-ma'naviy;
- barcha mohiyat-e'tiborga molik kuch va individual qobiliyatlarni rivojlantirishga imkon beruvchi;
- ichki axloqiy erkinlik, burch va majburiyatli ongni tarkib toptirishga yordam beruvchi;
- vijdon, sevgi, ishonch, burch, ziyolilik kabi ma'naviy poydevorga ega axloqiy individuallik va jamoaviylikni shakllantiruvchi;
- intellektual mulk va jismoniy mehnatga doir qobiliyatni rivojlantiruvchi;
- dunyoni axloqiy, estetik va ekologik idrok etish va anglashga imkon beruvchi.

Aniq tarixiy shart-sharoit va vaziyat bilan bog'liqlikda mavjud bo'luvchi vaqt bilan bog'liq tarbiyaviy qadriyatlarga quyidagilar kiradi:

- mafkuraviy va siyosiy qarashlar;
- huquqiy va axloqiy ong va me'yor tizimi;
- fuqarolik ongi, xulq-atvori va fazilati darajasi;
- hayot va amaliy yo'nalganlik istiqboli;
- moda, etiketga yo'nalganlik;

- kasbiy yo‘nalishlar.

Barqaror mental-etnik tarbiyaviy qadriyatlarga quyidagilar kiradi:

- yaxlit milliy tarixiy-tajriba, ishlab chiqarishdagi o‘ziga xosliklar, milliy madaniyat, geografik shart-sharoitlar, xalqaro vaziyat asosida yuzaga keluvchi milliy xarakter xususiyatlari;

- an’analar, urf-odatlar, xalq og‘zaki ijodi, xalq amaliy san’ati namunalari, obidalar, yodgorliklar;

- ta’limiy an’analar (ta’lim mazmuni, shakl, metod va vositalari);

- oilaviy an’analar va munosabatlardagi o‘ziga xosliklar;

- xalq hunarmandchiligi;

- milliy badiiy tasviriy san’at, musiqa, teatr, kinematografiya, poetik ijod;

- diniy qarash va e’tiqoddagi o‘ziga xoslik.

Absolyut ijtimoiy ahamiyatga ega individual-shaxsiy qadriyatlarga esa, quyidagilar kiradi:

- iroda erkinligi;

- mustaqil fikrlash, xatti-harakatlardagi mustaqillik;

- qonunlarga rioya etish va qonunlarni takomillashtirishga qobiliyatlilik;

- adolatparvarlik;

- ziyraklik;

- g’amxo‘rlik;

- go‘zallik va ezgulikka ishonch;

- intizomlilik, o‘z-o‘zini takomillashtirish, o‘z-o‘zini bosh-qarish;

- o‘zligini saqlab qolish, ichki insoniy borlig‘ini anglash.

O‘quvchilarning axboriy madaniyatini shakllantirish yangi ta’limiy qadriyat sifatida. Ta’lim tizimida yuz bergan innovatsion o‘zgarishlar jarayoni mutaxassislik ta’limi tizimining oldiga – bo‘ljak tarbiyachilarni tayyorlashda turli xil o‘zgartirishlar kiritish, tarbiyachilarning axboriy madaniyatini shakllantirishda xilma-xil yangiliklarni kiritish kabi talablarni qo‘ya boshladi. Axboriy madaniyat mutaxassis shaxsini innovatsion faoliyatga axborot

texnologiyalari asosida rivojlantirishning shaxsiy, nazariy va amaliy birligini aks ettiradi. «Axboriy madaniyat» tushunchasi asosida shaxsning axboriy jihatdan shakllanganligining uchta asosiy darajasi ajratib ko'rsatiladi: umumiy (bazaviy), professional (kasbiy) va yuksak (mazmunli-qadriyatli). Shaxsda axboriy madaniyatning shakllanganligini mazkur darajalari aniq mezonlarni tanlash va shaxsiy rivojlanganlik ko'rsatkichlari bilan bog'liq.

O'quvchining axboriy madaniyat tizimidagi kognitiv-operatsion va tashkiliy tarkibiy qismlari universallik, axboriy faoliyatning fanlararo aloqadorligi, shuningdek, insonning turli xil faoliyat tizimidagi umumlashgan tavsifini aks ettiruvchi kompyuter savodxonligi bilan belgilanadi. Axboriy madaniyat mazkur holatda metodik jihat bilan bog'liqlikda namoyon bo'ladi.

Kasbiy (amaliy) tarkibiy qism o'quvchi shaxsining mutaxassislik faoliyatida namoyon bo'luvchi axboriy faoliyatning o'ziga xosligi, mutaxassislik bilan bog'liqlikda axborotlarni izlab topish, tanlash va foydalanish kabi jihatlarni o'zida aks ettiradi.

Kommunikativ va dunyoqarashga oid tarkibiy qismlar – integrativ, sintetik, informatsion faoliyatning ko'p funktsionalligi; uning fanlararo va universalligi kabi mezonlar bilan aniqlanuvchi shaxsning yuqori axboriy madaniyat darajasini (mazmunli-qadriyatli) aniqlab beradi. Axboriy faoliyat mazkur holatda strategik jihat bilan bog'liqlikda namoyon bo'ladi.

XXI asrda ta'lim tizimi oldida turgan eng dolzarb masalalardan biri shaxsning axboriy madaniyatini shakllantirishdan iborat. Aynan 1999 yilda XXI asr «Texnik-mutaxassislik ta'limi» kongressi tomonidan – «Bilimlar, axborotlar va tsivilizatsiya erasi» sifatida tan olindi.

Mazkur jarayonda o'quvchilarning axboriy madaniyati tez o'zgaruvchan axboriy jamiyatda muvafaqqiyatli moslashuv va samarali ta'sir ko'rsatishga imkon beruvchi nazariy va amaliy bilim, ko'nikma va malakalarni egallashni shart qilib qo'yadigan shaxsning integrativ xususiyati sifatida ko'rib chiqiladi. Ana shu nuqtai nazardan axboriy madaniyat o'zida motivatsion, kognitiv va

operatsion tarkibiy qismlarning o'zgaruvchan jarayonlarini namoyon etadi:

1-bosqich – o'quvchi axboriy madaniyatining motivatsion tarkibiy qismini tarkib toptirishga yo'naltirilgan. Ushbu bosqichning maqsadi – o'quvchilarda yangi axborot texnologiyalarini o'rganishga bo'lgan qiziqishni, ehtiyojni shakllantirish hisoblanadi. Ushbu bosqichning maqsadini amalga oshirish quyidagi vazifalarni hal etishga qaratilgan bo'ladi:

1) o'quvchilarni asosiy tushunchalar («axboriy madaniyat, axborot texnologiyalardan foydalanishga tayyorgarlik) va mutaxassislikning o'ziga xos xususiyatlari bilan tanishtirish;

2) o'quvchilar bilan hamkorlikda ularni bo'lajak mutaxassislik faoliyatidagi bilimlarini nazariy va amaliy jihatdan mukammal o'rganib chiqishga yo'naltirgan holda o'quvchilar axboriy madaniyatining dastlabki darajasini) aniqlash; o'quvchilardagi axboriy madaniyatning shakllanganligini – kollejda muvafaqiyatli o'qish bilan birga bo'lajak mutaxassislik faoliyatida o'z-o'zini namoyon etish sifatida anglatish;

Ikkinchi bosqich – o'quvchini axborotlashgan jamiyatda faoliyat ko'rsatish va o'z faoliyatini zamonaviylik bilan bog'liqlikda boshqara olishni to'liq anglab olishini taqozo etadi. Bunday yondashuv – o'quv axborotini tanlash, o'quvchilar axboriy madaniyatini shakllantirishni faollashtirish va uning axborotlashgan jamiyatda kasbiy moslashuvni ta'minlash nuqtai nazaridan amalga oshiriladi.

Ikkinchi bosqichning maqsadi – o'quvchilarning o'quv-biluv va kasbiy faoliyatida axboriy madaniyatini shakllantirishga yo'naltirilgan quyidagi analitik, prognostik, texnologik, shuningdek, tashkiliy ko'nikmalar majmuini tarkib toptiradi:

1)avval tajribalarda egallangan nazariy, metodik, amaliy bilimlarni mustahkamlash;

2)o'quvchilarda jamiyatni axborotlashtirish sharoitida faoliyat maqsadi va vazifalarini aniqlay olish ko'nikmalarini shakllantirish;

3) o'quvchilarning o'quv va o'qishdan tashqari faoliyatda egallangan bilimlaridan mustaqil va ijodiy tarzda foydalanishga bo'lgan intilishlarini faollashtirish;

3-bosqichda o'quvchining bo'lajak kasbiy faoliyatga tayyorgarligini shakllantirish, shuningdek, yuqorida ta'kidlangan axboriy ko'nikma va malakalarni egallash jarayoni amalga oshadi. Ushbu bosqichning mazmunli komponenti o'zida bo'lajak mutaxassisning axborotlashgan jamiyatda shaxs sifatida shakllanishi uchun zarur bo'lgan bilimlar hajmini birlashtiradi. Shuningdek, mazkur bosqich bo'lajak pedagogning ta'limning yakuniy bosqichida o'z-o'zini reallashtirishga yo'naltirilgan. Ta'limning ixtiyoriy bosqichidagi faollashtirish jarayoni: ta'lim yo'nalishining o'quv rejasi, texnologiyani tanlash, ta'lim mazmuni kabi tarkibiy qismlarga bog'liq bo'ladi. Va shu vaqtning o'zida ushbu yondashuv biroz eskirgan bo'lib, faollashtirish jarayonini rejalarni tuzishdan emas, balki bo'lajak mutaxassisning shakllanishida axborot maydonini loyihalashdan boshlash lozim. Mazkur jarayonda loyihalash muvofiqlik, to'liqlik, maqsadga yo'nalganlik, kasbiy yo'nalganlik; tizimlilik, ta'limning umumpredmetli natijalarining yetakchi o'rinni egallashi; qulaylik, o'quvchi axboriy madaniyatini shakllantirishda nazariya va amaliyotning birligi kabi tamoyillarga asoslanishi kerak:


- **muvofiqlik** – bu loyihalangan o'quv axborotlarining DTSlarida qo'iyilgan kasbiy talablarga mos kelishi;

- **to'liqlik tamoyili** – kasbiy kompetentlik, kasbiy faoliyat mazmuni o'rta maxsus ta'lim mazmuniga va metodlariga mos, shuningdek, uning axboriy ta'minoti (kitoblar, metodik qo'llanmalar, didaktik materiallarga va boshqalar)ning bo'lishi lozimligini anglatadi;

- **yaxlitlik tamoyili** – ta'lim yo'nalishida o'qitiladigan fanlar tarkibini va o'qish davrida o'tilishini maqsadga muvofiq taqsimlashni aniqlab beradi;

- **kasbiy yo'nalganlik tamoyili** – umumta'lim fanlarini ham, mutaxassislik fanlarini ham kasbiy nuqtai nazarga yo'naltirilgan axborotlar bilan boyitishni talab etadi.

Yuqorida ta'kidlab o'tilgan tamoyillarga asoslangan holda pedagogika kolleji o'quvchilarida axboriy madaniyatni shakllantirish maydonini quyidagi tarzda loyihalash mumkin:



3-rasm. O'quvchilarning axboriy madaniyatini shakllantirish tizimi

O'quvchilarda axboriy madaniyatni shakllantirish imkoniyati o'quvchilarning mustaqil ishlari va auditoriya ishlari bilangina chegaralanib qolmaydi. Darsdan tashqari faoliyatda axboriy madaniyat nafaqat o'quvchilarni bilish faoliyatini oshiradi, balki axborot texnologiyalarni chuqur o'rganish xohishini ham shakllantirib, shuningdek, axboriy madaniyat ilmiy orientatsiyaga doir malakalarini ham shakllantirib boradi. Axboriy madaniyatni shakllantirish jarayoni, agarda qulay sharoitlar yaratib berilsagina, muvafaqqiyatli tarzda amalga oshishi mumkin.

Pedagogika kolleji o'quvchilarida axboriy madaniyatni shakllantirish tizimi aniq o'quv fanlari orqali amalga oshirilishi mumkin. Dastlabki asosiy va eng muhim bosqich informatika, matematika kabi fanlar yordamida amalga oshirilishi mumkin. Kompyuterdan foydalanish malakalarini shakllantirish, algoritmlar turlarini bilish va ulardan foydalana olish ko'nikmasi, shuningdek, axborotlashtirish muammosi bo'yicha asosiy tushunchalarni

o'zlashtirish jarayoni barcha o'quvchilar tomonidan amalga oshirilishi lozim.

Ikkinchi bosqich informatsion texnologiyalar haqida bilimga ega bo'lish bilan tavsiflanadi. Ushbu bosqichni amalga oshirish maxsus kurslar va mutaxassisliklar orqali amalga oshiriladi.

Uchinchi bosqich nafaqat bilimlarni o'zlashtirishga, balki olingan bilimlarni mutaxassislik faoliyatida ijodiy tarzda qo'llashni o'zida mujassamlashtiradi. O'quvchidagi axboriy madaniyatning ushbu jihatlarini shakllantirishga pedagogik amaliyotning barcha turlari, kurs ishlarini tayyorlash, shuningdek bitiruv malakaviy ishlarini tayyorlash kabilar ham yo'naltiriladi.

Texnologik yondashuv – kontseptual ta'limiy qadriyat.

Ta'limni texnologiyalashtirish – bu o'qitish jarayoniga texnologik yondashish asosida ta'lim maqsadlariga erishishning eng maqbul yo'llari va samarali vositalarni tadqiq qiluvchi va qonuniyatlarni ochib beruvchi pedagogik yo'nalishdir. Ta'limga texnologik yondashish – bu ma'lumot va ta'lim mazmunini atroflicha tahlil qilish yo'li bilan o'quv-tarbiya jarayonining umumiy, xususiy maqsadlarini tahlil qilish, o'qituvchi va talaba maqsadlarining uchrashgan nuqtalarida (o'qitish maqsadi, o'qish maqsadi) ta'limning didaktik maqsadini belgilash asosida ta'limni loyihalash va amalga oshirish yo'llari bilan mo'ljaldagi etalonga erishishdir.

Umuman, ta'lim texnologiyasi haqida gap ketganda o'zaro daxldor quyidagi hodisalarni bir-biridan farqlashga ehtiyoj tug'iladi:

- ta'limni didaktik loyihalash;
- loyihani amalga oshirish;
- ta'limning joriy va oraliq natijasiga ko'ra didaktik loyihaga tuzatish va o'zgartirishlar kiritish;
- ta'limni takrorlash va yakuniy nazoratdan iborat.

Bu hodisalarning birinchi va ikkinchisi an'anaviy ta'lim-tajribasida ham uchraydi. Ta'lim texnologiyasining an'anaviy ta'lim tizimidan farqi shundaki, ta'lim natijasi va uning etalon darajasida bo'lishi doimo o'qituvchi hamda talabaning diqqat markazida turadi. O'qituvchi ta'lim natijasini tez-tez tekshirib, talabalarni o'zlari erishgan yutuqlardan ogoh qilib turadi va talabalar o'zlari

erishgan yutuq va kamchiliklarni anglab, yutuqlarini yanada ko'paytirishga, kamchiliklarini esa bartaraf etishga harakat qiladi. Talabalar ta'limning zaruriyligini, ular ta'lim jarayonining haqiqiy subyektiga aylangan paytida sezishadi.

So'nggi vaqtlarda «texnologiya» tushunchasini metodikadan ustun qo'yishga urinishlar yuzaga kelmoqda. Aslida «metodika» tushunchasi texnologiyadan yuqori turadi. Chunki metodika – bu metatexnologiya. Agar mazkur tushunchani o'quv jarayoniga tatbiq etadigan bo'lsak, o'quv jarayoni, maqsadi, vazifalari, mazmuni, shakl, metod va vositalarini belgilashga doir umumiy talablar mavjud. Har bir o'quv mashg'ulotini amalga oshirish ma'lum belgilangan algoritmik ketma-ketlikka asoslanadi. Metodika ana shu algoritmik ketma-ketlikning umumiy va xususiy qoidalariga asoslanishni talab etadi. O'qituvchi o'quv maqsadi bilan bog'liqlikda mashg'ulotni o'tkazish texnologiyasini erkin tanlashi mumkin. Aniqroq aytganda, har bir mashg'ulotda kutiladigan natijaga mos holda o'quv bosqichlarini alohida-alohida loyihalash, har bir bosqichda qo'llaniladigan shakl, metod va vositalarni tanlab olish imkoniyati yuzaga keladi.

Ayrim holatda «metodika» va «texnologiya» tushunchasini farqlashda o'qituvchi va talaba faoliyatini asos qilib ko'rsatishga harakat qilinadi. Ya'ni metodikada o'qituvchining dars jarayonidagi faoliyati yoritib berilsa, texnologiyada talabalarning o'quv harakatlari oydinlashtiriladi, degan mulohaza bayon qilinadi. Biroq bunday yondashuvni ma'qullab bo'lmaydi.»Metodika» ham, «texnologiya» ham o'qituvchi-talaba faoliyatini yaxlitlikda tahlil etadi. Texnologiya metodikadan farqli ravishda har bir bosqichda o'qituvchi-talaba faoliyati mazmunini alohida-alohida oydinlashtiradi. Har bir bosqichda erishilgan natijalarni tahlil etib, o'z vaqtida korrektsiyalash imkonini beradi. Ana shu jihat ta'limga texnologik yondashuvning eng asosiy xarakterli tomonidir.

«Metodika» va «texnologiya» tushunchalarining bahs doirasi bilan ham bog'liqlikda ayrim farqli jihatlarni ajratib ko'rsatish mumkin. Jumladan, metodik tizim «Qanday o'qitish?», «Nima uchun o'qitish?», «Nimaga o'rgatish?» kabi savollarga javob

izlaydi, texnologiya esa, «Qanday tarzda samarali o‘qitishga erishish mumkin?» degan savolni markazga qo‘yadi. Metodika o‘quv jarayonini qanday tarzda tashkil etish lozimligini nazarda tutsa, texnologiya qay yo‘sinda o‘quv jarayonini eng qulay, maqbul tarzda amalga oshirishga diqqat-e‘tiborni qaratadi.

Real ta‘lim amaliyotida e‘tibor qaratish lozim bo‘lgan yana bir muhim masala «metod» va «texnologiya» tushunchalarini bir xil mazmunda qo‘llanilayotganidir. Bu borada faqat amaliyotchi-pedagoglarni aybdor deyish ham o‘rinli emas. Sababi pedagogik texnologiyaga doir adabiyotlarda «metod» tushunchasining o‘miga «texnologiya» so‘zini qo‘yib ishlatilish holati juda ko‘p uchraydi. Metod – maqsadga erishish yo‘li sifatida yaxlit ta‘lim jarayonining alohida elementi hisoblanadi. Agar interfaol metodlarni «texnologiya» so‘zi bilan ifoda etayotgan mutaxassislar ularni qo‘llash bosqichma-bosqich amalga oshirilishini nazarda tutib, shunday yondashuvga asoslanayotgan bo‘lsalar bunday nazariy-metodologik asos didaktik nuqtai nazardan mutlaqo xato. Chunki texnologik jarayon ikki – loyihalash va rejalashtirish bosqichlaridan tashkil topadi.

Ta‘lim loyihasi ma‘lumot mazmunini davlat standartlari talablari asosida tahlil etishdan boshlanadi. Tahlil ma‘lumot mazmuni elementlari (bilim, ko‘nikma va malakalar, ijodiy faoliyat tajribasi, munosabatlar) dasturlarda qanday berilganligi, darsliklarda qanday aks ettirilganligiga qaratiladi. Keyin ta‘lim mazmuni o‘rganiladi u yoki bu mavzuni o‘rganishdan ko‘zda tutilgan maqsad, ta‘limning didaktik maqsadi, o‘qituvchi va talabalar maqsadi, maqsadlarni amalga oshirish va hisobga olish varaqalari, beriladigan uy ishlari miqdori, mavzular bo‘yicha o‘tkaziladigan test savollari, reyting nazorati bosqichlari, etalon darajasida o‘zlashtirish shakl, metod va vositalari oldindan belgilab qo‘yiladi. Bu ishlarning barchasi ta‘lim modelini yaratishga olib keladi. Rejalashtirish mashg‘ulot bosqichlarini loyihalash, har bir bosqichda professor-o‘qituvchi va talabalar faoliyatini oydinlashtirish, qadamlar ketma-ketligini aniqlashtirishni talab etadi. Natijada mashg‘ulotning texnologik xaritasi yaratiladi.

Yuqoridagi fikrlarni umumlashtirib aytganda, ta'lim texnologiyasi o'qitish metodikasi asosida qurilib, uning qonuniyatlari, tamoyillari, shakl, metod va vositalariga asoslangan holda, kutiladigan natijalarga asoslangan holda o'qitish jarayonining har bir bosqichini alohida-alohida loyihalash, loyihaga muvofiq o'qituvchi va talaba faoliyatini aniq belgilangan ketma-ketlikda amalga oshirishning samarali texnikasidir.

Nazorat uchun savol va topshiriqlar

1. «Ta'lim falsafasi» tushunchasini izohlang.
2. Aksiologik fikrlash deganda nima tushuniladi?
3. Pedagogik qadriyatlar deganda nimani tushunasiz?
4. Pedagogik qadriyatlar tasnifini izohlang.
5. Ta'limiy qadriyatlarga nimalar kiradi?
6. Tarbiyaviy qadriyatlarning manbalari haqida ma'lumot bering.

Mustaqil o'qish uchun adabiyotlar

1. Общая педагогика / Под. ред. В.А.Сластенина. В. 2ч. – М.: Владос, 2003 – ч.1.
2. Сластенин В.А., Чижаква Г.И. Введение в педагогическую аксиологию – М.: Академия, 2003.
3. Ходжаев Б., Бекмуродова М. Педагогик ходисаларни ўрганишда аксиологик ёндашув: мазмун ва моҳияти. – «Личностно-ориентированное обучение и воспитание на современном этапе (содержание, формы, методы)». Сборник научно-методических статей, ч.5. – Т.: 2007.
4. Мардонов Ш. Педагогик таълим тизимида таълимий кадрлардан фойдаланиш. / «Халқ таълими» журнали, 2005, №6.
5. Философия образования XX века. – М.: Педагогика, 1992.

Mustaqil ish topshiriqlari

1-topshiriq. «Pedagogik qadriyatlar tasnifi» mavzusiga doir blits-so'rov savollari ustida ishlang.

1. Z.I.Ravkin pedagogik qadriyatlarni qanday guruhlarga tasnif etgan?

2. V.A.Slasyonin pedagogik qadriyatlarni qanday klassifikatsiyasini tasnif etgan?

3. N.M. Egamberdieva ijtimoiylashtirish nuqtai nazaridan pedagogik qadriyatlarni qanday turkumlashni taklif etgan?

4. Sh.Q.Mardonov ta'limiy qadriyatlarni qanday klassifikatsiyasini yaratgan?

5. Ta'limning shaxsiy-ahamiatli qadriyatlariga nimalar kiradi?

6. Ta'limning kontseptual yo'naltirilgan qadriyatlariga nimalar kiradi?

7. Ta'limning bazali (manbali) qadriyatlariga nimalarni kiritish mumkin?

8. Nazariy-pedagogik qadriyatlar deganda nimani tushunasiz?

9. Ijtimoiy-pedagogik qadriyatlar o'zida qadriyatning qaysi jihatlarini aks ettiradi?

10. Maqsadli qadriyatlarning mutaxassis shaxsini shakllantirishdagi o'rnini qanday baholash mumkin?

11. Munosabatli qadriyatlar pedagogning kasbiy pozitsiyani shakllanishida qanday ahamiyatga ega?

2-topshiriq. Quyida keltirilgan qadriyatlarni ahamiyatlilik darajasiga ko'ra tartiblang.

Ifodali (atamali) qadriyatlar	Aso-siy tartib	Qayta tartiblash	Amaliy (harakatga yo'naltiruvchi) qadriyatlar	Aso-siy tartib	Qayta tartiblash
Jo'shqin hayot	1		Tartiblik (intizom)	1	
Hayotiy tajriba	2		Axloqiylik	2	
Salomatlik	3		Hayotiy ehtiyoj	3	

Qiziqarli kasbiy faoliyat	4		Quvnoqlik	4	
Tabiat (san'at) go'zalligi	5		Mustaqillik	5	
Muhabbat (sevgi)	6		O'ziga va o'z-galar harakatlari-ga nisbatan tanqidiy yondoshuv	6	
Iqtisodiy farovonlik	7		Bilimlilik	7	
Haqiqiy do'stga ega bo'lish	8		Javobgarlik	8	
Jamoadada o'z o'rniga ega bo'lish	9		O'z-o'zini nazorat qilish	9	
Keng tafakkur	10.		O'z fikriga egalik	10.	
Ma'naviy jihatdan kamolotga erishish	11		Kuchli iroda	11	
Keksalik huzur-halovati	12		Ratsionalizm	12	
Erkinlik	13		Sabrlilik	13	
Baxtli oilaviy hayot	14		Dunyoqarash kengligi	14	
Mustaqillik	15		Vijdonlilik	15	
Yaqinlarning baxti	16		Odillik	16	
Ijod	17		Ish unumdorligi	17	
O'ziga nisbatan ishonch	18		Sinchkovlik	18	

3-topshiriq. «Tarbiyaviy qadriyatlar» mavzusiga doir «B-B-B chizmasi» grafik organayzerini to'ldiring.

Bilaman	Bilmoqchiman	Bilib oldim

III BO'LIM

PEDAGOGIK AKSILOGIYANING SHAKLLANISHI VA RIVOJLANISH OMILLARI

VIII bob. JAHON MIQYOSIDA VA O'ZBEKISTONDA TA'LIM-TARBIYA SOHASINI AKSILOGIZATSIYALASHNING ASOSIY YO'NALISHLARI

Tayanch tushunchalar: paradigma, qadriyatli paradigma, aksiologizatsiya, tendentsiya, modernizatsiya.

Ta'limning qadriyatli paradigmasi. Bugungi kunda ta'lim tizimining rivojlanishidagi asosiy yo'nalishlardan biri qadriyatli paradigmaga o'tish jarayoni ro'y bermoqda. Mazkur yondashuvga yo'nalganlik qarashlarning kontseptual tizimlari, an'anaviy va innovatsion jarayonlarning qadriyatli asoslarini yaqinlashuvini obyektiv jihatdan talab etadi. Ana shu sababdan pedagogik hodisalarni o'rganishda aksiologik yondashuvning tarixiy ildizlarini, shakllanish va rivojlanish omillarini hamda mazmun-mohiyatini to'la anglab olish o'ta muhimdir.

Aksiologik muammolar bilan mil. av. VI-V asrlardayoq qadimgi yunon olimlari – Geraklit, Demokrit, Suqrot, Aflotun, Aristotellar shug'ullana boshlashgan. Ular asosiy aksiologik savollarni shakllantirishga harakat qilganlar: oliy baxtga erishish mumkinmi? Hayot mazmuni nimada? Haqiqat bormi? Go'zallik nima?

Sharq mutafakkirlaridan Abu Rayhon Beruniy, Abu Nasr Forobiy, Abu Ali ibn Sino, Yusuf Xos Xojib, Alisher Navoiylar inson hayoti, uning ta'lim va tarbiya olishi muhimligini o'z asarlarida ko'rsatib berish orqali pedagogik aksiologiyaning tamal toshini qo'yanlar.

Uzoq vaqtlar nazariy-pedagogik masalalar mustaqil tadqiqot sohasi sifatida emas, falsafa doirasida qarab kelingan. Biroq Sharq mutafakkirlarining g'oyalari ta'lim, tarbiya, ta'lim metodikasi bilan uzviy bog'liq bo'lib, pedagogik fikrlar rivojida hal qiluvchi rol o'ynagan. Misol uchun, X asrda al-Xorazmiy tomonidan qo'llanilgan kuzatilgan voqea va hodisalarni tushuntirishda muntazamlilik, ketma-ketlik tamoyilini XIX asr oxirida Abdulla Avloniyning pedagogik asarlarida uchratish mumkin.

Shaxsga yo'naltirilgan qadriyatli bilimlar ikki jihatga qaratilgan: ichki – shaxsiy muvaffaqiyatga erishish vositasi sifatida (Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Abu Nasr Forobiy, Alisher Navoiy, Jaloliddin Davoniy) va tashqi – o'z-o'zini anglash va o'z-o'zini takomillashtirish vositasi sifatida (Yusuf Hamadoniy, Xoja Hasan Andoqiy, Xoja Abdulloh Barraqiy (Barqiy), Xoja Ahmad Yassaviy, Xoja Abdulxoliq G'ijduvoniy Xojagon, Bahouddin Naqshband).

Qadimgi va o'rta asrlarda shakllangan an'analar Sharq uyg'onish davriga kelib, o'ziga xos ahamiyatga ega bo'ldi. Ta'lim va tarbiya masalalari qaytadan ko'rib chiqila boshlandi va ularni hal qilishning yangi yo'llari izlab topildi. Insonparvarlik yo'nalishiga ega bo'lgan ta'lim mazmuniga qo'yiladigan talablar o'zgardi. Ustoz va ta'lim oluvchi o'rtasidagi munosabatlar o'zgardi, faollik, o'rganish jarayonida ta'lim oluvchilarning mustaqilligi qadriyati o'sib bordi. Ta'lim oluvchining bilishga qiziqishini shakllantirish g'oyasi rivojlandi. Mazkur davrda pedagogik g'oyalar markazida bolaning individual rivojlanishi qo'yilsa-da, biroq shaxs jamiyatga qarama-qarshi qo'yilmagan. Bu bilan bog'liqlikda ta'lim ijtimoiy taraqqiyot sharti sifatida belgilangan.

Buyuk olim va davlat arbobi Mirzo Ulug'bek esa, «bilim olishga intilish davlat ravnaqiga yo'l demakdir», degan aksiomani ilgari surib ta'limning aksiologik qadriyat statusini aniq belgilab bera olgan edi.

Keyinchalik ma'rifatparvar pedagog olimlar – Zavqiy, Avaz O'tar, Dilshodi Barno, Furqatlarning, jadid pedagog olimlari – Mahmudxo'ja Behbudiy, Munavvarqori Abdurashidxonov, Abdulla

Avloniy, Hamza Hakimzoda Niyoziyalar ta'limning davlat-jamiat-shaxs rivojidadagi integratsiyasini o'z qarashlari orqali ochib berishgan.

Faqatgina XX asrning boshlaridan boshlab aksiologiya dastlab falsafaning alohida yo'nalishi sifatida o'rganila boshlandi. Bu harakatni 1902 yilda nemis olimi P.Lapi boshlab bergan. Shundan so'ng Yevropa faylasuflari mazkur masalaga jiddiy e'tibor qarata boshladilar. Biroq sobiq sovet davlatida XX asrning 60-yillarigacha mazkur masalaga idealistik yo'nalish sifatida qaralib, tadqiq etilmagan. Ana shu davrdan boshlab rus olimlaridan B.G.Ananyev, V.A.Vasilenko, O.G. Drobniitskiy, B.G.Kuznetsov, N.M.Kuznetsov, A.A.Ruchka, V.P.Tugarinov, V.A.Yadovlar qadriyat muammosini tadqiq eta boshlaganlar. O'zbek olimlaridan J.T. Tulenov birinchilardan bo'lib, qadriyatlar falsafasini tadqiq etgan. Keyinchalik faylasuf olimlardan E.Yusupov, S.Komilova, I.Karimov, Q.Nazarov, S.Valieva, M.Rustamova, K.Tulenovalar aksiologiyaning turli jihatlarini yoritishga harakat qilganlar.

XX asrning 80-yillaridan boshlab pedagogik aksiologiya ta'lim falsafasi sifatida tadqiqotlar sohasiga aylandi (B.S.Gershunskiy, V.M.Rozin, Yu.B.Tupalov, M.I.Fisher, P.G.Shedrovetskiy). Ta'limning insonparlashuvi sharoitida o'quvchilarning bilish faoliyatiga motivatsion-qadriyatli munosabat tadqiq etildi (B.I.Dodonov, B.G.Kuznetsov, E.A.Mamchur, V.B.Mironov va boshqalar). Pedagogik faoliyatning aksiologik tavsifi B.Z.Vulfov, V.A.Slastyonin, E.N.Shiyanovlarning ishlarida o'z aksini topgan.

O'zbekistonda J.G.Yuldashev, R.H.Jo'raev, F.R. Yuzlikaev, Sh.Q. Qurbonov, R.Axliddinov, M.Q. Quronov, R.Ibragimov, S.Madiyorova, R.Qodirova, A.Kaldibekova, Sh.Q. Mardonov, T.Toshlonov, I.Reves, N.M. Egamberdieva, A.Muxsieveva, N.Djami-lolalar o'z tadqiqotlarini pedagogik aksiologiya nuqtai nazaridan yoritishga harakat qilganlar.

Bugungi kunga kelib esa, pedagogik aksiologiyaning jadal rivojlanayotganligi namoyon bo'lmoqda. Buning asosiy sababi jamiyat ehtiyojlardan kelib chiqqan holda, shaxsning ma'naviy imkoniyatlariga bo'lgan talablarning oshib borayotganligidir.

Davriy nashrlarda ta'limning rivojlanishining aksiologiyaga asoslangan strategiyasi; qadriyatlarga tarbiya maqsadining asosi sifatida qarash; o'quvchilarning qadriyatga yo'nalganligini shakllantirishning amaliy tajribasini tahlil etish, ta'limni qadriyatli tashxis etishning vazifalarini shakllantirish kabi uning insonparvarlik mohiyatini aks ettirishi ko'zga tashlanadi (V.I.Ginetsinskiy, I.F.Isaev, N.D.Nikandrov, Z.I.Ravkin, N.S.Rozov, V.A.Slastenin, E.N.Shiyanov, Sh.Q. Mardonov, T.Toshlonov, Yu.Ismoilova, B.X.Xodjaev va boshqalar).

Umuman olganda, pedagogik aksiologiyaning shakllanish va rivojlanishi jarayonida quyidagi muhim natijalar qo'lga kiritilgan:

1) ta'lim va tarbiyaga shaxsning ijtimoiy va kasbiy ijtimoylashuvini aniqlab beruvchi asosiy qadriyat sifatida qarash;

2) qadriyatli fikrlashdan kelib chiqadigan individuallik;

3) shaxsning individual rivojlanishi jarayonida uning umuminsoniy qadriyatlarga oshno etish orqali shaxsga yo'naltirilgan yondashuv;

4) inson tomonidan shaxsiy erkinlik, burch, majburiyat kabi qadriyatlarni anglab olinishi lozimligi;

5) shaxsiy erkinlik, burch, majburiyat kabi qadriyatlarni har bir insonning o'zi va u yashayotgan jamiyatdagi odamlar tomonidan tan olinishi, ya'ni har bir inson uchun qadriyatga aylanishi;

6) ta'lim va tarbiyaga aksiologik yondashuv, qadriyatli ong, munosabat, xulq-atvorni shakllantirishda katta ahamiyatga egaligi.

Ta'limga qadriyatli yondashuvning dolzarbligini aniqlovchi omillar. Turli resurs manbalarida pedagogik aksiologiya XX asrning 80-yillaridan boshlab, bilimlarning mustaqil sohasiga aylangani, 90-yillardan boshlab, uning jadal shakllanishi va rivojlanishi sodir bo'lganligi ta'kidlanadi. Buning asosiy sababi jamiyat ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda, shaxsning ma'naviy imkoniyatlariga birdaniga talablarning o'sganligidir.

Davriy nashrlarda ta'limning rivojlanishining aksiologiyaga asoslangan strategiyasi; qadriyatlarga tarbiya maqsadining asosi sifatida qarash; o'quvchilarning qadriyatga yo'nalganligini shakllantirishning amaliy tajribasini tahlil etish, ta'limni qadriyatli tashxis

etishning vazifalarini shakllantirish kabi uning insonparvarlik mohiyatini aks ettirishi ko'zga tashlanadi (V.I.Ginetsinskiy, I.F.Isaev, N.D.Nikandrov, Z.I.Ravkin, N.S.Rozov, V.A.Slasyonin, E.N.Shiyanov, Sh.Q. Mardonov, T.Toshlonov, Yu.Ismoilova, B.Xodjaev, Sh.Taylanova va boshqalar).

Ta'limga qadriyatli yondashuvning dolzarbligi qator omillar bilan aniqlanadi.

Ularga jahon ta'lim tizimini aksiologizatsiyalash; zamonaviy ta'limning qadriyatli yo'nalishlarini aniqlash; avtoritar ta'lim paradigmasidan insonparvar ta'limga o'tish kabilar kiradi.

Bugun jahon ta'lim tizimini qadriyatga yo'nalgan faoliyatning istalgan sohasini boshqaruvi, tez o'zgaruvchan vaziyatlarda insonda faol ishtirok etish ko'nikmasini rivojlantirish murakkab kechmoqda. Buning asosiy sababi, mintaqada yoki jahonda sodir bo'layotgan inson faoliyatining salbiy natijalari, urushlar, diniy ekstremizm va terrorizm, milliy biqirlilik, buyuk shovinizm qaysi davlatda sodir bo'lishidan qat'iy nazar, butun yer yuzidagi odamlarning salomatligiga, atrof-muhitga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda.

Insonni inson uchun qadriyatga aylanishi, uzluksiz ta'lim tizimini faol yo'lga qo'yilishi, individual rivojlanish jarayonida bolaning umuminsoniy qadriyatlarni o'zlashtirishi, ta'limning tuzilishi va mazmunini tubdan o'zgartirish ta'lim tizimini aksiologizatsiyalashning muhim jihatlarini o'zida aks ettiradi.

Jahon ta'lim sohasini aksiologizatsiyalashning o'ziga xos jihatlarini. Jahon ta'lim tizimining zamonaviy yo'nalishlariga quyidagilar kiradi:

- jamiyatning tez o'zgaruvchan sharoitlariga odamlarni tayyorlash zarurligini aks ettiradigan jamiyat o'zgarishining yuqori sur'ati;

- madaniyatlararo o'zaro ta'sir etishning o'sishi sharoitida postindustrial, axborotlashgan jamiyatga o'tilishi;

- sarmoya va ishchi kuchining yuqori darajada safarbar etilishi, raqobatning o'sishi;

- fuqarolarning saylovlarda ongli tayyorgarlik darajasini oshirish zaruriyatini keltirib chiqaradigan siyosiy hayotda saylov imkoniyatlarining oshishi, jamiyatning demokratlashuvi;

- o'sib kelayotgan avlodda qadriyatli munosabatni shakllantirishni talab etadigan xalqaro muammolarning paydo bo'lishi va o'sishi.

O'zbekiston Respublikasi ta'lim tizimini modernizatsiyalashning qadriyatli yo'nalishlari. O'zbekistonda ham ta'lim islohotlarining qadriyatli yo'nalishlari qaror topib bormoqda. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 41-moddasida «Har kim bilim olish huquqiga ega. Bepul umumiy ta'lim olish davlat tomonidan kafolatlanadi. Maktab ishlari davlat nazoratidadir», deb belgilab qo'yilgan. 42-moddasida esa, «Har kimga ilmiy va texnikaviy ijod erkinligi, madaniyat yutuqlaridan foydalanish huquqi kafolatlanishi; davlat jamiyatning madaniy, ilmiy, texnikaviy rivojlanishiga g'amxo'rlik qilishi» ko'rsatilgan.

O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risida»gi qonunining 4-moddasida bilim olish huquqi qadriyat sifatida quyidagicha ko'rsatib qo'yilgan: «Jinsi, tili, yoshi, irqiy, milliy mansubligi, e'tiqodi, dinga munosabati, ijtimoiy kelib chiqishi, xizmat turi, turar joyi, O'zbekiston Respublikasi hududida qancha yashaganidan qat'iy nazar, har kimga bilim olishda teng huquqlar kafolatlanadi».

Bilim olish huquqi:

- davlat va nodavlat ta'lim muassasalarini rivojlantirish;
- ishlab chiqarishdan ajralgan va ajralmagan holda ta'lim olishni tashkil etish;
- ta'lim va kadrlar tayyorlash davlat dasturlari asosida bepul o'qitish, shuningdek, ta'lim muassasalarida shartnoma asosida to'lov evaziga kasb-hunar o'rgatish;
- barcha ta'lim muassasalari bitiruvchilari keyingi bosqichdagi o'quv yurtlariga kirishda teng huquqlarga ega bo'lishi;
- oilada yoki o'zi mustaqil ravishda bilim olgan fuqarolarga akreditatsiyadan o'tgan ta'lim muassasalarida eksternat tartibida attestatsiyadan o'tish huquqini berish orqali ta'minlanadi.

Boshqa davlatlarning fuqarolari O'zbekiston Respublikasida xalqaro shartnomalarga muvofiq bilim olish huquqiga ega.

Respublikada istiqomat qilayotgan fuqaroligi bo'lmagan shaxslar bilim olishda O'zbekiston Respublikasi fuqarolari bilan teng huquqlarga ega».

Bundan tashqari, mazkur hujjatning 3-moddasida ko'rsatib berilgan ta'lim sohasida davlat siyosatining asosiy tamoyillari ham o'zida muhim aksiologik yondashuvni aks ettiradi:

-birinchidan, ta'lim va tarbiyaning insonparvar, demokratik xarakterda ekanligi;

-ikkinchidan, ta'limning uzluksizligi va izchilligi;

-uchinchidan, umumiy o'rta, shuningdek, o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limining majburiyligi;

-to'rtinchidan, o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limining yo'nalishini: akademik litseyda yoki kasb-hunar kollejida o'qishni tanlashning ixtiyoriyligi;

-beshinchidan, ta'lim tizimining dunyoviy xarakterda ekanligi;

-oltinchidan, davlat ta'lim standartlari doirasida ta'lim olishning hamma uchun ochiqligi;

-ettinchidan, ta'lim dasturlarini tanlashga yagona va tabaqalashgan yondashuv;

-sakkizinchidan, bilimli bo'lish va iste'dodni rag'batlantirish;

-to'qqizinchidan, ta'lim tizimida davlat va jamoat boshqaruvini uyg'unlashtirish.

1997 yilda qabul qilingan «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» maqsadining o'ziyoq, uning qadriyatli yondashuvga asoslanganligidan darak beradi: «Dasturning maqsadi – ta'lim sohasini tubdan isloh qilish, uni o'tmishdan qolgan mafkuraviy sarqitlardan to'la xalos etish, rivojlangan demokratik davlatlar darajasida, yuksak ma'naviy va axloqiy talablarga javob beruvchi yuqori malakali kadrlar tayyorlash Milliy tizimini yaratishdir».

Ta'limiy qadriyatlar yuzasidan tadqiqotlar olib borgan olim Sh.Q.Mardonov «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi»da quyidagi ijtimoiy va shaxsiy xususiyatga ega ta'limiy qadriyatlarning mohiyati ochib berilganligini ta'kidlab o'tadi:

Birinchidan, «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi»da ta'limning oliy qadriyati sifatida shaxs e'tirof etiladi. Mazkur qadriyat Milliy dasturning uzluksiz ta'lim, uning insonparvarlik va ijtimoiylashishga yo'nalishi ko'rsatmalarini muvaffaqiyatli amalga oshirishni ta'minlashi kerak.

Ikkinchidan, pedagogik jihatdan to'g'ri va samarali tashkil etilgan ta'lim-tarbiya jarayoni talabada mustaqil ta'lim olish, o'z-o'zini tarbiyalash, o'z-o'zini rivojlantirish layoqatlarini shakllantiradi. Bu jarayon bizning fikrimizcha, yangi ta'limiy qadriyatlarning yuzaga kelishiga sabab bo'ladi.....».

«Kadrlar tayyorlash milliy dasturi»da axborot texnologiyalari zamonaviy ta'limning muhim qadriyati sifatida e'tirof etilgan. Bo'lajak o'qituvchilarga uzaytirilgan guruh tarbiyalanuvchilariga axborot texnologiyalari bilan ishlashga oid bilimlarni berish, ulardan foydalanishga oid ko'nikma va malakalar tavsiya etiladi. Sh.Mardonovning fikricha, ular quyidagi o'quv manbalari asosida tashkil etiladi: lug'at, ensiklopediya, mutafakkirlarning asarlari, xalq pedagogikasi g'oyalari, maxsus teleko'rsatuv, radioeshitirishlar hamda kompyuter ma'lumotlari.

Axborot texnologiyalari xizmatidan foydalanishga oid bilimlar quyidagi metodikalar asosida beriladi:

- falsafa, psixologiya, pedagogika, etika, estetikaga oid lug'atlar hamda ensiklopediyalar bilan ishlash; psixologik-pedagogik tushunchalarning mohiyatini yorituvchi ilmiy, ilmiy-metodik va ommabop adabiyotlardan foydalanish;

- muqobil tushuncha va ifodalarni anglash (chunonchi, shaxs va uning rivojlanishi; kasbiy-pedagogik munosabatlar mazmunini ochib berish)ga yo'naltirilgan ta'limiy mashg'ulotlarni tashkil etish.

Eng muhim tushunchalarni aniqlash yo'lida quyidagi harakatlarni tashkil etish maqsadga muvofiq:

- atamalar, tushunchalar, mashhur iboralar hamda shaxsiy mulohazalar bo'yicha pedagogik ma'lumotnoma, lug'atlar tuzib borish;

- xalq pedagogikasini o'rganish, xalq og'zaki ijodi namunalari asosida didaktik qarashlardan iborat majmuani yaratish;

- psixologiya, pedagogika, ma'naviyat, milliy g'oya va mafkura targ'ibotiga bag'ishlangan teleko'rsatuv, radioeshittirishlar bilan tanishtirish, telekonferentsiyalarda ishtirok etish;

- zarur kompyuter ma'lumotlarini to'plash va ulardan foydalanish.

Ko'rinib turibdiki, pedagogik aksiologiyaning rivojlanishida jahon va respublikamiz ta'limi tizimida o'ziga xos omillar mavjud bo'lib, ta'limiy qadriyatlarning ijtimoiy, madaniy va tarixiy o'zgaruvchanlik tamoyilini o'zida aks ettiradi.

Nazorat uchun savol va topshiriqlar

1. Ta'limning qadriyatli paradigmasining ahamiyatini tushuntirib bering.

2. Pedagogik aksiologiyaning rivojiga hissa qo'shgan olimlar haqida ma'lumot bering.

3. Jahon ta'lim sohasini aksiologizatsiyalashning o'ziga xos jihatlari nimalarda namoyon bo'ladi?

4. O'zbekiston Respublikasi ta'lim tizimini modernizatsiyalashning asosiy yo'nalishlarini ajratib ko'rsating.

Mustaqil o'qish uchun adabiyotlar

1. Ўзбекистон Республикаси Конституцияси. – Т.: Ўзбекистон, 2003.

2. Баркамол авлод – Ўзбекистон тараққиётининг пойдевори. – Т.: Шарқ, 1997.

3. Кадрлар тайёрлаш миллий дастури / «Баркамол авлод – Ўзбекистон тараққиётининг пойдевори» асарида. – Т.: Шарқ, 1997.

4. Мардонов Ш. Педагогик таълим тизимида таълимий кадриятлардан фойдаланиш. / Халқ таълими, 2005, №6.


5. Общая педагогика / Под. ред. В.А.Сластенина). В. 2ч. – М.: Владос, 2003 – ч.1.

6. Розов Н.С. Культура, ценности и развитие образования – М., 1992.

7. Слостенин В.А., Чижакова Г.И. Введение в педагогическую аксиологию. – М.: Академия, 2003.

Mustaqil ish topshiriqlari

1-topshiriq. Quyidagi chizmaga e'tibor qarating. Muammo yuzasidan fikr yuriting.



2-topshiriq. «O'zbekiston Respublikasi ta'lim tizimining afzalligi va o'ziga xosligi shundaki...» mavzusiga asoslangan esse yozish.

Topshiriqni bajarish tartibi:

1. Mazkur mavzu yuzasidan o'z nuqtai nazaringizni bayon eting.

2. Nuqtai nazaringizni asoslash uchun dalillar kiriting.

3. Mavzu yuzasidan aniq xulosalar chiqaring.

3-topshiriq. Quyida keltirilgan jumalarni davom ettiring.

1. O'zbekiston Respublikasi hududida qancha vaqt yashayotganidan qat'iy nazar...

2. Davlat ta'lim standartlari...
3. Umumiy o'rta ta'lim bosqichlari quyidagicha:...
4. O'zbekiston Respublikasi ta'lim tizimi o'z ichiga quyidagilarni qamrab oladi: ...
5. O'zbekiston Respublikasida ta'lim quyidagi turlarda amalga oshiriladi: ...
6. Tegishli ma'lumoti, kasb tayyorgarligi bor va yuksak axloqiy fazilatlarga ega bo'lgan shaxslar...
7. Ta'lim muassasasini akkreditatsiyalash....
8. Yetim bolalarni va ota-onalarining yoki boshqa qonuniy vakillarning vasiyligisiz qolgan bolalarni o'qitish va ularni boqish...
9. Davlat ta'lim muassasalarini moliyalash...
10. Nodavlat ta'lim muassasalariga qabul...
11. Kadrlar tayyorlash milliy modelining asosiy tarkibiy qismlariga quyidagilar kiradi: ...
12. Ta'lim va kadrlar tayyorlash sohasida marketingni rivojlantirish yo'li bilan...

IX bob. O‘QUVCHILARDA QADRIYATLAR TIZIMINI SHAKLLANTIRISH

«Qadriyatlar tizimi» tushunchasi va uning o‘ziga xosliklari.

Qadriyatlar tizimi g‘oyat murakkab va ko‘p qirrali ijtimoiy munosabatlar, aloqalar, jarayonlarni o‘zida umumlashtirgan yaxlit tabiiy organizm – jamiyat bilan uzviy bog‘liq. Faylasuf olim Q.Nazarov ta’kidlaganidek, jamiyat taraqqiyotining muayyan davrida uning ijtimoiy tuzilishi mutanosiblikka ega bo‘ladi va uning bu davriga qadriyatlarning ham nisbatan barqaror va o‘zaro mutanosib umumiy tizimlari mos keladi. Bu barqarorlik va mutanosiblik qadriyat tizimlari o‘rtasidagi munosabatlarga ham xos bo‘lganidan, bir davrda mavjud bo‘lgan qadriyat tizimlaridan boshqa davrlarda mavjud bo‘lgan qadriyatlar tizimini ajratish, ular o‘rtasidagi farq va tafovutlarni o‘rganish mumkin.

Pedagogik qadriyatlarning individual-shaxsiy tizimi quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

- shaxsning ham jamiyatda, ham kasbiy muhitdagi o‘zini namoyon etishi bilan bog‘liq qadriyatlar (pedagog mehnatining ijtimoiy ahamiyatliligi, pedagog faoliyatining nufuzi, kasbning yaqin shaxsiy doiradagilar tomonidan tan olinishi va boshqalar);

- muloqotga bo‘lgan ehtiyojlarni qondiruvchi va uning doirasini kengaytiruvchi qadriyatlar (bolalar, hamkasblar, mansabdor shaxslar bilan muloqot, bolalarga bo‘lgan mehr va g‘amxo‘rlik, ma’naviy qadriyatlar almashinuvi va boshqalar);

- shaxsning ijodiy individualligini rivojlantirishga qaratilgan qadriyatlar (kasbiy-ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirish imkoniyatlari, jahon madaniyatiga qo‘shilish, sevimli mashg‘ulot bilan shug‘ullanish, doimiy kamolotga intilib borish va boshqalar);

- o‘zini ishga safarbar etishga imkon beruvchi qadriyatlar (pedagog mehnatining ijodiy xarakteri, pedagoglik kasbining

hissiyotga boyligi va maroqliligi, ijtimoiy himoyaga muhtoj bolalarga yordam bera olish imkoniyati va boshqalar);

- pragmatik (amaliy) ehtiyojlarni qondirishga imkoniyat beruvchi qadriyatlar (davlat tomonidan kafolatlangan ish, ish haqi, ta'til, xizmat pog'onasining oshib borishi va boshqalarga erishish).

Yuqorida keltirilgan pedagogik qadriyatlar ijtimoiy va kasbiy tarkibiy qismlarni o'z ichiga oladigan, predmetli mazmuniga ko'ra farq qiluvchi shaxsiy va vositali ko'rinishlarga ajraladi. Shaxsiy qadriyatlar – bu pedagog mehnatining ijodiy xarakterini, nufuzlilik, ijtimoiy ahamiyatlilik, davlat oldidagi mas'uliyat, o'z-o'zini namoyon qilish imkoniyati, bolalarga mehr va g'amxo'rlikni o'z ichiga oluvchi maqsadli qadriyatlardir. Bu turga xos qadriyatlar o'qituvchi, ta'lim oluvchilarning rivojlanishi uchun asos bo'lib xizmat qiladi. Maqsadli qadriyatlar boshqa pedagogik qadriyatlar tizimida hal qiluvchi aksiologik funktsiyalar sifatida namoyon bo'ladi. chunki uning maqsadida o'qituvchi faoliyatining asosiy mazmun-mohiyati aks ettirilgan.

Pedagog pedagogik faoliyat maqsadlarini amalga oshirish yo'llarini qidirar ekan, o'zini va o'zgalarni rivojlantirish yo'lidagi o'z kasbiy strategiyasini tanlab oladi. Binobarin, maqsadli qadriyatlar davlatning ta'lim siyosatini va pedagogika ilmining rivojlanish darajasini aks ettiradi. Bu qadriyatlar subyektlashgan holda pedagogik faoliyatning ahamiyatli omillariga aylanadi va vositali qadriyatlarga ta'sir ko'rsatadi. Ular nazariya, metodologiya, pedagogik texnologiyalarni egallash natijasida shakllanib, pedagogning kasbiy ta'limi asosini tashkil etadi.

Shaxs uchun zaruriy qadriyatlar quyidagi maqsadli qadriyatlarni o'zida aks ettiradi: o'qituvchi mehnatining ijodiy va serqirralilik tavsifi, uning nufuzi va ahamiyatlilik, jamiyat oldidagi yuksak mas'uliyat, o'zini namoyon qilish, bolalarga mehr va boshqalar. Bunday qadriyatlar ta'lim oluvchi va ta'lim beruvchi shaxsining, talabalar jamoasi va pedagogik jamoaning rivojlanishi bilan bog'liq pedagogik faoliyatda o'z ifodasini topadi.

Vositali qadriyatlar maqsadli qadriyatlarga erishishda vosita bo'lib xizmat qiladi (mehnat natijalarining jamiyatda tan olinishi,

shaxsning qiziqishlari va qobiliyatlarini pedagogik faoliyat tavsifiga muvofiqligi, kasbiy o'sish va boshqalar).

Shuningdek, pedagogika fanlari doktori professor N.M.Egamberdievaning fikricha, pedagogik faoliyatga doir qadriyatlar pedagog nuqtai nazarini ham belgilab beradi.

Pedagogning nuqtai nazari – bu uning faolligining manbai hisoblangan olamga, pedagogik voqelik, pedagogik faoliyat va xususiy holatlarga irodaviy va hissiy-baholovchi munosabati. Bu bir tomondan, jamiyatning unga qo'yadigan va taqdim qiladigan talablari, umidlari, imkoniyatlari bilan aniqlanadi. Boshqa tomondan esa, uning doirasida ichki, shaxsiy faollik manbalar – mayllar, kechinmalar, faoliyat motiv va maqsadlari, qadriyatlar tizimi, dunyoqarash, ideallar amal qiladi.

Pedagogning nuqtai nazarida uning shaxsi, ijtimoiy yo'nalishi tavsifi, fuqarolik xulq-atvori va faoliyati namoyon bo'ladi.

Pedagogning ijtimoiy nuqtai nazari umumta'lim maktabi chog'laridayoq, qarashlar, qadriyatlar tizimi tarzida shakllanib, rivojlanib boradi. Ularning asosida kasbiy tayyorgarlik jarayonida pedagoglik kasbiga, pedagogik faoliyatning maqsad va vositalariga nisbatan qadriyatli munosabat tarkib topadi. Pedagogik faoliyatga nisbatan qadriyatli munosabat, keng ma'noda o'qituvchi shaxsining negizini tashkil etuvchi yo'nalganlikni ifodalaydi.

Pedagogning ijtimoiy nuqtai nazari ko'p jihatdan uning kasbiy qarashini ham belgilab beradi. Biroq, bu yerda hech qanday to'g'ridan-to'g'ri bog'liqlik yo'q, chunki tarbiya doim shaxsga ko'rsatiladigan o'zaro ta'sirlardan hosil bo'ladi. Pedagogning kasbiy nuqtai nazarini tanlanishida ko'plab omillar ta'sir ko'rsatadi. Ammo ular orasida hal qiluvchi rolni kasbga doir me'yorlar, shaxsning individual-tipologik xususiyatlari, temperament va xarakteri egallaydi.

O'quvchilarda qadriyatlar tizimini shakllantirishning samarali yo'llari. Aksiologik yondashuv asosida insonning o'z-o'zini kamolotga yetkazib borishining quyidagi jihatlarni hisobga olish bilan bog'liq:

- 1) shaxsning o‘z-o‘zini rivojlantirishga, o‘zini kasbga safarbar etishga, o‘z ishini tashkil etishga shayligi;
- 2) uning o‘z-o‘zini axloqiy jihatdan tartibga solish layoqati;
- 3) shaxsning qadriyatli-mazmunli rivojlanish darajasi va o‘z ishini tashkil etishi;
- 4) shaxsning yuqori darajadagi mustaqilligi;
- 5) uning aniq maqsadga yo‘naltirilgan faoliyatga kirishishga shayligi;
- 6) o‘zini, o‘z shaxsini takomillashtirib borishga qaratilgan ongli xulq-atvori;
- 7) undagi komillikka intilib borishdagi maqsad va vazifalarning barqarorligi, ularni hayotining mazmuniga aylantirishi;
- 8) shaxs faoliyatining ijodiy tavsifi;
- 9) o‘zini mutaxassis sifatida shakllantirib borish jarayonining samaradorligi.

O‘quvchilarda qadriyatlar tizimini shakllantirish murakkab ko‘rinishga ega bo‘lib, mazkur jarayon o‘zaro bir-biri bilan bog‘langan tarkibiy qismlar yig‘indisi sifatida namoyon bo‘ladi. Bunday o‘zaro aloqador qadriyatlar tizimining tarkibiy qismlariga ehtiyoj, qiziqish, motiv, faoliyat maqsadi, axloqiy ideallar, interiorizatsiya kabilarni kiritish mumkin.

Ma‘lumki, o‘quvchining turli ko‘rinishdagi harakati va faoliyatida uning maxsus o‘ziga xos baholash munosabati namoyon bo‘ladi. Aynan o‘quvchining baholash munosabatlariga ko‘ra yangi qadriyatlarni o‘zlashtirishi amalga oshiriladi yoki bo‘lmasa avvaldan mavjud bo‘lgan qadriyatlar (masalan, ijtimoiy normalar, nuqtai nazarlar, qarashlar, fikrlar, qonun-qoidalar) yanada ongda mustahkamlanadi.

Fanda ehtiyojlar inson faoliyatining faolligi sababi va manbai sifatida ko‘rib chiqiladi. O‘zining kelib chiqishi va rivojlanishiga ko‘ra ular ikkita bosqichni bosib o‘tadi. Birinchi bosqichda ehtiyoj xuddi bir ichki, faoliyat uchun yopiq sharoit sifatida xarakterlanadi. Ushbu bosqichda qadriyat ehtiyojni qondirishga qodirdir, ideal sifatida maydonga chiqadi, buni amalga oshirish esa berilgan

ehtiyojning real dunyoni bilish uchun bilimlarni taqqoslashni nazarda tutadi, bu esa mana shu mavjud ehtiyojni qondirish uchun vositalarni tanlashga yordam beradi. Ikkinchi bosqichda ehtiyoj – real bir kuchdir, u insonning aniq bir faoliyatini boshqaradi. Bu yerda ehtiyoj bilan mazmun aniqlashtirilib olinadi, u esa aynan tashqi reallikdan kirib keladi.

O‘z navbatida, ehtiyoj faoliyatni jadallashtiradi va o‘zining aniq natijasi bilan yakunlanadi. Avvaliga u sharoit sifatida maydonga chiqadi, biroq talaba harakat qilishni boshlashi bilan birga uning transformatsiyalanishi va ehtiyojning «o‘zida» bo‘lmay qolishi yuzaga keladi. Qanchalik faoliyat rivojlansa, shunchalik uning ko‘zda tutilgan holati natijaga aylanib boraveradi.

Shuning uchun faoliyatni ehtiyojlarning qondirilishi va kelib chiqishi orqaligina to‘g‘ri tushunib olish mumkin. U bir vaqtni o‘zida mavjud ehtiyojlarni qondirish jarayoni va yangi ehtiyojlarni yaratish sharoiti, shu bilan birga mavjud subyekt va obyekt o‘rtasidagi qarama-qarshilik yechimi jarayoni va yangining paydo bo‘lishini nazarda tutadi.

Ehtiyojlar kelajakka yo‘naltirilgan bo‘lib, natijada hayotiy faoliyat namunasini dasturlashtiradi. Ehtiyojlar o‘zining regulyatorlik funktsiyasiga ko‘ra, o‘zida muhim ahamiyatligi yuqori bo‘lgan shaxs rivojlanishi mezonini aks ettiradi.

Ehtiyojdan maqsadni shakllantirishga o‘tish o‘z-o‘zidan amalga oshirilmaydi. Ehtiyoj va maqsad motivni birlashtiradi. Ehtiyojlar motivga nisbatan birlamchidir, ular esa aynan kelib chiqqan ehtiyoj asosida shakllanadi. Faollik ehtiyojlarning o‘zidan kelib chiqmaydi, balki subyektning mavjud holati, shart-sharoiti o‘rtasidagi ziddiyatga bog‘liqdir. Aynan shu qarama-qarshilik (ziddiyat) faoliyatni rag‘batlantiradi (stimul), va shart-sharoitlarning o‘zgarishi yoki saqlab qolinishiga kurashishga undaydi.

O‘quvchilarda qadriyatlar tizimini shakllantirish maqsadga yo‘naltirilgan trening mashg‘ulotlari, pedagogik-psixologik o‘yinlarni samarali tashkil etishga ko‘p jihatdan bog‘liq. Quyida ayrim o‘yin va trening mashg‘ulotlarini keltirib o‘tamiz.

«**Qadriyatlar**» o‘yini. Ishtirokchilarga oltita varaq tarqatilib, mana shu qog‘ozlarga ajdodlar tajribasida o‘z ifodasini topgan qadriyatli tasavvurlarni ahamiyatlilik darajasiga ko‘ra yozib chiqishlari so‘raldi. Keyin varaqlar shunday aralashtirilishi, ya‘ni eng qadrlı narsa yozilgan varaq oxirida turishi kerakligi aytilı. Boshlovchi ishtirokchilarga qandaydir hodisa ro‘y berib, birinchi varaqda yozilgan qadriyatdan mahrum bo‘lganliklarini his qilib ko‘rishlarini taklif etdi. So‘ngra boshlovchi ishtirokchilardan shu qadriyat yozilgan qog‘ozni g‘ijimlab uloqtirishni va hayotni ana shu qadriyatsiz tasavvur qilib ko‘rishlarini so‘radi.

Shu tariqa har bir qadriyatdan voz kechib boriladi. Sh‘undan so‘ng ishtirokchilarga qadriyatdan ajralayotgan vaqtda qanaqa hissiyot, qanaqa tuyg‘uni his qilganligini eslash taklif etildi. Keyin boshlovchi mo‘jiza ro‘y berib, qadriyatlarni birma-bir qaytarish imkoniyati tug‘ilganligini e‘lon qiladi va talabalar g‘ijimlangan qog‘ozlarni birma-bir qaytarib oldilar. So‘ng ishtirokchilardan qadriyatlarni yo‘qotilgan vaqtdagi holati va g‘ijimlangan qog‘ozlarga yozilgan holatini solishtirib, yo‘qotilgan paytdagi qadriyatli tasavvurlarni hozir ham xuddi shunday qadr-qimmatga egami yoki yo‘qmi ekanligini so‘raydi. Guruh a‘zolaridan ba‘zilari qadriyatlarni ahamiyatiga ko‘ra o‘rinlarini almashtirganliklarini ham ma‘lum qilishadi. Mashg‘ulot so‘nggida boshlovchi natijalarni muhokama qilib, xulosalarni bayon etdi.

«**Men hech qachon ...maganman**» o‘yini. Mazkur o‘yin jarayonida o‘quvchilarga mavjud qadriyatlar tizimidan foydalanib, ularning shaxsiy ahamiyatini o‘zlarida namoyon eta olishlari so‘raladi. Ishtirokchilar navbatma-navbat «Men hech qachonmaganman» degan jumladan iborat gap aytishlari lozimligi belgilab qo‘yiladi (masalan, «Men hech qachon yolg‘on gapirmaganman», «Men hech qachon o‘zimdan kattalarga tik qarab gapirmaganman», «Men hech qachon haqoratli so‘zlarni ishlatmaganman» va h.k.). Qolgan talabalar esa, aytilayotgan gaplar, agar ular uchun noto‘g‘ri bo‘lsa barmoqlarini bukib boradilar. Ya‘ni, masalan, biror o‘quvchi haqoratli so‘zlarni ishlatlsa, bitta barmog‘ini bukadi, keyingi ishtirokchi tomonidan aytilgan gap ham

uning uchun noto'g'ri bo'lsa (ya'ni kattalarga tik qarab gapirsa) yana bitta barmog'ini bukadi va h.k. Jami o'nta gap aytilganidan so'ng kimningdir barmoqlaridan birortasi yoki bir nechtasi bukilmasdan qolgan bo'lsa, o'sha yutadi. O'qituvchi o'quvchilarni aytilayotgan fikrlar reallikka mos bo'lishi va barmoqlarni adolatli bukish lozimligi haqida ogohlantirib boradi. O'yin shu tarzda barcha ishtirokchilar bittadan gap aytgunlariga qadar davom ettiriladi.

«**Mumkin emas...**» o'yini. Mazkur o'yin qadriyatlar tizimini to'g'ri tahlil eta olish maqsadida amalga oshiriladi. Buning uchun guruh ikkiga bo'lib olinadi. Birinchi guruh o'z xohish-istaklarini bayon qilishi, ikkinchi guruh esa bunga rad etish mazmunidagi javobni berishlari so'raladi. O'n daqiqadan keyin guruhlar o'z o'rinlarini almashadilar. O'yinda quyidagi fikrlardan foydalanish mumkin:

- Men baribir o'z maqsadimga erisha olmayman.
 - Yo'q, unday dema. Yaxshi niyat qilib, yaxshi fikrlar o'ylasang, u albatta amalga oshadi.
 - Ba'zi o'qituvchilarimizni hurmat qilmayman, chunki bilimlari sayoz.
 - Yo'q, bunday qilishing to'g'ri emas. Alisher Navoiy aytganlar: «Haq yo'lida kim sanga bir harf o'rgatmish ranj ila, Aylamak bo'lmas ado oning haqin yuz ganj ila».
 - Menga ahamiyati yo'q, bugun boshqa odam bilan, ertaga boshqa odam bilan do'st bo'lib keta olaman.
 - Bunday qilishing xato. Chunki bu dunyoda ikkiyuzlamachi bo'lgan odamning qiyomatda o'tdan yasalgan ikki tili bo'ladi.
 - Men har doim o'zim xohlagan fikrni ayta olaman.
 - Sen buni qila olishing mumkin, lekin bu ish senga doim kulfat olib keladi. Chunki «Qora bosh yag'isi qizil til turur, Necha bosh edi u, yana ham yeyur» va boshqalar.
- O'yindan so'ng fikrlarni rad qilish uchun qo'llanilgan dalillar, ularning sabablari va mazmuni tahlil qilib chiqiladi.

«Qadr-qimmat tuyg'usi» treningi.

Treningni maqsadi: o'quvchilarda o'z-o'zini namoyon etish, o'z-o'zini baholash va boshqalar bilan aks aloqaga kirisha olish ko'nikmalarini shakllantirish.

Materiallar: vatman qog'ozlari, markerlar.

Treningning borishi:

1. Dastlab barcha o'quvchilar bir varaq qog'ozga o'zining alohida jihatlari ro'yxatini tuzishadi.

2. So'ng trener ularning biridan o'zining alohida jihatlari ro'yxatini o'qib berishni so'raydi.

3. O'quvchi o'z ro'yxatida yozilganlarini o'qib bo'lgach, trener boshqa o'quvchilar orasidan mazkur o'quvchi haqida fikr bildirishlarini so'raydi, ya'ni aks aloqa vaziyati vujudga keltiriladi.

O'quvchilar aks aloqa jarayonida quyidagilarga rioya qilishlari shart:

1) aks aloqani Sizdan biror o'quvchi haqida so'rashganlaridagina bering;

2) fikr va tuyg'ularingiz haqida gapirayotib, ularni keltirib chiqargan aniq so'z va xatti-harakatlarni tilga olib o'ting;

3) boshqani xafa, yoki haqorat qiladigan tarzda gapirmang;

4) baho bermang;

5) maslahat bermang: «Sening o'rningda bo'lsam,...», «Sen ... qilishing kerak» kabi jumllarni ishlatmang.

4. Mazkur vaziyat so'nggi ishtirokchi o'z ro'yxatida yozilganlarini o'qib berib, unga aks aloqa ko'rsatilguniga qadar davom etadi.

«Proektiv rasm» treningi. Hammadan ikkita rasm ishlash so'raladi: «men qandayman» va «men qanday bo'lishni istayman». Rasm ishlashga besh daqiqa ajratiladi. Rasmlar imzolanmaydi. Rasmning texnik jihatlari muhim emas. Hamma rasmlar xona o'rtasida yoyiladi. Keyin bittasi tanlab olinadi. Hammaga ko'rinadigan qilib qo'yiladi. Keyin hamma navbat bilan nimani ko'rayotganini aytadi. U yerda nima chizilgani va nimani his qilganini, rasm ishlagan kishi, uningcha, o'zini qanday ko'rayotgani va qanday ko'rishni istayotgani(nimani o'zgartirmoqchi ekani)

haqida gapiradi. Hamma navbat bilan gapiradi. Bunda muallif o'zini tanishtirmaydi. Hamma xohlovchilar gapirib bo'lgach, rasm muallifini topishga urinib ko'rish mumkin. Keyin muallif o'zini tanitib, rasmida nimani ifoda etmoqchi bo'lganini tushuntiradi, o'ziga yoqqan replikalarga javob qaytaradi. Muhokama chog'ida kimning talqini mualliflarga ko'proq yoqqanini aytib o'tiladi. Inteorizatsiya bosqichida o'quvchilarda qadriyatlarni ichki qabul qilishga doir trening mashg'ulotlarini o'tkazish ko'zda tutiladi.

Nazorat uchun savol va topshiriqlar:

1. Qadriyatlar tizimi deganda nimani tushunasiz?
2. Shaxsiy qadriyatlar tizimiga nimalar kiradi?
3. Ijtimoiy ahamiyatli qadriyatlar tizimi nimalarni o'z ichiga qamrab oladi?
4. O'quvchilarda qadriyatlar tizimini shakllantirish qanday bosqichlarda amalga oshadi?
5. O'quvchilarda qadriyatlar tizimini shakllantirishning asosiy yo'nalishlariga nimalar kiradi?
6. O'quvchilarda qadriyatlar tizimini shakllantirishda umumkasbiy fanlarning ahamiyati nimada?
7. O'quvchilarda qadriyatlar tizimini shakllantirishda texnologik yondashuv qanday afzalliklarga ega?
8. O'quvchilarda qadriyatlar tizimini shakllantirishning samarali yo'llarini bayon eting.

Mustaqil o'qish uchun adabiyotlar

1. Слостенин В.А., Чижакова Г.И. Введение в педагогическую аксиологию – М.: Академия, 2003.
2. Назаров Қ. Аксиология (Қадриятлар фалсафаси). – Т.: Академия, 2011.
3. Ходжаев Б.Х. Педагогик аксиология. – Т.: «Fan va texnologiya» нашриёти, 2011.

4. Хрестоматия по педагогической аксиологии. / Сост. В.А.Сластенин, Г.И.Чижаква. – М.: НПО «МОДЭК», 2005 .

5. Тайланова Ш. Талабаларда қадриятли тасаввурлар тизимини шакллантиришнинг асосий йўналишлари. – Т.: «Fan va texnologiyalar» нашриёти, 2011.

Mustaqil ish topshiriqlari

1-topshiriq. Quyida keltirilgan ikki qismli kundalikni to'ldiring.

№	Qadriyatlar tizimini shakllantirish bosqichlari	Amaliy yoʻnalganligi
1.	Emotsional (narsa-hodisalarni idrok etish, his qilish)	
2.	Motivatsion (qadriyatlarni oʻzlashtirish ehtiyoji, qiziqish, motiv, maqsad)	
3.	Kognitiv (qadriyatlarni oʻzlashtirish, ularni alohida guruhlariga ajratish va tasniflash)	
4.	Faoliyatli (qadriyatlarni baholash, munosabat bildirish va interiorizatsiyalash)	

2-topshiriq. «O'quvchilarda qadriyatlar tizimini shakllantirish» mavzusidagi toifalash jadvalini to'ldiring.

O'quvchilarda qadriyatlar tizimini shakllantirishning pedagogik-psixologik o'ziga xosliklari	O'quvchilarda qadriyatlar tizimini shakllantirish shakl, metod va vositalari	O'quvchilarda qadriyatlar tizimi shakllanganligini baholash mezonlari

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Каримов И.А. Ўзбекистоннинг ўз истиқлол ва тараққиёт йўли. – Т.: Ўзбекистон, 1992. – 71 б.
2. Каримов И.А. Ўзбекистон XXI аср бўсағасида: хавфсизликка таҳдид, барқарорлик шартлари ва тараққиёт кафолатлари – Т.: Ўзбекистон, 1997. – 315 б.
3. Каримов И.А. Жамиятимиз мафқураси халқни – халқ, миллатни – миллат қилишга хизмат этсин. 7-жилд. – Т.: Ўзбекистон, 1999.
4. Каримов И.А. Юксак маънавият – енгилмас куч. – Т.: Маънавият, 2008. – 176 б.
5. Каримов И.А. Жаҳон молиявий-иқтисодий инқирози, Ўзбекистон шароитида уни бартараф этиш йўллари ва чоралари. – Т.: Ўзбекистон, 2009. – 59 б.
6. Ўзбекистон Республикасининг «Таълим тўғрисида»ги қонуни// «Баркамол авлод – Ўзбекистон тараққиётининг пойдевори» китобида. – Т.: Шарқ, 1997. – Б. 20-29.
7. Ўзбекистон Республикасининг «Кадрлар тайёрлаш миллий дастури»// «Баркамол авлод – Ўзбекистон тараққиётининг пойдевори» китобида. – Т.: Шарқ, 1997. – Б.31-61.
8. Миллий истиқлол гоҳси: асосий тушунча ва тамойиллар – Т.: Ўзбекистон, 2001. – 80 б.
9. Авесто. / А.Маҳкам таржимаси. Т.: Шарқ, 2001. – 385 б.
10. Абдираззаков А.А. Национальные духовные ценности и их место в самосознании нации: Автореф. дис. ... канд. филос. наук. – Т., 1995. -24 с.
11. Абдурахмонов А. Саодатга элтувчи билим: (Дин, фалсафа, ҳаёт, маънавият ва маърифат сабоқлари). – Т.: Моварауннаҳр, 2002. – 720 б.

12. Абдуқодиров А. Тасаввуф истилоҳларининг қисқача изоҳли луғати. – Хўжанд: Раҳим Жалил номидаги Давлат нашриёти, 1997. – 95 б.

13. Абу Наср Форобий. Фозил одамлар шаҳри. –Т.: А.Қодирий номидаги халқ мероси нашриёти, 1993. – 222 б.

14. Абу Райҳон Беруний. Тарайҳалар (Жавохирот китобидан). – Т.: Мерос, 1991. – 47 б.

15. Амир Темур ва темурийлар даврида маданият ва санъат. – Т.: Ғ.Ғулум номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1996. – 88 б.

16. Бегматов А. Маънавият фалсафаси ёхуд Ислом Каримов асарларида янги фалсафий тизимнинг яратилиши. – Т.: Шарқ, 2000. – 94 б.

17. Бим-Бад Б.М. Педагогическая антропология. – М.: УРАО, 2003. – 208 с.

18. Бондаревская Е.В., Кульневич С.В. Педагогика: личность в гуманистических теориях и системах воспитания. – Ростов-на-Дону: Феникс, 1999. – 178 с.

19. Бордовская Н.В., Реан А.А. Педагогика. – СПб.: Питер, 2001. – 276 с.

20. Гершунский Б.С. Образовательно-педагогическая прогностика. Теория, методология, практика. – М.: Флинта, Наука, 2003. – 768 с.

21. Гершунский Б.С. Философия образования XXI века (В поисках практико-ориентированных образовательных концепций). – М.: Совершенство, 1998. – 608 с.

22. Занина Л.В., Меньшикова Н.П. Основы педагогического мастерства. – Ростов-на-Дону: Феникс, 2003. – 288 с.

23. Imomnazarov M. Milliy ma'naviyatimiz asoslari. – Т.: O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti, 2006. – 448 б.

24. Искандаров Б. Ўрта Осиёда фалсафий ва ижтимоий-сиёсий фикрнинг шаклланиши ва ривожланиши тарихидан лавҳалар. – Т.: Ўзбекистон, 1993. – 109 б.

25. Исмоилов С.Т. Нақшбандия тарикатининг тасаввуф тараққиётидаги ўрни: Фалсафа фанлари номзоди. ... дисс. Автореф. – Т., 2006. – 26 б.

26. Калдыбекова А., Ходжаев Б. Педагогик аксиология. – Т.: Алишер Навоий номидаги Ўзбекистон Миллий кутубхонаси нашриёти, 2009. – 80 б.

27. Калдыбекова А. Урхун-Енисей ёзма ёдгорликларини ўқитиш жараёнида талабаларни байналмилаллик руҳида тарбиялаш. / Педагогик таълим. – 2006, №4. – Б.55.

28. Карим Т. Миллий тафаккур тараққиётдан («Авесто» замонларидан то XXI аср бошларигача). – Т.: «Чўлпон» нашриёти, 2003. – 160 б.

29. Комилов Н. Тасаввуф ёки комил инсон ахлоқи. – Т.: Ёзувчи, 1996. – 272 б.

30. Комилов Н. Комил инсон – миллат келажаги. – Т.: Ўзбекистон, 2001. – 147 б.

31. Кушвактов Н.Х. Талабаларни миллий кадриятлар асосида тарбиялашнинг компьютерли асослари: Педагогика фанлари номзоди. ... дисс. – Т., 2004. – 176 б.

32. Лихачёв Б.Т. Педагогика. Курс лекций. – М.: Юрай-Издат, 2003. – 607 с.

33. Лузина Л.М. Философски-антропологический подход в современной методологии воспитания: Дис. ... докт. пед. наук в виде научного доклада. – СПб., 1998. – 46 с.

34. Маврулов А. Маънавий баркамол инсон тарбияси. – Т.: O‘zbekiston, 2008. – 80 б.

35. Мардонов Ш.Қ. Янги таълимий кадриятлар асосида педагог кадрларни тайёрлаш ва малакасини ошириш. – Т.: Фан, 2006. – 232 б.

36. Мардонов Ш. Педагогик таълим тизимида таълимий кадриятлардан фойдаланиш. // Халқ таълими. – Т., 2005. - №6. – Б.24-28.

37. Мартишина Н.В. Ценностный компонент творческого потенциала личности педагогика // Педагогика. – М., 2006.- № 3. – С.48-57.

38. Маҳмудов Т. «Авесто» ҳақида. – Т.: Шарқ, 2000. – 63 б.
39. Мустақиллик: Изоҳли илмий-оммабоп луғат. – Т.: Шарқ, 2000. – 320 б.
40. Мусурмонова О. Оила маънавияти – миллий ғурур. – Т.: Ўқитувчи, 1999. – 200 б.
41. Мусурмонова О. Маънавий қадриятлар ва ёшлар тарбияси. - Т.: Ўқитувчи, 1996. – 136 б.
42. Мусурмонова О., Баубекова Г. Ўзбек халқ педагогикаси. – Т.: Абдулла Қодирий номидаги халқ мероси нашриёти, 2000. – 64 б.
43. Муҳиддинов М.К. Алишер Навоий ва унинг салафлари ижодида инсон концепцияси («Хамса»ларнинг биринчи дostonлари асосида): Филология фанлари доктори. ... дисс. Автореф. – Т., 1995. – 60 б.
44. Наврузова Г.Н. Нақшбандия тасаввуфий таълимоти ва баркамол инсон тарбияси: Фалсафа фанлари доктори. ... дисс. – Т., 2002. – 327 б.
45. Наврузова Г.Н. Нақшбандия тасаввуфий таълимоти ва баркамол инсон тарбияси: Фалсафа фанлари доктори. ... дисс. Автореф. – Т., 2002. – 46 б.
46. Назаров Қ. Аксиология (Қадриятлар фалсафаси). – Т.: Академия, 2011. – 384 б.
47. Нишонова С. Миллий қадриятлар ва баркамол инсон тарбияси. / Халқ таълими. – Т., 1999, №3. – Б.16-19.
48. Норқўчқорова Р. Тасвирий санъат асарлари воситасида ўқувчиларда бадиий қадриятларга қизиқишни шакллантириш (педагогика коллежлари мисолида): Магистр академик даражасини олиш учун ёзилган дис. – Т., 2012. -90 б.
49. Ортиқов Н. Миллий ва умуминсоний қадриятлар асосида ўқувчи шахсини ахлоқий шакллантириш: Педагогика фанлари доктори. ... дисс. – Т., 2000. – 305 б.
50. Очилов М. Янги педагогик технологиялар. – Қарши.: Насаф, 2000. – 79 б.
51. Очилов.М. Муаллим – қалб меъмори. – Т.: Ўқитувчи, 2001. – 429 б.

52. Педагогика / Под ред. П.И. Пидкасистого. – М.: Пед. общество России, 1998. – 640 с.
53. Педагогика. Большая современная энциклопедия. – Минск: Современное слово, 2005. – 720 с.
54. Подласый И.П. Педагогика. – М.: Высшее образование, 2006. – 540 с.
55. Подласый И.П. Педагогика. Новый курс. В 2-х кн. – М.: ВЛАДОС, 2005. Кн.1. – 574 с.
56. Подласый И.П. Педагогика. Новый курс. В 2-х кн. – М.: ВЛАДОС, 2005. Кн.2. – 256 с.
57. Подласый И.П. Продуктивная педагогика. – М.: Народное образование, 2003. – 496 с.
58. Психология и педагогика / Под ред. А.А. Радугина. – М.: Центр, 2002. – 256 с.
59. Рахмонова Н.И. Тарбиявий кадриятлар интериоризацияси орқали юксак маънавиятли ўқувчи шахсини шакллантириш: битирув малакавий иши. – Т., 2010. – 56 б.
60. Салихова Д.Р. Педагогика тарихи фанининг ўқувчиларда кадриятли тасаввурлар тизимини шакллантиришдаги имкониятлари: битирув малакавий иши. – Т., 2012. – 67 б.
61. Сафо Очил., Ҳошимов К. Ўзбек педагогикаси антологияси. – Т.: Ўқитувчи, 1999. – 480 б.
62. Сафаев Н.С. Психологические особенности национального самосознания студенческой молодежи: Автореф. ...дисс.док.пед.наук. – Т., 2005. – 38 с.
63. Слостёнин В.А., Исаев И.Ф., Мищенко А.И., Шиянов Е.Н. Педагогика. – М.: Школьная пресса. – 510 с.
64. Слостёнин В.А., Исаев И.Ф., Шиянов Е.Н. Общая педагогика. В 2 ч. – М.: ВЛАДОС, 2003. – Ч.1. – 288 с.
65. Слостёнин В.А., Исаев И.Ф., Шиянов Е.Н. Общая педагогика. В 2 ч. – М.: ВЛАДОС, 2003. – Ч.2. – 256 с.
66. Слостёнин В.А., Чижакова Г.И. Введение в педагогическую аксиологию. – М.: Академия, 2003. – 192 с.
67. Слободчиков В.И., Исаев Е.И. Психология человека. – М.: Питер, 1995. – 215 с.

68. Столяренко А.М. Общая педагогика. – М.: ЮНИТИ-ДАНА, 2006. – 479 с.
69. Столяренко Л.Д. Педагогика. – Ростов-на-Дону: Феникс, 2003. – 448 с.
70. Сулаймонова Ф. Шарқ ва Ғарб. – Т.: Ўзбекистон, 1997. – 415 б.
71. Тайланова Ш.З. Талабаларда қадриятли тасаввурлар тизимини шакллантириш йўналишлари. Услубий қўлланма. – Тошкент: Fan va texnologiya, 2011. – 56 б.
72. Тайланова Ш.З. Талабаларда қадриятли тасаввурлар тизимини шакллантириш технологияси. Услубий қўлланма. – Тошкент: Fan va texnologiya, 2011. – 56 б.
73. Taylanova Sh. The use of training exercises in forming the system of valuable views in students. // Avicenna. – Freiburg, 2011. - №4. – P.103-106.
74. Темур тузуқлари. / Форсчадан А.Соғуний ва Х.Кароматов таржимаси. – Т.: Ғ.Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1996. – 34 б.
75. Туленов Ж. Қадриятлар фалсафаси. – Т.: Ўзбекистон, 1998. – 236 б.
76. Туленов Ж. Ҳаёт фалсафаси. – Т.: Ўзбекистон, 1993. – 319 б.
77. Туленова К., Валиева С. Қадриятлар фалсафаси. – Т.: ТДПУ, 2007. – 256 б.
78. Фалсафа: комусий луғат (Тузувчи ва масъул муҳаррир Қ.Назаров). – Т.: Шарқ, 2004. – 496 б.
79. Хайруллаев М. Ўзбекистонда ижтимоий-фалсафий фикрлар тарихидан лавҳалар. – Т.: Ўзбекистон, 1995. – 240 б.
80. Хайруллаев М. Маънавият юлдузлари. – Т.: Абдулла Қодирий номидаги халқ мероси нашриёти, 2001. – 408 б.
81. Хоразм Маъмун академияси. – Т.: Фан, 2005. – 279 б.
82. Хрестоматия по педагогической аксиологии. / Сост. В.А.Сластенин, Г.И.Чижакова. – М.: НПО «МОДЭК», 2005. – 456 с.

83. Шиянов Е.Н. Аксиологические основания процесса воспитания// Педагогика.- М., 2007.- № 10. – С.33-37.

84. Щуркова Н.Е. Новое воспитание. – М.: Пед. общество России, 2000. – 128 с.

85. Эгамбердиева Н.М. Маданий-инсонпарварлик ёндашув асосида талабаларни шахсий ва касбий ижтимоийлаштириш назарияси ва амалиёти (Педагогика олий таълим муассасалари мисолида): Педагогика фанлари доктори. ... дисс. – Т., 2010. – 332 б.

86. Эркаев А. Маънавият – миллат нишони. – Т.: Маънавият, 1999. – 239 б.

87. Юлдашева С.Т. Бадий қадриятларга эстетик эҳтиёжлар омили сифатида талабалар қизиқишларини фаоллаштиришнинг педагогик асослари: Педагогика фанлари номзоди. ... дисс. – Т., 2007. – 165 б.

88. Ҳаққул Иброҳим. Тасаввуф ва шеърият. – Т.: Ғафур Ғулом номидаги адабиёт ва санъат нашриёти, 1991. – 184 б.

89. Ҳомидий Ҳ. Тасаввуф алломалари. – Т.: Шарқ, 2004. – 208 б.

90. Ҳошимов К., Нишонова С., Иномова М., Ҳасанов Р. Педагогика тарихи. – Т.: Ўқитувчи, 1996. – 488 б.

91. Ҳошимов К., Сафо Очил. Ўзбек педагогикаси антологияси. – Т.: Ўқитувчи, 1996. – 464 б.

ASOSIY TUSHUNCHALARNING IZOHLI LUG'ATI

Aksiologiya yunoncha soʻz boʻlib, axio – qadriyat, logos – taʼlimot, soʻz, yaʼni qadriyatlar haqidagi taʼlimot maʼnosini bildiradi. Aksiologiya tushunchasi qadriyat va qadriyatlar haqidagi taʼlimotga qaraganda, keyinroq paydo boʻlgan. Mazkur tushuncha XIX asrning 2-yarmida nemis qadriyatshunosi Eduard Gartman va frantsuz olimi P.Lapilar tomonidan fanga kiritilgan.

Aksiologik ong – axloqiy-maʼnaviy tarzda oʻz hayotiy faoliyati sohasi subyektlarini aniqlashga imkon beruvchi obyektiv borliqni aks ettirish shakli; maʼnaviy qadriyatlar dunyosi sifatida borliqni aks ettirish asosida insonda dunyoni va oʻzining shaxsiy dunyosini anglashida faol ishtirok etuvchi psixik jarayonlar birligi.

Aksiologik dunyoqarash – ijtimoiy dunyoqarashning oʻziga xos tarkibiy qismlaridan biri sifatida, kishilarning voqelikka qadriyatli munosabati va faoliyatining yoʻnalishini belgilaydigan aksiologik qarashlar, tamoyil va maslaklar majmuasi.

Aksiologik yondashuv – pedagogik voqelikni oʻrganishga doir ilmiy bilish usullaridan biri. Ilmiy bilishda olam, undagi narsa, voqea, hodisa va boshqalar qadriyatning inson ongida aks etishi, qadriyatni anglashning reallikka mos kelish qonunlari, daraja va imkoniyatlari, uning meʼyor va mezonlarini aniqlash nihoyatda muhim.

Aksiologik munosabat – shaxsiy va ijtimoiy ahamiyatlilikning oʻzaro aloqadorligini aks ettiruvchi shaxsning ichki pozitsiyasi. Aksiologik munosabat faqat yakka, alohida shaxsgagina tegishli hodisa emas. Balki u ijtimoiy guruh, qatlam, millat, davlat, jamiyatga ham tegishli boʻlishi mumkin.

Aksiologik baholash – voqelikka, undagi narsa va hodisalarga nisbatan qadriyatli munosabat hamda ularni qadrlash tuygʻusi asosida shakllangan hukm va xulosalar. Pedagogik voqelikni aksiologik baholash istalgan ijtimoiy voqelikni baholashdan oʻziga

xos jihati bilan farq qiladi. Bunda ta'limning maqsadi, mazmuni, pedagogika nazariyasi va amaliyotining so'nggi yutuqlari kabilar e'tiborga olinadi, voqelikni baholash va unga nisbatan munosabatni tahlil qilganda ta'lim oluvchi shaxsiga qadriyat nuqtai nazaridan yondashuv ustuvor bo'ladi.

Aхлоқий идеаллар shaxs motivatsion-qadriyatli munosabatining oliy mezonini sifatida namoyon bo'ladi. U shaxsni jamiyat oldidagi burchi, mas'uliyatini anglab yetishi bilan tavsiflanadi. Shaxs munosabati insonning atrof-muhitdagi narsa-hodisa va boshqa insonlar obyektiv aloqasiga yo'naltiradi va shaxsning subyektiv pozitsiyasini u yoki bu subyektgacha nisbatan nisbiy, shu bilan birga uning ahamiyatlilikini baholaydi.

Аксиологик психологизм – qadriyatning manbai sifatida insonning subyektiv dunyosi – uning maqsadi, hissiyoti, irodasi, ehtiyoj va ustanovkasini ko'rib chiqadigan nazariya.

Аксиологик нормативизм qadriyatning manbai sifatida ko'pchilik odamlarning ijtimoiy madaniy faoliyatini olg'a suruvchi nazariya. Bu yerda ijtimoiy-madaniy muhitning o'zgarishini ta'minlaydigan me'yor, qoida, baho qadriyat sifatida aks beradi.

Аксиологик трансцендентализм odamlarni oliy maqsadga erishishga yo'naltiruvchi qandaydir o'zaro aloqador ideal mohiyatni qadriyat manbai hisoblaydigan nazariya.

Аксиологик трансцендентализм– qadriyatni inson ishtirok etishi mumkin bo'lgan (yoki mumkin bo'lmagan) mavjudlikning mustaqil sohasiga ega ideal sifatida talqin etadigan nazariya.

Аксиологик онтологизм – uning yordamida hayot qadriyat sifatida anglanadigan yuqori ratsional intuitsiyaning qadriyat manbai.

Ахлоқий қадриятлар – o'quvchining burch va shaxsiy majburiyatlari, uning pedagogik jarayonning subyeksi bo'lish huquqi, bilimlarni egallashdagi axloqiy rag'batlar va motivlar, vatanparvarlik va fuqarolik, mehnat va boshqa kishilarning mehnatini hurmat qilish.

Бadiiy қадриятлар – san'at durdonalari bo'lib, insonda estetik hissiyotni uyg'otadi, uni estetik jihatdan tarbiyalaydi. Badiiy

qadriyat – mana shu qadriyat mezonlari talablariga javob beruvchi san’at asari, uning asosida go’zallik o’zining ko’plab ko’rinishlarida asosiy mezonlar belgisi hisoblanib, unda estetik va badiiy qadriyatlar ma’lum nisbatlarda bo’ladi.

Vositali qadriyatlar – pedagogik muloqot, texnika va texnologiya, monitoring, innovatika, intuitsiya tizimi.

Dialektik materialistik – qadriyatlar tizimiga jamiyatning tarixiy, iqtisodiy, ijtimoiy rivoji nuqtai nazaridan qaraydigan nazariya.

Diniy qadriyatlar – yolg’iz diniy qoidalar, ko’rsatmalar, tamoyillaridan iborat bo’libgina qolmay, u kishilar o’rtasidagi ma’naviy-ahloqiy, siyosiy, iqtisodiy, huquqiy va boshqa munosabatlarning ham ifodasidir.

Ijtimoiy kontsepsiya – ijtimoiy umumiylik bilan bog’liqlikdagi qadriyatning nisbiyligini asoslashga doir nazariya.

Ijtimoiy-siyosiy qadriyatlar – ta’limning hamma uchun ochiqligi va bepulligi, millatidan qat’iy nazar, barcha fuqarolarning bilim olishdagi teng huquqliligi, o’quvchilarni va ota-onalarning ta’lim muassasasini tanlash erkinligi.

Ijtimoiy-pedagogik qadriyatlar – turli ijtimoiy tizimlarda ish olib boruvchi va ijtimoiy ongda namoyon bo’luvchi qadriyatlarning tavsifi va mazmunini aks ettiradi. Bu ta’lim sohasidagi jamiyat faoliyatini tartibga soluvchi g’oyalar, tushunchalar, me’yorlar, qoidalar, an’analar majmuidir.

Intellektual qadriyatlar: bilishga ehtiyoj, bilishga qiziqish va faollik, o’quvchilarning ijodiy faoliyati, fikrning go’zalligi va so’z bilish faoliyati vositasi sifatida.

Kasbiy-pedagogik faoliyatga doir qadriyatlar – o’qituvchi-tarbiyachini mehnat qilishga chorlash, tanlagan kasbiga mas’uliyat bilan yondashuv, pedagogning mahorati, uning izlanishli-tadqiqotchilik, innovatsion faoliyati, kommunikativ qobiliyati, o’quvchilar bilan muloqotdagi ijobiylik, pedagogik mahorat.

Maqsadli qadriyatlar – shaxsiy Men va kasbiy Men yig’indisidagi bo’lg’usi o’qituvchining shaxsiy kontsepsiyasi.

Ma'naviy qadriyatlar shaxsni axloqiy shakllantirishning asosiy omili bo'lib, ular ilmiy-texnikaviy va intellektual, maorif, ta'lim-tarbiya, tibbiy xizmat, milliy meros, turli shakllarda namoyon bo'ladigan madaniyat durdonalari, til, adabiyot, san'at, xalq hunarmandchiligi mahsulotlari, noyob tarixiy va madaniy me'morchilik va hokazolar hisoblanadi.

Mehnat qadriyatlari – tabiat bilan uyg'unlikda yashash, undan ibrat olish, uning go'zalliklaridan zavqlanish va tabiat qo'ynida mehnat qilish kabilarni tashkil etadi. Mehnat qadriyatlari – mehnat madaniyatining barcha elementlarini qamrab oladi.

Milliy qadriyatlar – millatga mansub bo'lgan umumjahon taraqqiyoti qonuniyatlaridan biri hisoblanadi. Milliy qadriyatlar – o'z millatidan, o'z yurtidan faxrlanish, o'zbek davlati fuqarosi ekanligidan g'ururlanish kabilardir.

Munosabatlil qadriyatlar – pedagogik jarayon ishtirokchilarining munosabati, kasbiy-pedagogik faoliyatga munosabat.

Obyektiv-idealistik nazariya (neokantchilik, neotomizm, intivituizm) qadriyatni zamon va vaqtdan tashqaridagi narigi dunyodagi mavjudlik sifatida talqin etadi.

Pedagogik aksiologiya inson va ta'limni qadriyat deb e'tirof etgan holda, ta'limiy qadriyatlarni muhokama etuvchi hamda ta'limga qadriyatli yondashuvni amalga oshiruvchi pedagogik bilimlar sohasidir. Pedagogik aksiologiyaning predmetini shaxsning qadriyatli ongi, qadriyatli munosabati, qadriyatli xulq-atvorini shakllantirish tashkil etadi.

Pedagogik aksiologiyaning ilmiy jihati (aspekt) boshqa barcha ijtimoiy jarayonlarni aniqlab beruvchi, asosiy qadriyat sifatida ta'limni ko'rib chiqish asosida ta'limiy qadriyatlarni o'rganuvchi pedagogikaning yangi ilmiy yo'nalishi – pedagogik aksiologiyaning muammolari bo'yicha ilmiy tadqiqotlar o'tkazishni talab etadi.

Pedagogik aksiologiyaning amaliy jihati o'quv rejalari va dasturlari tuzish, darslik va o'quv qo'llanmalarni yaratish, didaktik va metodik materiallarni ishlab chiqish, ta'lim va tarbiya

kontseptsiyasini yaratishda ta'lim sohasi xodimlarining aksiologik bilimlardan foydalana olishini tahlil etadi.

Pedagogik aksiologiyaning tajribaviy (praktik) jihati o'quvchi, talaba, o'qituvchilarning qadriyatli ongi, munosabati, xulq-atvorini shakllantirish, ularni qadriyatli yo'nalganligini rivojlantirishga doir aniq muammolarini hal etishga qaratilgan ta'lim muassasalari faoliyatini o'z ichiga oladi. Ularning vazifasi hozirgi vaqtda pedagogik aksiologiya nimani taqozo etsa, shularning barchasidan mohirona foydalanishni o'zida aks ettira olishdir.

Siyosiy qadriyatlar demokratiya, yoki siyosiy jarayon bo'libgina qolmay, shu bilan birga xalqning turmush tarzi va uning bugungi ruhiyati, an'analari, madaniyati, psixologiyasining xususiyatlarini ifoda etadi.

Subyektiv-idealistik nazariya (mantiqiy pozitivizm, fenomenologiya, emotovizim, etikadagi lingvistik tahlil, U.Erban, D.Proll, L.Lyuis va boshqalarning asab-iroda qadriyat nazariyasi) qadriyatni ong hodisasi sifatida talqin etadi, unda baholanayotgan obyektga insonning subyektiv munosabati, psixologik kayfiyatining namoyon bo'lishini ko'radi.

Tarbiyaviy qadriyatlar deganda esa, ijobiy tarzdagi obyektiv-ijtimoiy shart-sharoitlar, munosabatlar orqali tarbiyalanuvchi shaxsiga samarali ta'sir ko'rsatuvchi moddiy va ma'naviy voqelik tushuniladi.

Ta'lim falsafasi – ta'lim mohiyati, uning rivojlanish qonuniyatlarini ochib berishga doir muammolar bilan shug'ullanuvchi bilim sohasi; ta'limning falsafiy nazariyasi sifatida ta'limning rivojlanish masalalarini ko'rib chiquvchi turli yo'nalishlar yig'indisi.

Ta'lim falsafasi tarixi tushunchasi XX asming 60-yillarida R.Piters tomonidan ta'lim asosi sifatidagi asosiy manbalar: Madaniyat, Jamiyat, Individga asoslanib qabul qilingan.

Turmush qadriyatlari – tarixan muayyan ijtimoiy munosabatlar uchun xos bo'lgan hayot va faoliyat shakllari tizimi bo'lib, ular bevosita hayot sharoitlarini, o'ziga xos xususiyatlarni

ifodalaydi. Odamlarning xulq-atvori, yurish-turishi, muomalasi va tafakkur tarzi orqali namoyon bo'ladi.

Umummadaniy qadriyatlar tufayli xiyobonlar, sayilgohlar, o'yingohlar, tomoshagohlar, san'at saroylari, ziyoratgohlar, maktablar, madrasalar, kutubxonalar, madaniyat markazlari kabi muassasalarda xalqaro ahamiyatga ega bo'lgan nufuzli tadbirlar, turli millat xalqlarini birlashtirgan anjumanlar tushuniladi.

Umuminsoniy qadriyatlar bu millatni, elatni tashkil qiluvchi kishilarning milliy madaniyatini, merosini, qadriyatlarini, urf-odatlarini, an'analarni o'zlashtirishdagi faoliyatini rivojlantirish bo'lib, u milliy ong va milliy o'zlikni anglashning subyektidir.

Qadriyat – voqelikdagi muayyan hodisalarning, umuminsoniy, ijtimoiy-axloqiy, madaniy-ma'naviy ahamiyatini ko'rsatish uchun qo'llaniladigan falsafiy-sotsiologik va aksiologik tushuncha.

Qadriyatlar – jamiyatda kishilar o'rtasida obro'ga, e'tiborga, hurmatga, nufuzga, ahamiyatga ega kishilar, munosabatlar, holatlar, moddiy narsalar va ma'naviy boylıklar majmuasi.

Qadriyatli ustanovka – shaxsning o'z ichki pozitsiyasini anglashi va aniq qadriyatlar bilan bog'liqlikda faoliyatga tayyorlik darajasi.

Qadriyatli yo'nalganlik shaxs yo'nalganligining mazmunli tomonini, uning borliqqa munosabatini aks ettiradi. Shu bilan birga, qadriyatli yo'nalganlik subyekt uchun shaxsiy ahamiyatga ega ijtimoiy qadriyatlar bilan bog'liqlikda atrof-borliqqa subyektning bahosi sifatida qaraladi.

Qadriyatning naturalistik nazariyasi (qiziqishlar nazariyasi, tadrijiy etika, kosmik teologik etika) qadriyat ostida inson tabiiy ehtiyojlari, yoki yaxlitlikda tabiat qonunlarining aks etishini ko'radi. Masalan, qiziqishlar nazariyasi tarafdorlari narsa-hodisalarning qimmatini insonning unga qiziqishidan kelib chiqib belgilaydi (R.Peri, D. Parker (AQSh), F. Tennant (Angliya)).

Huquqiy qadriyatlar – bu jamiyat va madaniyat, davlat va huquq yo'nalishlarini o'zida mujassam etib, har bir kishida huquqiy bilim, tafakkur va dunyoqarashni shakllantiradi. Tenglik, erkinlik,

birodarlik, xalqlar va millatlararo do'stlik, insonning o'z xohish-irodasini erkin bildirishi hamda uni amalga oshirishi, barcha fuqarolarning teng huquqliligi, davlat va jamiyat boshqaruvida qonun ustunligi – huquqiy qadriyatlar hisoblanadi.

Shaxsiy-pedagogik qadriyatlar ijtimoiy-psixologik ta'lim sifatida yuzaga chiqib, ularda o'qituvchi shaxsining maqsadlari, motivlari, ideallari va boshqa dunyoqarashga oid xususiyatlari aks etadi.

**«PEDAGOGIK AKSIOLOGIYA» FANIDAN TEST
SAVOLLARI**

1. Inson va ta'limni qadriyat deb e'tirof etgan holda, ta'limiy qadriyatlarni muhokama etuvchi hamda ta'limga aksiologik yondashuvni amalga oshiruvchi pedagogik bilimlar sohasi nima deb ataladi?

- A) Pedagogik prognostika.
- V) Pedagogik valeologiya.
- S) Pedagogik aksiologiya.
- D) Pedagogik antropologiya.

2. Pedagogik aksiologiyaning predmeti qaysi qatorda to'g'ri ko'rsatilgan?

- A) Shaxsning aksiologik ongi, aksiologik munosabati, aksiologik xulq-atvorini shakllantirish.
- V) Aksiologik muammolarga doir nazariy manbalardagi qadriyat tushunchasining mohiyatini tahlil etish.
- S) Shaxsning atrof-muhitga, o'z-o'ziga munosabati.
- D) Qadriyatlar nazariyasi nuqtai nazaridan pedagogika nazariyasi va ta'lim amaliyotining tarixiy rivojini tahlil etish.

3. Pedagogik aksiologiya mazmunida qanday aspektlar aks etadi?

- A) Me'yoriy, boshqaruvga doir, pragmatik.
- V) Eklektik, metafizik, sinergetik.
- S) Ilmiy, amaliy, tajribaviy.
- D) Barcha javoblar to'g'ri.

4. Quyidagilar orasidan pedagogik aksiologiyaning asosiy tushunchalari qatoriga kirmaydiganlarini aniqlang: 1) qadriyat; 2) aksiologik ong; 3) aksiologik dunyoqarash; 4)

aksiologik baholash; 5) aksiologik munosabat; 6) qadriyatli xulq-atvor; 7) qadriyatli ustanovka; 8) aksiologik yo'nalganlik; 9) pedagogik texnika; 10) intuitsiya; 11) bilish jarayoni; 12) identiv maqsadlar.

- A) 1,3,8,12 V) 4,6,10,11 S) 2,5,9, 11
D) 9,10,11,12

5. Keng ma'noda ong deganda nima tushuniladi?

- A) Faqat insonga xos obyektiv borliqni aks ettirishning oliy shakli.
V) Insonning obyektiv dunyo va shaxsiy hayoti mazmunini anglashida faol ishtirok etuvchi psixik jarayonlar birligi.
S) Bevosita aloqasiz xilma-xil faoliyat turlariga kirishish.
D) Inson hayotining muammosi va ijtimoiy jarayonlarning muammoliligini aks ettirish usullari.

6. Falsafada ongning qanday turlari ajratib ko'rsatiladi?

- A) Shaxs ongi va individ ongi.
V) Ong osti va ongsizlik.
S) Ijtimoiy ong va individ ongi.
D) To'g'ri javob berilmagan.

7. Insonning subyektiv dunyosiga nimalar kiradi?

- A) Bilim, dunyoqarash, odat, malaka.
V) Tasavvur, tushuncha, bilim.
S) Ijtimoiylashuv, axloqiylik, estetik ehtiyoj.
D) Maqsad, hissiyot, iroda, ehtiyoj.

8. Tabiat va ijtimoiy hodisalarni baholashda qanday tushunchalardan foydalanish mumkin?

- A) «Fenomenologik», «kosmik», «teologik».
B) «Falsafiy», «sotsiologik», «ilohiy».
S) «Yaxshilik», «ezgulik», «haqiqat», «foydali».
D) «Nominal», «obyektiv», «subyektiv», «ideal».

9. U tufayli inson barcha yomon xislat, yomonlik va yovuzliklardan qutilishi mumkin bo'lgan qadriyatning nomini aniqlang.

- A) Iroda.
- V) So'z.
- S) Mehnat.
- D) Muhabbat.

10. Tasavvuf ta'limoti asosida shakllanib, bugungi kunda milliy g'oyaning asosiy tushunchasiga aylangan qadriyat qanday ataladi?

- A) Vatan ravnaqi.
- V) Yurt tinchligi.
- S) Xalq farovonligi.
- D) Komil inson.

11. Insonning bilimlarni egallashi; o'zida hissiy va ma'naviy ehtiyojlar orasidan keraklilarini tanlab olishida qanday sifat muhim rol o'ynaydi?

- A) Bilishga qiziqish.
- V) Iroda.
- S) Mehnatsevarlik.
- D) Oliyjanoblik.

12. «Bilim olishga intilish davlat ravnaqiga yo'l demakdir» aksiomasi qaysi olim tomonidan ilgari surilgan?

- A) Mirzo Ulug'bek.
- V) Abu Nasr Forobiy.
- S) Abu Ali ibn Sino.
- D) Abu Rayhon Beruniy.

13. Ta'limning davlat – jamiyat – shaxs rivojida integratsiyasini o'z qarashlarida ochib bergan olimlarga kimlar kiradi?

- A) Yusuf Hamadoniy, Xoja Hasan Andoqiy, Xoja Ahmad Yassaviy.

- V) Abu Nasr Forobiy, Alisher Navoiy, Jaloliddin Davoniy.
S) Xoja Abdulloh Barraqiy, Abu Ali ibn Sino, Bahovuddin Naqshband.
D) Munavvar Qori Abdurashidxonov, Abdulla Avloniy, Hamza Hakimzoda Niyoziy.

14. «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi»da ta'limning oliy qadriyati sifatida nima e'tirof etilgan?

- A) Bilim.
V) Fan.
S) Shaxs.
D) Uzluksiz ta'lim.

15. «O'rxun-Enasoy» bitiklarida qanday qadriyatli tasavvurlar aks ettirilgan?

- A) Bolalarni vatanparvar, xalqparvar, baynalmilal, tadbirkor, uddaburon, oqil qilib tarbiyalash, yo'l qo'yilgan xatolarni takrorlamaslik.
V) Qo'ni-qo'shnilarga yaxshilik qilish, faqat o'z manfaatini o'ylamaslik, o'zgalar manfaati uchun ham harakat qilish.
S) Bilimliik, kasb-hunarga ega bo'lish, axloqiylik, shirinsuxanlik, vafodorlik.
D) Tejamkorlikning ahamiyati, isrofgarchilikning oldini olish, sihat-salomatlikni saqlash.

16. O'rta asrlarda O'rta Osiyoda mavjud bo'lgan qaysi ta'lim muassasalarida dunyoviy ilmlar o'rganilib qolmay, balki ilmiy-tadqiqotlar ham olib borilgan?

- A) Daloilxonalarda.
V) Otinoyilar maktabida.
S) Qorixonalarda.
D) Madrasalarda.

17. Ijtimoiy ongning maxsus shakli bo'lib, pedagogik voqelik va hayotni qadrlash tuyg'usi asosida o'ziga xos tarzda aks etadigan tushuncha nima deb ataladi?

- A) Aksiologik ong.
- V) Aksiologik baholash.
- S) Aksiologik dunyoqarash.
- D) Aksiologik munosabat.

18. Aksiologik bilishda qanday unsurlar muhim rol o'ynaydi?

- A) Aksiologik xulq-atvor va iroda.
- V) Qadrlash tuyg'usi va aksiologik idrok.
- S) Aksiologik hissiyot va kechinmalar.
- D) Aksiologik tushuncha va aksiologik tafakkur.

19. Ijtimoiy dunyoqarashning o'ziga xos tarkibiy qismlaridan biri bo'lib, kishilarning voqelikka qadriyatli munosabati va faoliyatining yo'nalishini belgilaydigan aksiologik qarashlar, tamoyil va maslaklar majmuasi nima deb ataladi?

- A) Aksiologik dunyoqarash.
- V) Aksiologik yondashuv.
- S) Aksiologik bilish.
- D) Aksiologik ong.

20. Qadriyat qaysi tushunchalar bilan yaqin turadi?

- A) Ong va substantsiya.
- V) Ijtimoiylashuv va individuallashuv.
- S) Ahamiyat va baho.
- S) Mo'tadillik va intuitsiya.

21. Qaysi qatorda aksiologik munosabatga to'g'ri ta'rif berilgan?

- A) Shaxsiy va ijtimoiy ahamiyatlilikning o'zaro aloqadorligini aks ettiruvchi shaxsning ichki pozitsiyasi.

V) Voqelikka, undagi narsa va hodisalarga nisbatan qadriyatli munosabat hamda ularni qadrlash tuyg'usi asosida shakllangan hukm va xulosalar.

S) Shaxsning o'z ichki pozitsiyasini anglashi va aniq qadriyatlar bilan bog'liqlikda faoliyatga tayyorlik darajasi.

D) O'zlashtirilgan qadriyatlar asosida shaxsni o'zgartirish, shaxsning o'z-o'zini loyihalay va o'z-o'zini bashorat qila olishi.

22. Voqelikka, undagi narsa va hodisalarga nisbatan qadriyatli munosabat hamda ularni qadrlash tuyg'usi asosida shakllangan hukm va xulosalar qaysi tushuncha orqali ifoda etiladi?

A) Aksiologik ustanovka.

V) Aksiologik munosabat.

S) Aksiologik bilish.

D) Aksiologik baho.

23. Pedagogik voqelikni aksiologik baholash istalgan ijtimoiy voqelikni baholashdan qanday o'ziga xos jihati bilan farq qiladi?

A) Voqelikning namoyon bo'lish shakllarining iqtisodiy qiymatini aniqlash.

V) Subyekt ma'naviy olami uchun qanday ahamiyat kasb etishini aniqlash.

S) Ta'lim oluvchi shaxsga qadriyat nuqtai nazaridan yondashuv ustuvor bo'lishi.

D) To'g'ri javob yo'q.

24. Shaxsning o'zining ichki pozitsiyasini anglashi va aniq qadriyatlar bilan bog'liqlikda faoliyatga tayyorgarlikning mavjudligi nima deb ataladi?

A) Aksiologik dunyoqarash.

V) Aksiologik ustanovka.

S) Aksiologik ong.

D) Aksiologik baholash.

25. Qadriyatli orientatsiyaning bir-biriga tutash qanday fazalari mavjud?

- A) Shaxsiy qadriyatlarni o‘zlashtirish.
- V) O‘zlashtirilgan qadriyatlar asosida shaxsni o‘zgartirish.
- S) Shaxsning o‘z-o‘zini loyihalay va o‘z-o‘zini bashorat qila olishi
- D) Barcha javoblar to‘g‘ri

26. Shaxs motivatsion-qadriyatli munosabatining oliy mezon sifatida namoyon bo‘ladigan tushunchani aniqlang.

- A) Bilish.
- V) Ustanovka.
- S) Orientatsiya.
- D) Axloqiy ideal.

27. Ma’naviy qadriyatlar qay holatda inson ehtiyoji obyektiga aylanadi?

- A) Inson o‘z faoliyati maqsadini aniq shakllantira olsa.
- V) Mazmunan shaxs faoliyati va hulq-atvorini tashkillashtirsa.
- S) Tarbiya ularning interiorizatsiyasi jarayoni sifatida tashkil-lashtirilsa.
- D) Shaxs tomonidan baholash va o‘zlashtirish zaruriyatini uyg‘otsa.

28. Quyidagi fikrni ifodalashga xizmat qiluvchi so‘zni toping: «Faoliyatning yangi obykti (O 1) yangi ehtiyojga (E 2)ga aylanadi»

- A) Interiorizatsiya.
- V) Eksteriorizatsiya.
- S) Ehtiyoj.
- D) Motivatsiya.

29. Ijtimoiy qadriyatlar inteorizatsiyasida qaysi psixologik jarayon muhim rol o‘ynaydi?

- A) Ong.
- V) Iroda.
- S) Idrok.

D) Hissiyot.

30. «Aksiologiya» tushunchasini fanga kiritgan olimlar qaysi qatorda to'g'ri ko'rsatilgan?

A) E.Gartman va P.Lapi.

V) I.T.Frolova va V.E.Kemerov.

S) O.Tohirov, B.Ochilova.

D) Q.Nazarov, N.Jo'raev.

31. Aksiologik ong, qadrlash tuyg'usi, aksiologik bilish, qadriyatli yondashuv va boshqalar asosida to'plangan qadriyatlar to'g'risidagi bilimlar sistemasi nima deb ataladi?

A) Qadriyat.

V) Aksiologiya.

S) Akmeologiya.

D) Numizmatika.

32. Inson va insoniyat uchun ahamiyatli bo'lgan millat, elat va ijtimoiy guruhlarning manfaatlari va maqsadlariga xizmat qiladigan va shu tufayli ular tomonidan baholanib, qadrlanadigan tabiat va jamiyat ne'matlari hodisalari majmui nima deb ataladi?

A) Me'yor.

V) Axloq.

S) Qadriyat.

D) Xulq.

33. Shaxsni axloqiy shakllantirishning asosiy omili bo'lib, ular ilmiy-texnikaviy va intellektual, maorif, ta'lim-tarbiya, tibbiy xizmat, milliy meros, turli shakllarda namoyon bo'ladigan madaniyat durdonalari, til, adabiyot, san'at, xalq hunarmandchiligi mahsulotlari, noyob tarixiy va madaniy arxitektura va hokazolarni o'zida ifoda etadigan qadriyatlar qanday ataladi?

A) Moddiy qadriyatlar.

V) Siyosiy qadriyatlar.

- S) Ma'naviy qadriyatlar.
- D) Diniy qadriyatlar.

34. Qaysi umum aksiologik qadriyatlar mamlakatimiz xavfsizligi, barqarorlik va millatlararo hamjihatlikni saqlash, kelajak avlodlarga obod va ozod Vatanni meros qoldirish mas'uliyatini oshirishga xizmat qiladi?

- A) Badiiy qadriyatlar.
- V) Milliy qadriyatlar.
- S) Umuminsoniy qadriyatlar.
- D) Siyosiy qadriyatlar.

35. Tenglik, erkinlik, birodarlik, xalqlar va millatlararo do'stlik, insonning o'z xohish-irodasini erkin bildirishi hamda uni amalga oshirishi, barcha fuqarolarning teng huquqliligi, davlat va jamiyat boshqaruvida qonun ustunligi kabilar qaysi qadriyatlarga tegishli?

- A) Huquqiy qadriyatlar,
- V) Diniy qadriyatlar,
- S) Umummadaniy qadriyatlar,
- D) Mutlaq qadriyatlar,

36. Qaysi umumaksiologik qadriyatlar tarixan muayyan ijtimoiy munosabatlar uchun xos bo'lgan hayot va faoliyat shakllari tizimi bo'lib, ular bevosita hayot sharoitlarini, o'ziga xos xususiyatlarni ifodalaydi?

- A) Mehnat qadriyatlari.
- V) Turmush qadriyatlari.
- S) Milliy qadriyatlar.
- D) Siyosiy qadriyatlar.

37. Barcha millat kishilari uchun muqaddas boylik bo'lib, ularni ezgulikka, poklikka da'vat etadigan qadriyatlar qanday ataladi?

- A) Badiiy qadriyatlar.

- V) Siyosiy qadriyatlar.
- S) Diniy qadriyatlar.
- D) Turmush qadriyatlari.

38. Millatparvarlik, xalqparvarlik, vatanparvarlik, mehnat-sevarlik, yuksak insoniylik, mehr-oqibat, iymon-e'tiqod, or-nomus, insof-diyonat kabi fazilatlar qanday qadriyatlar negizini tashkil etadi?

- A) Umuminsoniy qadriyatlar.
- V) Milliy qadriyatlar.
- S) Umummadaniy qadriyatlar.
- D) Jahon qadriyatlari.

39. Qanday qadriyatlar mazmunida u yoki bu san'at tili yordamida estetik mazmun va badiiy obrazda berilgan «go'zallik qonunlari bo'yicha» aks ettirilgan va qayta yaratilgan borliq aks etadi?

- A) Badiiy qadriyatlar.
- V) Huquqiy qadriyatlar.
- S) Tibbiy qadriyatlar.
- D) Milliy qadriyatlar.

40. Qadriyatni zamon va vaqtdan tashqaridagi narigi dunyodagi mavjudlik sifatida talqin etadigan kontseptsiya to'g'ri ko'rsatilgan javobni toping.

- A) Obyektiv-idealistik.
- V) Subyektiv-idealistik.
- S) Qadriyatning naturalistik nazariyasi.
- D) Transtsendental.

41. Qaysi aksiologik kontseptsiya qadriyatni ong hodisasi sifatida talqin etadi, unda baholanayotgan obyektga insonning subyektiv munosabati, psixologik kayfiyatining namoyon bo'lishini ko'radi?

- A) Ijtimoiy kontseptsiya.

- V) Dialektik materialistik.
- S) Subyektiv-idealistik.
- D) Aksiologik psixologizm.

42. Qadriyat ostida inson tabiiy ehtiyojlari yoki yaxlitlikda tabiat qonunlarining aks etishini ko'radigan nazariya qanday ataladi?

- A) Qadriyatning naturalistik nazariyasi.
- V) Dialektik materialistik.
- S) Aksiologik ontologizm.
- D) Aksiologik normativizm.

43. Qadriyatning manbai sifatida insonning subyektiv dunyosi – uning maqsadi, hissiyoti, irodasi, ehtiyoj va ustanovkasini ko'rib chiqadigan nazariya qaysi qatorda to'g'ri ko'rsatilgan?

- A) Ijtimoiy kontseptsiya.
- V) Dialektik materialistik.
- S) Subyektiv-idealistik.
- D) Aksiologik psixologizm.

44. Yuksak ezgulikning mohiyatini aks ettiruvchi birinchi qadriyatli tasnifni kim ishlab chiqqan?

- A) Suqrot.
- V) Aflotun.
- S) Demokrit.
- D) Geraklit.

45. Ishonch, Umid, Muhabbat kabi ma'naviy qadriyatlar qaysi davr aksiologik qarashlarni talqin etishda muhim rol o'ynaydi?

- A) Qadimgi Sharq.
- V) Qadimgi yunon-rum.
- S) O'rta asrlar.
- D) Barcha javoblar to'g'ri.

46. «Avesto» ta'limotida jismoniy va ma'naviy dunyo necha davrga bo'linadi?

A) To'rt.

V) Besh.

S) Ikki.

D) Uch.

47. So'fiylar inson ma'naviy-ruhiy komillikka erishish yo'lida necha bosqichni bosib o'tishi kerak deyishadi?

A) Etti.

V) Olti.

S) Besh.

D) To'rt.

48. Nazariy va amaliy bilish orasidagi «ko'prik» vazifasini nima bajaradi?

A) Aksiologik bilish.

V) Aksiologik baholash.

S) Aksiologik yondashuv.

D) Aksiologik ong.

49. Ta'lim mohiyati, uning rivojlanish qonuniyatlarini ochib berishga doir muammolar bilan shug'ullanuvchi bilim sohasi nima deb ataladi?

A) Pedagogika fani metodologiyasi.

V) Ta'lim falsafasi.

S) Pedagogik aksiologiya.

D) Neyropedagogika.

50. Ta'limning hamma uchun ochiqligi va bepulligi, millatidan qat'iy nazar, barcha fuqarolarning bilim olishdagi teng huquqliligi, o'quvchilarni va ota-onalarning ta'lim muassasasini tanlash erkinligi kabilar qaysi pedagogik qadriyatlarga tegishli?

A) Ijtimoiy-siyosiy qadriyatlar.

V) Intellektual qadriyatlar.

S) Bilishga doir qadriyatlar.

D) Kasbiy-pedagogik qadriyatlar.

51. Bilishga ehtiyoj, bilishga qiziqish va faollik, o'quvchilarning ijodiy faoliyati, fikrning go'zalligi va so'z bilish faoliyati vositasi kabilar qaysi pedagogik qadriyatlarni o'zida aks ettiradi?

A) Munosabatli qadriyatlar.

V) Sifat qadriyatlari.

S) Bilishga doir qadriyatlar.

D) Shaxsiy-pedagogik qadriyatlar.

52. Ijobiy tarzdagi obyektiv-ijtimoiy shart-sharoitlar, munosabatlar orqali tarbiyalanuvchi shaxsiga samarali ta'sir ko'rsatuvchi moddiy va ma'naviy voqelik nima deb ataladi?

A) Ta'limiy qadriyatlar.

V) Tarbiyaviy qadriyatlar.

S) Intellektual qadriyatlar.

D) Kasbiy-pedagogik qadriyatlar.

MUNDARIJA

SO‘Z BOSHI	3
I BO‘LIM.	
PEDAGOGIK AKSILOGIYANING MAZMUNI VA MOHIYATI	
I bob. Pedagogik aksiologiya – pedagogikaning mustaqil sohasi sifatida.....	5
II bob. Pedagogik aksiologiyaning asosiy tushunchalari: mazmun va mohiyati.....	11
III bob. Qadriyat g‘oyasi va uning umumiy aksiologiyadagi rivoji	26
II BO‘LIM.	
PEDAGOGIK AKSILOGIYANING NAZARIY-METODOLOGIK ASOSLARI	
IV bob. Asosiy aksiologik muammolar va ularning chet el pedagogik fikrlari taraqqiyotidagi rivoji.....	42
V bob. Qadriyat g‘oyasi va uning milliy falsafadagi rivoji.....	49
VI bob. Milliy pedagogikamizda aksologik fikrlarning rivojlanishi.....	89
VII bob. Pedagogik aksiologiyani tadqiq etishga doir metodologik yondashuvlar.....	103
III BO‘LIM.	
PEDAGOGIK AKSILOGIYANING SHAKLLANISHI VA RIVOJLANISH OMILLARI	
VIII bob. Jahon miqyosida va O‘zbekistonda ta’lim-tarbiya sohasini aksiologizatsiyalashning asosiy yo‘nalishlari.....	134
IX bob. O‘quvchilarda qadriyatlar tizimini shakllantirish....	145
Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati	156
Asosiy tushunchalarning izohli lug‘ati	163
«Pedagogik aksiologiya» fanidan test savollari	170

**SH.MARDONOV, B.XODJAYEV,
SH.TAYLANOVA, D.XOJIMUXAMEDOVA**

PEDAGOGIK AKSILOGIYA

(O'QUV QO'LLANMA)

Toshkent – «Fan va texnologiya» – 2013

Muharrir:	M.Hayitova
Tex. muharrir:	M.Holmuhamedov
Musavvir:	E.Majidov
Musahhih:	F.Ismoilova
Kompyuterda sahifalovchi:	N.Hasanova

**Nashr.lis. AIN№149, 14.08.09. Bosishga ruxsat etildi 12.09.2013.
Bichimi 60x84 ¹/₁₆. «Times Uz» garniturası. Ofset usulida bosildi.
Shartli bosma tabog'i 11,75. Nashr bosma tabog'i 11,5.
Tiraji 500. Buyurtma №116.**

**«Fan va texnologiyalar Markazining bosmaxonasi» da chop etildi.
100066, Toshkent shahri, Olmazor ko'chasi, 171-uy.**



FAN VA
TEKNOLOGIYALAR

